



FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

"Filologiya va pedagogika"
ilmiy-metodik jurnali
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi
365/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va
13.00.00 – Pedagogika fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2025-yil
2 (6)-son

e-ISSN 3060-4885

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu sonda

Joy nomlarining
shakllanishida
tilshunoslikka oid
omillar

27
bet

Трансформация
фольклорных сюжетов
в романе А.Рубанова
«Финист ясный сокол»

52
bet

Margaret Etvudning
distopiya janri
taraqqiyotidagi roli

61
bet

Nofilologik yo'nalishlarda
tahsil olayotgan
talabalarning ingliz tilida
gapirish ko'nikmasini
podkastlar orqali
rivojlantirish

121
bet



O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

2025-yil
2 (6)-son

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MAS'UL MUHARRIR
Shahobiddin Rasulov

MUHARRIRLAR:
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova
Nargiza Sotvoldiyeva
Muxlisa Do'stmuhamedova

SAHIFALOVCHI
Gulnoza Valiyeva

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 25.02.2025 da
nashr etildi.

MUASSIS
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА
ИЗДАНИЕ
LANGUAGE AND LITERATURE
JOURNAL

TAHRIR HAY'ATI:

Hilola Umarova

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Farhod Boqiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

Azizbek Turdiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri maslahatchisi

Farrux Jabborov

*"Til va adabiyot ta'limi" - "Преподавание языка и литературы" -
"Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri*

10.00.00 - FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev

*Toshkent Amaliy fanlar universi-
teti tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori*

Baxtiyor Doniyorov

*Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Nurafshon filiali
professori, filologiya fanlari
doktori*

Anatoliy Lixodziyevskiy

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Oksana Gibraltarskaya

*O'zbekiston Milliy universiteti
professori, filologiya fanlari
doktori*

Sherzod Atamuradov

*filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Ranusha Atayeva

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti katta
o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

13.00.00 - PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

*Alisher Navoiy nomidagi Tosh-
kent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

Gulnora Mansurova

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori*

Xadicha Muxitdinova

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

G'ofir Hamroyev

*Toshkent Amaliy fanlar universi-
teti tadqiqotchi-professori,
pedagogika fanlari doktori*

Sevara Ziyayeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Indira Narkulova

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti katta
o'qituvchisi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil
30-noyabrda 364/5-qarori bilan 10.00.00 - Filologiya va 13.00.00 - Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*



M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Elbek Jumanov. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi g‘azallarda ajdar obrazining badiiy talqinlari.....	4
Dildora Yorbulova. Cho‘lpon ijodida Navoiyga ehtirom.....	6
Shaxboz Mustafayev. Virtual muloqotning ijtimoiy-pragmatik jihatlar va konstitutiv belgilari.....	8
Sitora Suxanberdiyeva. Adabiyot darslarida “hamma ishonadigan yolg‘onlar”ga qarshi turish immunitetini shakllantirish.....	10
Рано Батырова. Специфика образа Манюни в романе Наринэ Абгарян “Манюня”.....	12
Лола Бекмирзаева. Единство судеб человека и природы.....	15
Feruz Tairova. Artistic discussion: considering the term from a linguo-aesthetics perspective.....	17
Nilufar Zokirova. Mother. Archetypal Image in a Magical Tale.....	22
Nargiza Mirzaliyeva. Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos jihatlar.....	24
Oybek Gadayev, Dilshoda Normamatova. Joy nomlarining shakllanishida tilshunoslikka oid omillar.....	27
Lobar Mardonova. Romanlar turkumida Sohibqiron shaxsi: muhit, tarbiya va buyuk shaxsning shakllanishi.....	30
Санобар Уллиева. Роль языковых единиц в создании художественного образа.....	32
Зебинисо Райхонова. Значение устойчивых фразеологических сочетаний с гастрономическим компонентом в словаре В.И. Даля.....	34
Умида Гафурова. Этапы и направления развития американской литературы.....	37
Rafiqjon Zaripov. Neyrolingvistikaning fanlararo xususiyati. Miya va til o‘rtasidagi munosabatlarga oid turlicha qarashlar.....	40
Наталья Исмадова. Образ автора в историческом романе Еремея Парнова “Атлас Гурагона”.....	42
Нигина Худайбергенова. Константа архетипической модели в знаковом тексте, нацеленной на развитие критического мышления студентов.....	44
Диана Канатаева. Навои – смотрящий в вечность.....	47
Ольга Ким. Яйра Махматкулова. Лингвокультурологический подход к исследованию словообразовательных процессов.....	49
Вероника Маткурбонова. Трансформация фольклорных сюжетов в романе А.Рубанова “Финист ясный сокол”.....	52
Дилрабо Убайдова. Михаил Васильевич Ломоносов – великий русский лингвист.....	55
Feruzaxon Muratxodjayeva. Kognitiv tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning ahamiyati.....	57
Oyguil Axmedova. O‘zbek xalq termalarida an‘ana va badihago‘ylik masalasi.....	59
Durdona Kadirova, Nargiza Mahmudova. Margaret Etvudning distopiya janri taraqqiyotidagi roli.....	61
Zavqiyjon Fayzullayev. Turkiy pandnomalar haqida ba‘zi mulohazalar (Asriy Tabriziyning “Pandnomayi Asriy” asari misolida).....	64
Sardor Sherkulov. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida adabiy ta‘sir tadqiqi.....	67
Xurshida Nishonova. She‘riyatda poetik obraz tabiati.....	69
Ruxsora Imomova. Abdurauf Fitrat va Turkiyada Sarvati Funun davri adabiyoti.....	71
Feruz Ahmedova. Ingliz va o‘zbek maqollarida “matonat” tushunchasining ifodalanishi.....	76
Nigina Berdikulova. Yapon tilidagi 「二字熟語 (niji jukugo) juft iyerogliflarining leksik xususiyatlari va o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari.....	78
Zulayho To‘ychiyeva. Islomiy leksikografik lug‘atlar.....	80
Mushtariybonu Maxammadjonova. “Motam” assotsiativ maydoniga kiruvchi leksemalarning assotsiativ munosabati (O‘tkir Hoshimovning “O‘zbeklar” hikoyasi misolida).....	83
Diyora Yodgorova. O‘zbek tili va arab tili fonetikasi: harflar sifati va qiyosiy tahlil.....	85
Anajon Avezova. Antroponimlarning sintaktik usulda yasalishi.....	87
Malika Rustamova. O‘zbek va italyan tillaridagi frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari.....	89
Jamoliddin Temirov. Maxmur ijodida ishqiy mavzu tahlili.....	91
Dilorom Xamidova. Luqmon Bo‘rixon romanlarida badiiy tilning ifodalanishi.....	93



Anaxon Botirova. Badiiy obraz yaratish mahorati (Pirimqul Qodirovning "Uch ildiz" romani misolida)	96
Nuriya Abdullayeva. Xitoy va o'zbek tillarida so'z qo'llanilishida fonovariativlik: funksional, semantik va stilistik jihatlari	98
Muqaddam Toshmatova. Fitrat – xalq poetik ijodi janrlari tadqiqotchisi	100
Rafiqjon Zaripov. Kommunikativ akt modellari	102

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Agabek Atayev. Aqliy potensial va unutilgan qobiliyatlar	105
Надежда Цай. Совершенствование профессионально-педагогической и психологической подготовки работников системы непрерывного образования	107
G'ofur Allamuratov. Bo'lg'usi psixologlarning lingvokognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning motivatsion yondashuvga asoslangan modeli	110
Максим Чиков, Диляра Зарипова. Методика преподавания РКИ носителям узбекского языка с использованием языковых закономерностей различных уровней	112
Muqaddasxon Ergasheva. Boburning "Xazon yarrog'i" g'azalini tahlil qilish usuli	117
Барно Атаджанова. Использование инновационных методов обучения и цифровых технологий при изучении иностранного языка в медицинском вузе	119
Nilufar Abdanbekova. Nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalarning ingliz tilida gapirish ko'nikmasini podkastlar orqali rivojlantirish	121
Феруза Мамадалиева. Коммуникативный подход в методике и использовании языка специальности	123
Zuxra Narbekova. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida kasbiy malaka ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy talablar	126
Савлат Гафурова, Мохчехра Абдусаломова. Педагогическая практика в системе профессиональной подготовки	129
Веғ'убор Abdullayeva. Navoiyshunoslik fanini o'qitishning integratsiyalashgan metodikasi	131
Адина Джанабаева. Проблема формирования методической компетентности у будущих преподавателей иностранных языков	133
Дилфуза Умарова. Глаголы движения в русском языке и особенности их преподавания в узбекской аудитории	135
Ольга Милютина. Приемы активизации деятельности студентов при усвоении сложноподчиненных предложений с омонимичными средствами связи частей	138
Нигина Мирзаева. Антропоцентрические пословицы в языке и культуре: как обучать через мудрость народов	141
Анжелла Бабаева. Виртуальные экскурсии в образовании: современный подход к оптимизации процесса обучения	145
Ayshe Aliyeva. Classification and categorization of compound terms in the English Language Teaching (ELT)	147
Abdumurod Nomozov, Nilufar Shavvozova. Amaliy ishlar nazariy bilimlarni shakllantirishning eng samarali vositasi	151
Shahnoza Rustamova, Munisa Mukhamatkulova. Student-centered language learning: enhancing outcomes with a self-assessment framework	154
Ozodjon Uralov. Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati	158



Elbek JUMANOV,

*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

“G'AROYIB US-SIG'AR” DEVONIDAGI G'AZALLARDA AJDAR OBRAZINING BADIY TALQINLARI

Annotatsiya. Maqolada “G'aroyib us-sig'ar” devonidagi g'azallarda keltirilgan ajdar obrazining genezisiga doir ma'lumotlar qayd etilgan. Shuningdek, turli xalqlar mifologiyasidagi afsonaviy qahramon tavsifining she'riy asarlar badiiyatidagi o'рни batafsil yoritilgan. Ushbu mulohazalarni Navoiy lirikasi tadqiqidagi o'ziga xos yangilik sifatida baholash mumkin.

Kalit so'zlar: Navoiy, lirika, g'azal, ajdar, mifologik obraz, kult.

Annotation. The article provides information about the genesis of the image of dragons in the ghazals of the devan “Garayib us-sigar”. The role of the description of mythical heroes from the mythology of different peoples in the creation of poetic works is considered in detail. These considerations can be assessed as a unique innovation in the study of Navoi's lyrics.

Keywords: Navoi, lyric, ghazal, dragon, mythological image, cult.

Аннотация. В статье приводятся сведения о генезисе образа драконов в газелях дивана “Гарайиб ус-сигар”. Подробно рассматривается роль описания мифических героев из мифологии разных народов в создании поэтических произведений. Эти размышления можно оценить как уникальное новаторство в изучении лирики Навои.

Ключевые слова: Навои, лирика, газель, драконы, мифологический образ, культ.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g'azallarda “ajdar” (“ajdaho”) leksemasidan 35 marotaba foydalanilgan. Xususan, “G'aroyib us-sig'ar” devonining 7 ta, “Navodir ush-shabob” to'plamining 14 ta, “Badoe' ul-vasat”ning 9 ta, “Favoyid ul-kibar”ning 4 ta g'azalida ushbu mifologik obraz nomiga duch kelamiz. Jumladan, “G'aroyib us-sig'ar” devonidan o'rin olgan g'azallarda afsonaviy maxluq tafsifi keltirilgan shunday baytlar uchraydi:

*Borg'ali ul husn ganji g'am buzug' ko'nglumdadur,
Ajdaho uyi bizing vayrona bo'ldi oqibat [1].*

Ya'ni ishvali xazina sari otlangan kishining ko'ngil ham ajdaho uyiga aylangan. Zero dunyo moli va uning hoy-u havaslariga ko'ngil qo'yish nafs qutqusining alanga olishiga olib keladi. Mumtoz she'riyatda ajdarga o'xshatilgan soch yor jamolini yashiruvchi timsol sifatida foydalanilgan misralar ham talaygina. Binobarin, bu o'rinda lirik qahramon qalbini Olloh vasli emas, balki bu dunyodagi rohat-farogat hirs chulg'ab olgan.

*Shujoat birla kirmak kulbayi faqr ichra bo'lmaskim,
Bu vayronni qila olmas vatan har ajdaho gustox [1].*

Faqirlik kulbasiga kirish, ya'ni chin oshiqlik maqomiga har kim ham munosib bo'la olmaydi. Buning uchun solik avvalo gustox ajdar – o'z nafi ustidan g'alaba qozonmog'i shart. Zero qudsiy hadisda aytilganidek, “Kimki o'z nafsini tanigan bo'lsa, muhaqqaq, u o'z Rabbini taniydi”.

*Mehnat o'tidin yoruqtur har taraf koshonamiz,
Bo'ldi go'yo ajdaho komi bizing vayronamiz [1].*

Bu baytda esa haqiqiy hijron – Tangri yodidan bebahrlikda qolgani bois mashaqqatlar girdobiga tushgan insonning ruhiy qiynoqlari tasvirlangan. U chekkan otashin ohlar ajdar nafasidagi olov yanglig' ko'ngil uyini yoritmoqda.

*Ishq naqdi dog'i g'am kirmish Navoiy, ko'ngliga,
Vahki, bir dam ajdahodin xoliy ermas maxzanim [1].*

Qalbiga ishq dardining kirib kelishi ulkan saodat, albatta. Ammo inson botinida bu ishqning zavolini istovchi dushmanlar ham yo'q emas. Shu bois ko'nglimiz muhabbat va nafrat, nur va zulmat, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi poyonsiz kurash maydoniga aylanadi. Bu jangda oxir-oqibat qaysi tomonning g'alaba qozonishi esa qalb egasining ixtiyoriga bog'liq.

*Falak haqiqati fikrida kuydi ersa ne tong
Ki, ajdahoe damonning damidadur ko'nglum.*

Bu dayri dunga kelish-u ketishdan murod ne ekanini anglamoq, intihoda Haq vasliga yetmoq uchun bu ayovsiz kurashda bir lahza bo'lsin g'afatga yon berib bo'lmaydi. Zero nafs va hirs idishining tubi yo'q va u hech qachon to'lmaydi. Hayotimizdagi hech bir lahza zalolat g'amzasidan xoli emas.

*Ajdaho og'zi bil o'tlug'kim, ochiptur qasdinga,
Munchakim volihsen, ey bulbul, guli xandon uchun.*

Ochilgan chechakka maftun bo'lgan bulbul aslida Haq jamoliga intilayotgan solikning timsoli o'laroq namoyon bo'lmoqda. Ammo olovli ajdaho uning qasdi uchun og'zini ochgan. Oshiqni yo'ldan ozdirmoq, uni xavf-xatar

va riyozat oldida tiz cho'ktirmoqni istaydi. Shu tarzda kishining sabot va matonati ham sinovdan o'tadi.

*Aql qochti ko'nglum ichra sokin o'lg'ach dardi ishq,
Mo'r manzilgohi ermas ajdaholar maskani [1].*

Mumtoz Sharq adabiyoti azaldan his-tuyg'ularni aqldan ustun qo'yadi. Zero aql ko'zi, qalb chashmasidan farqli o'laroq, adashishga moyildir. Ishq o'rnashgan ko'ngil esa o'z sohibini baxt sari bexato elta oladi.

Umuman, ajdar obrazining mifologik tabiati, kelib chiqishi va epik asarlarning sujet qurilishidagi badiiy vazifalari xususida ilmiy adabiyotlarda ayrim mulohazalar bayon qilingan [3, 4, 5]. Bizningcha, bu obrazning genezisi qadimgi o'rta osiyoliklarning tabiat kultlariga ishonish bilan bog'liq an'analarga borib taqaladi.

Umuman, ajdar(ho) O'rta Osiyo mifologiyasida yovuz kuchlarning ilonsifat ko'rinishidagi timsoliy obrazi bo'lib, uning faoliyati ezgulikka xizmat qiluvchi kosmik mavjudlikni vayron qilish, buzish va yo'q qilishga qaratilgan. U doimo ezgulik kuchlariga qarshi chiqadi, ularga to'sqinlik qilishga urinadi.

Qadimgi xitoyliklarning mifologik e'tiqodlariga ko'ra, ajdar obrazi suv stixiyasi sifatida ilohiylashtirilgan hamda unga daryolar, ko'llar, quduqlar ma'budi sifatida munosabat bildirilgan. Oilaviy-maishiy marosimlarda turli xil ramziy – ritual raqslar va aytilmar vositasida ajdardan tinchlik, baxt ato etishini so'rashgan.

Xitoy mifologik afsonalarida tasvirlangan ajdar o'z mohiyatiga ko'ra sinkretik obrazdir. Bu personaj kamida to'qqiz xil ko'rinishni o'zida birlashtiradi. Uning kallasi tuyaniki, bo'yni ilonnikini, tirnog'i burgutniki, yelkasidagi tig'simon bo'rtmalari karp baliqniki, oyoqlari yo'lbarsniki,

quloqlari sigirniki, shoxlari kiyikniki, ko'zlari shaytonniki, qorni chig'anoqnikiga o'xshash holda tasvirlangan. Ajdarho g'ayritabiiy, ya'ni turli xil jonzotlar haqidagi xalq qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan mifologik jonzot – ezgulik timsoli sifatida tasvirlangan. Bu xayoliy-mifologik jonzotning har bir a'zosi alohida vazifa bajaradi [2: 26]. Ammo uning tangalar bilan qoplangan uzun tanasi ko'proq ilonni eslatadi. Umuman olganda, Sharq xalqlarining tasavvuricha, ajdar bilan ilon obrazini mushtarak sifatarga ega. Aytishlaricha, uzoq yashagan (masalan, yuz yil) ilon ajdarga aylanarmish [3: 50].

Ushbu obrazning Qadimgi Xitoy va boshqa mamlakatlarda bu qadar ommalashishi, folklor asarlardan mustahkam o'rin olishi tabiat hodisalari hamda o'sha hodisalarga uyg'un tarzda shakllangan madaniyatlar bilan bog'liq [5: 63].

“Ajdarho Ahrimanning sifatlarini o'ziga singdirgan obrazlardan biri – deb yozadi folklorshunos D.Fayziyeva. – Uning odamlardan bir qiz talab qilib, uni tiriklayin yutish odati qadimiylik xarakteriga ega bo'lib, tarixiy asoslari ibtidoiy urf-odatlar bilan bog'lanadi. U suvning serob bo'lishini istash yoki aksincha, suv toshqini-to'fonini bostirish niyatida qizlarni suvga tashlab qurbonlik qilish an'anasining badiiy ko'chimi hisoblanadi. Demak, mazkur motiv timsoliy ma'no kasb etib, ajdarhoning yovuz va qonxo'r ekanligini belgilovchi badiiy ifoda sanaladi” [2: 110]. Demak, xalq ertaklaridagi ajdarhoga qiz tortiq etish motivini ibtidoiy odamlar hayotidagi qurbonlik marosimining rudimenti sifatida baholash mumkin.

Navoiy lirikasida ham ajdar obrazining mifologik tafakkurdan poetik tafakkurga o'tgan jihatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu jihatlarni tadqiq etish ulug' shoir she'riyatini teranroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar // Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: Tamaddun, 2011.
2. Fayziyeva D. O'zbek folklorida ilon obrazi (genezisi va badiiyati): Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2004.
3. Мифы народов мира: энциклопедия в 2-х томах / Гл. ред. С.А.Токарев. – Москва: Советская энциклопедия, 1987.
4. Чеснов Я.В. Дракон: метафора внешнего мира // Мифы, культы, обряды народов зарубежной Азии / Отв. ред. Н. Л. Жуковская. – Москва: Наука, 1986.
5. Яншина Э.М. Формирование и развитие древнекитайской мифологии. Гл. "Культ драконов. Женские божества". – Москва: Наука, 1984.



Dildora YORBULOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich magistranti

CHO'LPON IJODIDA NAVOIYGA EHTIROM

Annotatsiya. Ushbu maqola Cho'lponning turkiy adabiyot va madaniyatga beqiyos hissa qo'shgan buyuk shaxs, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyga atab yozgan, uning shaxsi va ijodiga ehtiromni badiiy bashorat qilgan "500 yil" maqolasi to'g'risida. Unda adabiyotshunoslar fikri va shaxsiy qarashlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: badiiy bashorat, kishan, qatag'on davri, milliy ruhiyat.

Annotation. This article is about the article by Cholpon "500 years", dedicated to Alisher Navoi, a great figure, thinker and statesman who made an incomparable contribution to Turkic literature and culture, and artistically predicting respect for his personality and creativity. It contains the opinions and personal views of literary scholars.

Keywords: artistic prediction, shackles, period of repression, national spirit.

Аннотация. В данной статье рассматривается статья Чулпана "500 лет", посвященная Алишеру Навои, великому мыслителю и государственному деятелю, внесшему несравненный вклад в тюркскую литературу и культуру, и предсказывающая уважение к его личности и художественному творчеству. В нем содержатся мнения и личные взгляды литературоведов.

Ключевые слова: художественное предсказание, оковы, период репрессий, национальный дух.

Turkiy adabiyotning chinori, so'zlarni marjon kabi bir tizimga teruvchi shoir Alisher Navoiy haqida har bir davr odamlari fikr bildirgan. Uning shaxsiyati va ijodi to'g'risida hatto tarix kitoblarida ham mulohazalar ko'p. Sho'ro davrida Navoiy shaxsig'a nisbatan bugungidek hurmat-ehtirom bo'lmagan, ijodi ham to'laqonli tadqiq etilmagan. Buning sababini ushbu maqolada subyektiv mulohazalarimiz orqali izohlashga harakat qilamiz. Buning uchun jadidlarning yorqin "tong yulduzi" hisoblangan Abdulhamid Cho'lponning "500 yil" maqolasini tahlilga tortamiz.

XX asr boshlari yurtimizning osmoniga qora bulutlar soya solgan, erk istagidagilarni qatag'on qilgan, zulmat to'la davr edi. Xavf-xatar qancha katta bo'lmasin, o'lim qanchalik yaqin kelmasin, "boshini zo'r ishga berib qo'ygan" zabardast adabiyot jangchilari topildi. Ular orasida o'z yozg'ichlari bilan butun xalq dardini kuylagan shoir Cho'lpon ham bor edi. U adabiyot maydoniga:

*"Ulug' qattiq ag'darguvchi bir kurash,
Yo bor bo'lish, yo yoq bo'lish:
– Yoq yarash!.. [1: 23]*

so'zlarini bilan baralla aytib, qo'rqmasdan kirib keldi. U zamonda bu kabi so'zlarni aytish emas, o'ylashning o'zi tahlilali edi. Shoir tarixni o'rganish va zamon bilan hamnafas yashash tamoyilini ilgari surgan. Zamondoshi Komil Yashin uni shunday xotirlaydi: "Cho'lpon she'rlarni yostiqlig' ichiga solib yotardi. U yostiqlig'ni Moskva idorasi olib ketgan, sababi nima, sababchisi kim, hech kim bilmaydi" [2: 3]. Ushbu so'zlardan a'yonki, ular milliy uyg'onish va mafkuraviy zulm o'rtasidagi to'qnashuvlar davrida yashagan. Bu paytda jadidlar harakati avj olib, ma'rifat va milliy mustaqillik uchun keskin kurash kechdi. Biroq erkin fikrlovchi ziyolilar ta'qibga uchradi, bu esa madaniy va adabiy hayotga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Har qanday xalqning milliy ruhiga qarshi qo'yiluvchi asosiy

qurollardan biri adabiy merosini cheklashdir. Sovetlar xuddi shu yo'lni tutdilar. Ammo ularga mardonavor javob qaytarganlar ham topildi:

*"Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan" [1: 55].*

Cho'lpon "Ulug' hindiy" maqolasida "Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiymen: bir xil, bir xil, bir xil!" deb yozadi. Professor Naim Karimov "Cho'lpon" ma'rifiy romanida shoirning yagona maqsadi yangi adabiyot yaratish ekani, ammo tarixdan ham voz kechmasligi, sanab o'tgan siymolarni esa ustoz deb bilgani haqida yozgan. Haqiqatan ham, shoir mumtoz adabiyot an'analarni ulug'laydi, ijod namunalari bevosita u bilan sug'orilganini tan oladi. "Cho'lpon ... "G'arb va Sharq o'rtasida oltin ko'priq" bo'ladigan asarlar yaratdi..." [3], deya ta'riflaydi uni adabiy tanqidchi Ozod Sharafiddinov.

"Turkiston" gazetasining 1924-yil 23-sentabr kuni e'lon qilingan navbatdagi sonida Alisher Navoiyga atalgan "500 yil" nomli maqola chiqqandi. Sarlavhadan keyin qavs ichida "O'zbek bilim hay'ati e'tiboriga" deb yozib qo'yilgan. Cho'lpon maqolani "500 yil" deb atarkan, Navoiyning 500 yillik yubileyiga ishora qiladi: "Tarixlarning ko'rsatishig'a qarag'onda shu bir yil – bir yarim yil orasida ulug' Navoiyning vafotig'a 500 yil to'ladir...[6] Ammo bu yerda xatolik kuzatilgan. Chunki 1924-yilda Navoiy tavalludiga 483 yil bo'lgan edi. Bu holatni 2 xil tushunish mumkin. Birinchidan, yozuvchi maqolada "shu bir-ikki yil ichida" deya chalkashlikka yo'l qo'ygan. Ikkinchidan esa maqola aynan shu yilda yozilmagan bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham, bu tushunmovchilik maqolaning ilmiy saviyasiga putur yetkazmaydi. Chunki haqiqiy adabiyot yalovbardorlari haqida so'z yuritish, yuqorida aytganimizdek, tahlilali edi. Biroq Cho'lpon Navoiyga ehtirom bu tarzda davom etishini xohlamadi va o'z maqolasida buni bir necha talablar bilan izohladi.

Aslini olganda badiiy adabiyotdagi bashorat qay tariqa o'z estetik ko'rinishiga ega bo'ladi? Buni Zavqiyning "Ajab ermas" radifli muxammasida ko'rishimiz mumkin. Unda bugungi barqaror kunimiz badiiy bashorat qilingan":

*"Qo'y emdi biz bilan begonani, bir oshno yetkur,
Gadamiz, boshlar uzra soyalar solsun, **Humo yetkur,**
Muqarrardur, zamona inqilob o'lsa, ajab ermas"* [5].

Zamonamiz olimlaridan biri aytganidek, falsafiy she'rlar yozuvchi shoirlar salkam junun bo'lish bilan birga, kelajak haqida ham bashorat qila oladilar.

Cho'lpon "500 yil" maqolasining boshlanmasida "Chig'atoy adabiyoti va tiliga Navoiyning qilg'on xizmati juda ulug'dir" deya turkiy til tarqqiyotini shoirning ijodi bilan belgilaydi. Navoiyning faqatgina o'zbek adabiyotida emas, balki turk adabiyotida ham katta o'rin egallashini o'z dalillari bilan isbotlaydi: "Usmonli adabiyotining eng ulug' vakili bo'lg'on Fuzuliyini mashhur usmonli yozg'uchisi Shamsiddin Somibek Navoiydan keyinga qo'yib, ko'rsatadir. Mana bu ham, Navoiyning birgina o'zbek qavmi adabiyotida emas, umumturk xalqi adabiyotida ham o'ziga yarasha joy olg'onini ko'rsatadir" [6]. Maqola ichki tanqidiy solishtirma ruhda davom ettiriladi: "Vatandoshlarimiz ruslar Pushkinning har 5 yili uchun ham katta bayramlar yasaydirlar. G'arbda esa unday bayramlar juda katta tantanalar bilan o'tkaziladir" [6].

Bu jumlar orqali nosir millatni o'z buyuklarining qadriga yetish va ruhiyatini anglashga chaqirmoqda.

So'zida davom etar ekan, ilm hay'atiga mutafakkir xotirasini abadiylashtirish maqsadida 7 ta murojaat yo'llaydi. Ularning orasida hay'at tuzish, Navoiy asarlarini chop etish, tarjimayi hol tuzish, shoirga atab haykal barpo etish va uning nomi bilan atalgan stipendiyalar joriy etish kabi salmoqdor va o'rinli murojaatlar bor edi. Bularni ho'lponning Navoiy haqidagi badiiy bashorati desak, yanglishmaymiz.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Cho'lponning bu orzulari ro'yobga chiqdi. 1992-yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi va shu munosabat bilan asarlarini chop etish yangi bosqichga ko'tarildi. 2000–2008-yillar oralig'ida 20 jildlik "Mukammal asarlar" to'plami nashr qilindi. 2008-yili talabalar uchun Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi joriy etildi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Navoiy kabi shaharlarimizda buyuk siymo sharafiga haykallar barpo etildi. Hazrat Navoiyga chuqur ehtirom bora-bora shoir istaganidek qaror topdi.

Cho'lpon yashagan qatag'on zamon bu kabi tiniq fikrlar ro'yobi uchun to'siq edi. Lekin shoir o'sha paytda ham umidini uzmad, qachondir millat o'z erkiga erishishiga chin dildan ishondi. Olim Naim Karimov ta'kidlaganidek, Cho'lpon butun umrini diniy fanatizm va nodonlikka qarshi kurashda o'tkazdi. Millat fidoyisining badiiy bashorati bugungi kunda to'laqonli tasdig'ini topdi. Salkam olti asrdan beri turkiy karvonga sarbonlik qilib kelayotgan Navoiyga chuqur hurmat ko'rsatishimiz hayot maslagimizdan o'rin egallashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
2. Komil Yashin. Cho'lpon, Hamza mening taqdirim. // O'zbekiston adabiyot va san'ati, 1995, №33.
3. Sharafiddinov O. Uch maqola // Tafakkur, 1997, №33.
4. Karimov N. Cho'lpon. – Toshkent: Sharq, 2003.
5. Zavqiy hayoti va ijodi haqida. <https://talaba.su/zavqiy/>.
6. Abdulhamid Cho'lpon. 500 yil. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/cholpon-500-yil.html>.



Shaxboz MUSTAFAYEV,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti italyan tili tarjima nazariyasi
va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

VIRTUAL MULOQOTNING IJTIMOY-PRAGMATIK JIHATLARI VA KONSTITUTIV BELGILARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada virtual muloqotning ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari va zamonaviy axborot-kommunikatsion jamiyatdagi o'rnı keng yoritilgan. Virtual muloqot vositalarining inson hayoti va jamiyatga ta'siri, jumladan, inkulturatsiya, o'zini namoyon qilish va ijtimoiylashuv kabi jarayonlarga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Virtual makonning erkinlik, anonimlik va makonzamon chegaralarining yo'qligi kabi konstitutiv belgilari hamda muloqotning bag'rikenglikka asoslangan past nizolilik xususiyati virtual kommunikatsiyaning qulay va moslashuvchanligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: virtual muloqot, inkulturatsiya, ijtimoiylashuv, anonimlik, axborot-kommunikatsion jamiyat, konstitutiv belgi, virtual makon.

Annotation. This article explores the socio-pragmatic aspects of virtual communication and its role in modern information-communication society. It examines its impact on social processes such as inculturation, self-expression, and socialization. Special emphasis is placed on the constitutive features of the virtual environment, including freedom, anonymity, and the absence of spatial-temporal constraints, as well as the low-conflict and tolerant nature of virtual interactions.

Keywords: virtual communication, inculturation, socialization, anonymity, information-communication society, constitutive features, virtual space.

Аннотация. В статье анализируются социально-прагматические аспекты виртуальной коммуникации и её место в современном информационно-коммуникационном обществе. Рассматривается её влияние на общественные процессы, такие как инкультурация, социализация и самовыражение. Особое внимание уделено конститутивным характеристикам виртуальной среды, включая свободу, анонимность и отсутствие пространственно-временных ограничений, а также толерантности и низкому конфликтному потенциалу виртуального общения.

Ключевые слова: виртуальная коммуникация, инкультурация, социализация, анонимность, информационно-коммуникационное общество, конститутивные признаки, виртуальное пространство.

Kommunikatsiya jarayonlarini internetsiz tasavvur qilish imkonsiz bo'lib qoldi. Butun dunyo jamoatchiligi global tarmoqning inson hayotining barcha sohalarini yanada rivojlantirishdagi rolini bir xil tushunadi. Tarmoqqa kirishni to'xtatish internetga qarshi jinoyatchilarning psixologik muammolaridan tortib infratuzilma muassasalari ishida jiddiy uzilishlargacha bo'lgan jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin [1]. Virtual kommunikatsiya mezonlari quyidagicha tasniflanadi:

- **kommunikantlar soniga ko'ra:** shaxsiy kommunikatsiya (internet orqali bevosita muloqot), guruhlararo kommunikatsiya (bir guruh odamlarning muloqoti) va ommaviy kommunikatsiya (jumladan, bir foydalanuvchining noma'lum miqdordagi adresantlar bilan muloqoti);

- **nutq oqimining yo'nalishiga ko'ra:** monolog, dialog va polilog;

- **kommunikantlar turiga ko'ra:** ularning maqomi (shaxsiy yoki institutsional kommunikatsiya) va madaniy mansubligi (bir madaniyat vakillari o'rtasidagi yoki madaniyatlararo kommunikatsiya) bilan belgilanadi.

Tadqiqotchilar virtual muloqotni boshqa muloqot turlaridan farqlovchi va unga ta'sir qiluvchi quyidagi bir qator omillarni keltirib o'tishadi:

- ijtimoiy muhitning notekisligi, kommunikatsiyani ta'minlay oladigan ko'plab xizmatlarning mavjudligi;

- muloqot erkinligi illyuziyasi (ammo buni foydalanuvchilarning o'zlari qabul qilgan va

- yozilmagan qoidalar to'plami bilan tartibga solinadi, bu qoidalarni buzish ular o'rtasida nizoga olib kelishi mumkin);

- muloqotning anonimligi kommunikativ to'siqlarni yengib o'tishga, ijtimoiy masofani qisqartirishga, ishtirokchilarni erkinlashtirishga imkon beradi;

- noverbal muloqot elementlarining yo'qligi internetda tilning ishlashiga sezilarli ta'sir qiladi va muloqotning hissiy tomonini almashtiradigan kompensator amaliyotlarni rivojlantiradi;

- virtual muloqotning yozma xususiyati og'zaki nutq bilan solishtirganda muloqot tezligini pasaytiradi, matnning mazmuni va hajmi esa asosan oshadi;

- virtual muloqotning bag'rikengligi va barcha ishtirokchilarning atrofida qulay virtual muhit yaratish istagi bilan bog'liq bo'lgan muloqotning past darajadagi nizoliligi yanada moslashuvchan kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqishga olib keladi;

- to'g'ridan to'g'ri jonli aloqaning yo'qligi sababli, muloqot ishtirokchilari o'rtasida kommunikativ vaziyatni yoki muloqot sherigining obrazini to'ldirish strategiyasi keng tarqalgan, bu esa butun muloqot jarayonining stereotiplashuvini sezilarli darajada kuchaytiradi [2].

Sanab o'tilgan omillar internet-kommunikatsiyasining o'ziga xos muhitini yaratadi, bu esa "XXI asrning eng

fantastik kommunikativ amaliyotlar va intilishlarni amalga oshirish imkonini beradigan eksperimental kommunikativ maydonchasiga aylangan” [3]. Ijtimoiy makonning virtualizatsiyasi muammolarini o'rganuvchi Mark Paetau kabi olimlar internetning virtual olam yoki dunyo tasviri bo'lib qolgan va u ijtimoiylik virtualizatsiya jarayonlari sodir bo'ladigan universal kommunikativ makon ekani haqida bir fikrga kelishadi. Muloqot faoliyati asosida ham ma'lum bir maqsad yotadi. Maqsad – inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi. Psixologiyada maqsad shaxsiy va umumiy, yaqin va uzoq kabi turlarga ajratiladi [4]. Virtual muloqotda ham tarmoq foydalanuvchisi o'z oldiga u yoki bu maqsadni qo'yadi, buni biz virtual muloqot maqsadlari sifatida ko'rib chiqishimiz mumkin. Virtual muloqot real muloqotga xos barcha funksional maqsadlarga ega: kommunikativ, o'yin, ijtimoiy, psixoterapevtik va boshqalar. Lekin biz ham Olga Lutovina singari virtual muloqotning asosiy maqsadlari sifatida uchlamchi ijtimoiylashuv, tarmoq madaniyatiga singdirish (inkulturatsiya), o'zini namoyon etish va ko'ngil ochishni ajratib ko'rsatamiz [5: 476].

Virtual diskursning asosiy maqsadlarini ajratib ko'rsatishda, birinchi navbatda, ijtimoiylashuv haqida gapirish kerak, chunki internet foydalanuvchisi avval unga noma'lum bo'lgan yangi sotsiomadaniy muhitga tushadi va unda boshqa foydalanuvchilar bilan munosib o'zaro ta'sir etishni bilishi kerak.

Inkulturatsiya butun hayot davomida davom etadigan an'ana, odat, qadriyat va milliy madaniyatning normalarini o'zlashtirish, madaniyatni bir avlodidan ikkinchi avlodga

o'rgatish va o'tkazish jarayonini anglatadi [6: 671]. Internetga kirgan tarmoq foydalanuvchisi o'sha yerda aks etgan madaniyatni topadi va uning bir qismiga mustaqil ravishda qo'shiladi.

Qadriyatlar dunyoqarashni shakllantirishda asosiy kategoriya hisoblanadi. Qadriyatlarining konfiguratsiyasi ma'lum bir jamoaning madaniy tipini belgilaydi. Virtual dunyo yangi ijtimoiy-madaniy muhit bo'lib, o'ziga xos qadriyatlar majmuasi bilan ajralib turadi. Albatta, bu ijtimoiy-madaniy muhitni an'anaviy ijtimoiy munosabatlar va tajribadan mutlaqo mustaqil deb hisoblash imkonsizdir, ammo shu bilan birga, uning ma'lum darajada avtonom ekanini inkor qilish ham qiyin. Qadriyatlar – atrof-muhitdagi obyektlarning inson yoki jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini aniqlaydigan maxsus ijtimoiy belgilar.

Maqola virtual muloqotning ijtimoiy-pragmatik jihatlari, konstitutiv belgilari hamda uning zamonaviy axborot-kommunikatsion jamiyatdagi o'рни haqidagi tahlilni o'z ichiga oldi. Shuningdek, unda virtual muloqot vositalarining ijtimoiy ta'siri, ya'ni odamlarning jamiyatdagi roli va munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga olib kelgani qayd etildi. Xulosa qilib aytganda, virtual muloqotning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati yoritilib, uni ijtimoiy va kommunikativ jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqadigan o'ziga xos kommunikativ makon sifatida tahlil qilindi. Bu yangi muloqot shakli insoniyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatib, global tarmoqning kommunikatsiya va madaniyati o'zaro bog'liqligini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nuwer R. What if the internet stopped working for a day? <https://www.bbc.com/future/article/20170207-what-if-the-internet-stopped-for-a-day>.
2. Одинцова М.С., Антонова Н.В. Особенности идентичности людей, активно общающихся в сети Интернет. Журнал практического психолога, 2010, №4. С. 37-58.
3. Горошко Е.И. Современная интернет-коммуникация: структура и основные параметры. Интернет-коммуникация как новая речевая формация / Науч. ред. Т.Н.Колокольцева, О.В.Лутовинова. – Москва, 2016. С. 9-53.
4. G'oziyev E.G'. Sotsial psixologiya. – Toshkent, 2012.
5. Лутовинова О.В. Лингвокультурологические характеристики виртуального дискурса. – Волгоград, 2009.
6. Кравченко А.И. Культурология: словарь. – Москва, 2000.



Sitora SUXANBERDIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich magistranti

ADABIYOT DARSLARIDA “HAMMA ISHONADIGAN YOLG‘ONLAR”GA QARSHI TURISH IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Adabiyot darslari nafaqat o'quvchilarga badiiy asarlarni o'rgatish, balki ularning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ham muhim maydon hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash ayniqsa “hamma ishonadigan yolg'onlar”ni aniqlash va ulardan yiroq turib, mustaqil fikrlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashning ahamiyati, ushbu ko'nikmani shakllantirish usullari va “hamma ishonadigan yolg'onlar”ning o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, “hamma ishonadigan yolg'onlar”, ijodiy fikrlash.

Annotation. Literature classes are an important area not only for teaching students about works of art, but also for developing their analytical and critical thinking skills. Critical thinking is especially important in identifying and moving away from the “false beliefs that everyone believes” and independent thinking. This article discusses the importance of critical thinking in literature classes, how to develop it, and how “the lies everyone believes” affects students.

Keywords: critical thinking, “the lies everyone believes”, creative thinking.

Аннотация. Занятия по литературе являются важным направлением не только для обучения учащихся произведениям искусства, но и для развития их аналитических и критических навыков мышления. Критическое мышление особенно важно для выявления и ухода от “ложных убеждений, в которые все верят”, и для развития независимого мышления. В статье обсуждается важность критического мышления на уроках литературы, его развитие, а также влияние на учащихся “лжи, в которую все верят”.

Ключевые слова: критическое мышление, “ложь, в которую все верят”, креативное мышление.

Tanqidiy fikrlash nima va uning o'quvchilarga ta'siri qanday? Tanqidiy fikrlash – o'ylashning chuqur, tahliliy jarayonidir. Bu ko'nikma adabiyot darslarida o'quvchilarga quyidagi jarayonlarda foydali hisoblanadi:

1. Asarni to'g'ri talqin qilish. O'quvchilar o'qigan matnini to'g'ri tushunib, ularga mustaqil yondashishni o'rganadi. Tanqidiy fikrlash ularni ko'r-ko'rona ishonishdan saqlaydi. Masalan, qahramonlarning xarakteri va motivlarini bir tomonlama baholash o'rniga ularni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqadi.

2. Ijodkorlikni rivojlantirish. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarni o'z g'oyalarni shakllantirishga undaydi, bu esa ijodkorlik uchun muhim asosdir. Jahon hamjamiyati ham inson ongida tanqidiy fikrlash ijodiy fikrlash bilan birga kechishini ta'kidlagan. Zotan, asarning asl go'zalligini anglamay turib, unga baho ham berib bo'lmaydi.

3. Alternativ hukmni qabul qila olish [1]. Bunda asar mazmuni yuzasidan aynan kerakli, aniq va konkret fikrga


kelish, ya'ni muqobil variantni tanlay olish shakllanadi [2: 13].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jahonda dolzarb masala sifatida ko'rilayotgan bir paytda uni amalga oshirish uchun yechimlar ko'rib chiqilmoqda. Birinchi navbatda, har qanday badiiy asar yoki matn chuqur o'rganilishi kerak [3: 23].

Quyida mavzuni yanada yaxshiroq tahlil etish maqsadida Abdulla Qahhorning “O'g'ri” hikoyasi (6-sinflar uchun) asosida o'quvchilarning fikri o'zaro qiyoslanadi [4: 12].

1. Savolga javob bering:


Qobil boboning sarson-sargardon bo'lishida kim aybdor?



Savollar asosida muammo to'g'ri qo'yilishi va unga munosib va muqobil yechim topilishi kerak.

1. Javobni toping.

Jamiyat bu ahvolga kelib qolishiga qanday omillar sabab bo'lgan?



Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun savollar ham to'g'ri tanlanishi lozim.

So'nggida asarning tub mohiyatini ochib berish maqsad qilib olinar ekan, adabiyot darsida avvalo, har doim qo'llanib kelgan va "hamma ishonadigan yolg'onlar" – noto'g'ri qarashlar va yolg'on xulosalarni aniqlash o'rgatiladi. Misollar:

1. "Qahramonlar faqat salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkin". Bu noto'g'ri tushuncha o'quvchini bir yoqlama fikrlashga undaydi. Bolalar qahramonlarni mukammal yoki mutlaqo salbiy deb baholashdan yiroqlashib, ularning murakkab tabiati haqida o'ylashadi.

2. "Muallifning fikri – yagona haqiqat". Muallif fikrini mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish o'quvchilarni tanqidiy fikrlashdan mahrum qiladi. Darslarda esa o'quvchilarga muallif fikri va o'z qarashlarini tahlil qilishni o'rgatish kerak.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagicha yechim va takliflar mavjud:

1) badiiy asar bilan tanishuvga bo'lgan jarayonda unga kirib olish, ya'ni biror audio yoki videomaterial asosida [5: 19];

2) matn bilan tanishish jarayonida fanlararo integratsiyaga e'tibor berish [4: 54];

3) asar bilan tanishish jarayonida makon va zamon bilan tanishish maqsadida xarita bilan ishlash (turk adabiyoti o'qitish tizimi misolida);

4) asarni to'g'ri tanlay olish, uni nima uchun o'qish kerak, degan savolga munosib javob bera olish va nimani qanday o'qitishga alohida ahamiyat qaratish [6: 100];

5) tahlil jarayonida o'quvchilarda reaksiya bildirish qobiliyatini shakllantirish.

Adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini oshiradi, balki ularni "hamma ishonadigan yolg'onlar" dan yiroq, mustaqil fikr yuritadigan shaxs sifatida shakllantiradi. Bu esa kelajakda o'quvchilarning nafaqat adabiyot, balki hayotiy muammolarni hal qilishda ham muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brookfield S.D. Teaching for critical thinking: Tools and techniques to help students question their assumptions Jossey-Bass, 2012.
2. Robert Ennis. Critical thinking: A streamlined conception. Teaching philosophy, 1991.
3. Daniel Willingham. Critical thinking: why is it so hard to teach? Arts education policy review, 2010.
4. Mirzayeva Z., Djalilov K. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
5. XIV–XV yuz yillar Turk Edebiyati. – Ocak: Anadolu Universitesi, 2019.
6. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2022.



Рано БАТЫРОВА,

преподаватель Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

СПЕЦИФИКА ОБРАЗА МАНЮНИ В РОМАНЕ НАРИНЭ АБГАРЯН «МАНЮНЯ»

Аннотация. В статье выявляется специфика образа главной героини дебютного произведения современной российской писательницы Наринэ Абгарян, представлены мнения литературных критиков, на основе которых выделена такая специфическая черта писательской стратегии Наринэ Абгарян, как приверженность к детской литературе.

Ключевые слова: образ, роман, детская литература, тема дружбы, тема взросления.

Annotatsiya. Maqola zamonaviy rus yozuvchisi Narine Abgaryanning debyut asaridagi bosh qahramon obrazining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga bag'ishlangan. Shuningdek, adabiyotshunoslarning fikrlari keltirilgan, ular asosida Narine Abgaryan yozuv strategiyasining bolalar adabiyotiga sodiqlik sifatidagi o'zgacha jihatlari ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: obraz, roman, bolalar adabiyoti, do'stlik mavzusi, ulg'ayish mavzusi.

Annotation. The article is dedicated to identifying the unique characteristics of the main character in the debut work of contemporary Russian writer Narine Abgaryan. Additionally, it presents the views of literary critics, which highlight Abgaryan's distinctive commitment to children's literature as a key feature of her writing style.

Keywords: image, novel, children's literature, theme of friendship, theme of growing up.

Наринэ Абгарян – современная российская писательница, лауреат премии «Ясная Поляна» (2016) и номинант «Большой книги» (2011), автор романа «Манюня», «Люди, которые всегда со мной», книги «Семен Андреич. Летопись в каракулях» (2012), детской книги «Шоколадный дедушка», написанной в соавторстве с Валентином Постниковым (2014), романов «С неба упали три яблока» (2020), «Симон» (2021), сборника рассказов «Жить дальше» (2018) и других произведений.

Литературные критики и ученые сразу же отметили приверженность произведений Абгарян к «детской литературе» [1, с. 290]. Так, Е.Сафронова в произведениях писательницы подмечает «оптимальное отражение детства и комичность», связывая это с форматом детской литературы [2, с. 1]. Другой публицист Кульгавчук, хоть и выделяет детскую направленность произведений писательницы, но внимательно вглядываясь в содержательный пласт, всё-таки обнаруживает в нем более глубокий подтекст – послание для взрослых, где тема детства и детские образы относят взрослого читателя в мир прошлого: «Впрочем, однозначно отнести к детским книгам многочисленных «Манюнь» всё же затруднительно..., близкими и понятными героини скорее будут для тех, кто помнит себя в эти 1980-е, когда ничто еще не предвещало перемен» [3, с. 1].

Мы разделяем мнение Кульгавчук с небольшим уточнением о том, что, например, трилогия Абгарян про Манюню – это произведение о детях, однако не только для детей, но и для взрослых, как повод напомнить взрослым о беззаботном детстве, отнести читателей в радостные и счастливые дни. Следует отметить, что тема детства в творчестве Абгарян реализуется через «автобиографическую линию» [4, с. 60].

Литературный критик Е.Н.Денисенко также подмечает феномен современной литературы о детях и под-

ростках в произведениях Абгарян и считает, что главное в трилогии – это «... создание образа детства как поры, где нет времени, границ и каких-либо стереотипов» [5 с. 2]. Одним из способов раскрытия образа детства в произведениях Абгарян служит юмор – неотъемлемая часть детского существования. По Абгарян, смех является не только фоновой заставкой детских образов и тем, но и обладает эффектом «разрядки» многих бытовых конфликтных ситуаций. На юмор при отображении темы детства в творчестве Абгарян указывает и критик Е.Иванова, говоря о том, что тема детства в творчестве писательницы репрезентируется через юмор: «Написано очень талантливо, легко, задорно, с юмором и точно представляемыми образами. Будете хохотать от души. Стёб над не самыми смешными и очень даже печальными ситуациями» [6, с. 3].

В научных изысканиях мы также находим мнение, подтверждающее приверженность писательницы к детской литературе. Исследователь творчества Наринэ Абгарян О.Г.Сидорова отмечает, что раннее творчество писательницы продолжает «традицию романов о приключениях и взрослении героев в комическом ключе» [7, с. 4]. А.Н.Шпелер свое исследование также выстраивает на теме детства в творчестве писательницы [8].

Роман Н.Абгарян «Манюня» – литературный дебют писательницы, написанный в 2010 году. Автор описывает важную и неотъемлемую часть жизни каждого человека – детства, с которого начинается закладка основ духовной жизни. Это роман о психологии детской души, формировании детского сознания и его проявлениях. Формирование сознания ребенка рассматривается Н.Абгарян через систему взаимоотношений ребенка с таким же ребенком и с миром взрослых. Книгу можно отнести к разряду как взрослого чтения, так и «детского чтения», сама Н.Абгарян адресует ее «взрослым детям»:

«Для тех, кто и в тринадцать, и в шестьдесят верит в хорошее и смотрит в будущее с улыбкой» [9, с. 1].

Роман «Манюня» состоит из двадцати семи глав, действие которого происходит в городе Берде в 1979 году. Основой сюжета являются истории из жизни двух подруг – Наринэ и Манюни: знакомство, дружба, комичные ситуации из детства.

В центре повествования – восьмилетняя девочка Манюня с ее необычным поведенческим набором качеств. Однако говорить о ней в единственном числе было бы в корне неверно, потому что рядом с ней всегда верная подруга Нарка, домочадцы и огромное количество разных людей, с которыми легко и непринужденно Манюня завязывает отношения: от соседей до случайных попутчиков. Однако все-таки главной героиней повести является Манюня, чье имя и вынесено в заглавие произведения.

Maternal traits are associated with it: manifestation of attention and sympathy; magical authority of the feminine; wisdom and elation, extending beyond formal logic; any useful instinct or impulse; everything that is called kindness; everything that gives care and support, promotes development, and fertility. This is a place of magical transformation and rebirth; together with the other world and its inhabitants, it is under the patronage of the Mother. From the negative aspects of the mother archetype, you can note everything secret, hidden, dark; abyss; world of the dead; all that devours, seduces, and poisons; everything that causes horror is inevitable, like fate itself [3: 158].

The mother archetype is closely related to that part of the psyche that is still completely at the mercy of nature; that is why we often use the expression Mother Nature. The opposite pole must be the Father Spirit. The archetypes of father and mother represent the two main principles of existence. We call them logos and eros, or, as in Chinese

philosophy, yang and yin. They can exist together, forming a harmonious whole, or oppose each other. The father embodies the active, creative principle; the mother, receptivity and caring. Although, as we will see later, the mother also has spirituality, maternal beginnings relate mainly to nature, i.e., they are associated with instincts and physical drives. The negative impact of motherhood can be so strong that it will turn into an obstacle to a person's spiritual aspirations [4: 320].

In childhood, the maternal image is mainly projected onto the natural mother; i.e., the archetype, and the image of one's own mother forms a single complex of sensations. Mother is a source of care and support. If a mother neglects her child or smothers him with her excessive love, a child may even perceive it as a destructive force. But as the child grows up, the mother's image connects with the images of other people. For example, a man constantly projects a motherly image onto the woman he loves. In this case, he finds in her all the qualities that he associates with "mother". This is a consequence of the psychological function that Jung called anima [2: 245].

To be in a close relationship with the mother means to be under the influence of the mother's archetype. Whether the result of such influence will be harmful or beneficial depends, first of all, on the connection that a person has formed with the internal image of his mother. At first glance, it seems that the cause of all the difficulties of any person is his dear mother. However, Jung discovered that the natural mother is not the only cause of the disturbances typical of a negative mother complex; it also has a significant impact on the archetype of the mother.

The Eternal manifests itself in the individual. But even if the eternal image again and again finds its embodiment in a specific person, it is still impossible to talk about the identity of the individual and the archetypal. After all, the archetype is not directly observable. On the other hand, it can manifest itself in the life of a specific person, including in his objective sensations:

You cannot get rid of the mother complex by blindly reducing the image of the mother to the scale of an ordinary person. Moreover, we are at risk of reducing the sensation of "Mother" to atomic size and thus destroying something extremely valuable by throwing away a golden key that the good fairy put in our cradle [3: 172].

In conclusion, it should be noted that the methods given above help students to analyze and understand the archetype of mothers in fairy tales. It is essential not to forget that the mother also has a golden key; in other words, the correct attitude towards the unconscious can open access to new spiritual values. Therefore, the mother archetype plays a special role in periods of transition, such as our time, not only in the lives of individual people but also in life in general. On the one side,

The mother archetype can lead to mass hysteria; on the other hand, it contributes to the emergence of something new. A person with a fixation on the mother complex has every opportunity to come into contact with the unconscious, that is, to discover a completely new spiritual installation. But such a person may find himself in a state of alienation, often pathological, an animal that often manifests itself in equally unconscious artistic abilities.

References

1. Афанасьев А.Н. Народные русские сказки. – М.: Правда, 1982. – 576 с.
2. Афанасьев А.Н. Поэтические воззрения славян на природу в 3 т., т. 2. – М.: Современный писатель, 1995. – 400 с.
3. Биркхойзер-Оэри С. Мать: Архетипический образ в волшебных сказках. М.: Когито-Центр, 2006. – 255 с.
4. Потебня А.А. Символ и миф в народной культуре. – М.: Лабиринт, 2000. – 480 с.



Nargiza MIRZALIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

ABDULLA QAHHOR VA ERNEST XEMINGUEY HIKOYALARI QAHRAMONLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qahhor hikoyalari qahramonlar nutqi orqali ularning xarakteri, ruhiyatini ochib berish masalasi ilgari surilgan. Tadqiqot davomida yozuvchi hikoyalardagi qahramonlarni xorijiy asarlar qahramonlari bilan solishtirish asar mohiyatini yanada kengroq ochish imkonini berishi ta'kidlangan. Xususan, Nobel mukofoti sovrindori Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlariga taqqoslab o'rganish masalasi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: asar qahramoni, hikoya, ruhiyat, nutq, nutqiy xoslanish, taqqoslash, qahramon ichki dunyosi, holati, asar qiymati.

Annotation. In the article, the question of revealing the character and psyche of the characters in the stories of Abdulla Qahhor is put forward. In the course of the research, it was noted that comparing the heroes of the stories of Cairo with the heroes of foreign works allows to reveal the essence of the work more broadly. In particular, the issue of comparative study with the heroes of the stories of Nobel laureate Ernest Hemingway was put forward.

Keywords: hero of the work, story, mentality, speech, speech characteristic, comparison, inner world of the hero, situation, value of the work.

Аннотация. В статье ставится вопрос раскрытия характера и психики героев рассказов Абдуллы Каххара. В ходе исследования было отмечено, что сравнение героев каирских рассказов с героями зарубежных произведений позволяет шире раскрыть суть произведения. В частности, был выдвинут вопрос сравнительного изучения героев рассказов нобелевского лауреата Эрнеста Хемингуэя.

Ключевые слова: герой произведения, рассказ, мышление, речь, речевая характеристика, сравнение, внутренний мир героя, ситуация, значение произведения.

Asar qahramonlarini o'rganishda ularning ruhiyati tasviri anchadan buyon adabiyotshunoslar e'tiboridagi murakkab masalalardan biri hisoblanadi. U haqda ilk kuzatishlar olib borgan N.Chernishevskiy Tolstoy ijodida psixologizmning rang-barang shakllari mavjudligini ta'kidlab o'tgan edi [1: 505].

L.S.Vigotskiy til va tafakkur, adabiyot va jamiyat, ijod va idrok psixologiyasining o'zaro munosabati bo'yicha qimmatli kuzatishlar qoldirdi. His-tuyg'ularning badiiy fantaziya obrazlariga aylanishi borasidagi qarashlari olimning "har qaysi davr san'at tomonidan saralab olinadigan o'z psixologik gammasiga ega"ligi haqidagi mulohazasida umumlashgan [2: 93]. Asar qahramonlarining ruhiyati jiddiy tahlil qilinishi lozim bo'lgan masalalardandir.

Qahhorning "Bemor" hikoyasi Xemingueyning "Dahshatli kutish" asariga qiyoslansa, ikkisi ham bemor kishi bor, biroq bittasida ota og'lining sog'ayishini kutsa, ikkinchisida er o'z xotinini tuzata olmay sarson bo'lishi dahshatli tasvirlangan.

"Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi – bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi, betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi, baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'gon cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va oq imorat: shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'zi

oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi. Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

– Devonai Baxovaddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avsul-a'zanga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi – har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. U ertadan-kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi. To'rt yashar qizchasi qo'lga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi; ba'zan, qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitaladi: "Hey do'st, shaydullo ba nomi Ollo, sadaqa raddi balo, ba qavli rasuli xudo..."

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga birov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq – bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi.

– Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan kunga battar, oxiri o'sal bo'ldi. "Ko'ngilga armon bo'lmasin" deb "Chilyosin" ham qildirishga to'g'ri keldi. Sotiboldi to'qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan 20 tanga qarz ko'tardi. "Chilyosin"dan bemor

tetik chiqqanday bo'ldi; shu kechasi hatto ko'zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

– Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang. Yana ko'zini yumdi, shu yumgancha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...”

Hikoyada farzandi tomonidan tinmay duo qilinayotgan onaning bemorligi jamiyatdagi muammolarni ochiq ifodalab beradi...

“Yomg'irda qolgan mushuk” hikoyasining bosh qahramoni amerikalik ayol ismsiz tarzda tasvirlanadi. Hikoya avvalida biz uni turmush o'rtog'i Jorj bilan Italiyadagi mehmonxonaga dam olgani kelganini ko'ramiz. Mehmonxona dengizga qarata qurilgan, orqasida bog'i, ro'parasida esa urush sharafiga katta haykal o'rnatilgan maydoni bor. Butun hikoya davomida muttasil yomg'ir yog'ib turadi, shunday ekan, yosh juftlik tashqariga chiqolmay, xonalariga qamalib olishga majbur bo'ladilar. Amerikalik ayol yog'ayotgan yomg'irni tomosha qilib turarkan, to'satdan bog'dagi stol ostida yomg'irdan o'zini panalagancha qunishib o'tirgan mushukchaga ko'zi tushadi. Birdan ayolning himoyasiz mushukchaga rahmi keladi va uni xonasiga olib chiqishni qattiq istab qoladi. Biroq u tashqariga chiqqanida mushuk qayoqqadir g'oyib bo'ladi, umidi so'ngan ayol mehmonxonaga quruq qo'l bilan qaytib keladi. Shu yerda biz uning eri bilan kechgan suhbatidan erkakning ayolga nisbatan juda beparvo, anchayin xudbin va boqibeg'am bir kimsa ekanligini ko'ramiz. U xotini mushukni olgani tashqariga chiqib ketayotganida ham yotgan joyidan boshini ko'tarmaydi, quruqqina qilib “Yomg'irda ivib ketma”, deb qo'yadi, xolos. Ayolning bu munosabatdan ancha yillardan beri ko'ngli o'ksigan, u o'zini butun umr yolg'iz, e'tiborsiz, mehrsiz holda his qilib yashagan. U o'sha mushukchani ham qalbini ayovsiz ezayotgan yolg'izlikdan, hasratlaridan qutqarish uchungina istagan, u bilan dardu g'amlarini biroz bo'lsa-da unutishni, taskin topishni xohlagan edi. Chunki ayol yaxshi bilardiki, bundan buyon ham unga erining mehr, e'tibor berishi ancha dargumon edi [3].

“Yomg'irda qolgan mushuk” hikoyasining yana bir muvaffaqiyati shundaki, o'quvchi unda ortiqcha ramzlarga, o'xshatish, metafora yoki troplarga duch kelmaydi. Biroq Xeminguey uslubini shundayki, u hamisha o'z kitobxoniga soddalik va lo'ndalik orqali o'zining murakkab va mukammal g'oyalarini singdirishga erishib kelgan. “Unda (hikoyada) badiiy adabiyotda biz ko'nikkan sifatlar, tashbehtar, bo'rttirishlar, obrazli ifodalar uchramaydi – quruqqina yozilganday taassurot uyg'otadi. Lekin zohiran his-hayajonsiz, ehtirossiz, quruq tuyulgan bilan botinan to'laqonli, jo'shqin, ehtirosiga limmo-lim asar. Ta'bir joiz bo'lsa, aysberg – muzqoyaning asosiy qismi suv ostida, ya'ni bu o'rinda matn zamirida, bir uchigina suv yuzasida ko'rinish beradi. Shu jihati bilan hikoya yozuvchi yaratgan “aysberg nazariyasi”ning barcha talablariga javob beradi” [4: 127].

Xeminguey hikoyalari o'zining ixchamligi, lo'nda va ma'noli dialoglarga boyligi, muallifning ortiqcha izohisiz yozilganligi bilan boshqa yozuvchilar ijodidan ajralib turadi. “Yomg'irda qolgan mushuk” hikoyasida ham biz yozuvchining hikoya yaratish mahoratiga qoyil qolsak,

bir tomondan asardagi ayol obrazining ismsiz tarzda tasvirlanishiga qaramasdan, unga nisbatan o'quvchi qalbida xayrixohlik, rahm-shafqat uyg'ota olganligiga to'la iqror bo'lamiz. Go'yo Xemingueyning birgina ayol obrazi orqali butun Amerika, butun dunyo ayollari hamisha mehr, ehtirom, hurmat va e'tiborga mutlaq loyiq ekanligini his qilish mumkin:

Matn:
“Cat in the Rain”
by Ernest Hemingway

There were only two Americans stopping at the hotel. They did not know any of the people they passed on the stairs on their way to and from their room. Their room was on the second floor facing the sea. It also faced the public garden and the war monument. There were big palms and green benches in the public garden. In the good weather there was always an artist with his easel. Artists liked the way the palms grew and the bright colors of the hotels facing the gardens and the sea. Italians came from a long way off to look up at the war monument. It was made of bronze and glistened in the rain. It was raining. The rain dripped from the palm trees. Water stood in pools on the gravel paths. The sea broke in a long line in the rain and slipped back down the beach to come up and break again in a long line in the rain. The motor cars were gone from the square by the war monument. Across the square in the doorway of the cafe a waiter stood looking out of the empty square.

Buni tarjimada quyidagicha bayon qilish mumkin:

Mehmonxona oldiga kelib tushgan amerikaliklar atigi ikki kishi edi: er-xotin muhojirlar. Ular o'z xonalari tomon yo'l olishar ekan, yo'llarida, zinalarda uchratgan odamlaridan hech qaysisini tanimadilar. Muhojirlarning ko'm-ko'k dengiz tomon yuz tutgan xonasi ikkinchi qavatda joylashgandi. Yana katta bog' bilan bitta urush yodgorligi ham xonaga ro'baro' yerda edi. Bu ulkan bog' ichida o'sib yotgan bahaybat palma daraxtlari hamda yo'lklar chetiga o'rnatilgan o'rindiqlar bog' ko'rkiga yanada ko'rk bag'ishlab turardi. Havo soz bo'lgan chog'lar bu yerda kichkinagina ko'rgazma stendini ko'tarib olgan qandaydir rassom paydo bo'lib qolardi. Osmonga behadik bo'y cho'zib ketgan salobatli palma viqori hamda bepoyon bog' bilan dengizga yuzlanib turgan mehmonxona binosining yarqiroq ranglari bu rassomga juda manzur bo'lardi. Boyagi urush yodgorligini tomosha qilish uchun ham bu yerga uzoq-yaqindan ko'plab italiyaliklar kelib turishardi. Haykal bronzadan ishlangan bo'lib, yomg'ir ostida u yanada yarqirab ko'rinardi. Ayni chog'da havo tund, sharros yomg'ir quyardi. Palma yaproqlari uchidan ham yomg'ir tomchilari bir-bir tomchilab tushardi. Bog'dagi shag'al yo'lak uzra yomg'ir suvlari katta-kichik halqoblar hosil qilgandi. Bir tomondan cheksiz dengiz betaskin to'lg'onib yotar, jala ostida qolgan asov to'lqinlar dam o'rindiqlargacha urilib kelar, dam o'tmay shashtlaridan qaytib, tag'in ortga chekinib ketishardi. Urush yodgorligi yonidagi maydon ichida turgan turli sayyohlarning yengil mashinalari ham bir zumda bu yerni tark etib jo'nab ketishdi. Maydon chetidagi qandaydir kafe ostonasida paydo bo'lib qolgan bitta ofitsiant kimsasiz qolgan maydon sathi uzra termulganicha turib qoldi.

The American wife stood at the window looking out. Outside right under their window a cat was crouched



under one of the dripping green tables. The cat was trying to make herself so compact that she would not be dripped on.

"I'm. going down and get that kitty," the American wife said.

"I'll do it", her husband offered from the bed.

"No, I'll get it. The poor kitty out trying to keep dry under a table".

The husband went on reading, lying propped up with the two pillows at the foot of the bed.

"Don't get wet", he said.

The wife went downstairs and the hotel owner stood up and bowed to her as she passed the office. His desk was at the far end of the office. He was an old man and very tall.

"Il piove", the wife said. She liked the hotel-keeper.

"Si, si, Signora, brutto tempo. It is very bad weather".

He stood behind his desk in the far end of the dim room. The wife liked him. She liked the deadly serious way he received any complaints. She liked the way he wanted to serve her. She liked the way he felt about being a hotel-keeper. She liked his old, heavy face and big hands.

Liking him she opened the door and looked out. It was raining harder. A man in a rubber cape was crossing the empty square to the cafe. The cat would be around to the right. Perhaps she could go along under the eaves. As she stood in the door-way an umbrella opened behind her. It was the maid who looked after their room.

"You must not get wet", she smiled, speaking Italian. Of course, the hotel-keeper had sent her.

Qahhor hikoyalarida ham shunday holat kuzatiladi. Uning "**Mayiz yemagan xotin**" hikoyasida ayol obrazi tasvirlangan:

Ayol kishi erkakka qo'l berib so'rashdimi – bas!.. Ro'za tutgan kishi og'zini chayqasa, suv tomog'iga ketmasa hamki, ro'zasi ochiladi – shu og'iz chayqashdan bahra oladi-da! Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning og'li bir hovuch mayiz berganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo'li – xo'p yo'l. O'n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo'lni yuvib qo'tiqqa ura bering. Paranj hayoning pardasi-da! Mulla Norqo'zi har kuni bozordan qaytib samovarga chiqadi va ko'ngli tortgan odamlarni atrofiga to'plab, yarim kechagacha shariatdan yuz o'girgan xotinalar to'g'risida shunday vaysab o'tiradi; ba'zan panjasini yozib, o'zi bilgan oilalarni sanab chiqadi:

– Sotiboldining xotini dorixonada ishlaydi, har kuni mingta odam bilan javob-muomala qiladi: axir, bittasi bo'lmasa bittasi ko'z qisadi-da!

Ernest Xemingueyning "Yomgirda qolgan mushuk" hikoyasida ham qahramonning nutqi orqali uning xarakteri yorqin ochib berilgan:

With the maid holding the umbrella over her, she walked along the gravel path until she was under their window. The table was there, washed bright green in the rain, but the cat was gone. She was suddenly disappointed. The maid looked up at her.

"Ha perduto qualche cosa, Signora?"

"There was a cat," said the American girl.

"A cat?"

"Si, il gatto".

"A cat?" the maid laughed. "A cat in the rain?"

"Yes," she said, "under the table". Then, "Oh, I wanted it so much. I wanted a kitty".

When she talked English the maid's face tightened.

"Come, Signora", she said. "We must get back inside. You will be wet".

"I suppose so", said the American girl.

They went back along the gravel path and passed in the door. The maid stayed outside to close the umbrella. As the American girl passed the office, the padrone bowed from his desk. Something felt very small and tight inside the girl. The padrone made her feel very small and at the same time really important. She had a momentary feeling of being of supreme importance. She went on up the stairs. She opened the door of the room. George was on the bed, reading.

Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasida ham qahramonlar, xususan, ayollar nutqi orqali ularning ichki dunyosi tasvirlab berilgan, ammo Qahhor ayol qismati orqali xurofotga berilgan erni fosh qilmoqchi bo'ladi:

"Namoz o'qiydi, odatdagi ro'zadan tashqari ashir oyida ro'za tutadi, zavoddan chiqqan nonni, hozirgi kushxonalarda so'yilgan molning go'shtini yemaydi. U kelib turganda mulla Norko'zi tashqarida – mehmonxonada yotib yuradi va uyini allaqanday nurdan munavvar bo'lgandek sezadi. Shuning uchun boshqa mehmonlarday sira uning "izzati uch kun" bo'lmaydi, necha kun tursa ham, tovuq go'shtini quymoqqa o'rab, qaymoqqa botirib yeydi. Uzoq turib qolgan vaqtlarida xotini:

– Qurib ketsin, keta qolmaydi ham. Lablarim quruqshab ketdi. Sadqai erkaklik keting, xilvatga tortib o'pishni ham bilmaysiz! – deb chiqsa, mulla Norqo'zi urishib beradi:

– O'zingga munosib gapni gapir! Yengil bo'lma! Mehmon – atoyi xudo.

Mulla Norqo'zi safarga ketadigan bo'lib qoldi; ketishidan bir kun ilgari xotiniga aytib, o'sha farishtani oldirdi va o'rta eshik oldiga borib qiyomatlik singlisidan iltimos qildi: – Singlim, men o'n kunda qaytib kelaman, kelgunimcha ortog'ingiz bilan birga bo'ling. Mana, o'zingiz ko'rgan joy, bemaol ayshlaringni qilinglar. Xo'pmi, singlim?

Xulosa qilib aytganda, Ernest Heminguey va Abdulla Qahhor hikoyalarida umumiy tomonlar ham yo'q emas, xususan, ulardagi ifodaning ixcham va ta'sirchanligi, real voqealarga asoslangani va boshqalar, ammo farqli jihatlar ko'p. Ayniqsa, Heminguey inson psixologiyasida bo'ladigan o'zgarishlarni, ruhiy kechinmalarni bayon qilishga urinadi, Qahhor esa qahramonni u yashab turgan muhit, jamiyatdagi kamchiliklar bilan birga tasvirlaydi, muhimi, unda obrazlar ruhiyatini ochish oldingi planda turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чернышевский Н. Г. Детство и отрочество. Военные рассказы. Сочинения графа Л.Н. Толстого. – М., 1949.
2. Выготский Л. С. Психология искусства. – СПб.: Азбука, 2000.
3. Yusupova Q. "Yomgirda qolgan mushuk" hikoyasi tarjimasida yozuvchi uslubini saqlash masalasi // Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari. Issue, 01/01/2023. <https://kelajakbunyodkori.uz/>.
4. Otaxon O. Sarhadlar // Jahon adabiyoti, 2014, №12.

Oybek GADAYEV,

O'zbekiston–Finlandiya pedagogika instituti dotsenti;

Dilshoda NORMAMATOVA,

O'zbekiston–Finlandiya pedagogika instituti magistranti

JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA TILSHUNOSLIKKA OID OMILLAR

Annotatsiya. Inson gapirishni boshlagandan to bugungi kungacha o'zini boshqalardan farqlab nomlagani kabi, o'zi yashayotgan joylarni o'zga joylarga qiyoslab atagan. Mavjud lingvistik hamda ekstralingvistik sharoitlardan kelib chiqqan holda nomlagan. Kishilik jamiyatining ilk davrlaridanoq inson uchun o'zi yashayotgan hududga nom qo'yish ehtiyojini sezgan, shu davrdan boshlab shaxsning o'zidan tortib istalgan har qanday obyekt o'z nomiga ega bo'lib keladi.

Kalit so'zlar: toponim, toponegiz, topoasos, onomastika, toponimlashuv, joy nomlari, topoformant, toponimik indikator.

Annotation. It is natural that a person, from the moment he begins to speak to the present day, names the places in which he lives, in comparison with other places, based on existing linguistic and extralinguistic conditions, just as he names himself differently from others. From the early days of human society, one felt the need for a person to name the area in which he lives, from this period onwards, any object, from the person himself, would have its own name.

Keywords: toponym, topoasosa, topoasos, onomastics, toponymization, place names, topoformant, toponymic indicator.

Аннотация. Вполне естественно, что с самого начала появления речи и до сегодняшнего дня человек называл места, в которых он жил, сравнивая их с другими местами и называя в соответствии с существующими лингвистическими и экстралингвистическими условиями. С самых ранних периодов существования общества человек осознавал необходимость дать название территории, на которой он живет, с этого периода любой объект, начиная от самого человека, будет иметь свое собственное имя.

Ключевые слова: топоним, топооснова, топооснование, ономастика, топонимизация, топонимические названия, топоформант, топонимический показатель.

“Toponimlar, ya'ni geografik nomlarning paydo bo'lishi o'ta qadim zamonlar bilan bog'lansa-da, ular o'z kelib chiqish tarixini, ya'ni o'ta qadimiyligini hozirgi davrgacha saqlab qolgan. Toponimlarni yaratishda, u obyektiv borliqning qaysi va qanday uzvi (daryomi, tog'mi, ko'lmi) bo'lishidan qat'iy nazar, inson bir joyni boshqasidan ajratish zaruratiga asoslanib nomlagan” [1: 31].

Bilamizki, nomlar ehtiyoj-u talablarsiz o'z-o'zidan shakllanavermaydi. Buning uchun nomlarga insonlar va ularning jamoalari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoj va talab kerak. V.Nikonov shunday ta'kidlagandi: “Shaharlar vayron qilinmoqda, davlatlar yemirilib bormoqda, tillar va hatto xalqlarning o'zi yo'qolib ketmoqda, lekin ularning joy nomlari saqlanib qolmoqda. Nozik so'zlar granitdan ham mustahkam bo'lib chiqqan... O'tmishning ma'nodor guvohlari bo'lgan geografik nomlar qimmatli tarixiy yodgorliklar orasida alohida davrlarning tirik akssadosi sifatida eng faxrli o'rinni egallaydi” [2: 15]. Bugungi kunda joy nomlarini ishonchli dalillar bilan ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy asoslarga tayanib ommaga talqin qila bilish lozim. Odatda bir narsani ikkinchi bir narsadan farqlovchi belgilarni topish bu – nomlash ehtiyoji sanaladi. Ajratib turish esa ularning yashashi uchun hayotiy talab hisoblanadi. Har bir narsa nomining so'z (lar) qarida yashiringan qandaydir ma'no nozikliklariga egaligini asoslab ko'rsatish esa talqin-u tahlil etishdir.

Fikrimizcha, lingvistik omillarning o'zagi quyidagilar:

- 1) fonetik omillar;
- 2) leksik omillar;
- 3) leksik-semantik omillar;
- 4) grammatik omillar.

Toponimlarning fonetik xususiyatlarini organayotganda ularning tovush tarkibi, tovushlarning turi, bo'g'in tuzilishi, toponimik nom tarkibidagi undoshlarning jarangli-jarangsizligi hamda urg'usiga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi A.Ishayev tomonidan aytib o'tilgan [3: 26].

Tahlil qilish uchun tanlangan toponimlar qanchalik tarixiy bo'lsa, ularni tashkil qilib turgan so'z, bo'g'in va nutq tovushlari ham ma'lum ma'noda miqdor hamda sifat o'zgarishlariga uchragan bo'ladi. Bunday holatlar toponimlarning aytilishida va yozib olinish jarayonida ro'y beradi. Shuningdek, so'z bilan so'zni semantik va sintaktik munosabatga kirituvchi ohang ham fonetik omillar majmuyiga tegishli hisoblanadi. Ushbu fonetik o'zgarishlarning jami fonetik omillar majmuyiga aloqadorlik xususiyatiga egadir.

Toponimik birliklar tarkibidagi fonetik jarayonlarni tahlil etish ham, shubhasiz, qiziqish uyg'otadi. Toponim tarkibidagi qaysi unlilar yoki qaysi bo'g'inlarga urg'u tushishini hozirgi o'zbek tili fonetik qoidalari bilan solishtirib ko'rish mumkin. Chunki har bir til toponimikasi muayyan fonetik xususiyatlarga ega. Lekin toponimlarning bu xususiyatlari bilan o'zbek tilshunosligida hech kim



maxsus shug'ullangan emas. Vaholanki, tilning dialektal xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi toponimlarni fonetik jihatdan o'rganish tarixiy fonetikaga oid ko'plab munozarali masalalarga, tillarning qardoshlik jihatlariga oydinlik kiritishi mumkin [4: 46].

Har bir tilning nutq tovushlari kompleksida ma'no bo'lgani kabi so'zlarda, xususan, toponimlarda ham nutq tovushlarining majmuasi bilan bir butun holatda ma'no anglashiladi. Mana shu holat toponimlarning tahlili jarayonida qo'llanadigan fonetik omillarda e'tiborga olinadi. Mazkur omillarda toponimni tashkil qilgan so'zlarning qanday fonemalardan tuzilgani va ularning talaffuz jarayonida turli fonetik o'zgarishlarga uchrashi kuzatiladi. Bunga misol qilib Ishtixon va Payariq tumanlari toponimlarining tahlilini ko'rsatish mumkin. Demak, fonetik omil toponimlarning etimologik tadqiqida zarur bo'ladigan omillar tarkibiga kiradi.

Fonetik omillar ta'sirida yuzaga kelgan toponimlarga quyidagilarni misollar sifatida keltirib, ulardan ba'zilarini izohlashga harakat qildik: *Oxmonovul* (I.t., Haqiqat MFY), *Sortoqchi* (I.t., Zarband MFY), *So'g'at* (I.t., Dagar Ochilov MFY), *Soharji* (I.t., Haqiqat MFY), *S'hog'ol* (I.t., Haqiqat MFY), *Janggat* (I.t., Haqiqat MFY).

S'hog'ol (I.t., Haqiqat MFY) – toponimida ham fonetik omillardan biri bo'lgan sh/h undoshlarining og'zaki nutqda almashinib qo'llanishi o'z ifodasini topgan. Toponim aslida *Shog'ol* shaklida bo'lishi kerak edi, ammo aholi vakillari toponimni *S'hog'ol* tarzida talaffuz etib, undoshlarning o'rin almashinishi fonetik omillarning biri ekanligini asoslamoqda. Undagi topoasosning o'zi ham toponegizni, ham topoasosni anglatib turibdi.

Oxmonovul (I.t., Haqiqat MFY) toponimidagi x undoshi kishining e'tiborini tortib turadi. Chunki bu harf ikkinchi undosh sifatida toponimlar tarkibida ko'p qo'llanmaydi. X undoshi sheva fonetikasiga xos xususiyatni, ya'ni ma'noni ifodalaydi. Shevashunoslikda bunday so'zlar fonetik-leksik yoxud fonetik dialektizmlar sanaladi. X undoshini biron-bir undosh bilan almashtirish imkonsizligi fonetik omilning shu toponimda voqelanganini ifodalaydi. Toponimning ma'nosi, kishilarning aytishicha, *Oxmon* degan kishi bo'lgan. U ulg'ayib ovulga bosh bo'lgan. Keyinchalik uning nomi ovuliga nom sifatida qo'llanadigan bo'lgan: *Oxmon-ovul* > *Oxmon ovul* > *Oxmonovul*. Bu yerda *Oxmon* nomi sheva vakillariga xos dialektal nomlardan biri deyish o'rinliroq. Unda ikki o'zakning birikishi natijasida qo'shma so'z paydo bo'lgani (*oxmon-ovul* > *oxmonovul*) kabi ikki negizning birikishidan qo'shma toponegiz (*Oxmon-ovul* > *Oxmon ovul* > *Oxmonovul*) hosil bo'lgan.

Bizningcha, *Abdurahmon* ismining qisqarib, *Axmon* // *Oxmon* holiga kelishi sabab bo'lgan. Bunda tarixan olib qaralganda qo'shma so'z negizida jiddiy qisqarish ro'y bergan: *Abdurahmon* > *Abduahmon* > *Abahmon* > *Ahmon* >

Oxmon. Bu qisqarish tovush tushish hodisasi hisoblanadi. Toponim *Abdurahmonning* ovuli ma'nosida nomlangan bo'lib, hozirgi holati *Oxmonovul* hisoblanadi.

So'g'at (I.t., Dagar Ochilov MFY) – toponimida ham g' undoshi unda fonetik omillarning voqelanganligini anglatib turibdi. Aslida u ikki so'zdan tashkil topgan: *suv*, *agat*. Bu ikkita ma'noli qismlar birikib, vaqt o'tishi bilan nomlanish uchun tanlanib, topoobyektning nomiga aylangan. Ammo uning asli, ya'ni ilk shakli va ilk ma'nosi bo'lgan etimoni ham turli fonetik hodisalar ta'sirida jiddiy o'zgarib ketgan: *suv* + *agat* > *suvgat* > *sugat* > *sug'at* > *Sug'at*. Bunda toponimning tarixiy qo'shma so'z holatidagi negizi *sug'at* shakliga kelib qolgan.

Payariq toponimining yasashiga e'tibor qaratsak. Tuman nomi fonetik o'zgarish natijasida shu variantga kelgan. Payariq dastavval Samarqand viloyatidagi qadimiy ariq bo'lgan. Qadimgi turkiy tilda *boy/bay/poy/pay/moy/umay ariq* – bosh ariq, ulkan anhor. Ariq nomi toponimlashuv natijasida tuman nomiga o'tgan. Qadimiy shakli – *Boyariq/Moyariq* [5: 144]. Payariq Somoniylar davrida viloyatning eng muhim ma'muriy markazlaridan biri sanalgan Ishtixon tumaniga yaqin joylashgan.

Hududdagi *Chelak* toponimi ham fonetik o'zgarishlar natijasiga ko'ra yuzaga kelgan. Ko'pchilik toponimni *chelak*, ya'ni paqir deb tushunadi va *chelak* shaklida talaffuz qiladi. Aslida so'zning *chelakka* hech qanday aloqasi yo'q. Toponim forscha “*chalak*”, ya'ni “*yuqori, baland*” degan so'z bilan bog'liq bo'lib [6: 156], fonetik o'zgarish natijasida *chelak* tarzida talaffuz qilinadi.

Payariq tumanidagi *Cho'rash* toponimi ham fonetik o'zgarish natijasida yuzaga kelgan: garchi Zarafshon vodiysidagi o'zbek qipchoqlarning bir urug'i cho'rash deb atalgan bo'lib, etnonim oykonimga o'tgan bo'lsa-da, qishloq aholisi Cho'rash deb nomlanishi haqida boshqacha fikr bildirishadi. Qishloqqa 4–5 otliq mehmonlar kelganda, mahalliy aholi ularga osh tayyorlab ziyofat berishgan. Pishirilgan osh sho'r bo'lgan ekan, mehmonlar ketishayotganida: “*Osh rosa sho'r bo'libdi, sho'r osh yedik*”, – deb aytishgan ekan. Shu sababli qishloq qariyalari yuqoridagi rivoyatga asoslanib, qishloq nomi Sho'rash yoki Cho'rash bo'lgan deyishadi.

Ta'kidlash joizki, aksariyat toponimlar fonetik tuzilishi jihatidan tilimiz fonetik qurilishi qoidalariga mos kelsa-da, ammo atrofdagi yoki ta'sir doirasi kuchli bo'lgan boshqa qardosh va noqardosh tillar ta'sir o'tkazganligini ham ko'rish mumkin.

Lingvistik omillarning ikkinchi bir ko'rinishi, turi bu leksik omillar sanaladi. Bu omillarga topoleksemalar, ya'ni o'zak, qo'shma so'z, juft so'zlar kiradi. Ularga yana o'z, o'zlashgan qatlam so'zlari ham daxldordir. Mana shu omilda joy nomini yuzaga keltirgan lug'aviy asoslar hamda ularning qaysi qatlamga oidligi masalasi e'tiborda

turadi. Toponimlar amalda bir yoxud bir necha lug'aviy asosdan, shu jumladan, topoformantlardan tashkil topadi. Ularning qaysi tilga oidligini asoslash leksik omilning vazifasi hisoblanadi.

Leksik omilda toponim(lar) tarkibidagi ma'nosi noma'lum ma'noli qism(lar) jiddiy tarzda e'tiborga olinadi. Toponimlar tarkibidagi ma'nosi noma'lum qismlarga:

a) jiddiy o'zgarishlarga uchragan tarixiy;

b) arxaik;

v) dialektal so'zlar oiddir. Ularga quyidagilarni namuna sifatida keltirish mumkin: *Payshanbiariq* (I.t., Azamat MFY, ariq), *Rasul kamar* (I.t., Shexlar MFY, uchastka), *Rasulkamar* (I.t., O'rtaqishloq MFY, Ulug'qishloq hududida joylashgan dala), *Qo'lota* (I.t., Zarband MFY), *Qulchara* (I.t., Chordara MFY) va boshqalar.

Leksik-semantik omillar toponegizlar bilan birgalikda toponimlar etimologik tahlilining talqinlariga xos chalkashliklarning oldini ma'lum ma'noda oladi.

Misollar: *Qo'riq Bodoq* (I.t., Xalqobod MFY), *Eshmurodtepa* (I.t., Xalqobod MFY), *Yuzurug'* (I.t., Azamat MFY), *Olqortepa* (I.t., Xazar bobo MFY q.), *Oyjuvoz* (I.t., Xazar bobo MFY).

Shu o'rinda *Qo'riq Bodoq* (I.t., Xalqobod MFY q.) toponimi haqida to'xtalsak. Ushbu toponim (I.t., Qo'riq

Bodoq)da birikma ko'rinishidagi toponegiz mavjud: qo'riq bodoq. Bundagi *Bodoq* so'zi kishi ismi yoki *botqoq* so'zining qisqarishga uchragan shakli bo'lishi mumkin. Birinchi holda *qo'riq Bodoq* degan kishiga qarashli degan ma'no ifodalangan. Ikkinchi holatda esa *qo'riq botqoqlikdan* iborat degan ma'no kelib chiqadi. Bizningcha, ikkinchi taxmin ishonarli. Chunki *botqoq* so'zidagi *t* undoshi nutqiy moslashuv natijasida *d* undoshiga o'tishi ham o'zbek tili uchun mumkin bo'lgan fonetik hollardan biridir.

Payariq tumanidagi shakllanishida leksik-semantik omillar muhim rol o'ynagan. Eshimoqsoq toponimi uch qismdan tashkil topgan: Eshim+oq+soqol kabi. Qishloq aholisi Qora Bo'z Qipchoq urug'laridan. Eshim oqsoq esa xalqqa osh-non bergan, e'tiborli shaxs Eshim oqsoqolning qisqartirilgan nomidir.

Toponimlarning jamiyat ehtiyoj-u talablari asosida shakllanishini lingvistik jihatdan ishonchli dalillar bilan o'rganish ularni ommaga talqin qilish imkoniyatini yaratadi. Bunda tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi voqea-hodisalarning yuzaga kelishi, oqibati, sababi va natijalari majmuyi sifatida umumlashadigan ekstralingvistik va lingvistik omillarning ta'sirini tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligining dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turdibekov M. T. Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy-lingvistik xususiyatlari. – Toshkent, 2022.
2. Никонов В. А. Введение в топонимику. – Москва: Наука, 1965.
3. Karimov S. A., Bo'riyev S.N. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
5. Dusimov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 1977.
6. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.



Lobar MARDONOVA,

Termiz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

ROMANLAR TURKUMIDA SOHIBQIRON SHAXSI: MUHIT, TARBIYA VA BUYUK SHAXSNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy buyuk shaxslar hayotini o'rganish, "Ulug' saltanat" tetralogiyasida Amir Temur obrazi, asardagi olimlar suhbatini, asarning vujudga kelishi, g'oyasi, dunyoning yaratilishida so'zning qudrati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ilm-fan, san'at, adabiyot, axloqiy qonuniyatlar, odob-axloq, madaniyat, ma'rifat.

Annotation. This article explores the lives of great historical figures, the portrayal of Amir Temur in the tetralogy "The Great Kingdom", the dialogue of scholars depicted in the work, the creation and idea of the work, and the power of words in the formation of the world.

Keywords: spirituality, science, art, literature, moral principles, ethics, culture, enlightenment.

Аннотация. В данной статье речь идет об исследовании жизни великих исторических деятелей, характере Амира Темура в тетралогии "Великое королевство", диалоге ученых, изображенных в произведении, создании произведения, идее произведения, власти слов в сотворении мира.

Ключевые слова: духовность, наука, искусство, литература, нравственные законы, нравы, культура, просвещение.

Bugun mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug' maqsad uchun sa'y-harakat qilinmoqda. Albatta u voqeligimizda namoyon bo'lishi, yuz ko'rsatishi uchun faqat iqtisodiyot sohasida jiddiy taraqqiyotgina emas, balki ma'naviyat, ilm-fan, san'at va adabiyot jabhasida ham yuksak saviyaga ko'tarilishimiz talab etiladi. O'tgan o'ttiz yil ichida istiqloq davri o'zbek adabiyoti vujudga keldi. She'riyat va nasr o'z zavalvorli yo'lida davom etdi. Dramaturgiya bir qadar oqsagan bo'lsa-da, uning yaxshi namunalari ham yo'q emas. Lekin muayyan yutuqlarimizni tan olgan holda aytish mumkinki, shonli tarix va madaniyatga ega millat va davlatga munosib asarlar yaratish masalasi hali ham dolzarb. Albatta, bunday asarlar yaratish o'z-o'zidan bo'lmaydi.

Hozirgi G'arb jamiyatida ro'y berayotgan axloqiy buzilishlar fonida badiiy adabiyotda go'zallik qonuniyatlari bilan bir qatorda, axloqiy qonuniyatlar, odob-axloq masalasi yetakchi mavqega chiqdi. Boshqacha aytganda, hozirgi kunda badiiy adabiyot, umuman san'at uchun estetikadan ko'ra etika muhimroqdir. Aslida go'zallik va axloq egizak tushunchalardir. F.M.Dostoyevskiyning turli-tuman talqin qilingan mashhur "Dunyoni go'zallik qutqaradi" degan fikrini biroz o'zgartirib, aniqlashtirib "Dunyoni go'zal axloq qutqaradi" degan bo'lardik.

Uzoq tarixdan ma'lumki, ummon qariga cho'kkan Lemuriya va Atlantida kabi yuksak taraqqiyotga erishgan tamaddunlar ayni axloqiy buzilish tufayli Yaratgan g'azabiga uchrab mahv bo'lgan. Bizning tamaddun axloqiy poklik, ma'naviy qadriyatlarni avaylab saqlashi, avloddan avlodga pok meros qilib qolishi kerak, bu hech mubolag'asiz, hayot-mamot masalasidir. "Ulug' saltanat" tetralogiyasidagi qahramonlarning halokati aynan shu bilan bog'liq. Xalil Sulton, Mironshoh, Sulton Husayn taqdiri misolida oliy qadriyatlarga, axloqqa rioya qilmaslik keltirib chiqaradigan ulkan fojia sifatida ko'rsatilgan.

"Ulug' saltanat" tetralogiyasida Amir Temur har doim avliyolar, olimlar bilan suhbat qurishi, fikr almashishi kuzatiladi. Sohibqironning "Xalab olimlari bilan suhbatini"ida ilmga, dinga bo'lgan yuksak e'tibor namunasini va ayni chog'da talabni ko'rish mumkin [1: 58]. Amir Temur ham har doim shirinso'z, xushmuomalalik bilan ish yuritishni o'ziga odat qilgan. Qur'oni karimda "Xush so'z Unga yuksalur" ("Fotir" surasi, 10-oyat) degan oyati kalima bor. Bunday xush so'z iborasi zamirida olam-olam ma'no bor. Umuman, ushbu oyat aynan buyuk adabiyotning vasfi bo'lib tuyuladi bizga. Zero buyuk adibimiz Oybek domla umrlari so'ngida shunday to'rtlik bitgan edilar:

*"Go'zal xulq gavhardir, aslo bo'lmas xor,
Hayot ildizida undan bir nur bor.
Haqiqat va axloq yaqin tug'ishgan,
O'g'lim, o'yla, umr o'tmasin bekor!"* [2: 153]

Biz shonli o'tmishimizda buyuk adabiyot yaratgan millatimiz va hozir ham yangi O'zbekiston sharoitida buyuk adabiyotga munosibimiz. Buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lish uchun ularning qahramonliklaridan ibrat olishimiz kerak. Tetralogiyadan kelib chiqadigan mana shu xulosa yuksak axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Hazrat Navoiyning bir ruboiysida:

*"So'z durki nishon berur o'lukka jondin,
So'z durki berur jong'a xabar jonondin,
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin"* [3]

– deyilgan. Inson ham aslida boshqa jonivorlar kabi bir jonzotligi, uni sharaflagan hodisa til, so'z qudrati ekanligi aytiladi. Sodir etilajak barcha ishlarning negizida so'z yotadi. So'z yordamida buyruq beramiz, tilak bildiramiz.

Aslida bu o'n sakkiz ming olam Tangning birgina "Bo'l!" degan xitobidan yaralgan. Hayotiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, gunohi kabiralarning aksariyati til tufayli sodir bo'ladi. So'zning zahri tig'ning zahridan ming chandon og'ir. Eng yomoni, so'zdan yetgan jarohat osonlikcha bitmaydi yoki ko'ngilda dog' bo'lib qoladi. Ko'ngilga olib boruvchi vosita nima? Albatta, so'z va uning sehrli kuchi. Biz uchun arzimaday tuyulgan bir og'izgina so'z bilan kishilarning yurak-bag'riga go'yoki tig' sanchamiz, bema'ni fe'l-atvorimiz tufayli aziyat yetkazamiz, chunki bizning tanamiz o'zgalarning vujudidagi og'riqlarni sezmaydi.

Hazrat Jaloliddin Rumiy ilmsiz kishilarni ichi bo'm-bo'sh xumga qiyoslagan. Shaddod shamol bo'sh xum ichida hushtak chalib aylanadi, undan faqat asabni qaqshatadigan noxush, uvillagan ovoz taraladi. Endi ichi to'la xumning holatini bir tasavvur qilib ko'ring, u sokin, qamrovi to'q, o'zini ham, o'zgalarni ham obi-hayot bilan sug'ora oladi.

Qissadan hissa, ilm so'z yordamida targ'ib qilinadi, bir xumdan ikkinchi xumga, ya'ni qalbdan qalbga shifo o'laroq oqib kiradi. Ruhshunos o'z ilmi, ruhiyatimizni ijobiy ma'noda harakatga keltiruvchi shirin kalomi bilan muolaja belgilaydi. Ya'ni o'zimizga bo'lgan ishonchimizni qayta mustahkamlaydi. Erkak va ayol so'z yordamida nikohlanadi. Bir og'iz kalima bilan musulmonga aylanadi inson, yoki aksincha. Eng so'nggi nafasda ham bir og'iz kalima asqatadi odamga. So'z ko'paygan joyda mantiq chekinadi. Keraksiz so'zlar xuddi ulkan dengizning ko'piklangan sho'r suvidek chayqalib yotadi-yu undan ichishning imkoni yo'q. Ichsangiz, badanga faqat og'riq va azob beradi. Eng qadimgi insonlarning o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida so'z aytish ehtiyoji buyuk hodisa sifatida ma'naviy inqilobni yuzaga keltirgan. Bu – so'z aytishga bo'lgan ehtiyoj edi. Ehtimol, ko'hna dunyoda ilk ajdodlarimiz hali kiyinishni bilishmagandir, ammo hozirgidek, bizchalik so'zga e'tiborsiz qarashmagani rost. Ilk odamning tiynatida Alloh bergan madaniyat, ma'rifat bor edi. Biroq tarix sahnida kechgan davr-u davronlar, turli xil tuzumlar, "madaniyat"lar insoniyatni asl maqsaddan chalg'itdi, oqibatda, aksariyat insonlar asl madaniyatdan bebahra bo'lib qoldi.

Chin ijodkor, asl so'z sarvari inson qalbining mayllari, evrilishlari haqida yozar ekan, unga tajribayu malakadan tashqari ilhom ham o'ta zarur. Onani aql mezonlarida o'lchab ko'rib sevim bo'lmagani kabi haqiqiy ijodni tushuntirib bo'lmaydi. Har bir yaproq rangida tahrir, har bir rangda tafsir bo'lgani singari "Bo'l" amri bilan yaratilgan inson bolasining o'z mezonlari, o'z nuqtayi nazari mavjud. Hamma gap shu nuqtayi nazarda, masalaga qaysi rakursdan yondashishga bog'liq. Deylik, kimdir agar Momo Havvo shaytonning so'ziga quloq tutmaganida odamzod jannatda mangu yashardi, deb aytishi ham mumkin. Boshqa bir odam esa xayriyatki, Momomiz shu xatoga yo'l qo'ygan ekan, biz Yaratganning zamindagi sinov-imtihoni, ishonch-u marhamatiga noil bo'ldik, deb shukrona qilishi, shu xato tufayli yerda hayot kechirayapmiz, degan mulohazaga borishi mumkin.

Mazkur tetralogiya o'quvchini o'zi bilan yolg'iz qolishga, juda qisqa umrning katta muammolari haqida o'ylashga, qiynalishga majbur qiladigan asar. Zero, dunyoda eng qiyin, eng murakkab narsa ham o'zing bilan gaplashish, o'z savollaringga rost javob qaytarishdir. Bu asar nafaqat ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy tuzum, balki insonning ichki meni – e'tiqod, iroda, imon, tarbiya haqida yozilgan dardnoma, shu millatni dildan sevgan, ardoqlagan insonning alamli, dardnok, dilo'rtar iztiroblaridir.

Bu kitob birdaniga tug'ilgan asar emas, u muallifning yillar davomida to'plangan tajribasi mahsuli hamgina emas, o'zini, o'zligini sog'ingan halovatsiz qalbning hech bir o'zanga sig'maydigan kechinmalaridir. Din va diyonatdan, iymondan putur ketgach, Yaratganning sinovlari tushadi. Xalq o'zini anglasa, Haqning amriga bo'ysunib qaytarganidan qaytsa, ahvoli o'zgaradi, turmushi o'nglanadi. Tetralogiyada Amir Temur haqida yozilgan aksar asarlardan farqli o'laroq, yurt va xalq boshiga tushgan ko'rguliklar, fojialar ildizi tashqarida emas – o'zimizda degan qarash singdirilgan. O'zga din va millat vakillarini aybdor sifatida ko'rsatish tendensiyasidan voz kechilgani boisi shunda. Romanda Amir Temur hukmronlik qilgan davrdagi hayot manzaralari aks ettirilgan bo'lib, imon va iymonsizlik, e'tiqod va soxta go'ya o'rtasidagi kurash bir oila farzandlari – temuriylar misolida ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uvatov U. Donolardan saboqlar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
2. Lafasov U.P. O'zbek tili. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2018.
3. "So'z durki, nishon berur o'lukka jondin..." – Navoiy nuqtai nazarida so'z va nutq. <http://m.xabar.uz/uz/madaniyat/soz durki-nishon-berur-olukka-jondin>.



Санобар УЛЛИЕВА,

старший преподаватель Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

РОЛЬ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В СОЗДАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА

Аннотация. Статья посвящена исследованию роли языковых единиц различных уровней в процессе создания художественного образа в литературном произведении. Рассматривается вклад лексического, синтаксического и фонетического уровней языка в формирование образности. Особое внимание уделяется анализу семантики слова и его коннотаций, использованию тропов и фигур речи, а также синтаксической организации текста и звукозаписи, подчеркивается, что именно мастерское владение языковыми средствами позволяет автору создавать яркие, эмоциональные и многогранные художественные образы, воздействующие на читательское восприятие и углубляющие понимание авторского замысла, подчеркивается, что изучение роли языковых единиц способствует более глубокому пониманию природы художественного языка и силы воздействия слова в литературе.

Ключевые слова: образ, тропы, фигуры речи, звукопись, лексический, синтаксический и фонетические уровни, языковые единицы.

Annotatsiya. Maqola turli darajadagi til birliklarining badiiy asarda adabiy obrazni yaratish jarayonidagi rolini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tilning leksik, sintaktik va fonetik darajalarining obrazlilikni shakllantirishdagi hissasi ko'rib chiqiladi. So'z semantikasi va konnotatsiyalari, troplar va nutq figuralarini qo'llash, shuningdek, matnning sintaktik shakllanishi va ovoz yozuviga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada ta'kidlanganidek, aynan til vositalaridan mohirona foydalanish muallifga o'quvchining asarni qabul qilishiga ta'sir qiluvchi va muallif niyatini tushunishni chuqurlashtiruvchi yorqin, emotsional va ko'p qirrali badiiy obrazlarni yaratishga imkon beradi. Til birliklarining rolini o'rganish badiiy til tabiatini va adabiyotda so'zning ta'sir kuchini chuqurroq tushunishga yordam berishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: obraz, troplar, nutq figuralari, ovoz yozuvi, leksik, sintaktik va fonetik darajalar, til birliklari.

В романе А.Рубанова запечатлена эпоха смены одного мировоззрения на другое: *«Новый мир рождается, когда возникает новый гад. Перемена жизни происходит только в ответ на угрозу. Теперь угроза есть, и, стало быть, мир изменится»* [2]. Именно поэтому змей покидает привычное для него место обитания, меняется и его облик, он становится меньше, слабее, потому что слабее становится вера людей в прежние устои. Для автора важно, чтоб змей ассоциировался у читателя именно с легендарным Горынычем, однако в романе его образ претерпевает значительные изменения. «Змей прежде всего и всегда – существо многоголовое» [3]. В романе голова у змея только одна, и та сильно покалечена людьми: *«У него только один глаз, – говорю я. – Другой давно выбили... Самые длинные рога на голове змея сбили наши предки, деды и прадеды, снесли ударами мечей и топоров»* [2].

В русской народной сказке «Чудесная рубашка» шестиглавый змей обладает живой и мертвой водой, благодаря которой возвращает к жизни умерщвленно-го солдата [1, с. 208]. А.Рубанов переносит эту деталь

в свой роман и интересно обыгрывает: роль мертвой воды выполняет слюна змея, способная залечить раны Финиста. *«От этого яда у твоего мальчика отнимется вся память, начисто. До самого нижнего доньшка. Всё и всех забудет. Не только девку – и тебя тоже. И себя... Говорю тебе, трёх дней не пройдёт, как раны затянутся, и твой сын будет как новенький, в самом прямом смысле»* [2].

В сказках мертвая вода срачивает разрушенную плоть героя, поэтому благодаря слюне змея раны затянулись. Мотив утраты памяти связан с символическим значением мертвой воды. Местом обитания змея в фольклорных источниках часто выступает река Смородина, именно ее мертвые воды становятся границей мира живых и усопших [3]. Перейдя реку, душа забывает свою земную жизнь, поэтому и разбавленная слюна змея обладает тем же эффектом. Другими словами, фольклорные образы, олицетворяющие природные силы, в романе утрачивают свою гиперболичность, поскольку в описываемую эпоху люди уже не испытывают сильного страха перед природной стихией.

Образ самого Ивана Кожедуба взят из фольклорной сказки «Никита Кожемяка», где Змея олицетворяет собой врагов-захватчиков русских земель. Никита, как истинный богатырь, убивает змея и, не требуя награды, возвращается к своему ремеслу. Важно, что движет им не ненависть или любовь, а чувство жалости при виде просителей [4, с. 263]. В романе Иван не похож на богатыря: он воин и поэтому не раз сталкивался со смертью, однако совершить подвиг ему не дано. Иван сильнее ослабшего змея, он может его убить, но страх перед пророчеством оказывается сильнее. Именно поэтому змея убивает другой герой – охваченный злобой Потык. Фольклорные образы богатырей статичны, их характеры определены уже в начале повествования и далее никак не изменяются. Именно поэтому А.Рубанов отказывается от традиционного изображения, стараясь передать сомнения героя, причины его поступков и сожаление о не сделанном: *«Надо было раньше снести. Чем раньше снесёшь башку гаду – тем лучше для всех. Вот время не снесёшь – гад родит потомство»* [2].

Таким образом А.Рубанов, отходя от традиционного сказочного описания героев, показывает средневековую картину мира, собранную из противоречивых взглядов на роль человека.

Кроме описания героев А.Рубанов изменяет и сам сюжет. Во-первых, в фольклорной сказке Марьюшка просит купить ей перышко Финиста ясна сокола, заведомо зная о его волшебных свойствах и о том, что с ним связана ее судьба. В романе А.Рубанов убирает неправдоподобную завязку и заменяет ее знакомством Марьи и Финиста на обыкновенном гулянии. Автору романа важно выстроить последовательную цепь событий для того, чтобы читателю были ясны поступки героев, продиктованные не сказочной условностью, а социокультурными особенностями описываемой эпохи



и характером самого героя. Так, уверенность Марьи, что Финист ее судьба, сохраняется в романе, но объясняется стремлением девушки к незаурядной жизни: *«Я хочу большего. Весь мир увидеть. Подняться к облакам и полететь, на запад и на восход. До Лукового моря, и до других морей. И до гор, на которые опирается небо, и до движущихся льдов, и до пустынь, засыпанных прахом»* [там же].

Во-вторых, изменяется структура сюжета. Исчезает мотив тройственности внутри сюжета: Марья берет с собой только одну пару железных сапог, один посох и один хлеб, на пути встречает только одну старуху. Тройственность у А.Рубанова проявляется на уровне композиции. Так ему удается сохранить правдоподобность романа и заложенную в сказке инициацию. С каждой изношенной парой сапог и сломанным посохом Марьюшке в сказке открывалась более глубокая мудрость в лице старухи.

Роман разделен на три части не только образами повествователей, но и трансформацией образа главной героини: *«Марья едва доставала мне до плеча, и показала, что от своего горя она ещё уменьшилась, усохла: как будто тоже стала оборотнем, и теперь понемногу, день за днём, убывала в размерах, из человеческой стати переходила в птичью стать, в иную природу»* [там же]. Марья из второй части кардинально отличается от Марьи из первой части как по описанию внешности, так и духовно. Читатель наблюдает взросление героини, через которое проходит каждый человек. Знакомство Марьи с разными людьми никак не влияет на нее, но сам путь, испытания, с которыми она сталкивается, играют решающую роль в ее духовном становлении: *«Старый лад и ряд обрушен, а новый лад и ряд ещё не установился, и установится не скоро... Войны происходят не от жадности, и не ради славы или добычи, а единственно от страха смерти. От желанья спастись»* [там же].

В-третьих, изменяются детали, связанные с волшебным предметами и помощниками. Вместо пера Финист оставляет Марье подзорную трубу, которая становится символом духовного прозрения героини. В сказке Марьюшка получает три волшебных дара от трех сестер, чтобы задобрить жену Финиста: серебряное донце, золотое веретенце, серебряное блюдо и золотое яичко, золотое пяльце да иголочку [1, с. 234-235]. В романе Марья получает только два дара и оба от разбойника. Чтобы пройти мимо охраны, Иван дает ей золотую цепь, затем «Донце-веретёнце. Пряжа, чистое золото. Можно рубаху сшить, или платье. Запомни: здесь все очень любят золото. Когда тебя приведут в княжий дом – покажешь» [2]. Из золотой нити Марья шьет платье для Цесарки в обмен на ночь с Финистом. Меняя некоторые детали, А.Рубанов сохраняет основной мотив золота: *«Вся наша малая и сильнейшая летающая раса – бесконечно влюблена во всё, что сверкает; в лучшее и самое дорогое. Эту страсть нельзя ни отменить, ни преодолеть. От рождения мы все следуем за золотым сиянием»* [там же]. Как в сказке, так и в романе этот мотив несет в себе одну и ту же идею – ложной ценности.

Итак, мы рассмотрели трансформацию фольклорных образов и сюжетов в романе «Финист ясный сокол» и пришли к следующим выводам: автор романа обращается к фольклору для того, чтобы сопоставить две картины мира – древнюю и средневековую; изменение традиционных фольклорных образов обусловлено меняющейся картиной мира, новым отношением людей к силам природы; уход автора от шаблонного изображения фольклорных героев дает читателю возможность лучше понять социокультурную обстановку. Изображенный мир утрачивает роль фона и становится главным объектом восприятия читателя.

Литература

1. Афанасьев А.Н. Народные русские сказки. Перышко Финиста ясна сокола. Лит. памятники. М.: Наука, 1984–1985.
2. Рубанов А.В. Финист ясный сокол. http://loveread.ec/view_global.php?id=796393.
3. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. <https://www.booksite.ru/localtxt/ist/ori/che/sky/kor/ny/ska/zki/prgrp/12.htm>
4. Афанасьев А.Н. Народные русские сказки. Никита Кожемяка. – Лит. памятники. М.: Наука, 1984-1985.

Дилрабо УБАЙДОВА,

старший преподаватель кафедры русского языка и литературы Бухарского государственного педагогического института

МИХАИЛ ВАСИЛЬЕВИЧ ЛОМОНОСОВ – ВЕЛИКИЙ РУССКИЙ ЛИНГВИСТ

Аннотация. В статье речь идет о великом мыслителе России М.В.Ломоносове, рассматривается его творчество как лингвиста, его труды “Риторика” и “Русская грамматика”.

Ключевые слова: академия, классицизм, гуманизм, язык, правила, риторика, грамматика, филологическое наследие.

Annotatsiya. Maqolada buyuk rus mutafakkiri M.V.Lomonosov, uning tilshunos sifatidagi faoliyati, “Ritorika” va “Rus tili grammatikasi” asarlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: akademiya, klassitsizm, gumanizm, til, qoidalar, ritorika, grammatika, filologik meros.

Annotation. The article is about the great Russian thinker M.V.Lomonosov, his work as a linguist, his works “Rhetoric” and “Russian Grammar” are considered.

Keywords: academy, classicism, humanism, language, rules, rhetoric, grammar, philological heritage.

Общие особенности филологического наследия М.В.Ломоносова

М.В.Ломоносов обучался в Московской академии, а затем продолжил образование в Европе. Вдохновленный идеями классицизма и гуманизма, он обратил внимание на важность изучения языка и литературы как основ культурного развития. Ломоносов был не только филологом, но и химиком, физиком и историком. Его филологическая деятельность органично вписывалась в систему его научных интересов, и он всегда стремился синтезировать знания, обращая внимание на взаимосвязь различных областей науки. Ломоносов работал в разных областях филологии: грамматике, лексикографии, стилистике и литературной критике. Он также активно занимался изучением древних языков и их влиянием на русский язык.

«Русская грамматика» (1755). Это один из первых трудов, в котором Ломоносов систематизировал правила русского языка. В своей грамматике он объединил лучшие традиции европейской науки о языке с особенностями русского языка, заложив основы русского языкознания.

«Риторика». Ломоносов также написал работу по риторике, в которой изложил основы ораторского мастерства, влияния речи на аудиторию и принципы построения убедительных высказываний. Это произведение тесно связано с изучением языка и литературы. Ломоносов также является одним из первых авторов, создавших словарь русского языка. Его труд «Словарь русского языка» не был завершен, но это был значимый шаг в лексикографической практике XVIII века. Ломоносов подчеркивал необходимость научного подхода к изучению языка и литературы, что отличало его от многих предшественников и современников. Он считал, что язык является живым, развивающимся организмом, и его изучение требует систематичности и научности. Ломоносов заимствовал и адаптировал для русского языка многие идеи и методы европейской филологической науки, особенно из работ немецких и французских ученых. При этом он стремился развивать уникальные особенности русского языка, подчеркивая его богатство и

гибкость. Филологические труды Ломоносова сыграли ключевую роль в становлении современного русского языка. Его исследования в области грамматики и лексикографии стали основой для дальнейших работ ученых и литературоведов. Ломоносов активно занимался литературной критикой, что оказало влияние на развитие русской литературы XVIII века. Его идеи о правильности и гармонии в языке и стихосложении способствовали формированию стандартов для русского литературного языка. Ломоносов заложил основы русской филологической школы, которая в дальнейшем развивалась и совершенствовалась в трудах таких ученых, как В.И.Даль, А.И.Соболевский и других. Филологическое наследие Михаила Ломоносова является неотъемлемой частью русской научной и культурной традиции. Его труды в области грамматики, лексикографии и риторики положили начало современному научному подходу к изучению русского языка и литературы. Ломоносов стал не только первым крупным русским филологом, но и основателем русской филологической школы, оказав неизгладимое влияние на развитие русского языка и науки в целом. Михаил Васильевич Ломоносов оставил богатое и разнообразное филологическое наследие, которое стало основой для дальнейшего развития русской лексикографии, грамматики и литературы. Его филологическая деятельность является не только выдающимся примером синтеза науки и искусства, но и отражает важнейшие особенности эпохи просвещения в России. В этой статье будут рассмотрены основные аспекты филологической работы Ломоносова: её историко-культурные предпосылки, место в научной системе мыслителя и ключевые направления.

Ломоносов был учёным, для которого не существовало строгих границ между различными дисциплинами. Его научная система была всеобъемлющей и стремилась к объединению различных знаний, включая физику, химию, философию, историю и, конечно, филологию. Являясь универсальным ученым, Ломоносов всегда подходил к языковым вопросам с точки зрения необходимости их интеграции с другими областями науки.



Кроме того, Ломоносов использовал свои филологические исследования как методологическую основу для разработки других научных дисциплин, таких как история, риторика и даже физика. Например, разработанная им теория о существовании универсальных законов, согласно которым должны развиваться все системы, включая языковую, отражала его подход к изучению языка как живого, развивающегося организма. Филологическая деятельность Ломоносова охватывает несколько ключевых направлений, которые в совокупности сформировали его вклад в развитие русской науки о языке и литературе. Одним из важнейших достижений Ломоносова стала его работа в области грамматики. В 1755 году он издает свою знаменитую «Русскую грамматику», которая стала первым в России систематическим и научным трудом по языковым правилам. Ломоносов разработал грамматическую основу русского языка с учетом особенностей его структуры и потребностей русского общества того времени. В «Русской грамматике» он заложил основы морфологии, синтаксиса и орфографии, которые легли в основу дальнейших грамматических исследований. Филологическое наследие Михаила Ломоносова нельзя представить без анализа его фундаментальных трудов в области грамматики и лексикографии. Эти работы стали основой для создания русской грамматической науки и для дальнейшего развития русской лексикографии, а также оказали влияние на становление литературного языка в России. В статье будет подробно рассмотрена его «Русская грамматика» (1755).

«Русская грамматика» (1755). Одним из величайших достижений Ломоносова в области филологии является написание первой в России «Русской грамматики» (1755). Это был первый научный труд, который систематизировал правила русского языка и предложил его грамматическую структуру на основе научного подхода. Грамматика Ломоносова стала основой для дальнейших грамматических исследований и сыграла важную роль в становлении русского литературного языка. Она стала не только научным трудом, но и культурным событием, которое оказало долгосрочное влияние на развитие русского языка и литературы.

Структура и содержание «Русской грамматики»

Грамматика Ломоносова состоит из нескольких частей, каждая из которых посвящена определенному аспекту языка. В ней он систематизировал основные правила русского языка, описывая их в соответствии с европейскими научными традициями, адаптируя их под особенности русского языка. Основные разделы грамматики включают:

1. Фонетику – Ломоносов детально описал звуковую систему русского языка, разработав систему для описания звуков и ударений.

2. Морфологию – В этом разделе Ломоносов изложил основы склонения существительных и прилагательных, спряжения глаголов, а также изучение частей речи. Он объяснил правила образования форм слов и их изменения в зависимости от синтаксической функции.

3. Синтаксис – Ломоносов изложил правила построения предложений, использования союзов, а также указал на правильное расположение слов в предложении.

4. Правописание – Он также занимался установлением норм орфографии, в том числе правил написания гласных и согласных, что на тот момент было весьма актуально, учитывая неопределенность в правописании.

Роль и значение работы

Основное значение «Русской грамматики» заключалось в том, что она представила русский язык как научно организованную систему. Ломоносов использовал передовые методы европейской лингвистики, однако учитывал особенности русского языка, такие как богатство и гибкость его фонетической и морфологической структуры. Грамматика была направлена на создание единого литературного языка, который можно было бы использовать в официальных документах, научных трудах и литературных произведениях. Его грамматика стала основой для дальнейших реформ в области русского языка, и, несмотря на критику со стороны некоторых ученых его времени, продолжала использоваться и изучаться на протяжении последующих десятилетий. Грамматические и лексикографические труды Михаила Ломоносова не только внесли огромный вклад в развитие русского языка, но и заложили основы русской филологической науки. Его работы по грамматике и лексикографии стали важными этапами на пути к созданию единого русского литературного языка, который смог бы эффективно функционировать в культуре и науке.

Вклад Ломоносова в эту сферу невозможно переоценить, и его труды до сих пор остаются важной частью русистики. М.В. Ломоносов в своем творчестве не только занимался лексикографией и грамматикой, но и активно разрабатывал теорию литературы, литературную критику и концепцию роли искусства в обществе. Его взгляды на литературу, язык и мораль, а также критические оценки произведений оказали огромное влияние на развитие русской культуры XVIII века. Ломоносов был одним из основателей русской литературной науки, и его работы стали основой для будущих литературных и философских течений в России.

Использованная литература

1. Ломоносов М.В. Русская грамматика. СПб.: Изд-во РАН, 2001.
2. Ломоносов М.В. Поэтика. М.: Издательство МГУ, 1993.
3. Бенашвили В.Ф. Михаил Ломоносов: жизнь и творчество. М.: Наука, 1995.
4. Гаспаров М.Л. История русской литературы XVIII века. М.: ЛКИ, 2004.
5. Сказкин А.С. Русская филология от Ломоносова до Пушкина. СПб.: Изд-во РХГА, 1997.

Feruzaxon MURATXODJAYEVA,
*Sharq universiteti g'arbiy tillar bo'limi dotsenti,
tilshunoslik fanlari doktori*

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIK PARADIGMANING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqola kognitiv tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning ahamiyatini ko'rsatishga bag'ishlangan. Ushbu yondashuv tilni inson ongining asosiy ifodasi va tushunchalar tizimi sifatida o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada antroposentrik paradigmaning nazariy asoslari, uning tilshunoslikka oid boshqa paradigmalardan farqlanish xususiyatlari, kognitiv tilshunoslikdagi o'рни va amaliy ahamiyati har tomonlama ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, antroposentrik paradigma, metafora, konseptual aralash, til va tafakkur.

Annotation. This article is dedicated to highlighting the importance of the anthropocentric paradigm in cognitive linguistics. This approach plays a crucial role in studying language as the primary expression of human consciousness and the system of concepts. The article examines the theoretical foundations of the anthropocentric paradigm, its distinct characteristics in comparison with other linguistic paradigms, its place in cognitive linguistics, and its practical significance.

Keywords: cognitive linguistics, anthropocentric paradigm, metaphor, conceptual blending, language and cognition.

Аннотация. Данная статья освещает значение антропоцентрической парадигмы в когнитивной лингвистике. Этот подход играет важную роль в изучении языка как основного выражения человеческого сознания и системы понятий. В статье рассматриваются теоретические основы антропоцентрической парадигмы, ее отличительные черты по сравнению с другими лингвистическими парадигмами, ее место в когнитивной лингвистике и практическое значение.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, антропоцентрическая парадигма, метафора, концептуальное слияние, язык и познание.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigma tilni inson ongining asosiy ifodasi, dunyoqarashi va tushunchalar tizimi sifatida o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv tilshunoslikni faqatgina lingvistik hodisalar tahliliga qaratilgan soha sifatida emas, balki inson tafakkurining tub mohiyatini anglash vositasi sifatida qarashga imkon beradi. Ayniqsa kognitiv tilshunoslik doirasida antroposentrik yondashuvning dolzarbligi oshib bormoqda, chunki u til va tafakkur o'rtasidagi murakkab, o'zaro bir-birini boyituvchi munosabatlarni chuqurroq tahlil qilishga yo'l ochadi [1: 5–6]. Ushbu maqola ana shu yondashuvning nazariy asoslari, tilshunoslikda qo'llanilishi va uning inson ongi hamda kognitiv jarayonlarni tadqiq qilishdagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, maqolada antroposentrik paradigmaning o'ziga xos xususiyatlari, uning kognitiv tilshunoslikning rivojlanishiga qo'shgan hissasi hamda turli tillar tizimlarini tahlil qilishdagi metodologik roli keng yoritiladi. Mazkur tahlillar orqali tilning faqat kommunikativ vosita emas, balki insonning idrok va tafakkur jarayonlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi namoyon qilinadi.

Antroposentrik paradigma tilni faqat lingvistik birliklar tizimi sifatida emas, balki inson tajribasi, dunyoqarashi va madaniyati bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu yondashuv tilni o'rganishda insonni markaziy o'ringa qo'yadi, chunki til inson tafakkurining shakllanishida va ifodalanishida muhim vositadir [2: 15].

Kognitiv tilshunoslikda antroposentrik paradigma inson ongining asosiy mexanizmlari, jumladan, metaforalar, konseptual sxemalar va mental modellarning tilga qanday ta'sir qilishini tadqiq etadi. Masalan, Lakoff va Johnson (1980) tomonidan ilgari surilgan metafora nazariyasi tilning inson tajribasini qanday aks ettirishini ko'rsatadi. Metaforalar nafaqat til birligi, balki insonning dunyoni idrok qilish usuli sifatida ham namoyon bo'ladi.

Tilning kognitiv yondashuvi til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganadi. Langacker (1987) "Kognitiv grammatika" asarida tilni inson ongining dinamik va doimiy rivojlanayotgan tizimi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv til birliklarining faqat strukturaviy xususiyatlarini emas, balki ularning ma'no shakllantirish jarayonidagi rolini ham o'rganadi [3: 7].

Antroposentrik paradigma doirasida asosiy e'tibor til va madaniyatning bir-biriga ta'siriga qaratiladi. Kovecses (2002) metaforalarni madaniy kontekstda o'rganishda tilning inson tajribasini qanday shakllantirishini ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, Tomasello (2003) til o'rganish jarayonini insonning ijtimoiy va madaniy aloqalari bilan bog'laydi.

Til va tafakkur o'rtasidagi aloqani tushunish kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. Fauconnier va Turner (2002) tomonidan ishlab chiqilgan "Konseptual aralash" nazariyasi inson ongining murakkabligiga e'tibor qaratadi. Ushbu nazariya til orqali inson tafakkurining



turli darajadagi konseptual birlashmalari qanday shakllanishini tahlil qiladi.

Tilning inson tajribasini aksettirishdagi roli Willingham (2007) tomonidan tan olingan "critical thinking" (tanqidiy fikrlash) nazariyasida ham ko'rinadi. Tilga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va bilimni ko'paytirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi.

Kognitiv tilshunoslikda antroposentrik paradigma inson ongining murakkabliklarini til orqali o'rganishga imkon yaratadi va bu jarayon tilshunoslik sohasida yangi metodologik yondashuvlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ladi. Ushbu paradigma til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq anglashga yordam beradi, tilning nafaqat kommunikatsion vosita sifatida, balki insonning ichki dunyosini, tafakkurini va dunyoqarashini aks ettiruvchi tizim sifatida ahamiyatini oshiradi. Til nafaqat o'zaro fikr almashish, balki inson tajribasini tasvirlash va shakllantirish vositasi sifatida kognitiv tilshunoslikda o'rganilishi uning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Antroposentrik paradigmanning tilshunoslikda qo'llanilishi tilni inson tafakkuri bilan bog'lab, lingvistik

hodisalarni ijtimoiy, madaniy va psixologik kontekstda tushunishga ko'maklashadi. Bu yondashuv til o'rgatish va tarjima sohasidagi amaliy tadqiqotlar uchun yangi metodologiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Shu bilan birga, kelajakda antroposentrik paradigma asosida olib boriladigan tadqiqotlar tilshunoslikka yangi nazariy va amaliy yondashuvlarni olib kirishi, kognitiv jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishga yo'l ochishi mumkin [4: 56].

Shuningdek, antroposentrik paradigma til va ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda, turli madaniyatlar va tillarni tahlil qilishda, tilni o'rganish va o'rgatish jarayonlarini samarali tashkil etishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bu paradigmaga asoslangan tadqiqotlar tilshunoslikda kognitiv va psixologik yondashuvlarning integratsiyasini kuchaytiradi, til o'rganishning yanada samarali va interaktiv usullarini ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shuning uchun antroposentrik paradigma kognitiv tilshunoslikning kelajakdagi rivojlanishida muhim o'rin tutadi va inson tafakkuri, madaniyati va tili o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq tushunishga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshonqulov O. Til va tafakkur: Kognitiv lingvistika asoslari. – Tashkent: Fan, 2015.
2. Shodmonov X. Antroposentrik paradigma va til. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2018.
3. Murodkhodjaeva F. Cognitive-semantic analysis of words and word combinations and their expression in translated texts. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(7), 2022.
4. Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. – New York: Basic Books, 2002.

Oygul AXMEDOVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professor v.b.,
filologiya fanlari nomzodi*

O'ZBEK XALQ TERMALARIDA AN'ANA VA BADIHAGO'YLIK MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq termalarida an'anaviylik va badihago'ylik masalasi Po'lkana shoirning "Burgunsoy" termasi orqali ochib berishga harakat qilingan. Baxshilarning termalardagi an'anaviy misralarga munosabati, ijrodagi badihago'ylik masalalari folklorshunos olimlarning tadqiqotlariga tayangan holda tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: terma, an'ana, satira, kinoya, doston, baxshi.

Annotation. This article attempts to explore the problem of traditional and artistic self-expression in folk terma using the example of the terma "Burgunsoy" of the poet Polkan. Based on the research of folklorists, the attitude of bakhshi to traditional poems in terma and the issues of artistic expressiveness in their performance are analyzed.

Keywords: term, tradition, satire, irony, epic, bakhshi.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка исследовать проблему традиционного и художественного самовыражения в народных терминах на примере термина "Бургунсой" поэта Полкана. На основе исследований фольклористов проанализировано отношение башхи к традиционным стихам в терминах и вопросы художественной выразительности в их исполнении.

Ключевые слова: терма, традиция, сатира, ирония, эпос, башхи.

Folklorning qaysi janrga oid namunalarini o'rganmaylik, ularni og'zaki badiiy ijodning qonuniyatlari asosida tahlil va talqin qilamiz. Chunonchi, an'anaviy va individual termalarni an'ana va badiha muammosi kesimida tadqiq etish mazkur janrga xos xususiyatlarni to'laroq ochishga imkoniyat yaratadi. Demak, shu o'rinda an'ana va badiha ta'riflarini eslab o'tish joizdir.

An'ana (traditsiya) ham ommaviy, ham individual ijodni dialektik birlikda namoyon qiluvchi, butun bir xalqning badiiy boyligini mujassamlashtiruvchi folklor hodisasidir.

Badiha (improvizatsiya) xalq og'zaki ijodining an'analarni o'zida jamlagan, baxshilar va xalq shoirlari tomonidan yangi badiiy asarlar yaratilishida voqelikni estetik in'ikos etish vositasi tarzida amalga oshuvchi, muayyan ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan va ma'lum badiiy hosila sifatida maydonga chiqqan folklor doirasidagi individual ijod hodisasidir [1].

Mavzumizga doir fikrlarni davom ettirar ekanmiz, an'anaviy termalarda an'ana va badihaning namoyon bo'lishini "Armoning qolmasin (Go'rog'li tilidan)" termasi misolida ko'rib chiqamiz. Undagi band tuzilishi quyidagicha:

a) ma'lum o'rinlarda 3 misradan so'ng 2 misra naqorat keladi:

*"Bordim Iramning bog'iga,
Chiqdim parilar tog'iga,
Obi hayot bulog'iga,
Yetdim, armonim qolmadi,
Yetgin, armoning qolmasin";*

b) boshqa hollarda 4 misradan keyin 2 misra naqorat keladi:

*"Men Chambilning vallamati,
Bul jahonda qoldi oti,
Yurtga dushman ko'z olartsa,
Qarab turmas yigit mardi.*

*Dongdan armonim qolmadi,
Dongdan armoning qolmasin";*

a) bir bora 3 misra izidan 4 misra naqorat keladi:

*"Maydon-maydon G'irni yeldim,
Bir yor dedim, jonim bo'ldim,
Oy Yunusni olib suydim,
Suydim, armonim qolmadi,
Yordan armonim qolmadi,
Yordan armoning qolmasin,
Suygin, armoning qolmasin" [2].*

Akademik To'ra Mirzayev "Ergash Jumanbulbul o'g'li bu termanni aytayotganda, band oxirida bir misrani aynan ikki marta takrorlagan, uni yozib olayotgan ustod Hodi Zarif: "Qaytariq bo'lib qolayapti-ku" – degan, shunda xalq shoiri naqoratning ikkinchi misrasini bizlar o'qib o'rgangan shaklga o'zgartirgan" degan fikrlarni bildirgan. Demak, ustod Hodi Zarifning eslatmasi Ergash shoir badiha qilishiga yo'llanma bo'lgan. An'ana muhitida badiha badiiy mantiq taqozosiga ko'ra tadrijiy ravishda shakllanadi. Sirdan qaragan kishiga ilkidan sodir bo'lgandek ko'rinadigan yangilik aslida uzoq ijodiy jarayonning hosilasidir. Go'rog'li va uning ulug' xizmatlarini alqab, xalq, butun olam ahli go'yoki g'ayb o'qiyotgan duo, ya'ni termadagi naqoratlar to'g'risida ham yuqoridagi sharhni takrorlashimiz joiz. Folklorshunos olim xalq shoiriga bildirgan tanqidiy mulohaza ana shu allaqachon yetilgan badihaning ro'yobga chiqishiga imkon yaratgan va u termadan o'z o'rnini egallagan.

Ma'lum xalq shoirlari yaratgan mustaqil, zamonaviy termalarni "individual termalar" deb yuritishni lozim topdik. Bunday termalarning yorqin namunalaridan biri 1908-yili Fozil Yo'ldosh o'g'li yaratgan "Chigirtka" termasidir. Tarixdan ma'lumki, 1898 – 1908-yillarda O'rta Osiyo ekin maydonlarini chigirtka bosib, el-yurtning rizqini quritgan. Odamlar nihoyatda qiyin ahvolda qolgan.



*“Bozorchidan shayton qaytib,
 Biriga uch baho aytib,
 O'ttiz olib, to'qson sotib,
 Davlatmandlar qabon bo'ldi.*

*Kambag'alning aqli shoshib,
 O'g'il-qizman kengashib,
 Kecha-kunduz zor yig'lashib,
 Do'stlar qaddi kamon bo'ldi” [2].*

“Chigirtka” termasi XIX asrning oxiri – XX asrning ilk o'n yilligida O'rta Osiyo xalqlari boshiga tushgan tabiiy ofat va uning kasofati ortidan sodir bo'lgan qiyinchiliklarning badiiy talqini sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

O'zbek xalq shoirlari ijodida an'ana va badihaning tadrijiy bardavomligi hamda ular zamirida ro'yobga chiquvchi badiiy xususiyatlar haqida folklorshunos olim M.Qo'shmoqovning “Haq ko'ngillar va ilhom tantanasi” maqolasida berilgan ilmiy tahlililarni quyida ulashmoqchimiz.

Qo'rg'on dostonchilik maktabi ulug' namoyandalardan biri – Muhammadqul Jonmurod o'g'li – Po'lkani shoir (1874 – 1941) badiha qilib aytgan “Burgansoy ko'pkarisi” (1936 yil) termasi folkloriy va hayotiy fenomen (noyob davriy hodisa), jasorat va ilhom tantanasi, degan qarashni asoslashga intilaylik. Yaratilgan onlaridan to bizning kunlarimizgacha tildan tilgan o'tib, og'zaki yashab kelgan bu termanni yozuvchi, jurnalist, folklorshunos Rahim Qodir “Po'lkani shoir ibрати” kitobida (2015) e'lon qildi.

1936-yili Xatirchida, Burgansoydagi O'rta qishloqda yashovchi Boliboy sori to'y qilib, ko'pkari bergan jarayonida, yaratilgan ushbu terma Po'lkani shoirning ijodkorlik kuchi, insoniy ildizlari qanchalik teranligini ko'rsatadi. Baxshi xalqning ko'pkari, poyga kabi mardlik, qahramonlikka to'la qadriyatlarini ham ma'nan qo'riqlashga mas'ul ekanini uqtiradi:

*Xaloyiq, shoirman, biling, Po'lkanni,
 Necha ko'pkari, poyga ko'rganni.
 Ammo ko'rmadi bunday suratni”.*

U ko'pkari ko'ngildagidek o'tishiga javobgar bakavullar shu yig'inda nochor qolganlarini afsus bilan ta'kidlab o'tadi:

*O'zin gapdon bilgan bakavullar,
 Ishin bilmas quruq qorovullar,
 Shular ham keldi Burgansoyga”.*

Xalq shoiri “tarafkash noshud chavandozlar”ni, “buzg'unchi nosozlar”ni qoralaydi, ichki g'alayonlarini ta'sirchan ifodalaydi:

*Oh urganda so'zlaydigan so'zim bu,
 Urushdi istadi, ne sabab, kim u!*

Shoir bir nomard o'z qilg'iligi bilan elni ajratib yu-borishi mumkinligidan xavotirga tushadi:

Urug'-urug', tortish-tortish, ajabo...

G'irromlik oqibatida kelib chiqqan ur-sur, tiyiqsizlik o'ziga qanchalik yomon ta'sir qilganini odmi, sodda bayon qiladi:

Ensam qotdi, hushim yo'q, e Xudoyo!..

Lekin bu mushkul ahvoldan xalqning azaliy va abadiy ma'naviy qadriyatlariga amal qilish orqali chiqish mumkinligiga baxshining imoni komil:

*Ko'hna dunyo ta'rifidan so'zlay,
 Yuragim o'rtab-o'rtab bo'zlay...*

Ana shunda xalq birligi g'oyasi butun el-yurtning, Vatanning oliy maqomini belgilovchi va uning ushbu ustuvorligini tobora mustahkamlashga abadiy safarbar, qodir ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ladi:

*Aslin bilsang – bir elat o'zbekimiz,
 Tomir boylagan bir tup o'zakmiz,
 To'p bo'libdi bugun Burgansoyga.*

Ardoqli baxshi to'y, tuz berish faqat xususiy, maishiy tadbir emas, balki elning inoqligini bevosita va bilvosita ta'minlovchi ijtimoiy marosimlardan biri ekaniga ham ishora qiladi. To'y va ko'pkari ixtiyoriy yoki g'ayriixtiyoriy tarzda g'irromlik yo'lga o'tganlarni to'g'ri yo'lga qaytarish, ruhan tozalanishiga imkon yaratuvchi omil, degan hikmatni ilgari suradi:

*Insonda bordir qosh bilan ko'z,
 Bandaning shaytonin qilar inoq tuz,
 To'y qilsa aytar o'zbek elning barisi,
 Elni qoyil etsak, deb kelar sarasi,
 To'p bo'libdi bugun Burgansoyga.*

Po'lkani shoir har bir umidli inson hayoti mazmunini tashkil etuvchi “elni qoyil etish” haqidagi – hamisha yuksakliklarga chorlovchi falsafani o'z termasiga kiritishi uning xalqchilligidan yana bir dalolat [2].

An'ana va badiha – folklor asarining qo'sh yuragi va qo'sh qanoti, ular hech qachon bir-birisiz yolg'iz yashay olmaydi. Badiha muayyan an'ana kesimida shakllangan ma'lum g'oyaviy yoki badiiy ehtiyoj taqozosi ila yaraladi. Muayyan an'anaviy asar, folklorning qaysi janriga mansubligidan qat'i nazar, ijtimoiy zarur falsafiy g'oya negizida, ma'lum mavzu o'zanida shakllanib, uzoq yillar tadrijiy rivojlanadi, tugallik va mukammallik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'shmoqov M. Traditsiya va improvizatsiya problemi (Qo'rg'on dostonchilik maktabi namoyandasi Ergash Jumanbulbul o'g'li repertuari misolida): Fil. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1984.
2. Qo'shmoqov M. Haq ko'ngillar va ilhom tantanasi // Yangi O'zbekiston, 2021.

Durdona KADIROVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti;

Nargiza MAHMUDOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MARGARET ETVUDNING DISTOPIYA JANRI TARAQQIYOTIDAGI ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqola Kanada adabiyoti vakili, jahon adabiyotida ham o'z o'rniga ega yozuvchi, shoir, olim, tanqidchi Margaret Etvudning distopiya janriga qo'shgan hissasiga bag'ishlanadi. Maqolada yozuvchi haqidagi biografik ma'lumotlar, unga bag'ishlangan maqola, monografiya va antologiyalar haqidagi ma'lumotlar ham o'rin olgan.

Kalit so'zlar: antologiya, monografiya, Kanada adabiyoti, distopiya, utopiya, ilmiy fantastika.

Annotation. This article is devoted to the contribution of Margaret Atwood, a representative of Canadian literature, a writer, poet, scholar, and critic who has also taken her place in world literature, to the dystopian genre. The article contains biographical information about the writer, articles, monographs, and anthologies dedicated to the writer.

Keywords: anthology, monograph, Canadian literature, dystopia, utopia, science fiction.

Аннотация. Данная статья посвящена Маргарет Этвуд, представительнице канадской литературы, писательнице, поэтессе, ученой и критику, занявшей место в мировой литературе и внесшей вклад в жанр антиутопии. В статье содержатся биографические сведения о писателе, статья, посвященная писателю, сведения о монографиях и антологиях.

Ключевые слова: антология, монография, канадская литература, антиутопия, утопия, научная фантастика.

Kanada adabiyoti alohida adabiyot sifatida shakllanayotgan bir vaqtda allaqachon Amerika adabiyotida yozuvchi sifatida tanilib ulgurgan

Margaret Etvud 1939-yil Kanadaning Ottava shahrida tavallud topgan. Otasi Karl Edmund Etvud zoologiya fanlari nomzodi, professor, onasi Margaret Doroti Killam esa dietolog bo'lgan. Otasi ilmiy ish qilishi uchun Etvudlar oilasi Kanadaning chekka joylariga borib yashashiga to'g'ri keldi [4: 21]. Shu sababli Margaretning bolaligi turfa joylarda sarguzashtlarga boy tarzda o'tdi. Sayohatlar natijasida Margaret va akasi Gerold maktabga qatnay olmadilar. Lekin bunday hayot tarzi ularga kitob o'qish hamda qiziqarli o'yinlar o'ynashga imkon berdi. Maktabga borishiga qadar aka-singil ilk ta'limni onasidan oldi. Margaret E.Po, M.Tven, J.Oruel, Ch.Dikkens asarlarini o'qib ulg'aydi [4: 24]. U 1957-yili Viktoriya kollejida bakalavr darajasini, AQShning Redklif kollejida esa magistrlik darajasini oldi. 1961-yili Garvardda doktorlik ishini boshladi, lekin uni tugallamadi [10: 7].

Yozuvchining ijodi keng qamrovli. 2006-yili u LongPen – uzoq masofadan turib dastxat beradigan qurilmani ixtiro qildi [12]. Qurilma turli mamlakatlardagi yozuvchi va kitobxonga videoqo'ng'iroqda suhbatlashish hamda intervyu uyushtirish imkonini berdi. Margaret Etvud 60 dan ortiq kitob muallifi bo'lishiga qaramay, avvalo, kitobxon va tanqidchidir.

Ijodkorga bag'ishlab har yili chop etiladigan "Annotated bibliography"ning 1 yillik sonida unga atalgan 133 dan ortiq ilmiy asarlar kiritiladi [10: 7]. Bundan tashqari, "The Cambridge Companion to Margaret Atwood", "The Cambridge Introduction to Margaret Atwood" kabi monografiyalar uning hayoti va ijodiga oid maqolalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, N.Kukning "Margaret

Atwood: A Biography" ("Margaret Etvud tarjimai holi"), R.Sallivanning "The Red Shoes: Margaret Atwood starting out" ("Qizil tufli: Margaret Etvud chiqmoqda") kabi biografik asarlar ham u haqda ma'lumot beradi [10: 1].

1980-yili Margaret Etvud Jamiyati tashkil etildi va 1984-yildan boshlab Margaret unga bag'ishlangan byulleten chop etila boshlandi. Unga atalgan Britaniyadagi birinchi antologiya "Margaret Atwood: Writing and Subjectivity, New Critical Essays" nomi bilan 1994-yili K.Nikolson tomonidan chop etildi [10: 8]. Shimoliy Amerika va Britaniyada nufuzi ortgach, 1980-yillarda yana 4 ta antologiya nashr etildi [10: 7].

Ko'p yillar mobaynida Kanada o'z adabiyoti va madaniyatiga ega bo'lmagan, "Kanada adabiyoti", "Kanada madaniyati" shakllanmagan, yozuvchilar asarlarini Amerika adabiyoti namunasi sifatida chop ettirgan. Kitobxonlar ham ularni amerikalik sifatida tanigan. Atoqli va iste'dodli adib, shoir, adabiyotshunos, tanqidchi hamda muharrir Margaret Etvud esa nafaqat Amerika adabiyoti, balki Kanada adabiyoti rivojiga sezilarli darajada hissa qo'shgan.

1957-yili Margaret Etvud Toronto universitetining Viktoriya kolleji tashkil etgan Ingliz tili va adabiyoti dasturiga a'zo bo'ldi. J.Makferson, F.Nortrop kabi o'qituvchilari uning yozuvchilik faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Kanada tanqidchiligining yirik vakili F.Nortrop Etvudga yuqori maktabga kirishni maslaxat berdi va u yerda yozish uchun doimo vaqt bo'lishini ta'kidladi. 1961-yili – yuqori maktabni bitirish arafasida Margaret o'zining "Double Percephone" ("Qo'sh Persofon") she'riy to'plami uchun Pret Medalini qo'lga kiritdi. Keyin Garvard universitetining Redklif kollejida ingliz adabiyoti bo'yicha magistrlik ishini boshladi.



Yozuvchi ijodiy faoliyatini 1960-yillarda she'riy asarlar yozishdan boshlagandi. Ilk she'riy to'plami "Qo'sh Persafon"da hayot va san'at, tabiat resurslari va inson qo'li bilan yaratilgan narsalarni taqqoslaydi [6]. "Circle games" ("Aylana o'yinlar") she'riy to'plami esa uni Kanada she'riyatida o'z ovozigacha ega ijodkorga aylantirdi [8: 134]. Keyinroq "Animals in that country" ("Narigi mamlakatdagi hayvonlar") to'plamidagi she'rlari orqali sivilizatsiya va yovvoyi hayot, jamiyat va hayvonot dunyosi o'rtasidagi farqni ochib berdi. To'rt yildan so'ng yaratilgan "Surfacing" ("Yuzaga chiqish") romanida ham shu kabi mavzu qalamga olingan [3]. Ammo "Power Politics" ("Siyosat kuchi") she'riy to'plami mutlaqo boshqa mavzuga qaratilgan: unda shoirning siyosiy qarashlari aks etgan. Shuningdek, "You are happy" ("Sen baxtlisan", 1974), "Two-headed poems" ("Ikki boshli she'rlar", 1978), "Selected poems 1" ("Tanlangan she'rlar 1", 1965–1975), "Selected poems 2" ("Tanlangan she'rlar 2", 1976–1986), "Morning in the burned house" ("Yongan uydagi tong", 1995) kabi she'riy to'plamlari ham adibning tiriklik va hayotga nisbatan turli qarashlarini akslantirgan.

Margaret Etvud 1969-yili "Edible woman" ("Yeyishli ayol") nomi bilan birinchi romanini kitobxonlar e'tiboriga taqdim etdi. Unda ayol o'zligi, shaxslar o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar yoritildi, feminizm mavzusiga urg'u berildi. Bu mavzular keyingi asarlarda kuchliroq ochib berildi. Xususan, ikkinchi romani "Yuzaga chiqish" (1972) da ayol g'oyib bo'lgan otasini qidirib, bolaligi o'tgan yovvoyilik qo'ynidagi uyiga qaytishi haqida hikoya qilinadi. Ayol otasining izini topish uchun hamrohlaridan ajraladi, hamma narsadan voz kechib, hayvon kabi yashashga harakat qiladi. Lekin uchinchi roman – "Lady Oracle" ("Orakul xonim") boshqa bir qahramon hayotiga bag'ishlangan. Unda romantik yozuvchi sifatida gavdalangan bosh qahramonning o'tmishi va hozirgi hayoti tasvirlanar ekan, erkak kishining ikki – salbiy va ijobiy jihatlari haqida so'z boradi. Asardagi ayol Janna uchratgan barcha erkaklarda shu ikki jihat mavjud. Etvud erkaklarning 2 tomonini tasvirlash orqali ayol kishini ham 2 xil taqdir kutadi deydi, ya'ni ayol uchratgan erkakning salbiy yoki ijobiyligiga qarab u yoki qurbon bo'ladi yoki qahramonga aylanadi [5: 166]. "Orakul Xonim", "Yeyishli ayol" hamda "Yuzaga chiqish" kabi asarlar yakunida hotirjamlik hukm suradi. Ulardagi ayol qahramon barcha muammolarni yenga olmasa-da, zamondagi muammoli vaziyatlarni tan oladi.

Yozuvchi 80-yillarda bir nechta nufuzli universitetlardagi faxrli lavozimlarda ishlab yurgan kezlari "Bodily harm" ("Sog'liqqa zarar"), "Cat's eye" ("Mushukning ko'zi") romanlarini ham yaratdi. 1990-yillardan keyin esa ma'no va shakl jihatdan bir-biridan tubdan farq qilgan "The Robber Bride" ("Og'ri kelin") va "Alias Grace" ("Eliz Greys")

romanlarini yozdi. Ularda ayollarning qo'lidan keladigan yovuzliklardan kishini ogohlantirdi. Shu yillarda "Snake Woman" ("Ilon Ayol") she'riy to'plamini ham chop etdi. 2000-yillardagi ijod namunalari qatoriga "The Blind Assassin" ("Ojiz qotil"), "Oreks va Kreyk", "Meddaddam trilogiyasi"ning qolgan qismlari ham qo'shildi. 2016-yili yozgan "Hag-seed" ("Jodugar urug'i") asari U. Shekspir "Bo'ron"ining zamonaviy talqini hisoblanadi. 2019-yili "Oqsoch hikoyasi"ning davomi sifatida "Testaments" ("Qadimgi va Yangi ahdlar") asarini yaratdi [1].

Etvud bolalar uchun ham talay asarlar yaratgan. "Up in the tree" ("Daraxt tepasida") 1978-yili, ya'ni Kanadada bolalar kitoblarini nashr qilish juda qimmat va nashriyotlardan kata tavakkalchilikni talab qilgan vaqtda yozilgan ilk shunday asari bo'lgandi. Adib asarni o'zi yozuv mashinasida teradi va kitob uchun rasmlarni ham o'zi yaratadi. Bir necha yil o'tgach "Ann's pet" ("Annaning uy hayvoni", 1980), "For the birds" ("Qushlar uchun", 1990), "Princess Prunella and Purple Peanut" ("Malika Prunella va siyohrang Yeryong'oq", 1995), "Rude Ramsey and Roaring Radishes" ("Qo'pol Ramsey va o'kiruvchi rediskalar", 2003), "Bashful Bob and Doleful Dorinda" ("Uyatchan Bob va g'amgin Dorinda", 2004), "Wandering Wenda and Widow Willop's Wunderground Washery" ("Daydi Vendava Beva Villopning yer ostidagi kirxonasi", 2006) asarlarini ham yaratdi [9]. Shu taxlit yozuvchining ijodi gullab boraverdi.

Margaret Etvudning ijodida distopiya janri alohida o'rin egallaydi. Bu borada u o'z qarashlariga ega. Distopiyani ilmiy fantastika sifatida qabul qilinishiga Etvud butunlay qarshi. "Oqsoch hikoyasi" asari haqida gapirar ekan, bu haqda shunday deydi: "I define science fiction in which things happen that are not possible today – that depend for instance, on advanced space travel, time travel, the discovery of green monsters or other planets or galaxies or that certain various technologies we haven't yet developed" [1: 92]. U hatto distopiya va utopiya so'zlarini birlashtirgan holda yangi adabiy shaklni o'ylab topdi va uni ustopiya deb atadi: "Utopia is a word I made up by combining utopia and dystopia- the imagined perfect society and its opposite-because, in my view, each contains a latent version of the other" [1: 92]. U spekulativ nasrni ilmiy fantastik tanqidchilardan ayro holda o'zgacha baholaydi. Asarlarini ilmiy fantastika deb baholanishiga qarshilik qilgan holda U. le Guinning "Oryx and Crake" ("Oreks va Kreyk") hamda "Toshqin yili" ("The Year of the flood") asarlarining taqrizida shunday yozadi: "I found that what [Le Guin] means by "science fiction" is a speculative fiction about things that really could happen whereas things really could not happen she classifies under "fantasy". In short, what Le Guin means "science fiction" what I mean "speculative fiction" and what she

means by “fantasy” would include what I mean by “science fiction” [2: 7].

Margaret Etvud ijodida “Oqsoch hikoyasi”, “Meddaddam trilogiyasi” asarlari distopik asarlar hisoblanadi. “Meddaddam trilogiyasi”da distopiya janrining barcha xususiyatlari: atrof-muhit muammosi, ayolga nisbatan jinsiy zóravonlik, ilm-fandan noto'g'ri foydalanish, tabiat va hayvonlarni o'z maqsadi uchun qurbon qilish, dinni niqob qilish kabi mavzular qamrab olingan. “The Heart goes last” (“Yurak oxiri uradi”) asari esa kelajak haqidagi ham kulgili, ham qayg'uli satirik distopiya yo'nalishida yozilgan. Asar 2012-yilda onlayn roman tarzida yozilib, Bilayner veb-saytida e'lon qilingandi, 2015-yil kitob holida chop etildi. Iqtisodiy inqiroz, atrof-muhitning vayron bo'lishi, bioinjeneriya kabi masalalarni qamrab oladi bu asarda huddi Jorj Oruelning “1984”dagi kabi noma'lum boshliq distopik jamiyatni boshqaradi. Unda distopik muammoga utopik yechim sifatida yangi jamiyat, ya'ni shaxarcha taklif qilinadi, lekin utopiya deb e'tirof

etilgan bu shaharcha o'zining yashirin xususiyatlarini fosh etib, distopiyaga aylanadi [11: 40489]. Bu o'rinda Etvud yaratgan “ustopiya”ga xos xususiyatlarni ko'rish mumkin. Asarning satirik distopiya deb atalishining sababi – mazmunida J.Svift ijodiga xos satira va kinoyaning mavjudligida.

Shunday qilib, Margeret Etvud mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tasvirlashni maqsad qilgan va bu yo'lda distopiyaga tayangan. Bu janr Etvudga o'z metodini topishida yordam berdi. U bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda ham faol, shaxsiy sahifasida “Amaliy utopiyalar” [7] nomli o'quv-mashg'ulotini tashkil etgan. Asarlarining aksariyati ayol dunyosi, ichki kechinmalarini ochib berishga qaratilgani bois kitobxonlar uni feminist yozuvchi sifatida tan oladilar. Ijodkor esa adabiy merosini boyitish, muhlislarini shod etish yo'lida tinmay mehnat qilmoqda, turli adabiy kechalar, loyihalar va taqdirlash marosimlarida ishtirok etmoqda. Uning bu chiqishlari yosh qalamkashlar uchun mahorat maktabi bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atwood M. Writing with intent: Essays, reviews, personal prose, 1983–2005. – New York: Carroll & Graf Publishers, 2005.
2. Atwood M. In other worlds: SF and the human imagination. – New York: Nan A. Talese, 2011.
3. Baldwin E. Analysis of The animals in that country by Margaret Atwood. Poem Analysis. Retrieved 2019-04-20.
4. Cooke N. Margaret Atwood: A biography. – Ontario: ECW Press, 1998.
5. Davidson A.E., Davidson C.N. Margaret Atwood's Lady Oracle: The artist as escapist and seer // Studies in Canadian Literature. – 1978, № 3(2).
6. Margaret Atwood. <https://www.poetryfoundation.org/poets/margaret-atwood>.
7. Margaret Atwood. Practical Utopias. <https://margaretatwood.ca/practical-utopias/>.
8. Howells C.A. The Cambridge companion to Margaret Atwood. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
9. Yes, Margaret Atwood has written children's books. <https://thoughtsbecomewords.com/2018/10/28/yes-margaret-atwood-has-written-childrens-books/>.
10. Macpherson H.S. The Cambridge introduction to Margaret Atwood. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
11. Meera K.S. In the world of dystopia – a theoretical analysis of The Heart Goes Last by Margaret Atwood // Elixir Literature. – 2016, № 94.
12. Mead R. The New Yorker. Margaret Atwood, the Prophet of Dystopia. <https://www.newyorker.com/magazine/2017/04/17/margaret-atwood-the-prophet-of-dystopia>.



Zavqiyjon FAYZULLAYEV,

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

TURKIY PANDNOMALAR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR (Asriy Tabriziyning "Pandnomayi Asriy" asari misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy pandnomalar haqida fikr yuritilgan, xususan, ijodkor Asriy Tabriziyning "Pandnomayi Asriy" asari tahlilga olingan, undan ba'zi namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: turkiy til, asriy, ijod, maqol, didaktika.

Annotation. This article explores Turkish admonishments with a particular focus on the work "Pandnomayi Asri" by Asri Tabrizi, offering a detailed analysis and presenting selected excerpts from the text.

Keywords: Turcic language, Asri, creativity, proverb, didactics.

Аннотация. В статье рассматриваются тюркские дидактические произведения, в частности анализируется трактат "Пандномаи Асрий" Асрия Тебризи, приводятся фрагменты из данного сочинения.

Ключевые слова: тюркский язык, Асрий, творчество, пословица, дидактика.

Inson hamma zamonlarda ham adabiyotning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Adabiyot – insonshunoslik fani ekan, demak, butun adabiyot tarixini inson haqidagi fikriy-g'oyaviy qarash, insonni tasvirlash, inson mohiyatini kashf eta borish tarixi deb atasa bo'ladi. Chunki har bir yozuvchi, har bir shoir jamiyat hodisalari, o'zini qiziqtirgan, ilhomlantirgan g'oyalarni qalamga olar ekan, albatta, inson siyrati va surati, axloqi, faoliyati, niyat-orzulariga to'xtalib o'tadi. Insonning o'zi nima, u qayerdan kelib chiqqan, hayotda o'zini qanday tutishi kerak, insoniyat jamiyati, odamlar fikrining bir-biriga munosabati nimalar asosida qurilishi lozim? Bu savollar faqat faylasuflar, siyosatdonlarinigina emas, adiblarni ham o'ylantirgan.

Ko'p asrlik Sharq adabiyotida inson muammosi doimiy ravishda bahs-munozaraga sabab bo'lib, turli qarashlarni vujudga keltirgan. Sharqning gumanist shoirlari diniy xurofot va feodal zulm-istibdodning kuchaygan davrlarida ham insonni ulug'lash, uning ajib fazilatlarini vasf etish, nomaqbul, tuban holatlarini tanqid qilishni kanda etmaganlar [3: 18]. Insonning axloqiy fazilatlarini hamisha Sharq shoirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Adabiyot so'zining "adab" so'zidan paydo bo'lgani ham buni ko'rsatib turibdi. Musulmon Sharqida yetishgan qaysi bir shoir ijodini olib ko'rmang, unda pand-nasihahat ohangidagi asarlarga duch kelamiz. Qadimgi adiblarimiz adabiyotni tarbiya vositasi deb qarashgan. Xoh sof lirik asarlar bo'lsin, xoh voqea-hodisalar, afsona-sarguzashtlardan iborat epik asarlar bo'lsin, ularda mav'iza, ya'ni o'git-nasihahatlar xarakteridagi qismlar bo'lgan [3: 72]. Ko'pincha pandnoma, didaktika, o'git, nasihat kabi tushunchalar yonma-yon yuradi. Bu mazmunga mansub adabiyot deyilganda, pand-nasihahat, ibrat xarakteridagi adabiyot va shu turdagi asarlar nazarda tutiladi. Bilamizki, Sharq qadimdan odoblar o'lkasi sanalgan, buni dunyo hamjamiyati ham e'tirof etadi. Xususan, turkiy adabiyot tarixida pandnoma xarakteridagi asarlar ham ancha bo'lib, ular shu vaqtga qadar jahon adabiyoti bezagi sifatida qadrlanib kelinmoqda. XI asr ijodkori Yusuf Xos

Hojibning "Qutadg'u bilig", XII asrda yashab ijod etgan Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlari bilan boshlangan turkiy didaktika keyingi davrda o'zining kamolot cho'qqisiga chiqdi. Alisher Navoiyning "Xamsa" asari tarkibidagi birinchi doston – "Hayrat ul-abror", XVI asr ijodkori Xojaning "Miftoh ul-adl", "Gulzor" asarlari, Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" kabi asarlarida didaktika yetakchilik qildi.

Biz bu borada faqat yuqoridagi ijodkorlar nomlarinigina sanab o'tgan bo'lsak-da, adabiyotimiz tarixidagi deyarli har bir siymo o'z asarida tarbiyaga murojaat qilgan, asarlarining kichik bir o'rnida bo'lsa-da, didaktikaga o'rin ajratgan. Biz quyida tadqiq etmoqchi bo'lgan ijodkor Asriy ham, garchi o'zga yurtida yashab ijod etgan esa-da, turkiy shoir bo'lganligidan uning ham didaktik ruhdagi asarlarini tadqiq etishni joiz deb hisobladik. To'g'ri, shoir lirik merosining katta qismi orifona ruh bilan sug'orilgan, ammo uning bizgacha yetib kelgan merosi qatorida "Pandnomayi Asriy" nomi bilan yuritiluvchi pandnomasi alohida mavqega ega. Qo'limizdagi "Pandnomayi Asriy" yigirma besh baytdan tashkil topgan. Eronlik olim J.Mir o'g'lining fikricha, aslida pandnomaning hajmi bundan katta [1]. Asriy ham Sharqning boshqa ulug' siymolari kabi hayoti davomida boshdan kechirgan hodisalari, undan olgan xulosalarini ixcham, sodda va tushunarli shaklda pandnoma ko'rinishiga keltirib, o'quvchilarga taqdim etgan. Shoir pandnomaning katta qismida xalq maqollariga murojaat qilgani asarning shiradorligini ta'minlagan. Ijodkor pandomasini "Necha javharli so'z demish otalar" misrasi bilan boshlaydi:

*"Necha javharli so'z demish otalar,
Dingla, box! Har birinda hikmat vor"* [1: 45].

Mazkur baytdagi "javharli so'z" birikmasi, ko'pincha, xalq maqol va matallariga, ya'ni zarbulmasallariga nisbatan ishlatilgan. Otalardan murod esa o'tgan ajdodlarimizdir. Javhar so'zi arabcha bo'lib, qimmatbaho

toshlarning umumiy nomini anglatadi. Bu so'z o'zbek, fors-tojik tillarida "gavhar" shaklida keladi. Demak, shoir asarining ilk baytidanoq o'quvchi diqqatini jalb etgan holda uni o'zining "javharli so'zlar" olamiga g'arq etadi. Pandnomaning beshinchi baytiga diqqat qilamiz:

*"Insonin yonsa og'zi sutdan agar,
Puflayub-da yug'radi ila ichar"* [1: 46].

Ushbu bayt mazmunida xalqimizning "Og'zi kuygan qatig'ni ham puflab ichar" maqoli mujassam. Bu maqol ehtiyotsizlik yo noshudlik bilan bir ish qilib yo gapirib qo'yib, pand yeb qolgan yo ziyon-zahmat ko'rgan, keyin har bir ishda nihoyatda ehtiyotkorlik qiladigan odamning holatini ifoda etadi va shunday odamga nisbatan qo'llanadi. Mazkur maqol Payg'ambarimiz (s.a.v)ning: "Mo'min kishi o'zini bir inga ikki marta chaqtirmaydi", hadisi mazmunining davomidir. Zero, ular zamirida "Bir marta xato qilgan kishi ikkinchi marta uni takrorlamaydi" ma'nosi mujassam. Yoki:

*"Demirinda sen tovinda dukmaka boq,
Egilir yosh ekin og'och on choq"* [1: 46], –

baytining birinchi misrasi mazmuni "Temirni qizig'ida bos", ikkinchi misra mazmuni esa "Egri cho'pni olov to'g'rilaydi, egri kishini go'r" maqollari mazmuniga hamohangdir. Yoki:

*"Dard ko'rmush o'lon-la dardlashsan,
Chunki domdon dushan bilir holdan"* [1: 46], –

jumlalaridan iborat sakkizinchi bayt mazmuni "Dard davosini tabibdan emas, dard chekkandan so'ra" va "Tabib tabib emas, boshidan o'tkazgan – tabib" maqollariga mazmunan yaqin. Yoki:

*"Bilmayursan, chekinma, so'r doim,
So'rmayon kimsa o'l mamish olim"* [1: 47], –

misralaridan iborat o'n birinchi baytning tubida hazrat Navoiyning allaqachon xalq maqollari qatoridan o'rin olgan "Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan – o'ziga zolim" hikmatlari yotadi. Zero, ilm so'ramoq, qidirmoq, bilmoq bilan mustahkamlanadi. Yoki:

*"Johilin har zamon uzinda qara,
To beshikdan mazora ilmi ora"* [1: 47], –

misrali o'n ikkinchi bayt mazmuni Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning "Beshikdan qabrgacha ilm izla" yoki "Ilm talab qilish har bir mo'min va mo'mina uchun farzdir" hadislarini mazmuni bilan bir xil. Darhaqiqat, ilm bizni najotga eltadi, hech bir ish usiz bitmaydi, shuning uchun muqaddas dinimiz ta'limotlari

ham bizni ilm olishga da'vat etadi. Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni karim" oyatlarida, shuningdek, suyukli Payg'ambarimiz (s.a.v) hadislarida ham ilm haqida ko'p bora aytilgan. Xususan, Imom Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" (Ishonchli to'plam) asarida ilmning fazilati xususida shunday deyiladi: Alloh taolo oyati karimasida: "Alloh taolo sizlarning orangizdagi iymon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulug' qilg'aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Alloh taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir", – deyilgan. Yana boshqa oyati karimada esa "Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilg'aysen, deb ayt!" deyilgan [2:17]. Yoki:

*"Qiyshi fikr aylamak, kerak yoydan,
Kiridunmaz chixincho ux yoydan"* [1: 47], –

misrali o'n uchinchi bayt ikkinchi misrasi "Aytilgan so'z – otilgan o'q" xalq maqoli mazmunini ifodalaydi. Bu maqolda jamoa orasida yoxud ayrim shaxslarga biror gapni aytishdan avval uni obdon o'ylab, atroflicha mulohaza qilib olish zarurligi uqtiriladi. Kishining aytgan har bir so'zi – xoh yaxshi, xoh yomon, xoh o'rinni, xoh o'rinsiz bo'lsin, uni also qaytarib bo'lmaydi. Mazkur maqol ham yuqorida aytilgan ma'nolarni ifodalaydi. Yoki:

*"Har zamon uyama dodli so'zlarsan,
Og'la der do'st, kuldirar dushman"* [1: 47].

Mazkur bayt pandnomada o'n to'rtinchi hisoblanib, uning zamirida "Do'st achitib gapirar, dushman – kuldirib" xalq maqoli yotibdi desak, to'g'ri bo'ladi. Bu maqolda chin do'stdan faqat foyda tegadi, u kishiga yomonlik sog'inmaydi, ziyon-zahmat yetkazmaydi, agar u qattiq gapirsa, bundan xafa bo'lmaslik kerak, chunki u kishini yomonlikdan qaytarmoq maqsadida shunday qiladi, kabi fikrlar mujassam. Yoki:

*"Dushman gar bir o'lsa, cho'xso bilir,
Do'st ammo min o'lsa, yo'xso bilir"* [1: 47], –

misralaridan iborat o'n beshinchi bayt "Dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p, do'sting mingta bo'lsa ham oz" maqoli mazmunini ifodalaydi. Yoki:

*"Qiso dut xal ichindasan dilini,
Ham yemak irikin doxi ilini"* [1: 47], –

misrali o'n oltinchi bayt mazmunida xalqimizning "Tilning so'zlamay og'izda turmog'i yaxshi, keskir qilich g'ilofda turgani yaxshi" hikmati ma'nosi mujassam. Yoki:

*"Qononir ham kechar ilin yorasi,
Qononir sanama, kim dilin yorasi"* [1: 48].



O'n yettinchi baytda kelgan ushbu jumlar ham "Tig' yarasi ketadi, til (dil) yarasi ketmaydi" xalq maqoli ifodalagan ma'noga teng. Yoki:

*"Qayma sovuq suv kimsanin oshina,
Kulma hech qo'nshina, kelar boshina"* [1: 48], –

misrali o'n sakkizinchi bayt mazmuni "Birovning ustidan kulmagin zinhor, sening ham ustingdan kuluvchilar bor" yoki "Qarindoshga kulma, kelajakda o'z boshingga tushar" ma'nolaridagi xalq maqol va hikmatlariga yaqindir. Yoki:

*"Yaxshiliq chun vojib bo'ldi biza,
Yaxshiliq et-da istar ot deniza"* [1: 48].

O'n to'qqinchi baytda kelgan ushbu misralar tubida "Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilar, baliq bilmasa, Xoliq bilar" xalq maqoli mazmuni yotibdi. Yoki:

*"Zinat o'lmaz ajuz ichun g'oz,
Gar halab urda-burda andoza"* [1: 48], –

misralardan iborat yigirma birinchi bayt "So'qir ko'zga surma" maqoli mazmunini ifodalaydi. Yoki:

*"Aylama zulm, et hazar "oh"dan,
Qo'rx u kasdan, ki qo'rxmas Allohdan"* [1: 49].

Yigirma to'rtinchi baytda keltirilgan mazkur misralar mag'zida "Allohdan qo'rqmagandan qo'rq" hikmati yotibdi. Ko'ryapmizki, bir necha asr avval aytilgan ushbu fikrlar hozir uchun ham dolzarb, adabiyotning tom ma'noda insonshunoslik ekanligi ham, balki, shundandir. Asriy pandnomasi so'ngini quyidagi bayt bilan yakunlaydi:

*"Asriyo! Pandin o'ldi xayri kalom,
Garchi ma'lumi ayladin e'lom"* [1: 49].

Aslida biz shoir pandnomasining to'liq shakli emas, balki faqat ma'lum cheklangan o'rinlari haqidagina fikr yuritdik, xolos. Bu esa Asriy ijodi to'g'risida bizga faqat tushuncha beradi, shoir ma'nolar olamidani bahramand bo'lish uchun uning keng ko'lamdagi ijodiy faoliyati bilan tanishishimiz talab etiladi. Yuqoridagi barcha fikrlarimizni jam etgan holda quyidagi xulosalarni aytishimiz mumkin: Asriy ijodi nafaqat o'zbek adabiyoti, balki butun turkiy dunyo uchun yangi ochilayotgan xazinadir. Shoir ijodida Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy singari salaf ta'siri va bu ta'sir unsurlari ko'rinadi, u bilan tanishish asnosida Asriyning mutlaqo o'rganilmagan namoyanda ekanligi ko'rinadi. Uning ma'nolar ummoni xazinasi kaliti bizning qo'limizda, faqat endi bu xazinani ochishimiz va xalqimizga tanitishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asriy "Devon"idan sahifalar (g'azallar). Nashrga tayyorlovchi J.Mir o'g'li. Birinchi nashr. – Tehron: Chamanoro, 1946.
2. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih. 1-jild. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. – Toshkent, 1991. www.ziyouz.com.
3. Muhiddinov M. Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi. Ko'ngil hayratlari. 9-jild. – Toshkent: Tamaddun, 2021.

Sardor SHERKULOV,

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti fakultetlararo xorijiy tillar kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA ADABIY TA'SIR TADQIQI

Annotatsiya. Adabiyotshunoslikda adabiyot namunalari tipologik o'xshashliklar tizimida o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanib, adabiyot nazariyasida tipologik o'xshashliklar bevosita adabiy ta'sir va adabiy aloqalardan kelib chiqishi ta'kidlangan. Ushbu maqolada turli makon va zamonda yashagan yozuvchilar o'rtasida adabiy ta'sirning yuzaga kelish omillari, dunyo va o'zbek adabiyotshunosligida adabiy ta'sir natijasida yozilgan asarlar va obrazlar haqida ma'lumot beriladi. Shu bilan birga, Uilyam Folkner romanlarining an'analar negizida yangicha hikoyalash uslubi va yangi kompozitsion shaklning paydo bo'lgani, bir voqeaning turli qahramonlar nomidan hikoyalinishi, realizm qolipidan chiqish va yangi avlodga xos eksperimental realizmga asos solinishi kabi mazurlarning zamonaviy o'zbek adabiyotiga ta'siri xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: adabiy ta'sir, tipologik o'xshashliklar, yangicha kompozitsion shakl, yangicha obrazlar.

Annotation. In literature, it is important to study literature samples in a system of typological similarities. Literary theory emphasizes that typological similarities derive directly from literary influences and literary connections. This article provides information about the factors of literary influence among writers living in different places and times, works and images written as a result of literary influence in world and Uzbek literature. At the same time, it is outlined the influence of William Faulkner's novels on modern Uzbek literature, such as the emergence of a new style of storytelling and a new compositional form based on traditions, the narration of an exact event by different characters, the emergence of realism and the establishment of a new generation of experimental realism.

Keywords: literary influence, typological similarity, new compositional form, new images.

Аннотация. В литературе важно изучать литературные образцы в системе типологических сходств. Литературная теория подчеркивает, что типологические сходства происходят непосредственно из литературных влияний и связей. В статье представлена информация о факторах литературного влияния на писателей, живущих в разных местах и временах, на произведениях и образы, написанные в результате литературного влияния в мировой и узбекской литературе. В то же время рассматривается влияние романов Уильяма Фолкнера на современную узбекскую литературу, такие как появление нового стиля повествования и новой композиционной формы, основанной на традициях, повествование о конкретном событии разными персонажами, появление реализма и создание нового экспериментального реализма.

Ключевые слова: литературное влияние, типологическое сходство, новая композиционная форма, новые образы.

Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida milliy adabiyot namunalari tipologik o'xshashliklar tizimida o'rganish muhim ahamiyatga ega. Adabiyot nazariyasida tipologiklikning kontaktli va kontaktisiz shakllari ajratib ko'rsatiladi. Biri genetik yaqinlik, ikkinchisi bevosita adabiy ta'sir va adabiy aloqalardan kelib chiqadi. Shu bilan birga, yozuvchilar yashagan davr, ijtimoiy muhit, turmush sharoiti asar qahramonlari orasida o'ziga xos mushtaraklikni yuzaga keltiruvchi omil hisoblanadi.

Adabiy ta'sir, mutaxassislarning fikriga ko'ra, quyidagi omillar asosida maydonga keladi: 1) ikki yoki undan ortiq xalq o'rtasidagi ijtimoiy, madaniy, adabiy aloqalar vositasida; 2) adabiyotlar o'rtasidagi qondoshlik, muayyan genetik bog'lanish, ma'lum etnosga mansublik asosida (masalan, qardosh xalqlar adabiyoti); 3) adabiy ta'sir keng ko'lamlil va ko'p bosqichli bo'lishi, butun boshli adabiy davrni tashkil etishi mumkin (masalan, J.J.Russo va J.G.Bayron mansub adabiy oqimlarning A.Pushkin, M.Lermontov, L.Tolstoylarga ta'siri); 4) yozuvchilar o'rtasidagi adabiy aloqa, bir yozuvchida mavjud syujet, obraz, mashhur motivlar yoki badiiy g'oyalardan boshqa yozuvchining foydalanishi va h.k [1: 1].

“Adabiyotshunoslik lug'ati”da: “adabiy ta'sir” terminiga “(ruschadan kalka: literaturnoe vliyanie) adabiy jarayonda tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud bo'lgan,

badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisa. adabiy ta'sir adabiy-badiiy hodisalarning zamon va makondan qat'i nazar, o'zaro aloqada yashashi oqibati o'laroq voqe bo'ladi. Demak, adabiy ta'sir bitta milliy adabiyot yoki adabiyotlararo aloqalar, bir davr adabiyoti yoki turli davrlar adabiyoti doirasida ham kuzatiladi. Shunga ko'ra adabiy ta'sir ko'lami va darajasi turlicha (umumiy va shaxsiy) bo'lib, ular bir qator omillarga bog'liqdir” [2: 16] deya ta'rif beriladi.

Filologiya fanlari doktori Suvon Melining quyidagi fikrlari tipologiya va adabiy ta'sirning o'zaro qonuniy aloqador, real asosga ega madaniy hodisa ekanini ta'kidlashi bilan birga, adabiy ta'sirning mantiqiy aniqlik chegaralarini ham belgilab olishimizga yordam beradi: “Adabiy ta'sir tipologiyaning o'ziga xos xususiy ko'rinishi bo'lib, u ham badiiy hodisalardagi ma'lum o'xshashliklar, umumiyliklar ko'rinishida voqe bo'ladi. Adabiy ta'sirning tipologiyadan farqli tomoni shundaki, biri ikkinchisiga ta'sir etayotgan ijodkor yoki badiiy asar vaqt, makon va mantiq jihatdan asosli bo'lishi zarur. Aytaylik, Dantening Yusuf xos Xojib ijodiga ta'siri haqida gapirish mumkin emas, chunki “Qutadg'u bilig” muallifi Dantedan ikki asr burun yashagan. Aksinchasi ham mumkin emas, chunki Dante “Qutadg'u bilig” bilan tanish bo'lishi ehtimoldan nihoyatda uzoq” [3: 110].



O'zbek va dunyo adabiyotshunosligidan yuqoridagiga yaqin yoki ma'lum farqqa ega ilmiy fikr-xulosalarni yana ko'plab keltirish mumkin. Ayni paytda ularning barchasi bir millat adabiyotining o'zga xalqlarga nisbatan faolligi, badiiy tafakkurdagi avangardlik adabiy ta'sir uchun muhim vosita bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Bunda tarixiy davrdoshlik, milliy, etnik yaqinlik, geografik chegaralar asosiy rol o'ynamaydi. Adabiyot shunday bir estetik, sirli jarayonki, u vaqt, makon, madaniyat, din, e'tiqod devorlaridan bemalol oshib o'tib, boshqa adabiyotlarga, aniq bir yozuvchi ijodiga bemalol ta'sir o'tkazishi, badiiyat rivojiga ulkan hissa qo'shishi mumkin. Masalan, arab, fors adabiyotining ta'siri natijasida o'zbek mumtoz lirikasi va nasrida katta o'zgarishlar ro'y bergan. Dastlab forsiy tilda yozilgan "Xamsa" Alisher Navoiy qalami bilan turkiy tilda davom ettirilgani, xamsachilikning yuqori maqom egallagani barcha navoiyshunoslar tomonidan ta'kidlanadi. Navoiy ta'sirida dostonchilik an'alarini davom ettirgan turk, ozarboyjon, fors adabiyotidagi yangilanishlar, Navoiy an'alarining Xorazm, Qo'qon adabiy muhitida izchil davom ettirilishi fikrimizning yorqin dalilidir. XVII asrdan e'tiboran o'zbek adabiyotiga Abdulqodir Bedil, Muhammad Fuzuliyning ta'siri ham shu jarayonning muhim ahamiyatga molik estetik hodisa ekanini ko'rsatadi.

XX asrda O'zbek adabiyotiga kirib kelgan yangi she'riy janrlar jadidlarning dunyo she'riyatidan ta'sirlanganiga katta dalil. Ularning o'zlari turk, tatar, ozarboyjon, arab, fors, rus adabiyotidan ilhom olganlarini e'tirof etadilar. O'zbek adabiyoti uchun mutlaqo yangilik bo'lgan dramaturgiya ham aynan adabiy ta'sir natijasidir. Filologiya fanlari doktori Uzoq Jo'raqulov bu hodisaning ijtimoiy, madaniy-tarixiy, badiiy asoslarga ega ekanini o'zining "Drama janri" nazariy tadqiqotida isbotlab bergan [4: 48].

XX asr boshi va o'rtalarida Qalam tebratgan A.Qodiriy, A.Cho'lpon, Oybek, G.G'ulom, A.Qahhorlar ijodida turk, arab, fransuz, ingliz, rus adabiyoti epik an'alarini ta'siri borligini inkor etib bo'lmaydi. Ma'lumki, A.Qodiriy va A.Cho'lpon dastlabkilardan bo'lib roman janriga qo'l urganlar. Ular rus tilini mukammal darajada bilgan va bu til orqali Evropa nasri va rus adabiyoti bilan izchil tanishib borgan. Turk va arab tillarini ham bilgani bois Sharq zamonaviy adabiyotidan ham voqif bo'lga. Ulardan keyingi avlod esa jahon adabiyotini asosan rus tilidagi tarjimalar orqali tanidi. Oybek va G.G'ulom asarlarida rus millatiga mansub qahramonlar bor. A.Qahhor esa

rus adabiyoti klassikalaridan bevosita ta'sirlanganini o'zi e'tirof etgan, A.P.Chexovni o'zining ustozini deb bilgan. Bu an'ana, O.Yoqubov, P.Qodirov, A.Muxtorlar ijodida ham izchil davom etdi. Ayniqsa A.Muxtor L.Tolstoy nasri ta'sirida o'z romanlaridagi obrazlarini mukammallashtirgani, hatto "Chinor" romaniga L.Tolstoy obrazini ham kiritgani ma'lum. O.Yoqubov esa V.Shukshin nasrida izchil uchraydigan "chudak" obrazini o'zbekcha variantini adabiyotga olib kirdi...

O'Hoshimov, Sh.Xolmirzayev, O'Umarbekov, U.Nazarov, O.Muxtor kabi yozuvchilarga ham rus adabiyoti, ruscha tarjimalar orqali dunyo adabiyotining betakror ta'siri bo'lgani shubhasiz. Chunki shahar odami, qishloq odami, xalq ichidan chiqqan odam, kichkina odam obrazlari, sentimental va romantik obrazlar bevosita L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, M.Sholoxov, V.Shukshin, V.Rasputin asarlarini o'qish natijasida paydo bo'lgan yangi obrazlar edi.

XX asarning 80-yillarida bir qator o'zbek yozuvchilari, xususan, Aziz Abdurazzoq, Jonrid Abdullaxonov, Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, Abduqahhor Ibrohimov, To'ra Mirzo va boshqalar Moskvadagi adabiyot instituti va Oliy adabiyot kursida ta'lim oldilar. Natijada rus adabiyoti bilan bilan birga, Yevropa va Amerika adabiyoti namunalari bilan ham chuqur tanishish, ularni tarjima qilish, ijodiy o'zlashtirish jarayoni tezlashdi. Yana bir muhim tomoni, 60-yillardan keyin adabiyotga yangi bir epkin kirib keldi. Yangilikning ta'siri dastlab A.Oripov, E.Vohidov, O.Matjon, R.Parfi she'riyatida ko'zga tashlangan bo'lsa, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, U.Nazarov, O'Umarbekov, O.Muxtor, O'Hoshimovlar nasrida ijodida yangi izlanishlarning maydonga kelishini ta'minladi. 80-yillar avlodi hisoblanmish E.A'zam, X.Sulton, M.M.Do'st, T.Murod, ularning izidan yurgan N.Norqobilov, Sh.Bo'tayev, S.O'nar, A.Yo'ldosh, N.Eshonqul, Sh.Hamro, L.Bo'rixon, T.Rustamov, U.Hamdani, I.Sultonlar nasrida esa jahon adabiyotining ta'siri yaqqol sezildi. Birgina Uilyam Folkner nasri an'alaridan bevosita ta'sirlangan, bu ta'sirni obrazlar, syujet motivlari, psixologik holatlar, hikoyalash shakliga ko'ra yaqqol ifoda etgan yozuvchilar sifatida hech ikkilanmasdan T.Murod, M.M.Do'st, N.Eshonqul, Sh.Hamro, T.Rustamovlarni aytish mumkin. U.Folknerdan ta'sirlanish an'asi 80-yillarning o'rtalaridan e'tiboran yaqqolroq sezildi. Sh.Bo'tayevning "Shox", U.Hamdanning "Isyon va itoat", "Ota", T.Rustamovning "Kapalaklar o'yini", J.Jovliyevning "Qo'rqma" romanlari shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Терминологический словарь-тезаурус по литературоведению. <https://literaturologiya.academic.ru/319>.
2. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Meliyev S. Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi: Filol. fan. dok. diss... – Toshkent, 2019.
4. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.
5. Mengronov T.M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018.

Xurshida NISHONOVA,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

SHE'RIYATDA POETIK OBRAZ TABIATI

Annotatsiya. Maqolada obraz va uning tabiati, xususiyatlari, ijtimoiy, lisoniy, badiiy, psixologik jihatlarini xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: poetik obraz, mumtoz an'ana, mumtoz she'riyat, obraz tabiati, obrazning badiiy xususiyatlari.

Annotation. The article discusses the image and its nature, features, social, linguistic, artistic, psychological aspects.

Keywords: poetic image, classical tradition, classical poetry, nature of the image, artistic features of the image.

Аннотация. В статье рассматривается образ и его природа, особенности, социальные, языковые, художественные и психологические аспекты.

Ключевые слова: поэтический образ, классическая традиция, классическая поэзия, природа образа, художественные особенности образа.

Tafakkur cheksizdir, lekin san'at asarining makon va zamon chegaralari bor. Hamma narsaning prototiplari insonning tafakkuridan tashqarida idrok etilishi mumkin, lekin ular tasavvur qilinadi. Aynan shu nomoddiy belgilar moddiy obyektlarning prototipi hisoblanadi. Ular uyg'unlikka ega va ongimizda go'zallik tushunchasini yaratadi. Inson voqelikni anglashga, jamiyatdagi ornini tushunishga intilib, obrazlarda o'ylashga mahkum.

Poetik obraz emotsional, xolis bo'lib, o'zida ijodkorning fikrlash fazilatlarini mujassam etadi. U mavhum emas, balki o'z-o'zidan paydo bo'ladi va darhol aniq, ko'rinadigan shaklni oladi. Har qanday shoir yoki yozuvchi fikrlarini so'z yordamida ifodalaydi.

Manbalarda qayd etilishicha, poetik obraz faqat san'atga xos voqelikni o'zlashtirish va o'zgartirishning maxsus usuli va shaklini tavsiflovchi estetik kategoriyadir. Tor va o'ziga xos ma'noda "poetik obraz" tushunchasi badiiy asarning elementi, bir qismi (tasvirning xarakteri yoki predmeti – X.N.) ma'nosini bildirsa, kengroq va umumiy ma'noda bu – mavjudlik usuli va maxsus, badiiy haqiqatni, "tashqi ko'rinish olamini" takrorlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Poetik obraz keng ma'noda "hujayra", san'atning "birlamchi tamoyili" vazifasini bajaradi, u butun badiiy ijodning barcha asosiy tarkibiy qismlari va xususiyatlarini o'ziga singdiradi.

Ilm ahli adabiyot haqida so'z yuritganda uning ikki xil jihatiga e'tibor berishdi. Birinchisi – jamiki asarlar, ikkinchisi – badiiy adabiyot. Adabiyot istilohi anglatgan har ikki tushuncha bo'yicha muhohasalar, nazariy qarashlar juda ko'p. Shu kungacha isbotlangan ilmiy-nazariy, badiiy, ijtimoiy hukm va xulosalarga asoslanib aytish mumkinki, fan tushunchalar bilan ishlaydi, badiiy ijod esa obrazlar orqali insonga ta'sir qiladi. Tushunchalar voqelikning umumiy, takrorlanuvchi xususiyatlarini qamrab oladi, uning o'ziga xos va individual jihatlarini esa e'tiborga olmaydi. A.A.Potebnya ta'rifiga ko'ra, "badiiy adabiyot qayta ishlangan real hayotning obrazlarda namoyon bo'lishidir" [6: 98]. U konkret va tipik, umumiy va individual, hissiy va mavhum jihatlarini yaxlit tarzda birlashtiradi hamda hissiy va ideal (ratsional) tomonlar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi bilan farqlanadi. Masalan, ijtimoiylikda aniqlik

ustunlik qiladi (yoki hech bo'lmaganda oldinga chiqadi), ramziy tasvirda ideal (aqliy) tamoyil hukmronlik qiladi va tipik (real) tasvirda ularning uyg'un kombinatsiyasiga intilish yaqqol namoyon bo'ladi.

Poetik obraz voqean mavjud bo'lmagan yangi narsadir. "San'at asarida, – deb yozgan edi V.Korolenko, – inson qalbini aks ettiradigan, sindiradigan, idrok etadigan olam bor. Bu shunchaki asossiz illyuziya emas, balki yangi fakt, tabiatning yangi hodisasidir" [7]. Poetik obrazning eng muhim xususiyati shundaki, u predmetga nisbatan hissiy va qadriyatga asoslangan munosabatni ifodalaydi. Obyekt haqidagi bilimlar faqat u bilan bog'liq tajribalar paydo bo'ladigan fon sifatida xizmat qiladi. Binobarin, muallif vizual va ifodali vositalar yordamida nafaqat voqea haqida gapirib berishi, balki u bilan bog'liq tajriba va taassurotlarni o'quvchilarga singdirishi kerak. Shunga ko'ra, xayolning faol ishtirokida poetik obraz yaratiladi. U birgina faktni shunchaki takrorlamaydi, balki muallif uchun ahamiyatli bo'lgan hayotiy jihatlarni uning baholovchi tushunchasi bilan mujassamlashtiradi va jamlaydi. Ijodkorning tasavvuri nafaqat uning ishi uchun hissiy turtki, balki asardagi ma'lum bir haqiqatdir.

Poetik obraz hayotni universallashtirishga va tiplashtirishga intiladi. Masalan, Chori Avazning "Yoriltosh" ertagini o'qib" she'rini mutolaa qilgach, shoir ta'riflagan voqeani alohida ertakda sodir bo'lgan voqea, ilinjini real voqelikdagi fojia sifatida yodga olamiz. Ushbu tasvir ruhiyatimizga fojiali boshlanishi bilan ta'sir etadi. Albatta, bunday ta'sirni faqat ajoyib san'at asarlari ulasha oladi. Shoir bunga mohirlik bilan tanlangan detallar, metaforalarni o'z ichiga olgan poetik obraz yaratish orqali erishadi. Qolaversa, ushbu she'rda harakat o'zining mifologik tafakkuri bilan xalq madaniyatiga xos bo'lgan dunyoning yashirin manzarasi fonida kechadi.

Poetik obrazning yana bir muhim xususiyati uning shartlilikidir. Badiiy asarlar, avvalambor, voqelikka o'xshashlikni bildirishi kerak degan fikr hanuzgacha keng tarqalgan. Bu qadimgi davrlarda shakllangan "taqlid nazariyasi" (yunoncha – mimesis) bilan bog'liq. Lekin bu taqlid tasvirdagi fotografiklik, illyuziya yoki naturalizm emas, balki badiiy ijodning asosiy vazifasi, poetik obrazga



xos qonuniyat hisoblanadi. Gytotening aytishicha, agar rassom reallikka yaqin chizsa, unda yana boshqa bir hayot yaratmagan bo'ladi. Uni san'at asari deb bo'lmaydi.

A'zam O'ktamning 1987-yilda momosi haqida yozgan she'rida muallif nazarda tutgan real voqelikda fojia bo'lishiga qaramay, asardagi poetik obraz ifodalayotgan mazmunda tanazzuli muqarrar qahramon o'rniga safarga otlanayotgan inson obrazi namoyon bo'ladi:

*"Enam o'xshab qoldi bolaga,
Nuqul o'ylar qabrni.
Qabrni o'ylar enam
To'yi yaqin qolgan kelinchak,
Bo'lg'usi uyini qanday bezatish,
Yasatishni o'ylab entikkan kabi"* [5: 14].

Nazar Shukurning "Sim yo'llar" she'ridan esa borliqning mavjudligini tan olgan holda, real voqelik mohiyatida umuminsoniylikka daxldor xulosalar chiqarish mumkin:

*"Bu juft sim – asrimning qon tomiridir,
Tok va so'z oqimi – qonidir ya'ni..."* [2: 222].

Poetik obrazning yana bir jihati uning ramziyligi. Obrazning ramziyligi aniq vizual shaklda ko'proq

tasvirlanadi. Ramziylikning asosiy belgisi polisemantik xususiyatdir. Uning talqini shoir yashayotgan hududning madaniy, tarixiy, mafkuraviy sharoitiga bog'liq bo'ladi. Masalan, A'zam O'ktamning "Ko'klam" she'rini tom ma'noda bahor kelishi manzarasining dekorativ tasviri deyish mumkin. Agar siz ushbu asarga u yaratilgan davrning xususiyatlari nuqtayi nazaridan qarasangiz, ko'klam insoniyat orzu qilgan, 80-,90-yillarda o'zining apokaliptik umidlari bilan kelayotgan millat ozodligi, til erkinligi va e'tiqodning ramziga aylanadi. Bu tasvirni Jumaniyoz Jabborovning bahor tasvirlari ifodalangan "Hovlida haliyam qor uyumlari" she'rida ham ko'rish mumkin. Shoir bahor boshlanganiga qaramay, "haliyam qish o'zi bo'ltib turibdi", "oson jon bermoqchi emasdur hali" deya tabiat tasviri orqali "qish"ni poetik obraz darajasiga ko'taradi, o'sha yillardagi she'riyat mohiyatiga singdirilgan ijtimoiy munosabatlar, ruhiy kechimlarni o'quvchiga "qish" obrazi orqali ramziylik fonida anglatadi.

Aytish mumkinki, poetik obraz go'zallik, ulug'vorlikni san'at orqali ifdalaydi. Shu tufayli u ijodkor dunyoqarashi bilan bog'liq. Shoir voqelikni o'z ideali prizmasidan o'tkazib, olgan xulosalarini obrazga ko'chiradi, ya'ni yozgan asarlarida moddiylashtiradi. Biz o'quvchi sifatida ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikrlarni, his qilgan pafosni so'z orqali anglaymiz, his qilamiz, tushunamiz va tushuntiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberdiyev A. Ziyorat. – Farg'ona: Yangiqo'rg'on, 1992.
2. Nazar Shukur. Osmon tashbehleri. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. 222-b.
3. Qosimoq Y. Uyg'onish sadolari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.
4. Hotamov N., Sarimsoqov B., Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha – o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.
5. Chori Avaz. Yashil so'qmoq. – Toshkent, 2019.
6. Зис А.Я. В поисках художественного смысла. – Москва, 1991.
7. Электронная библиотека института философии РАН. <http://iphlib.ru/library/collection/newphilenc/document>.

Ruxsora IMOMOVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktranti

ABDURAUUF FITRAT VA TURKIYADA SARVATI FUNUN DAVRI ADABIYOTI

Annotatsiya. Abdurauf Fitrat faoliyatining bir necha yillik davri Turkiyada kechgani sababli uning turk shoirlari ijodidan xabardor ekani shubhasiz. Fitrat Turkiyada tahsil olgan vaqtda u yerda Sarvati funun nomida buyuk adabiyot davri kechayotgan edi. Maqolada shu davr shoirlari va Fitratning she'rlari g'oyaviy qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: Sarvati funun davri, adabiy shakl, adabiy g'oya, sarbast.

Annotation. Since Abdurauf Fitrat spent several years of his career in Turkey, it is certain that he is aware of the work of Turkish poets. When Fitrat studied in Turkey, there was a great period of literature in the name of Sarvati funun. The article compares poets of this period and Fitrat's poems ideologically.

Keywords: Age of Sarvati Funun, literary form, literary idea, sarbast.

Аннотация. Поскольку Абдурауф Фитрат провел несколько лет своей карьеры в Турции, он без сомнения знаком с творчеством турецких поэтов. Время его обучения в Турции считается великим периодом литературы под названием Сарвати фунун. В статье идеологически сравниваются поэты этого периода и стихотворения Фитрата.

Ключевые слова: период Сарвати Фунуна, литературная форма, литературная идея, сарбаст.

XX asr adabiyotining yangilanishi Abdurauf Fitrat harakatlari bilan ko'p jihatdan bog'liq. Nafaqat Fitrat, boshqa jadidlar ham adabiyot siyosiy hamda ijtimoiy g'oyalar tashviqiga xizmat qilishini juda teran anglaganlar. Shu sababli ham yangi fikrlar adabiy shakllar orqali kirib kelgan. Erkinlik, insonning ozod ruhi masalasi epkinlari turk adabiyotida o'zbek adabiyotiga qaraganda oldinroq esa boshlagandi. Fitrat va boshqa ma'rifatparvarlarning ulardagi shakl va g'oyalarga qiziqib qolganliklari yoki buni targ'ib qilishga intilishi panturkistlik desak yanglishamiz. U moddiy va ma'naviy yordam masalalarida ham Turkiya oydinlari bilan birlikda tashkilotlar qurgan. Cemiyet-i Terbiyye-i Etfal tarafidan 1909'da Istanbul'a g'onderildi. Burada 1913'e kadar süren tahsil hayatında Medresetü'l-Vaizin'e devam etti. Bu arada İstanbul'daki Buharalılara maddi ve manevi yardım yapmak için açılan Buhara Tamim-i Maarif Cemiyeti'nin kurucuları arasında yer aldı. Fitrat, İstanbul'daki İttihat ve Terakki Cemiyeti ve Sırât-ı Müstakim gibi çevrelerle de yakın ilişki kurdu [7: 2]. ("Jamiyati tarbiyati atfol" tarafidan 1909-yilda Istanbulga yuborildi. Bu yerda 1913-yilga qadar "Madarasayi Voizin"da (jadidshunos Temur Xo'jao'g'lining ta'kidiga ko'ra) Fitrat tahsil oldi. Shu bilan birga Istanbuldagi buxoroliklarga moddiy va ma'naviy yordam berish uchun ochilgan "Buxoro usuli maorif jamiyati"ga a'zo bo'lgan edi. Fitrat Istanbuldagi "Ittihod" va "Taraqqiy" jamiyati hamda "Sirot-ul mustaqim" kabi davralar bilan ham yaqin munosabatlar o'rnatdi). Fitrat 1909-yildan 1914-yilgacha Turkiyada yashagan.

Fitratning bu davr mobaynida turk shoirlari bilan qilgan aloqalari haqida ma'lumot saqlanib qolmagan. Ammo bu degani u Tavfiq Fikrat, Yahyo Kamol kabi "Sarvati funun" (Adabiyoti jadid. Bu davr adabiyoti Turkiyada

1860-yillardan keyin g'arb adabiyoti ta'sirida vujudga kelgan va shakl, g'oya, mavzu masalalarida anchagina kengayishlar kasb etgan) davri shoirlari bilan yaqin munsabatda bo'lmagan kabi fikrlarni ilgari surishimizga to'siq bo'lolmaydi. Shu yerda fikrlar bog'liqligining isboti sifatida bir nechta she'rlarni g'oyaviy qiyoslaymiz.

"Ferda" va "O'gut": tasodifiy o'xshashlikmi yoki adabiy ta'sirmi? Hukmingizga ikkala she'rning ham matnini havola qilamiz:

Ferda (eski forsiy tilidan tarjima qilinganda "ertangi kun", "kelajak" degan ma'nolarni anglatadi)

Tevfik Fikret

"Bugünün gençlerine

*Ferdâ senin; senin bu teceddüd, bu inkılâp...
Her şey senin değil mi zâten?... Sen, ey şebâb,
Ey çehre-i behîc-i ümîd, işte ma'kesin
Karşında: Bir semâ-yı seher, sâf ü bî-sehâb,
Ağuş-ı lerze-dârı açık, bekliyor... Şitâb!
Ey fecr-i hande-zâd-ı hayât, işte herkesin
Enzârı sende; sen ki hayâtın ümîdisin,
Alnında bir sitâre-i nev, yok, âfitâb,
Afâka doğ, önünde şu mâzî-i pür-mihen
Sönsün müebbeden.
Sönsün müebbeden o cehennem; senin bugün
Cennet kadar güzel vatanın var: şu gördüğün
Zümrüt bakışlı, inci şetâretli kızçağız
Kimdir, bilir misin? Vatanın.. Şimdi saygisız
Bir göz bu nazlı çehreye-Allah esirgesin! -
Kem bir nazarla baksa tahammül eder misin?
İster misin, şu ak sakalın pâk ü muhteşem
Pîşâni-i vekârına, bir kirlî el demem.
Hattâ yabancı bir el uzansın? Şu makberi,*



Râzi olur musun, taşa tutsun şu serseri?
Elbet hayır; o makber, o pîşâni-i vakûr
Kudsî birer misâl-i vatandır... Vatan gayûr
İnsanların omuzları üstünde yükselir.
Gençler, bütün ümîd-i vatan şimdi sizdedir.
Her şey sizin, vatan da sizin, her şeref sizin;
Lâkin unutmayın ki zaman tünd ü mutmain
Bir hatve-i samut ile tâkîb eder bizi.
Önden koşan, fakat yine dikkatle her izi
Ta'mîke yol bulan bu yanılmaz murâkîbın
Şermende-i itâbî kalırsak, yazıkl!.. Demin
"Ferdâ senin", dedim, beni alkışladın; hayır,
Bir şey senin değil, sana ferdâ vedîadır;
Her şey vedîadır sana, ey genç, unutma ki
Senden de bir hesap arar âtî-i müşteki
Mâzîye şimdi sen bakıyorsun pür-intibâh,
Âtî de senden eyleyecek böyle iştibâh.
Her uzvu gird-bâd-ı havâyicle sarsılan
Bir neslin oğlusun; bunu yâd et her zaman
Asrın, unutma, bârikâlar asr-ı feyzidir:
Her yıldırımında bir gece bir gölge devrilir,
Bir ufk-ı i'tilâ açılır, yükselir hayât;
Yükselmeyen düşer: Ya terakkî, ya inhitât!
Yükselmeli, dokunmalı alnın semâlara;
Doymaz beşer dedikleri kuş, i'tilâlara...
Uğraş, didin, düşün, ara, bul, koş, atıl, bağır;
Durmak zamânı geçti, çalışmak zamânıdır!"

Bu she'r Fitratning "O'gut" she'ri bilan g'oyaviy mazmunda o'xshashlik kasb etadi. "1) shakliy jihat: "Ferda" 14 bo'g'inlik barmoq vaznida yozilgan, "O'gut" esa 13 bo'g'inlik barmoq vaznida; bir xil emas, ammo juda yaqin; hajm borasida esa yaxshigina farq bor: "Ferda" she'ri 46 misradan, "O'gut" she'ri esa 11 misradan iborat;

2) g'oyaviy jihat: har ikkala she'rda ham millatning umidi, ertangi kuni sifatida yoshlarning vatan ravnaqi, tinchligi, erki yo'lida fidokorona harakat qilishi, barkamol bo'lishi shartligi ilgari surilgan;

3) usul: har ikkala she'r murojaat usulida yozilganiga diqqat qaratish lozim; Fikret she'riga "Bugunning yoshlariga" deya bag'ishlov bergan bo'lsa, Fitrat hech qanday bag'ishlovsiz to'g'ridan to'g'ri "Og'ir yigit..." deb murojaat bilan boshlaydi; she'rlardagi yoshlarga murojaat, shunchaki murojaat ham emas, hayqiriq, da'vat ohangi bilan yo'g'rilgan;

4) poetik sintaksis: she'rlarda hukm, farmon sifatida yangraydigan misralarda fe'llar ishtiroki asosiy o'ringa chiqadi, chunki turkiy tillarga mansub dinamik urg'u odatiy grammatik tartibga ko'ra gap oxirida keladigan fe'l kesimlarni gap boshiga ko'chirgan paytda yanayam ta'sirli bo'ladi:

**"Uğraş, didin, düşün, ara, bul, koş, atıl, bağır;
(Intil, harakat qil, o'yla, qidir, yugur, otıl, baqir);
Durmak zamânı geçti, çalışmak zamânıdır!
(Turg'unlik zamoni o'tdi, faoliyat zamonidir!)
Turma – yugur, tinma – tirish, bukılma – yuksal,
Hurkma – kirish, qo'rqma – yopish, yo'rilma – qo'zg'al!"**

Fikret bir xil shaxs-sondagi (II shaxs birlik), bir xil mayldagi (buyruq-istak mayli) fe'llarni sanash ohangi bilan misraga tizgan va shu yo'l bilan ta'sirchanlikka erishgan. Fitrat esa sal boshqacharoq usuldan foydalanadi: fe'llardagi birxillikdan biroq chekingan holda ularni bo'lishsiz-bo'lishli shaklda ziddiyatda berishga qaror qiladi. Bu o'z navbatida she'rga kurashuvchanlik ruhini berganini ham ta'kidlash o'rinli. Va shu o'rinda she'r sarlavhasidagi "O'gut" so'zi aslan da'vat, chaqiriq ma'nosida qo'llangan ham ma'lum bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosaga qilgan holda aytish mumkinki, Fitratning "O'gut" she'rida turk shoiri Tefvik Fikretning "Ferda" she'ri ta'siri yaqqol seziladi.

Quyida Tavfiq Fikratning "Xoni yag'mo" [3] va Abdurauf Fitratning "Mirrix yulduziga" she'rlarini muqoyasa qilib o'tamiz:

*"Bu dasturxon, afandilar, ki marhamatga muntazir,
Huzuringizda titragan shu millatning hayotidir.
Bu millatki biram dardkash, bu millatki jonfidodir,
Faqat aslo chekinmangiz, yengiz, yuting, hapir-hapir."*

Tavfiq Fikrat millatning qonini ichayotganlarga "yeng, yesangiz bir kun tugar, to'yarmisiz?", deya kinoya qiladi? Kinoya ortida millat borini kim sovurayotgani, bu millatni kimlar yo'qsullikka muhtalo qilayotgani ochiqdanadi. Tavfiq Fikrat aytgan haqiqatlar amal tepasidagi molfurushlarga yoqmagan. Shoir hatto sultonni ham doim tanqid ostiga olgan. Davrning yo'lsizligini ochib bergan "Xoni yag'mo" ("Talangan dasturxon". Tarjima bizniki) va yanglish bir qaror tufayli yuzaga kelgan Birinchi jahon urushi voqealari tasvirlangan "Sanjoq huzurida" she'rlari bilan tanqidni davom ettiradi. Fikrat she'rlari hukmdorlarning jahlini chiqarib, konservativlar hujumiga uchraydi.

*"Berar bechora malakat, berar ne bo'lsa molini,
Vujudini, hayotini, umidini, xayolini.
Butun davlat-u jonini, butun shavq-u sharorini,
Darrov yuting, o'ylamangiz haromini, halolini.
Yengiz, afandilar, yengiz, quduz ochgan ishtahangiz,
To'yguncha, kekirguncha, to yorulgunga qadar yengiz!"*
[5: 46]

Ayni Turkistondagi ahvol ham shunday edi. Abdurauf Fitrat Turkiyada o'qib kelganligi sababli ham asarlari

Turkiston hududida nashr qilinmaydi. Fitrat ularni Turkiyada bostirib, o'lkamizga olib kelib tarqatgan. Maqsad – xalqning ko'zini ochish. Shoirning “Mirrix yulduziga” she'rida ham Fikrat nolalarining aksadosini eshitamiz:

*“Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikkiyuzli ishbuzarlar, shaytonlar?
O'rtoq qonin qonmay ichgan zuluklar,
Qardosh etin to'ymay yegan qoplonlar.
Bormi senda o'ksuz, yo'qsilning qonin,
Gurunglashib chog'ir kabi ichganlar?” [1: 36]*

Har ikkala she'r “qahramonlari” Fitrat ta'biri bilan aytganda, “qorin-qursoq yo'lida elin, yurtin, borin-yo'g'in sotganlar”dir. O'lkadagi dindorlar va taraqqiyparvarlarning ham yuzlarini quyidagi fikrlar ochib beradi: “Dinchiman” deb da'voda yurganlarning o'ndan sakkizi omonsiz faqat din og'rilarigina, “Taraqqiychiman”, deb og'uz ochub yurganlarning o'ndan to'qqizi taraqqiyparvar ismini pichratqon milliy xuliganlar bo'lib chiqadi”, deb yozgan edi 1917-yilda M. Shermuhammedov”. [2: 230]

Millatning borini yemirib turganlar, aslida, o'z ildizimizdan ko'karganlar edi. Masalan, Amir Olimxon davrining firib-nayranglarini, ochko'z mulozimlarning asl yuzini Nabijon Boqiy “Madfun Turkiston” hujjatli romanida shunday fosh qiladi:

“Amir Olimxon o'sha odatni tiklab, saroy a'yonlari uchun mo'may daromad manbayini ochib beradi. “Oylik” deb ataladigan daromad ahmoqona yo'sinda undirib olinardi. Masalan, olampanohning jamolini bir ko'rishga salomxonada intiq bo'lib o'tirgan tuman qozisini saroy a'yonlaridan bo'lgan bir kishi imlab chetga chaqiradi-da: “Taqsir, joynamoz ustida amir hazratlarini duo qilyapsizmi yoki o'zimiz duokashlik qilib yuboraylikmi?” deb so'raydi. “Duo qilyapmiz, lekin sizdek mo'tabar zot bizga duokash bo'lsa koshkiydi!” deb hamyonidan yigirma tanga chiqarib beradi. Tangani erinmasdan sanab ko'rgan a'yon: “Siz butun boshli tumanni yeb yotibsiz. Nahotki, tasarrufingizdagi tumanning bahosi yigirma tanga bo'lsa?! Yana qo'shing, axir, amirning mehribonligidan bahramand bo'lyapsizku!” deydi. “E-e, chiqim ko'payib ketdi, kirimning esa tayini yo'q”, deb nolib, qozi saroy amaldorining kaftiga bitta-bittalab tanga tashlaydi. Pul dastlabki miqdoridan ikki hissa ortgach, qozi qasamxo'rligni boshlaydi, undan boshqa siylov chiqmasligiga ishonch hosil qilgan a'yon esa qayoqqadir g'oyib bo'ladi” [3: 43].

Mamlakatda xalq bir yon, xalqdan ming bir usulda undirish payida yurgan amaldor-u, xon bir yon. Har kim o'z tashvishi bilan yurgan vaqtda jadidlar tuzumni o'zgartirish uchun bel bog'lab chiqqan edi. Davlat islohotlarga juda muhtoj edi. Ammo xonning bu narsa parvoyiga ham kelmagan. Bir qancha yuzaki mayda

islohotlarni o'zini jadidlarga yon bosayotganday ko'rsatib, xalqning bir qancha yengil muammolarini hal qilib beradi. Ammo “qadimchilar” guruhlarining xonning atrofida doimo jadidlarga va ularning ishlariga yetarlicha to'sqinlik qilib, omi xalqni-da o'zlariga ergashtirishni ham eplari edi. Bu tuzum shunday botqoqqa botgandi.

XX asr adabiyoti faqatgina g'oyalarni tashuvchi vosita bo'lib qolmagan. Bu davr adabiyotining o'ziga xos tomonlaridan biri insonning ichki dunyosiga qayta ichdan nazar tashlab, uslubda ham, so'z tanlashda, vaznda-da yangilanish boshlangan edi. Bekorga Cho'lpon ijodidagi elegik tasvirlar jonlanib qolmagan va ayni shundan keyingi she'riyatda ham Cho'lponning ruhiy-psixologik tasvirlarining o'zbek she'riyatida kengayganining guvohi bo'lamiz. Cho'lpon, Fitratlar bu hissiy keng tasvirlarni bevosita turk ijodkorlaridan “yuqtirib” olganliklariga shubha yo'q. O'z zamonining mashhur va mohir turk adibi Yoqub Qadri yangi adabiyot haqida gapirganda shunday degan: “Agar adabiyotning qandaydir vazifasi bo'lsa, insonni his qildirish, yaxshiga his qildirishni o'rgatishdir”. Ana shu “His qildirish”ni dastlab turk jadidlarida ko'rishimiz mumkin. Abdurauf Fitrat bilan Turk ijodkorlari o'rtasida aloqa bor-yoqligi hujjatlarda qayd etilmagan yoxud bunday ma'lumotlarga hali duch kelmagan bo'lsak-da, uning Turkiya hayoti va ijodiy g'oyalari ko'ra Mehmet Akif Ersoy, Janob Shahobiddin kabi turk oydinlari bilan g'oyaviy mushtaraklikka ega. Janob Shahobiddin turk shoiri, shifokor, Parijda tib ilmi bo'yicha tahsil olib qaytgan ziyoli inson bo'lgan. U davr muammolarini ham, adabiyotning vazifasini ham yaxshigina anglagan shoir, yozuvchi bo'lib, romantizm metodining yangilangan shaklini yaratgan. O'sha go'zal tasvirini g'azalda emas, boshqa shaklda keltirish yangilanishning asosidir. Janob Shahobiddin she'rlarining uch bandli shakllarini ham ko'rishimiz mumkin. Bu misralarda g'azal ohangi va yangilik bo'yog'i sezilib turadi. Bu xuddi Fitratda ham uchraydigan, masalan, “Go'zalim, bevafo gulistonim” she'ridagi uslubga o'xshaydi. Janob Shahobiddinda so'zlar arabcha ohangdan chiqib ketolmagan bo'lsa-da, Fitratda tilni soddalashtirish jihatidan ham yangilik paydo bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Turk shoirining “Temaşa-yı Hazan”(xazon holi) she'rini Fitratning ayni she'ri bilan solishtirib ko'ramiz:

*“Go'zalim, bevafo gulistonim,
Bog' umrimda toza rayhonim.
G'amu qayg'ularim hujumindan,
Sen eding mehribon nigohbonim”.*

Fitrat she'riyatining boshlanish davrlarida an'anaviy mumtoz adabiyotdan uzilmagan holda, mumtoz obrazlar va mumtoz ritmni barmoq vazniga moslashtirib yangicha uslub yaratdi. Janob Shahobiddinda ham xuddi shu uslub



yetakchilik qilgan “Tomoshai xazon” she’ri yor vaslidan judo bo’lgan oshiq timsolini tamsil qiladi:

*“Gel bugün de, sükut ile, güzelim
İhtizar-ı hazanı seyredelim:
Ey benim, ey hazin-rika güzelim.
Bir dimağı veda ü re’fetle
Kalalım serbeser tabiatle.”*[4: 46]
*(Bugun-da kel sukut ichra, go’zalim,
Joni qurbon xazonni sayr edelim.
Ey mening xazonsevar, hur, go’zalim,
Go’zal hislarni eslab muhabbatla
Qolaylik bir biz bir tabiatla).*

She’ning keyingi qismi uch bandlik tuzilishdan iborat bo’lib har bandning birinchi misralari o’zaro va keyingi juft bayt o’zaro qofiyalanadi.

Janob Shahobiddinning “Elhani şita” (Qish nag’malari) she’rida qor obrazi ramziy ma’noda qo’llanadi va shoirning ko’zlagan maqsadini o’quvchiga yetkazishning go’zal ifodasi bo’ladi. Abdurauf Fitratda ham “Qor” sarlavhali she’ri mavjud. Ikkalasida ham osmondan yog’ayotgan qorning g’am, xalq boshiga yog’gan dard, zulm singari amlari bor.

*“Bizning alam, o’lim bilan sug’orilgan
Yerimizning ko’chigiga oqadir.
Bu kichkina, o’ksuz, oppoq buvaklar,
Ucha-ucha yetmay qolg’an tilaklar”.*

Fitrat she’rida qor parchalari ezilgan xalq timsolini ham gavdalandiradi. Xalqning bor umidlari osmondan yog’gan qor parchasi singari yerga tushib erib bitadi. Erimagan qorlarni esa oyoq ostida bosib ezishadi.

Shahobiddinning “Qor” obrazi esa yo’qotilgan umidni uchib-uchib izlaydi. Qor uchishi bilan bog’liq tasvirlar ko’z oldingizda bir musiqiy ohangga mos tebranib tushayotgan parchalarni gavdalandiradi. Har ikkala shoirda ham simbolik ma’no tashigan “Qor” she’ri bu yo’nalishdagi ilk yangi namunalar sanaladi. Janob Shahobiddinning bu she’ri vazni sarbast mustazod. Bunday janrni turk she’riyatiga ayni shu shoir olib kirgan. Ohangdorligi mustazodga o’xshaydi va bog’inlardagi uyg’unlik barmoq shaklini oladi.

Fitratning “qor parchalari” uchib manzilga yetmay qolgan va yo’q bo’lgan tilaklarga qiyoslansa, Janob Shahobiddinning “qor parchalari”ni uchib tushib yo’q bo’lgach uylarini tark etgan qushlar go’yo uni qidirgan deya o’xshatiladi:

*“Sizi dallarda, lanelerde arar.
Gittiniz, gittiniz siz ey mürgan,*

Şimdi boş kaldı ser-te-ser yuvalar” [4: 46].
*(Sizni shoxlarda, ko’chalarda izlar
Ketdingiz, ketdingiz siz ey qush kabi
Endi bo’sh qoldi boshdan oxir kulbalar).*

Janob Shahobiddinning bu she’ri fransuz simbolizmi-dan o’rnak olgan holda yaratilgan bo’lsa, Abdurauf Fitratning “Qor” she’ri turk adabiyotining “Sarvati funun” davrida yuzaga kelgan uslubdan ilhomlanish natijasidir.

O’zbek yangi adabiyotida Abdurauf Fitrat kabi siyosiy shaxs va adabiyotshunos, ijodkor sifatida o’rin qozongan insonlar sanoqli. Turk “Sarvati funun” adabiyotida xuddi shunday hayotni Yahyo Kamol yashab o’tgan. Parijda siyosiy yo’nalishda o’qigan Yahyo Kamol yangi fikrli va dunyoni keng ko’zqarashda ko’ra oladigan ijodkor edi. U Ogoh Kamol taxallusi bilan ham ijod qilgan. Shoir maqolalarida milliy harakatni yoqlab chiqqan. Diplomatik vazifalarda ishlagan. Istanbul dorulfununida ham mehnat qilgan Yahyo Kamolni Fitrat tanimasligi mumkin emas.

“Batiya yonelen edebiyatimiz, Yahya Kemal’e g o re oyle bir duruma gelmiştir ki, edebiyat okulu bir araç değil de amaç olmuştur. Gerçekte ise bunun aksi olmalı ve amaç bizim ulusçuluğumuz, bizim tarihimiz ve coğrafyamız, bu tarih ve coğrafya içinde yaşayan insanımızdır” [6: 48]. Ma’nosi: “G’arb adabiyoti uslubiga sho’ng’igan adabiyotimiz Yahyo Kamolga ko’ra shunday bir holatga kelib qolganki adabiyot ta’limi vosita emas, maqsadga aylangan. Haqiqatda esa buning aksi bo’lishi lozim va maqsad – bizning milliylikimiz, bizning tariximiz va geografiyamiz va shu tarix va geografiya ichida yashagan insonimizdir”. Turkchilik g’oyalarini adabiyotga ko’chirish va millatning o’zligini anglash masalalari Yahyo Kamol uchun ham muhim amallardan biri edi. U Fitrat asarlari singari siyosiy insonlar yoki tuzumni tanqid qiluvchi “Shemi mulla”, “Bir suluvning g’afleti”, “Raif afandining qatli” kabi hikoyalar yozgan. “Turkiyaga millatparvarlik qachon keldi?” kabi maqolalarida ham millat uchun jon kuydirgan. She’rlarini aruz vaznida yozgan Yahyo Kamol vaznlar haqida shunday fikr bildiradi:

“Türk halkı, bu gereksinmeyle heceyi, Arap halkı da aruzu yaratmıştır. İksinin de ahenge yetenekleri vardır ve birbirlerine üstün yönleri de yoktur. Bu nedente, ölçüler arasında bir ayırım yapmak ve ona büyük değer vermek gereksizdir. Şiir hangi ölçüyle gelirse onunla yazılır. Çünkü, ölçülerde hiçbir “ahenk tasavvur edilemez”, hepsi de kendine göre bir ahenk, bir ses uyumu yaratabilir” [6: 50]. Ma’nosi: “Turk xalqi barmoq vaznini, arab xalqi aruzni yaratgan. Ikkisining ham ohangga uyg’unligi bor va bir-birlaridan ustunligi yo’q. Shu sababdan, vaznlar orasida biron farq topishga urinish va biron xususiyatiga ko’ra ortiqcha baho berish kerak emas. She’r qanday vazn bilan kelsa, shunday yaraladi. Chunki vaznlarda hech qanday ohangni tasavvur etib bo’lmaydi, hammasi ham o’ziga yarasha bir ohang va kuy yarata oladi”.

Yahyo Kamolning “O‘q” nomli she‘ri barmoq vaznida yozilgan. Bu shoirning barmoq vaznida yozilgan yagona she‘ri. Bunda haqiqat, erk mavzusiga urg‘u berilganini kuzatamiz:

*“Yavuz Sultan Selim Hân’in önünde
Ok atan ihtiyar Bektaş Subaşı,
Bu yüksek tepeye dikti bu taş,
O Gaazî Hünkâr’ın mutlu gününde.
Sulton Salimxonning ko‘zi o‘ngida
O‘q otmish qariya Suboshi Bekosh
Bir yuksak tepaga qo‘ndirildi tosh,
G‘oziy hukmdorning baxtli kunida”.*

She‘r epik tasvir asosiga qurilgan bo‘lib, o‘q ramziy ma‘noda milliy mujodalaning g‘alabasi ramzi edi. Chunki Sulton Salim o‘qni otgan xizmatchisi Bektoshga “Bu o‘qda bir sir bormi, nishonga bir urganda aniq tegdi? deya savol beganida Bektosh shunday javob qaytaradi:

*“İhtiyar, elini bağırina soktu,
Dedi ki: “İstanbul muhâsarası
Başlarken aldığım gazâ yarası*

*İçinden çektğim bu altın oktu!”
Qariya qo‘yniga qo‘lini soldi
Dediki: “İstanbul bo‘lganda qamal
Yaralangan edim, men o‘sha mahal
Yaramdan sug‘urib olgan o‘qdir bu”.*

Istanbul dushman qamalida qolganida Bektosh o‘q yegan va o‘sha yaradan sug‘urib olingan, “muqaddas” o‘q, ya‘ni Vatan ozodligi yo‘lida olingan jarohatdan chiqarilgan o‘q ham muqaddasdir.

Fitratning madrasalardagi ta‘lim va yolg‘onchi dindorlar boshqaruvi xususida so‘z ketgan “Munozara” asaridagi holatni Yahyo Kamol “Podshohlar ostida duo qilganlar” deya nomlaydi. Mamlakatni o‘z xurofoti bilan o‘z nafsini yo‘lida qurbon qilayotgan bunday shaxslarni qoralaydi. Ular sultonlar soyasida kun ko‘rayotgan nomi ulug‘lar edi xolos. Bu ayanchli ahvolning oldini olish uchun har bir millat o‘z uyqusidan uyg‘onmog‘i kerak edi. Turkiya ham Turkiston ham shu bosqichni boshidan kechirdi va bu yo‘lda yangilik tarafdorlari, islohotchi bo‘lib eng birinchi ziyoli qatlam, shoirlar, yozuvchilar oldinga chiqishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2000.
2. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – Toshkent: Fan va Texnologiyalar, 2008.
3. Boqiyev N. Madfun Turkiston. – Toshkent: Trust and support, 2023.
4. Prof. Dr. İnci Enginün. Cenap Şahabettin. – Ankara: Sanem, 1989.
5. Tevfik F. “Rubobi shikasta va Tevfik Fikret’in bütin diğ er eserleri. – Istanbul İnkılap Kitabevi, 1985.
6. Uyguner M. Yahya Kemal Bayatlı (yaş amı sanatı yapıtlarından seçmeler). – İstanbul: Bilgi yayınevi.
7. Aykut Turkoğ lu. Abdurauf Fitrat – hayati, fikirleri ve eserleri. <https://www.academia.edu>.
8. Farmonova M. Adabiy ta‘sir: Tavfiq Fikrat va Abdurauf Fitrat. www.raufparfi.uz.



Feruzah AHMEDOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti ikkinchi chet tillar kafedrasida
katta o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA “MATONAT” TUSHUNCHASINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat, shuningdek, salbiy jihatlarga oid rang-barang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterlidir. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz xalq maqollarida “matonat” tushunchasining ifodalanishi misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maqol, matonat, sabr-toqat, qat'iyat, urf-odat, universallik, sivilizatsiyasi.

Annotation. Proverbs are extremely rich and diverse in subject matter. Various proverbs have been created about the homeland, work, science, friendship, harmony, wisdom, vigilance, culture of language and speech, love and affection, as well as about negative aspects. Proverbs are characterized by such features as dialectical unity of content and form, in many cases rhyme, sometimes polysemy, a wealth of figurative meanings. In this article, using examples of proverbs, the expression of the concept of “mastery” in Uzbek and English proverbs is analyzed.

Keywords: proverb, persistence, patience, determination, tradition, universality, civilization.

Аннотация. Пословицы чрезвычайно насыщены и разнообразны по тематике. Созданы разнообразные пословицы о родине, труде, науке, дружбе, согласии, мудрости, бдительности, культуре языка и речи, любви и привязанности, а также об отрицательных сторонах. Пословицам свойственны такие черты, как диалектическое единство содержания и формы, во многих случаях рифмованность, иногда многозначность, богатство переносных значений. В данной статье на примерах пословиц анализируется выражение концепта «мастерство» в узбекских и английских пословицах.

Ключевые слова: пословица, настойчивость, терпение, решимость, традиция, универсальность, цивилизация.

O'zbek tilida ham, ingliz tilida ham maqollar muhim ro'l o'ynaydi. Maqol – xalq og'zaki ijodining aniq shaklga ega janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan, chuqur mazmunli ibora. Maqollarda ajdodlarning hayotiy tajribasi, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik qarashlari, fazilatlarini mujassamlashgan bo'ladi. Ular aytgan so'zlar asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Bugungi kunda maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir.

Tozalik va sog'likka da'vat ruhidagi maqollar qisqa va sodda so'zlardan iborat bo'ladi, ammo chuqur, teran ma'noli va ayni maqsadga yo'naltirilgandir. Fikrimizcha, maqollarda turli tillardagi milliy-ma'daniy hamda umumbashariy qadriyatlarining aks etishi masalasini o'rganish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammosi bo'lib kelmoqda. Qiyoslab o'rganadigan bo'lsak, dunyodagi barcha tillar o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin va aynan shu fenomen tillarni bir-biridan ajratib turadi. Lekin til o'rganuvchilar o'ziga begona tilni o'z ona tili va shu til o'rtasida ma'lum bir bog'liqlik asosida o'zlashtiradi. Bu tillar ma'lum bir kategoriyalar ostida birlashadi. Demak, umumlashtiruvchi kategoriyalar tillardagi universallikni ta'minlaydi. Bhu haqda taniqli tilshunos G.L.Permiakov quyidagicha fikr yuritadi: “Holatlarni umumiyashtirish xususiyati, ya'ni bir xil yoki o'xshash holatlarni birlashtirish turli xalq maqollarida uchraydi. Maqollardagi shu bir xillik

universallikni ta'minlaydi va ko'p holatlarda alohida mantiqiy ma'noga ega bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, maqol dunyosi jahon sivilizatsiyasi bilan bog'liqdir, uni faqat bir millatga tegishli deyish mutlaqo noto'g'ri. Maqollardagi universallik paremiologiyaning asosiy qirrasini bolib, maqollardagi o'xshash va bir xil xolatlarini umumlashtiradi va hatto qarindosh bo'lmagan tillarda ham (ularning tarixiga, etnosiga qaramay) uchraydi” [1].

Maqollardagi “matonat” tushunchasi ko'pincha sabr-toqat, bardosh, qat'iyat va qiyinchiliklarni yengish qobiliyati bilan bog'liq. Bu tushuncha aqlning mustahkamligi va qiyin vaziyatlarga chidash qobiliyatini anglatadi. Ingliz va o'zbek maqollarida ko'pincha mardlik, matonat va sabr-toqat bilan ifodalanadi. Buni ikki tildagi maqollarga namunalar keltirish orqali tahlil qilamiz. Ingliz tilidagi maqollardan boshlaymiz:

When the going gets tough, the tough gets going – Qiyinchiliklar ham o'tkinchidir.

Bu maqol kuchli va qat'iyatli shaxslar qiyinchilikka duch kelganida matonatli bo'lishini ifodalaydi. Ya'ni yaxshi kunlar o'tmishda qolganidek, qiyinchilikka to'la kunlar ham o'tkinchidir.

Fall seven times, stand up eight – Yetti marta yiqilsang ham, sakkizchi marta tur.

Ushbu maqolda esa chidam va matonat qiyinchilikni yengish kaliti degan fikrni ifodalaydi.

What doesn't kill you makes you stronger – Seni nima o'ldira olmasa, o'sha seni kuchliroq qiladi.

Bu maqol qiyinchilik insonning o'sishi va irodasi mustahkamlanishiga hissa qo'shishini anglatadi.

A smooth sea never made a skilled sailor – Mohir dengizchi chuqur dengizni yaratmagan.

Maqolda kuch va mahoratni oshirish uchun qiyinchiliklarni yengish zarurligi ta'kidlangan.

Keep calm and carry on – Tinchlan va davom et.

Ushbu maqol matonat va sabrni ta'kidlaydi, og'ir sharoitlarda ham o'zini boshqarish va oldinga intilish kerakligini ifodalaydi.

Yuqorida ingliz xalqining madaniyati, urf-odati akslangan maqollar bilan tanishdik. Quyida esa "matonat" tushunchasi ifodalangan o'zbek xalq maqollarini ham ko'rib chiqamiz:

Qiyinchilikda yengilish baxtli bo'lishdir.

Bu maqol qiyinchiliklarga chidash baxtga erishishning bir qismi ekanini anglatadi, bardoshli va matonatli bo'lishni ta'kidlaydi.

To'g'ri yo'lda yo'ldosh topilmasa, yo'ldan adashma.

Yolg'izlik va qiyinchilikdagi yo'l qat'iyatni rag'batlantirishi aytilayotgan ushbu maqolda ichki matonatga urg'u berilmoqda.

Sabr qilgan – to'rt bahor ko'rgan.

Sabrli, matonatli inson bahorni ko'radi, tasviri orqali maqolda baxtga sabrli, matonatli insonlar erishadi, degan xulosa ilgari surilmoqda.

Kuyovning ko'zi – kelinda, shoirning ko'zi – she'rda.

Bu maqolga ko'ra, biror ish qiyin bo'lib ko'rinsa ham, qat'iylik va matonat muvaffaqiyatga olib boradi.

Qiyinchiliklar hayotga kuch beradi.

Ushbu maqolda bardosh qiyinchiliklarni yengish orqali shakllantirilishi ta'kidlanadi.

Keltirilgan maqollar qat'iyat, sabr-toqat va og'ir kunlarda bardoshli bo'lish haqida ekan, ikkala xalqda bu tushunchalarga nisbatan ijobiy ruh borligini ko'rsatadi, madaniyatlar o'rtasidagi jasoratning umumbashariy qadrlanishini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиология. – Москва, 1988.
2. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2012.
3. Mirzaakhmedova M.Y. The interpretation of the concept "knowledge" in english literature // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(10), 2019.
4. Mirzaaxmedova M. Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari // Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784.
5. Tumanishvili. The specific and the Universal in the Proverb Genre / Rustaveli Institute of Georgian Literature. VOLUME 1, 2007.



Nigina BERDIKULOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
yapon filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

YAPON TILIDAGI 「二字熟語 (NIJI JUKUGO) JUFT IYEROGFLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI VA O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Yaponiya uzoq va boy tarixga ega, noyob va qiziqarli madaniy urf-odatlar bilan to'ldirilgan ajoyib mamlakatdir. Yaponiyada boy pazandalik madaniyatidan tortib hayratlanarli tabiiy go'zallikkacha barchaga qiziq. Ushbu maqolada Yaponiyaning dunyoda tutgan o'рни, yapon tili haqidagi ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, maqolaning asosiy qismida 「二字熟語 (niji jukugo) juft iyeroglifli idiomalarning xususiyatlari va o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari va yechimlari atroflicha yozilgan.

Kalit so'zlar: iyerogliflar, 二字熟語 (niji jukugo) juft iyeroglifli idiomalar, ikki belgili idiomalar.

Annotation. Japan is a wonderful country with a long and rich history, filled with unique and interesting cultural traditions. There is something for everyone in Japan, from rich culinary culture to amazing natural beauty. This article contains information about the role of Japan in the world, about the Japanese language. Also, in the main part of the article, the features of the paired hieroglyph 「二字熟語 (niji jukugo) and the problems and solutions of translation into Uzbek are written in detail.

Keywords: hieroglyphs, 「二字熟語 (Niji jukugo), two-character idioms.

Аннотация. Япония – удивительная страна с долгой и богатой историей, наполненная уникальными и интересными культурными традициями. В Японии каждый найдет что-то для себя, от богатой кулинарной культуры до потрясающей красоты природы. Эта статья содержит информацию о роли Японии в мире, японском языке. Также в основной части статьи подробно описаны особенности парного иероглифа 「二字熟語 (niji jukugo), проблемы и решения перевода на узбекский язык.

Ключевые слова: иероглифы, 「二字熟語 (niji jukugo), двухсимвольные идиомы.

Chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish butun dunyo bo'ylab tobora ortmoqda. Dunyodagi eng mashhur tillar savdo, siyosiy munosabatlar va tarixni o'rganish sohasida muloqot qilish uchun ishlatiladi. Ushbu mashhur tillardan biri – bu shubhasiz yapon tilidir. Yaponiya o'ziga xos madaniyatga, yer yuzidagi eng sirlı joylarga ega mamlakat.

Shuningdek, Yaponiya iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakat. YIM(XQP) ning umumiy hajmiga ko'ra dunyoda h, Xitoy va Hindistondan keyingi to'rtinchi o'rinni egallaydi [1]. Kunchiqar yurt madaniyatining o'ziga xosligi va iqtisodiy barqarorlik butun dunyo bo'ylab yapon tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Yapon tili asosan Yaponiyada, shuningdek, Osiyo, Amerika va Yevropaning bir qancha mamlakatlari (AQSh, Kanada, Braziliya va boshqalar)da, Avstraliyada tarqalgan. Grammatik tuzilish nuqtayi nazaridan yapon tili agglyutinatıv til bo'lib, asosan grammatik ma'nolarni sintetik tarzda ifodalaydi. Hozirgi yapon yozuvida so'zbelgilar – iyerogliflar (yaponcha “kanji” – xitoy yozuvi) va bo'g'inli belgilar (“kana”lar) qo'llanadi.

Ushbu iyeroglifli birikmalardan bittasi bu – 二字熟語 (niji jukugo)dir. Yapon kanji juftlari yoki 二字熟語 (niji jukugo) so'zlarining ikki bo'g'inli birikmasi bo'lib, ular odatda turli tushunchalar, predmetlar, harakatlar va hokazolarni ifodalashda qo'llaniladi. Bu birikmalar yozuvda asosiy rol o'ynaydi, ko'plab leksik va grammatik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Yaponcha juftlashgan belgilar ko'plab qo'shma so'zlarning asosi bo'lib, ularning birikmasi yangi atama

va iboralarni shakllantirish imkonini beradi. Bunga misol qilib quyidagi so'zlarni ham keltirish mumkin.

Bu so'zlarning qo'llanish uslubi va rasmiyatchilik darajasida farqlar mavjud. Misol uchun, ko'plab 二字熟語 (niji jukugo), ya'ni juft iyerogliflari alohida so'zlarga qaraganda ko'proq rasmiy uslubga ega bo'lib, ularni adabiyot, akademik yozuv va rasmiy hujjatlarda foydalanish afzal ko'riladi.

Shunday qilib, yaponcha juft belgilar turli xil leksik xususiyatlarga ega, ular ham semantik boylik, ham turli kontekstlarda foydalanishda moslashuvchanlikni o'z ichiga oladi.

Yurtimizda ham xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bugun mamlakatimizda chet tillari o'rganishga va o'rgatishga bo'lgan e'tibor yuksak darajaga ko'tarildi. Chunki chet tillarni o'rgatishga bugungi kunda davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5117-son qarori ham qabul qilindi. Hamma tillarni, xususan, yapon tilini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor har doim davlatimiz e'tiborida.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ikki til orasidagi, ayniqsa, yozuv jihatidan farqlar ushbu tillar orasidagi tarjimalarni murakkablashtiradi. Xususan, yaponcha 二字熟語 (niji jukugo), so'zma-so'z “ikki belgili idiomalar” degan ma'noni anglatadi, ma'lum bir ma'no yoki

tushunchani bildirish uchun ikkita kanjidan (xitoycha belgilar) hosil bo'lgan qo'shma so'zlardir. Ushbu qo'shma so'zlar yapon tilining markaziy xususiyati bo'lib, muloqotda, ayniqsa rasmiy va akademik kontekstlarda muhim rol o'ynaydi. Bu atamalarni boshqa tillarga, masalan, o'zbek tiliga tarjima qilishda til tuzilmalari, madaniy kontekstdagi farqlar tufayli turli qiyinchiliklar tug'iladi. Yapon tilidagi ikki belgili idiomalarning 二字熟語 (niji jukugo) leksik xususiyatlari quyidagilar.

Niji jukugo odatda ikkita kanji belgisidan hosil bo'ladi, ularning har biri umumiy ma'noga hissa qo'shadi. Belgilar har doim ham birikmaning ma'nosini to'g'ridan to'g'ri tarjima qila olmaydi; balki qo'shma so'zning ma'nosi ikki kanjining o'ziga xos juftlanishidan kelib chiqadi. Masalan, 学問 (gakumon) – "o'rganish" yoki "ta'lim" – 学 (o'rganish, ta'lim) va 問 (savol, so'rov) so'zlarni birlashtiradi.

人間 (ningen) – "inson" – 人 (inson) and 間 (bo'shliq, interval, munosabat) kabi so'zlarni birlashtiradi.

Niji jukugoning ma'nosi ko'pincha uning qismlari yig'indisidan kattaroqdir. Murakkab tarkibidagi kanji belgilari to'g'ridan to'g'ri so'zning umumiy ma'nosiga to'g'ri kelmaydigan ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Misol uchun, "poyezd" ma'nosini anglatuvchi 電車 (densha) 電 (elektr) va so'zlaridan iborat bo'lsa-da, "poezd" ma'nosi personajlarning individual ma'nolaridan ko'ra kombinatsiyadan kelib chiqadi.

Ba'zi niji jukugo atamalarining o'zbek tilida bevosita o'xshashi yo'q. Bu ayniqsa, chuqur madaniy yoki falsafiy ma'noga ega atamalar uchun to'g'ri keladi. Jumladan, 侘寂

(wabi-sabi) yoki 生き甲斐 (ikigai) kabi tushunchalarining o'zbek tilida tarjimalari yo'q, chunki bu tushunchalar yapon madaniyatiga xosdir. Bunga misol qilib, 陰陽 so'zi asli xitoycha bo'lsa-da, yapon tilida keng qo'llanilgan. Tushuncha haqida umumiy fikr mavjud bo'lsa-da, aynan o'zbek tilidagi ekvivalenti bir xil ma'nolarni to'liq qamrab olmasligi mumkin.

Ko'pgina niji jukugo yapon hayoti, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettiradi. Bular boshqa tillarda, jumladan, o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun notanish, yoki ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Bu so'zlar ma'noning bir qismini yo'qotmasdan tarjima qilishni qiyinlashtirishi mumkin. Misol uchun, 和 (wa) so'zini olaylik. Uyg'unlik, tinchlik degan ma'noni anglatuvchi 和 (wa) so'zi yaponcha ijtimoiy muvozanat va tartib tushunchasi bilan chuqur bog'langan. O'zbek tilida ham shunga o'xshash g'oyalar bor bo'lishi mumkin, lekin bir xil madaniy tasavvurlarni uyg'otmasligi aniq.

Yapon tilini o'zbek tiliga tarjima qilish murakkab ish bo'lib, madaniy, leksik va kontekst omillariga jiddiy e'tibor berishni talab qiladi. Atamalarining to'g'ridan to'g'ri ekvivalentlarining yo'qligi yapon tilining madaniy o'ziga xosligi bilan birgalikda tarjimonlar uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Biroq tarjimonlar tasviriy tarjimalardan foydalanish, o'zbek madaniyatida o'xshash tushunchalarni topish, kerak bo'lganda transliteratsiyalardan foydalanish orqali bu qo'shma so'zlarning ma'nolarini chuqurligi va nozikligini saqlagan holda fikrni samarali yetkaza oladilar.

Foydaniilgan adabiyotlar

1. Qayumov A., Safarov I., Fedorko V. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. ISBN 978-9943-01-563-0.
2. Маевский Б.В. Графическая стилистика японского языка. – Москва, 2000.
3. Bernard Bloch. Studies in colloquial Japanese IV Phonemics. Language. – 1950. Vol. 26. – P. 86–125.



Zulayho TO'YCHIYEVA,
Guliston davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi

ISLOMIY LEKSIKOGRAFIK LUG'ATLAR

Annotatsiya. Mazkur maqola diniy leksikografik lug'atlar va ularda religionimlarning berilishi xususida bo'lib, islom diniga e'tiqod qiluvchi kishilarning ichki ma'naviy madaniyati mahsuli bo'lgan diniy so'zlar talqini va tahlili haqida boradi. Maqolada tadqiqot obyektimiz diniy leksika, yani religionimlar bo'lgani uchun shu mavzudagi lug'atlarga e'tibor qaratilgan. Diniy islomiy religionimlar maqolaning illustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: til, lug'at, diniy leksika, religionim, maqola, islom, leksikografiya.

Annotation. This article discusses religious lexicographic dictionaries and the provision of religionyms in them, and the interpretation and analysis of religious words, which are the product of the internal spiritual culture of people who follow Islam. Since the object of our research in the paper is religious lexicon, that is, religionyms, we focus on dictionaries on exactly this topic. Islamic religionyms serve as illustrative material for the article.

Keywords: language, dictionary, religious lexicon, religionym, article, Islam, lexicography.

Аннотация. В данной статье речь идет о религиозных лексикографических словарях и представлении в них религиозных терминов, а также рассматриваются толкование и анализ религиозных слов, являющихся продуктом внутренней духовной культуры людей, исповедующих ислам. Поскольку объектом нашего исследования является религиозная лексика, то есть религионимы, в статье особое внимание уделено словарям по данной тематике. Иллюстративным материалом для статьи служат исламские религиозные названия.

Ключевые слова: язык, словарь, религиозная лексика, религионим, статья, ислам, лексикография.

Til millatning madaniyatini, ya'ni milliy madaniyatni bildiruvchi muhim belgi hisoblanadi [1: 3]. Til aniq millat, elat yoki xalqning milliy madaniyatini ko'rsatar ekan, unda tilning muloqot vositasi sifatidagi maqomi ifodalanadi.

Fikrlar, tushunchalar va hissiyotlarni anglatuvchi til, "Kishilik jamiyatining barcha sohalardagi yangilanishlarga ta'sir qiladi [2: 11]. Demak, jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan til o'z vazifasini bajarib, har ikkalasi o'zaro bir-birining rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

So'zlarning qo'llanish yoki ma'nolari doirasi o'zgarishi bilan til lug'at tarkibining o'zgarishi har bir jamiyatning taraqqiyoti bilan mutanosib ravishda namoyon bo'ladi, ijtimoiy taraqqiyot yoki tanazzul natijasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-maishiy yangilanishlar jamiyat tilining lug'at tarkibida ifodalanadi, bu tilning ijtimoiy rivojlanishi va ijtimoiy roli va funksiyalarining kengayib borishi bilan izohlanadi [3: 20].

Tilshunos K.Xanazarov bashariyatning yutug'i hisoblangan ishlab chiqarish, fan-texnika, madaniyat, ijtimoiy-siyosiy, maishiy hayotning yuksak darajasini ko'rsatishda aloqa vositasi vazifasini bajaruvchi tilni rivojlangan til deb tushunilishini ta'kidlaydi [4: 34]. Til o'z hayoti davomida boshqa ijtimoiy hodisalar singari shakllanadi, o'sadi va taraqqiy etadi.

O'zgaruvchan va harakatlanuvchan hodisa sifatida tilning lug'aviy boyligi, grammatik shakllari, fonetik xususiyatlari va boshqa jihatlardan muttasil yangilanish jarayoni davom etadi. Ijtimoiy yangilanishlarning suratini o'zida aks ettirar ekan, tildagi o'zgarishlar ko'lami va ahamiyati ularning miqdori va tezligiga bog'liq tarzda amalga oshadi [5: 23].

Ko'p millatli O'zbekiston davlatida millatlar o'zaro muloqotga kirishishlari uchun bitta til talab qilinadi. Bu talabning o'sib borishi mamlakatimizda o'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida boshlang'ich, o'rta maxsus va oliy ta'limda, madaniy-maishiy, ilmiy va boshqa sohalarda dolzarblik kasb etdi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, u xalqning milliyligi va taqdirini kafolatladi [3: 44–45].

Bu borada tilshunos N.Uluqovning tadqiqotlariga ko'ra, til ichki tizimi qator ilmiy muammolar obyekti bo'lgan holda, uning o'zi mansub bo'lgan millat madaniyati bilan aloqasi masalalari dolzarbligini ko'zdan qochirmaslik zamonaviy tilshunoslikning oldida turgan ahamiyatli vazifalaridandir [6: 27].

O'zbek tili leksikografiyasi o'zining rivojlanish davri bo'lgan mustaqillik yillarida barcha sohalardagi maxsus leksika lug'atlarini ishlab chiqishga, ayniqsa, e'tibor qaratdi. Bu davrda, ya'ni, 2006–2008-yillarda A.Madvaliyev tahriri ostidagi 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasidan iborat besh jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" to'ldirilib, qaytadan nashr qilindi.

A.Madvaliyev va D.Xudayberganovlar tahriri ostidagi 2023-yilda to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan olti jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" lotin yozuvida nashr etildi.

Tibbiyot, adabiyotshunoslik, tarix, huquqshunoslik kabi sohalardagi tadqiqot obyektimiz bo'lgan islomiy diniy so'zlarning qayta faollashish jarayoni yangi nashrdagi izohli lug'atga o'zgartirish kiritilib, boyitilishiga olib keldi.

O'zbek terminologik lug'atlari, ta'bir joiz bo'lsa, fan sohalarining deyarli barchasini qamrab olgan deyish

mumkin. Aniq fan sohalari kabi ijtimoiy-gumanitar fan sohalari doirasida qo'llanuvchi terminlarning ma'no-mohiyatini ifodalashga yo'naltirilgan lug'atnavislik (terminografiya) ishlari respublika ilmiy-tadqiqot institutlari yetakchi olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tomonidan tuzilgan. Terminologik lug'atlarning aksariyati rus tilidan o'zlashgan terminlarning o'zbek tilida ifodalanish masalasiga bag'ishlangan. Bizning tekshirish obyektimiz diniy leksika, ya'ni religionimlar bo'lgani uchun shu mavzudagi lug'atlarga murojaat etamiz.

Quyida diniy so'z va iboralar, diniy terminlar, ularning izohlari berilgan lug'atlar va ensiklopediyalarni ko'rib chiqamiz.

1983-yili Moskva shahrida N.A.Ivanov, S.X.Kyamilev, Y.A.Lebedev va boshqalar tomonidan rus tilida 160-sahifadan iborat "Islam: kratkiy spravochnik" lug'ati "Nauka" nashriyotida nashr etiladi [7: 160]. Ushbu lug'at-malumotnoma sovet sharqshunoslari jamoasi tomonidan tayyorlangan bo'lib, dastlabki islom haqidagi birinchi ma'lumotnoma edi. Kitobda alohida tushunchalar, islomning ko'zga ko'ringan namoyandalari, islom dinining yo'nalishari, mazhablar, islom huquqi maktablari, zamonaviy musulmon tashkilotlari va xalqaro xarakterdagi institutlarga bag'ishlangan ikki yuzdan ortiq maqolalar o'rin olgan.

Diniy so'z va iboralar, asosan, M.A.Usmonov tahriri ostida 1986-yilda "O'zbek Sovet ensiklopediyasi" bosh redaksiyasi tomonidan nashr etilgan "Islom" spravochnigi, 1989-yilda M.A.Usmonov tahriri ostida "O'zbek Sovet ensiklopediyasi" bosh redaksiyasi tomonidan nashr etilgan, qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri "Islom" spravochnigi, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti tomonidan chop etilgan "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", Zuhridin Husniddinov tahriri ostida 2004-yilda "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyotida chop etilgan "Islom" ensiklopediyasi, A.Madvaliyev tahriri ostidagi 2006–2008-yillarda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati", A.Madvaliyev va D.Xudayberganovlar tahriri ostidagi 2023-yilda to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan olti jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" lotin yozuvida nashr etildi.

Muxtorxon Eshon Umarxo'jayevning 2016-yili G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida nashr etilgan "Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug'at", "Tasavvuf" lug'ati ishlab chiqilgan.

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq, bugungi kun avlodiga din, xususan, islom dini, uning paydo bo'lishi, shakllanishi va bashariyat tarixiy rivojidadagi harakatlanishi haqidagi haqiqatni yetkazish asosiy vazifalar hisoblanadi. Muqaddas kitoblarning so'nggisi bo'lgan Quroni Karim va muqaddas dinlarning oxirgisi va mukammali bo'lgan islom dini musulmon mamlakatlar ijtimoiy hayotiga har tomonlama ta'sir

o'tkazib, islom dini vakillarining kundalik turmush tarzining asosini tashkil qiladi.

Vatanimiz tarixiga nazar solsak, turli davrlarda, turli siyosiy voqealar oqibatida jamiyat a'zolarining diniy e'tiqodiga, xususan, islom diniga turlicha munosabatda bo'lishgan. Sho'rolar davrida, ayniqsa, islom dini va uning arkonlari faoliyati chegaralab qo'yildi, ateistik mafkura olg'a surildi.

Turli dinlarga e'tiqod qiluvchilarning erkinliklari va huquqlarini kafolatlovchi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi qonun imzolangandan so'ng mamlakatimizda mavjud diniy konfessiyalar va diniy e'tiqod vakillari o'z dini aslini bilishi uchun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, bizning misolimizda, diniy-ilmiy sohada ham yangilanishlar vujudga kela boshladi.

Davr taqozosi bilan Zuhridin Husniddinov tomonidan islomshunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan soha termin va atamalarining izohini keng ommaga yetkazuvchi "Islom ensiklopediyasi" yozildi. Mazkur ensiklopediya 320-sahifadan iborat bo'lib, 2004-yilda "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti tomonidan chop etilgan. Ushbu "Islom ensiklopediyasi" da islom dinining paydo bo'lishi, rivojlanishining asosiy bosqichlari, islom dini, falsafasi va madaniyat rivojiga hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar bilan bog'liq bo'lgan eng muhim sanalar va voqealar haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, ushbu asar kitobxonda ulamolar tomonidan islom mutafakkirlarining hayoti va ijodining yaxlit va tizimlilik haqida tasavvur hosil qiladi.

Ensiklopediyada islomshunoslikdagi tushunchalar haqida ma'lumot, ya'ni ularning izohi turli davrdagi yondashuvlar asosida yoritib berilgan. Tushuncha yoki atamani izohlashda "Islomga doir tushunchalarning mazmunini talqin etishda keng tarqalgan va ko'pchilik mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan ta'rifu tavsiflar" [8: 320]da ifodalangan. Shuningdek, mazkur ensiklopediyada din va milliy madaniyatning o'zaro bog'liqligi natijasida islomiy ta'limotning rivojlanishining o'ziga xosliklari aks ettirilgan.

Bundan tashqari, din jamiyatda harakatlanar ekan, boshqa voqea-hodisalar singari ijtimoiy jarayonlarda o'zgarishlarga, yangilanishlarga uchraydi. Ma'lum bir din harakatlanayotgan jamiyatning unga munosabatiga qarab din yo tanazzulga yuz tutadi, yo taraqqiy etadi. Islom diniga munosabat ijobiy bo'lgan jamiyatda u xuddi boshqa ijtimoiy tarmoqlarga o'xshab rivojlanar ekan, mos ravishda sohada yangi leksika – islomiy religionimlar paydo bo'lib, muloqot barobarida faollashib, takomillashib boradi. Masalan: *Badr jangi, Uhud jangi*.

Muallif islomiy terminlarni izohlash bilan birga, ijtimoiy-diniy masalalar bilan bog'liq religionimlarni ham izohlaydi. Masalan: *hijra, hijrat*.

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida islom dini, uning namoyandalari, ular bilan bog'liq joy nomlari, jumladan, *masjid, madrasa, maqbara, ziyoratgoh* kabi majmualar ko'p. Z.Husniddinov shu kabi obyektlarning



har birini izohlab, ularning islom olamidagi ahamiyatini ochib beradi.

Masalan, Islom dini yirik vakillari bilan bog'liq joy nomlari: *Amir temur jome masjidi, Amir to'ra madrasasi, Abulqosim madrasasi, Anbar bibi maqbarasi* va boshqalar. Umuman olganda, qomusda muallif religionimlarni izohlar ekan, ularni ham tarixiy, ham diniy tomondan batafsil ochib beradi.

Mazkur lug'at keng o'quvchilar ommasiga, xususan, islom dini vakillari va islom dini haqida ma'lumotga ega bo'lishni xohlovchilar uchun mo'ljallangan. Lug'atning tuzilish tartibi tubandagicha ko'rinishni hosil qilgan, bosh so'zlarning barcha so'z va terminlari alifbe tartibida berilgan va ular yirik harflar bilan terilgan. So'z yoki terminning qaysi tildan kelib chiqqanini qavs ichida o'zbek tilidagi tarjimasini bilan berilgan. Nuqtadan keyin religionimning izohi batafsil yoritib berilgan.

2016-yilda G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan Muxtorxon Eshon Umarxo'jayev tuzgan "Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug'at"i e'lon qilindi.

Keyingi paytlarda o'zbek terminografiyasida diniy, ma'rifiy-irfoniy xarakterdagi lug'atlarni tuzish masalasiga birmuncha diqqat qaratildi. Xususan, 2014-yilda ota-og'il Omonturdiyevlarning 1500 dan ortiq istilohlar jamlangan "Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati" e'lon qilindi. Asardan ruhoni, ma'rifiy va irfoniy yoki mavhum tushunchalarni ifodalovchi terminlar qatori ko'pgina ma'rifiy obyekt, manzil, makon, nabotot va shaxs nomlarini anglatuvchi leksik birliklar, antroponimlar, toponimlar ham joy olgan. Istilohlarning joriy (krill) hamda arab yozuvlarida berilishi lug'atning ilmiy qimmatini

ta'minlagan. Asarga lug'at-maqolalar ilova qilingan, u foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ko'rsatkichlar bilan to'ldirilgan.

Leksikografiya prinsiplariga rioya qilingan holda tuzilgan ushbu lug'atda boshqa lug'atlardan farqli o'laroq, ma'rifiy yoxud tasavvufiy ta'limot bilan bog'liq tarzda shakllangan, ijtimoiy ma'no-mazmun kasb etgan, izoh, ta'rif, tavsif talab etadigan, termin xarakteridagi so'z va iboralar izohlangan.

Ma'rifiy-irfoniy mazmundagi obidalarda qayd etilgan bir qancha istilohlarning ma'nosini anglashda qo'l keladigan mazkur lug'atda sezilarli yutuqlar bilan birga, ayrim juz'iy kamchiliklar ham yo'q emas. Chunonchi, asar annotatsiyada 2000ga yaqin, Muqaddimada esa 1500dan ortiq istilohlar izohlangani ta'kidlangan. Lug'at-maqolalarni joylashtirishda har doim ham alifbo tartibiga rioya qilinmagan. Masalan, *Azon duosi Azon* dan (9), *Al hazar Alhamdulillah* dan (14), *Amin ul-vahiy Amin* dan (14), *Bayt ul-ma'mur, Bayt ul-mag'firat, Bayt ul-muqaddas, Bayt us-salot izofalari Baytulloh* dan (24), *Duoi bad qilmoq iborasi Duoi bad* dan oldin joylashtirilgan. *Voqea* (35), *Buruj* (30), *Val-layl* (31) kabi sura nomlari, *Gulsayri* (36), *Jin* (45) kabi leksemalar negadir qo'shtirnoqqa olingan. *Voliy* istilohining izohida kamchilikka yo'l qo'yilgan, ya'ni bu termin "barcha ishlarni tasarruf etuvchi, qudrat bilan boshqaruvchi hakim (34)" emas, balki *hokim* tarzida izohlanishi zarur edi.

Xulosa qilib aytganda o'zbek tilida islom dini leksikasini o'zida aks ettirgan bir qancha filologik va ensiklopedik lug'atlar yaratilgan bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda mukammal "Diniy atamalar va iboralarining izohli lug'ati"ni yaratishga ehtiyoj borligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Изд. 2, перераб. и доп. – М.: Русский язык, 1976.
2. Швейцер А.Д. Современная социоллингвистика. Теория проблемы, методы. – М.: Наука, 1977.
3. Qo'shoqova B. Til funksional rivojlanishining sotsiologik tahlili (o'zbek tili misolida). Fil. fan. bo'yicha falsafa doktori ... diss. – Farg'ona, 2019.
4. Ханазаров К.Х. Сближение наций и национальные языки в СССР. – Ташкент, Изд-во Акад. наук УзССР, 1963.
5. Mamashukurov J.A. O'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy asoslari: Fals. fan. nomz... diss. – Toshkent, 1999.
6. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2016.
7. Иванов Н.А., Кямилев С.Х., Лебедев Е.А. и др. Ислам: краткий справочник. – М.: Наука, 1983.
8. Husniddinov Z. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.

Mushtariybonu MAXAMMADJONOVA,
Andijon davlat universiteti magistranti

“MOTAM” ASSOTSIATIV MAYDONIGA KIRUVCHI LEKSEMALARNING ASSOTSIATIV MUNOSABATI (O'tkir Hoshimovning “O'zbeklar” hikoyasi misolida)

Annotatsiya. Tilshunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlarda o'rganilayotgan obyektga nisbatan tizimli yondashuv tilga yaxlit bir makrosistema sifatida qarash va til birliklarini turli mazmuniy guruhlariga ajratib, bu guruhlardagi lisoniy birliklarning umumiy va xususiy jihatlarini tahlil qilishga imkon yaratadi. Lingvistik maydon nazariyasi shu yondashuv asosida til birliklarini tahlil etadi. Ushbu maqolada leksemalar assotsiativ maydon asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: assotsiativ maydon, sema, assotsiativ munosabat, ekstralingvistik omil, stimuly so'z, assotsiativ ma'no.

Annotation. A systematic approach to the object of study in the researches in linguistics makes it possible to look at the language as a whole macro-system and to divide language units into different meaningful groups and to analyze the general and specific aspects of linguistic units in these groups. Linguistic field theory analyzes language units based on this approach. In this article, lexemes are studied based on the associative field.

Keywords: associative field, sema, associative relationship, extralinguistic factor, stimulus word, associative meaning.

Аннотация. Системный подход к объекту исследования в лингвистических работах позволяет рассматривать язык как целостную макросистему, разделять языковые единицы на различные смысловые группы и анализировать общие и специфические стороны языковых единиц в этих группах. Теория лингвистического поля анализирует языковые единицы на основе этого подхода. В данной статье лексемы изучаются на основе ассоциативного поля.

Ключевые слова: ассоциативное поле, сема, ассоциативная связь, экстралингвистический фактор, слово-стимул, ассоциативное значение.

Insonning tashqi olamni idrok etishi va uni tilda aks ettirish muammosi tahlilida til egalarning lisoniy ongi, tafakkuri, xotira imkoniyatlari, shuurlari jamlangan leksik birliklar zaxirasi va bu zaxiradagi birliklarning o'zaro munosabati kabilarni tekshirish muhim o'rin tutadi. Chunki bu orqali muayyan birlik insonlar ongida qanday lisoniy figuraga egaligi va unga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni, tafakkurdagi lisoniy obrazning davriy tadriji va undagi o'zgarishlar sababini aniqlash mumkin bo'ladi.

Assotsiativ tilshunoslik antroposentrik tilshunoslikning tilni undan foydalanuvchi shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganadigan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. “Assotsiatsiya” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, “qo'shish”, “biriktirish” degan ma'nolarni bildiradi. Tildagi assotsiatsiyalarga dastlabki munosabat V.Humbolt nomi bilan bog'liq.

Matning assotsiativ maydoni tushunchasini ilmiy muomalaga Sh.Ball kiritgan bo'lsa, rus tilshunosi Y.N.Karaulov ushbu tushunchaning tilshunoslikdagi mohiyatini kengroq yoritib bergan [5].

Tilshunos D.Xudoyberganova assotsiatsiyalarning hosil bo'lishini so'z ma'nosi va so'zga xos xususiyatlar bilan bog'laydi. Uning fikricha, inson o'z xotirasida so'zlarning ma'nolari bilan birga, ularning obyektiv olamdagi sezgi a'zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni ham saqlaydi, Shu sababli muayyan so'z uni eshituvchi odam xotirasida ma'lum assotsiatsiyalarni paydo qiladi [1].

Tildagi ma'noli birliklarning semantikasi yondosh ma'nolar (yaqin, zid, o'xshash) orqali ochib beriladi. Masalan, motam leksemasining ma'nosiga shodlik

leksemasi asosida aniqlik kiritiladi. Bu jarayonda til birligining assotsiativ ma'nosi muhim o'rin tutadi. Leksemaning assotsiativ ma'nosi leksik ma'no kabi so'z orqali reallashadi, biroq leksik ma'no leksemada o'z ifodasini topsa, assotsiativ ma'no til egalari ongida muayyan leksik birlik bilan bog'liq tarzda shakllanadi [2].

Leksik birliklarning assotsiativ maydonini ikki xil usulda hosil qilish mumkin. Birinchisi, matndan assotsiativ bog'langan birliklarni ajratish va assotsiativ maydonga birlashtirish. Ikkinchisi, sinaluvchilarda ma'lum birliklar bo'yicha assotsiativ tajriba o'tkazish va uning materiallari asosida assotsiativ maydon shakllantirish.

Matndan assotsiativ bog'langan birliklarni ajratish va assotsiativ maydonga birlashtirishni salbiy baho munosabatli ot so'z turkumiga mansub bo'lgan “motam” semasini ifodalovchi birliklarning assotsiativ maydonini ko'rib chiqamiz.

Assotsiativ maydon uzvlari bizning ongimizda shakllangan aloqa orqali bir guruhga birlashadi. Masalan, biz tafakkur qilish orqali *kitob* va *nashriyat* so'zlari o'zaro aloqador leksik birliklar ekanini anglaymiz. Bu aloqa konseptual aloqa deyiladi. Ya'ni bir leksik birlik anglatgan tushuncha orqali boshqa bir leksik birlik anglatgan tushuncha bir-biriga aloqadorligidan bu tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning bog'liqligi yuzaga keladi. Bu aloqa assotsiativ hamda semantik maydon qismlari o'rtasidagi munosabatlarni belgilashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Yozuvchi O'tkir Hoshimovning “O'zbeklar” hikoyasida “motam” semasini ifodalovchi lingvistik birliklar o'zaro assotsiativ aloqasiga ko'ra bir maydonni tashkil qiladi. **O'limlik, kafanlik, doka, yirtish, ro'mol, ko'k, qora, ahvoli og'ir,**



yuragiga g'ulg'ula tushdi, yuragi gursillab, ichida bir nima uzilib ketgandek bo'ldi, onamizdan ayrilib qoldik, o'krab yig'lab yubordi, ko'z o'ngi qorong'ilashib ketdi, karaxt bo'lib qoldi, ko'z yoshi, esdan og'ib qolgandek, o'krab yubordi, ingrab, bandalik, Ollohning irodasi, yuvg'uchi, hiqillab yig'ladi, o'tganlarni joyi jannatda bo'lsin, yig'idan qizargan ko'zlari, o'lik chiqqan uyda qozon qaynatib bo'lmaydi, o'pkasi to'lib xo'rsindi, o'lim, boshini changalladi, omonatini topshiribdi, joyi jannatda bo'lsin, yuziga fotiha tortdi, vasiyat, tobut, jannati xotin edilar, bardam bo'ling, ota-ona o'mog'i farz, do'ppi, chuvvos solib [3].

Urush bitdi. *Ketganlar ketdi. O'lganlarni joyi jannatda bo'lsin.*

– Endi... **Tirik jon-da**, o'rgilaylar. Vaqti **qazoyim yetsa**, bolam bechora yugurgilab qolmasin, deyman-da, ishi og'ir, lak-lak odamga xo'jayin bo'lish osonmi?

– Onamizdan **ayrilib qoldik-ku**, ukam! – U Iskandar Bahodirovichni bag'riga bosganicha birdan **o'krab yig'lab yubordi**. – **Ayrilib qoldik!**

– **Bandalik-da**, bolam, – dedi – ming'irlab. – **Olloning irodasi**, jon bolam! **Yuvg'uchi** keldi... – Shunday dedi-yu, **hiqillab yig'lagan** ko'k ro'molini yuziga bosdi.

– Otinoyimning ziraklarini **yuvg'uchiga** berdik, – dedi sekin. – O'zlari vasiyat qilgandilar.

Baxri xola **ko'k ro'mol** tang'ib, **ko'k ko'ylak** kiyib olibdi. **Yig'layverib**, shishib ketibdi.

Old tomoniga **paranji**, orqasiga **mursak** yopilgan **tobutni** olib chiqishganida hammayoq **dilni o'rtovchi faryodga** to'lib ketdi [4].

Ushbu birliklar bevosita motam semasini ifodalovchi birliklar bo'lib, badiiy matnda "o'lim" stimuly so'zi atrofida birlashgan. Assotsiativ munosabatni yuzaga keltiruvchi omillarni ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida leksik assotsiatsiyalar quyidagi lingvistik omillar bilan bog'liq hosil bo'ladi:

1. Leksemalarning semantik jihatdan o'zaro bog'liqligi.
2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga ko'ra aloqasi.
3. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko'ra aloqasi.
4. Leksemalarning pragmatik belgisiga ko'ra aloqasi.
5. Leksemalarning yasalishdagi umumiylik.
6. Leksemalarning talaffuz hamohangligi.
7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko'ra bog'liqligi.
8. Leksemalarning milliy-madaniy belgisining musharakligi.
9. Leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko'ra yaqinligi.
10. Leksemalarning gender belgisiga ko'ra yaqinligi [2].

Hikoyadagi assotsiativ maydonga birlashgan so'zlar quyidagi lingvistik omillar orqali assotsiativ munosabatga kirishgan:

1. Leksemalarning semantik jihatdan o'zaro bog'liqligi: *o'lim, tobut, kafanlik, vasiyat, do'ppi*.

2. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko'ra aloqasi: *hiqillab yig'ladi, boshini changalladi, karaxt bo'lib qoldi, o'krab yig'lab yubordi, ko'z o'ngi qorong'ilashib ketdi*.

3. Leksemalarning yasalishdagi umumiyligi: *o'krab, chuvvos solib, ingrab, hiqillab; o'limlik, kafanlik*.

Assotsiativ aloqani yuzaga chiqargan ekstralingvistik omillar:

1. Predmetlarning makondagi aloqadorligi: *kafanlik, yuvg'uchi, vasiyat*.

2. Predmet va uning belgisi munosabati: *ko'z yoshi, o'pkasi to'lib yig'ladi, yig'idan qizargan ko'zlari*.

3. Insonning voqelikka munosabati: *omonatini topshiribdi, yuziga fotiha tortdi, esdan og'ib qolgandek, yuragiga g'ulg'ula tushdi, yuragi gursillab, ichida bir nima uzilib ketgandek bo'ldi*.

4. Predmetlar orasidagi sabab-natija munosabati: *ahvoli og'ir, yuragiga g'ulg'ula tushdi*.

Ushbu hikoyaning assotsiativ maydonini hosil qilishda asosiy e'tibor javob reaksiyalari stimuly so'z – o'lim bilan qay darajada bog'lana olishiga qarab maydon yadrosi va chetki qismlariga joylashtirishga qaratildi. Maydonda stimuly so'z bilan bevosita bog'langan birliklar boshqa birliklarning stimuly so'z bilan bog'lanishiga ko'priki vasifasini bajaradi va shu orqali maydondagi barcha birliklar stimuly so'z bilan bevosita yoki bilvosita bog'lanadi. "O'lim", "kafanlik", "o'lik", "tobut", "yig'lamoq" assotsiatlari maydon yadrosini hosil qilsa, "vasiyat", "ko'z yoshi", "omonatini topshirmoq", "ayrilib qoldik", "ro'mol", "bardam bo'ling", "jannati xotin edilar" assotsiatlari stimuly so'z ma'nosidan biroz uzoq bo'lganligi uchun chetki qismni tashkil qiladi. Yadro qismida joylashgan assotsiatlar stimuly so'zga bevosita bog'langani holda, maydonning chetki qismini tashkil qiluvchi assotsiatlar ham stimuly so'zga bilvosita bog'lanadi va ular ham matnning assotsiativ maydonini shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, assotsiativ maydonning yadro qismidagi assotsiatlar ham boshqa mikromaydon hosil qilgani holda boshqa birliklarning ham stimuly so'zga bilvosita bog'lanishini ta'minlaydi. Assotsiatsiyalarning paydo bo'lishi esa so'z ma'nolari va so'zga xos xususiyatlar bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi matnlarning antropsentrik talqini: Filol.fan.dok. ...diss. – Toshkent: O'z RFA Til va adabiyot instituti, 2015.
2. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meros, 2017.
3. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni): Fil. fanlari dok... diss. avtoreferat. – Toshkent, 1999.
4. Hoshimov O'. Hikoyalar. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2002.
5. Nasirov M. Badiiy matnning assotsiativ maydoni tahlili // FarDU Ilmiy xabarlar, 2022.

Diyora YODGOROVA,

Alfraganus universiteti

filologiya fakulteti arab filologiyasi yo'nalishi talabasi

O'ZBEK TILI VA ARAB TILI FONETIKASI: HARFLAR SIFATI VA QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqola arab va o'zbek tillari fonetik tizimlarining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. Maqola ikki tilning fonetik tizimlarini lingvistik tahlil nuqtayi nazaridan o'rganishga xizmat qiladi hamda arab tilini o'rganayotgan o'zbek o'quvchilari uchun qimmatli ilmiy-amaliy manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: fonetika, maxraj, sifat, halqum, til osti tog'ayi, qisqa unlilar, cho'ziq unlilar, janr, hams, rahova, bayniya, shidda.

Annotation. This article is dedicated to the comparative analysis of the phonetic systems of the Uzbek and Arabic languages. This study serves as a linguistic analysis of the phonetic systems of both languages and is a valuable resource for Uzbek learners studying Arabic.

Keywords: phonetics, makhray, characteristics, throat, sublingual, short vowels, long vowels, jahr, hams, rahawa, bayniyah, shiddah.

Аннотация. Данная статья посвящена сравнительному анализу фонетических систем узбекского и арабского языков. Исследование представляет собой лингвистический анализ фонетических систем обоих языков и является ценным ресурсом для узбеков, изучающих арабский язык.

Ключевые слова: фонетика, махрадж, характеристики, гортань, подъязычная область, краткие гласные, долгие гласные, джахр, хамс, рахава, байния, шидда.

Til insonning fikrlash, mulohaza qilish va o'zaro aloqa qilish vositasi sifatida muhim o'rin tutadi. Tilning fonetik tizimi eng asosiy unsurlaridan biri bo'lib, bu tizim orqali har bir til o'z tovushlari, ularning hosil bo'lish o'rnini va sifatlari bilan ajralib turadi.

Arab va o'zbek tillari ikki xil til oilasiga mansub bo'lsa-da, ular fonetik tizimida o'xshashliklar va farqlar mavjud.

Arab tili fonetikasi Qur'on tili sifatida dunyo miqyosida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, uning talaffuz qoidalari tajvid ilmi orqali aniq belgilangan. O'zbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, undagi fonetik xususiyatlar soddaga va aniq talaffuzga asoslanadi [1: 62]. Ushbu maqolada arab tili va o'zbek tilidagi tovushlar tizimi, ularning sifatlari va talaffuz xususiyatlarini, bir-biriga o'xshash jihatlari va bir-biridan ajralib turuvchi holatlarini qiyosiy tahlil qilamiz:

1. Arab tilidagi fonetik tizim. **Nutq tovushlari.** Nutq a'zolarining (o'pka, nafas yo'li, tovush paychalari, bog'iz, lak-luk, burun bo'shlig'i, til, til osti tog'ayi, tanglay, tish va lablarning) talaffuz vaqtidagi harakat natijasida hosil bo'ladigan tovushlar "nutq tovushlari" deyiladi. Nutq tovushlarini boshqa tovushlardan farqi shundaki, ular faqatgina so'z ma'nolarini ifodalash va farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlardir [2: 17].

Undosh va unli tovushlar. Nutq tovushlari ikki katta qismga bo'linadi: undosh va unli. Talaffuz vaqtida o'pkadan kelayotgan havoning nutq a'zolaridan biriga urilishi natijasida hosil bo'ladigan nutq tovushlari **undosh tovushlar** deyiladi. Misol uchun, "b" tovushi havoning lablarga urilishi natijasida hosil bo'ladi. O'pkadan kelayotgan havoning og'iz bo'shlig'idan hech qanday to'siqqa uchrashmasligi natijasida paydo bo'lgan tovushlar **unli tovushlar** deb ataladi. Masalan, "a", "i" kabi. Arab tilida 28 ta undosh va 6 ta (3 ta qisqa va 3 ta cho'ziq) unli tovush bor [4: 14]:

Qisqa unlilar

Fatxa	•A
Kasra	•I
Domma	•U

Cho'ziq unlilar


Alif	•ا
vav	•و
Ya	•ي

Arab alifbosi **29 ta** harfdan iborat. Ular o'ngdan chapga qarab yoziladi. Hamza harfi keyinroq ixtiro qilingani uchun alifboga belgi sifatida kiritilgan. Shu bois u faqat bir xil shaklda, kichikroq hajmda yoziladi va boshqa harflarga umuman birikmaydi. Qolgan 28 ta harfdan 22tasi har ikkala tarafidagi harflarga, 6 tasi faqat o'zidan oldingi harfga birika oladi. Ayrim harflar birikish tufayli shaklini biroz o'zgartiradi. Arab harflarining ko'pchiligi o'z shakldoshiga ega bo'lib, ular nuqtalar yordamida farqlanadi [3: 45].

2. Arab tilidagi fonetik tizimning asosiy xususiyatlari. Arab tilida har bir harfni o'ziga xos talaffuz sifatlari va tovush hosil bo'lish joylari mavjud. Ana o'sha tovush hosil bo'lish o'rinlar **maxraj** deb ataladi [4: 21]. Arab harflari 29 ta bo'lsa-da, ular 6 ta a'zo orqali talaffuz qilinadi. Ushbu 6 ta a'zoda jami 17 ta maxraj bor.

A'zolar

- 1) Og'iz.
- 2) Tomoq.
- 3) Til.
- 4) Lablar.
- 5) Dimog'.
- 6) Tishlar.





Har bir harflarning maxrajlari. Og'iz boshlig'ida 1 ta maxraj bo'lib, 3 ta mad harflari talaffuz qilinadi. Halqumda 6 ta harfning 3 ta maxraji bor:

- Halqumning tubi (أقصى الحلق) Undan ء hamza va ه ha harflar;

- Halqumning o'rtasi (وسط الحلق) Undan ع ayn va ح ha harflari chiqadi.

- Halqumning yuqorisi (أدنى الحلق) Undan غ g'oyin va خ xo harfi chiqadi. Tilning tubi va yuqori yumshoq tanglay urilgandan ق harfi chiqadi.

Sayoz til orqasida ك, til o'rtasidan ي ش ج, tilning uchi pastki tishga tegishidan ز س ص, tilning uchi yuqori va pastki tishlarning uch tarafiga tekkanidan ظ ذ ط, tilning uchi oldingi yuqori tishlarning tubiga tekkanda ت ط ت, tilning eng oldi tomonidan ر ل ر, tilning ikki chetida yoki o'ng bo'lmasam chap tarafidan ض, ikki lab bir-biriga tekkanidan ب م harflari hosil bo'ladi.

Yuqoridagi tishlarimizni qiri pastki labimizni bosishlikdan ف,

dimog'da 1 ta maxraj bo'lib undan **“g'unna tovushi chiqadi”** [6: 44].

Arab tilida sifatlar mavjud deb aytdik. Sifatlar o'zini nima? Sifatlar arab tilidagi harflarni sof chiqarishda qanday ahamiyatga ega?

“Sifat” deganda odatda narsaning holati, hay'ati tushuniladi. Fonetika ilmi istilohida esa nutq tovushining talaffuz meyorini, maxrajda paydo bo'lish usuli “sifat” deb yuritiladi. Misol uchun, “ba” harfi jarangli, portlovchi tovush deyilganda “jarangli”, “portlovchi” so'zlari uning sifatini “ب” bildiradi [4: 38].

O'zbek tilida jarangsiz bo'lgan ayrim undoshlarning muqobili arab tilida jarangli aytiladi. Arab tovushlari, umuman olganda, o'zbek tilidagi nutq tovushlaridan ko'ra qattiq, kuchli va to'laroq talaffuz etiladi.

3. Arab va o'zbek fonetikasi qiyosi. Arab tili va o'zbek tili fonetik tizimlari qiyoslanganda, quyidagi o'xshashliklar va farqlar kuzatiladi:

Tovush turi arab tili misoli o'zbek tili misoli izoh;

Tomoq tovushlari خ, غ, ع, x, g arab tilida chuqur talaffuz qilinadi.

Lab tovushlari م, ب, ف, b, m, f lablar orqali hosil bo'ladi.

Portlovchi tovushlar ط, ق, q, t, b arab tilida qattiqroq talaffuz qilinadi.

Jarangli tovushlar ج, ز, د, d, j Tovushlar o'xshash.

Unli tovushlar و, ا, o, u o'zbek tilida “e” va “o” tovushlari arab tilida yo'q.

4. Arabcha tovushlarni o'zbek tilida talaffuz qilish. Arabcha harflarni o'zbek tilida to'g'ri talaffuz qilishda ba'zi qiyinchiliklar mavjud. Masalan, arab tilidagi tomoq harflari (ح, ع) o'zbek tilida bevosita mos keluvchi tovushlarga ega emas. Bu holat Qur'onni o'qishda yoki arab tilini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Arab tilidagi qalqala tovushlari o'zbek tilida maxsus ohang bilan talaffuz qilinadi. Tajvid qoidalari o'zbek tilida

mavjud emasligi sababli, arabcha talaffuzni o'zlashtirish ko'proq amaliy mashqlar orqali amalga oshiriladi [5: 83].

5. Arab tilidagi harflarning to'g'ri va sof talaffuzidagi ahamiyati

arab tilidagi harflarning sifatlari va ularni talaffuz qilish tartibini belgilaydi. Masalan:

- Qalqala: د, ج, ب, ط, ق, harflari tebranuvchi ohang bilan talaffuz qilinadi.

- Idg'om: ikki bir xil harf yonma-yon kelganda, ular birlashtiriladi.

O'zbek va arab tillari o'ziga xos fonetik tizimlari orqali o'zaro ta'sirga ega bo'lgan, lekin mustaqil rivojlangan tillardir. O'zbek tili soddaligi va unli tovushlarning boyligi bilan ajralib tursa, arab tili undoshlar tizimining murakkabligi va o'ziga xos tovushlari bilan tanilgan. Arab tili o'zbek tiliga diniy va ilmiy matnlar orqali katta ta'sir ko'rsatgan, bu esa o'zbek tilining lug'at tarkibida aks etgan. Shu bilan birga, ikki tilning fonetik farqlari ularni o'rganish jarayonini murakkablashtiradi, lekin lingvistik nuqtayi nazardan bu tadqiqotlar qiziqarli va foydalidir.

Arab tili va o'zbek tili o'rtasidagi lingvistik aloqalarni chuqurroq o'rganish. Ushbu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tilshunoslik sohasida yangi kashfiyotlarga yo'l ochadi va tillar o'rtasidagi bog'liqlikni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish:

- Arab tilining fonetik xususiyatlarini o'zlashtirish uchun maxsus ovozli darsliklar va interaktiv resurslar ixtiro qilish.

- O'zbek tilida arabcha so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qoidalariga oid o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish.

Qiyosiy tahlil uchun yangi platformalar ishlab chiqish. Lingvistik tadqiqotchilar va talabalar uchun ikki tilning fonetik tizimini qiyosiy o'rganish imkonini beradigan elektron platformalar va ma'lumot bazalarini tashkil qilish.

Arab tili ta'siridagi o'zbekcha so'zlarni o'rganish – o'zbek tili lug'at tarkibida arabcha ildizli so'zlarning talaffuz va ma'no rivojini tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borish.

Fonetik tadqiqotlarni amaliyotga yo'naltirish. Til o'rganishni qiziqarli va tushunarli qilish uchun fonetik o'yinlar va ilovalar ishlab chiqish. Ushbu takliflar tilshunoslik sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, ikki xalqning madaniy aloqalarini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, o'zbek va arab tillarining boy madaniy merosini asrab-avaylash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Arab tili va o'zbek tilining fonetik tizimlari bir-biridan sezilarli darajada farq qilsa-da, ularda ba'zi o'xshashliklar mavjud. Arab tilini o'rganishda qoidalarga e'tibor qaratish, o'zbek tilida arabcha so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun muhimdir. Ushbu maqola arab va o'zbek tillarining fonetik tizimlarini qiyoslash orqali o'rganish jarayoniga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamajonov A. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Hasanson Yahyo Abdulmajid. Qur'on tartili – Toshkent: Hilol-nashr, 2020.
3. Xolmuhammedov T. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zMU, 2015.
4. Hasanson Yahyo Abdulmajid. Qur'on o'qish qo'llanmasi – Toshkent: Hilol, 2020.
5. Baxtiyorov J. Qur'on tilining fonetik xususiyatlari. – Toshkent: Hilol, 2021.
6. Ahmadov Z. O'zbek tilining lingvistik o'ziga xosliklari. – Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi, 2008.

Anajon AVEZOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
o'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

ANTROPONIMLARNING SINTAKTIK USULDA YASALISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligi va turkologiyada antroponimlarning sintaktik usulda yasalanishining o'ziga xos umumiy va farqli jihatlari haqida fikr yuritiladi. Kishi ismlari haqidagi bir qator olimlarning nazariy qarashlari tahlilga tortilgan

Kalit so'zlar: antroponim, yasama antroponimlar, qo'shma antroponimlar.

Annotation. This article discusses the specific common and different aspects of syntactic formation of anthroponyms in Uzbek linguistics and Turkology. The theoretical views of a number of scientists about personal names are analyzed

Keywords: anthroponyms, artificial anthroponyms, combined anthroponyms.

Аннотация. В данной статье рассматриваются различные общие и частные аспекты синтаксического образования антропонимов в узбекском языкознании и тюркологии. Анализируются теоретические взгляды ряда ученых на имена собственные.

Ключевые слова: антропонимы, искусственные антропонимы, комбинированные антропонимы.

Antroponimlar yasalanishining eng mahsuldor usuli sintaktik usul hisoblanadi. E.Begmetovning "O'zbek ismlari ma'nosi" kitobida 14600 ism izohlangan bo'lsa, ularning 8194 tasini qo'shma ismlar tashkil qiladi [1: 240].

Amaç Herdağdelenning "Modern "Türkiye'de Kişi Adları" maqolasida 2017-yili aholining har o'ntadan biri (9,7%) qo'shma ism bilan ro'yxatga olingani, ayollarda bu ko'rsatkich ancha past (3,7%) ekani ta'kidlanadi. Shu yili birgina Fatih Sultan Mehmet ismli 429 kishi ro'yxatga olingan [2: 5]. Ko'rinib turibdiki, o'zbek va turk millatlari ko'p hollarda farzandlari uchun qo'shma ismlar tanlashadi.

Azim Hojiyev shunday yozadi: "Shuni aytish kerakki, so'zlarni sintaktik usul bilan birlashtirish deganda, birdan ortiq so'zning ma'lum grammatik qonun-qoidalari asosida o'zaro bog'lanishi tushuniladi. So'zlarning ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida o'zaro aloqaga kirishuvidan hech vaqt qo'shma so'z hosil bo'lmaydi, balki hamma vaqt so'z birikmasi hosil bo'ladi. Ana shunday so'z birikmalari til taraqqiyoti jarayonida ma'lum davrlar o'tishi bilan semantik, grammatik va fonetik jihatdan bir butun holga kelishi, ya'ni qo'shma so'zga aylanishi mumkin. So'zlarni grammatik qonun-qoidalar asosida o'zaro aloqaga kirishuvidan so'z birikmasi hosil bo'lishi bilan shu birikmaning qo'shma so'zga aylanishi tamomila boshqa-boshqa hodisadir" [3: 8].

Haqiqatan, so'z birikmasini hosil qiluvchi jarayon nutq hisoblanadi. So'z birikmalaridan ayrimlari nominativ ehtiyojdan kelib chiqqan holda ma'lum vaqtda qo'shma so'zga o'tishi mumkin. Qo'shma atoqli otlar, asosan ismlarni keltirib chiqaradigan asos matn hisoblanadi. Bunda bolaga ism berish jarayoni tushuniladi. Sodda ismlar ham, qo'shma ismlar ham nomlash paytidada yaratiladi. Bunda nominatorlarning har xil motivlarga asoslanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ism yasalgan qo'shma apellyativlar orasida dastlab so'z birikmasi xarakterida bo'lgan leksemalar ham uchraydi: Qizilgul, Atirgul, Oqbo'ta, Oqbilak kabi [1: 249]. Shuningdek, Xudoybergan, Tangriberdi, Kuntug'mish kabilar ham shular jumlasidandir. Bunday ismlar go'dakni nomlash jarayonida birdan "ijod qilingan". Bunday birliklar turk tilshunosligida "Tamlama halinde bulunan adlar" deb nomlanadi va ismlar ko'rinishiga ko'chgan. Ularga quyidagi namunalar misol bo'la oladi: Ak Mangitli Kutli Kayali, Akaşa Kók Kalık Agılıkkı, Alp Arslan, Alp Aya, Alp Eren Eylik Koca Ođlı, Alp Rüstem Düzen Ođlı, Alp Salçı, Alp Tigin, Alp Togrı, Alp Tugaç, Alp Tutuk, Alp Urunu, Alp Urunu Tutuk, Altın Tarım, Altmiş Kara.

Qo'shma ismlar quyidagi birikuvlar asosida hosil bo'lishi kuzatiladi:

Ot+ot tipidagi qo'shma ismlar: Gulchechak (gul+chechak), Guljamol (Gul + jamol), Elbek (el+bek), Abaday (aba+day), Aşanbuğa (Aşan+buğa), Atabala (ata+bala), Atabay (ata+bay), Atabek (ata+bek), Bababek (baba+bek), Atakan (ata+kan), Atagün (ata+gün), Ayçaçak (ay+çaçak).

Sifat+ot tipidagi qo'shma ismlar: Akbala (ak+bala), Akbars (ak+bars), Akbay (ak+bay) Akcigit (Ak+cigit), Akpıra (ak+pıra), Akkuş (ak+kuş), Alpagut (alp + agut), Arabay (ara+bay), Aydinyiğit (aydın+yiğit), Akyurt (ak+yurt), Aykız (ay+kız).

Ot+fe'l tipidagi qo'shma ismlar: Ataberdi (ata+berdi), Babageldi (baba+geldi), Bekturdu (bek+turdu) Itolmas (it+olmas), Qodirberdi (Qodir+berdi), Xudoberdi (Xudo+berdi), Aydoğmuş (ay+doğmuş), Aydoğan (ay+doğan), Aydursun (Ay+dursu), Aygeldi (ay+geldi), Ayverdi (ay+verdi), (baba+geldi) Elgörmüş (el+görmüş) İtalmaz (İt+almaz).

Ot+sifat tipidagi qo'shma ismlar: Aytekin (ay+tekin), Beğtüzün (Beğ+tüzün).



Son+ot tipidagi qo'shma ismlar: Mingyigit (ming+yigit), Beşbine (beş+bine).

Fe'l+ot tipidagi qo'shma ismlar: Tursunboy (tursun+boy), Dursunbay (dursun+bay), Durdukulu (durdu+kulu).

Qismlari tobe munosabatga asoslangan qo'shma ismlar quyidagi birikuvlar asosida hosil bo'lishi kuzatiladi:

1. Qismlari aniqlovchi+aniqlovchi tipli qo'shma ismlar: Oychiroy, Gulchechak, Ilknur.

a) Sifatlovchi+sifatlanmish;

b) Sifatlovchi vazifasidagi birikmalardan hosil bo'lgan qo'shma nomlar: Mingnazar, Beşyüzgül, Binboğa.

c) Qaratqich-qaralmish tipidagi qo'shma ismlar: Norgul, Aynur.

2. Izofali qolipga asoslangan qo'shma ismlar. Turkiy tillarda uch xil izofa qo'llanilgan: turkiy izofa, fors-tojikcha izofa va arabcha izofa. Izofa haqida S.S.Mayzel, A.K.Borovkov va boshqalar maxsus tadqiqotlar olib borishgan. Izofa masalasi onomastikaga ham daxldor, chunki bir qator ismlar izofali qoliplar shaklidir [1: 243].

Masalan: Nuriddin, Habibulla, Nasriddin...

Forschadan turk tiliga kirib kelgan izofa turk tili antroponimikasining salmoqli qismini tashkil qiladi. Turkcha ismlarning ba'zilari bu xususiyatga ega forscha ot so'z birikmalaridan shakllangan. Masalan: Cihanmert, Cihannur, Civanbaht, Çemengül, Çeşmahu, Gülendäm, Gülnihal, Gülrü, Kamerçehre Şahcihan, Şahmeran, Peripeyker...

Mintaqamizda qo'sh ismlarning paydo bo'lishini islom dini tarqalishi davriga bog'lab izohlash mumkin emas. To'g'ri, o'zbekcha qo'shma ismlar orasida qadimiy turkiy totemistik, onomastik qarashlar hamda islom diniga daxldor tasavvurlar va tushunchalar birgalikda

ifoda etilganlari ham bor. Masalan, Oymuhammad, Toshmuhammad, Omonali, Ortiqali, Turdimuhammad ismlaridagi *oy, tosh, ortiq, omon, turdi, tursun* qismlari qadimiy turkiy udumlar bilan bog'liq bo'lsa, *Muhammad, Ali* qismlari islomiy tushunchalarni anglatadi [1: 245]. Lekin kishini qo'sh nom bilan atash qadimiy turkiylarda azaldan mavjud bo'lgan. Oytemir, Oyto'xta, Qilichqalqon ismlari buning isbotidir. Demak, xulosa qilish mumkinki, insonlar ikki xil diniy e'tiqodni ifoda etadigan qo'sh ism bilan nomlangan. Lekin yuqorida keltirilgan tipdagi qo'shma ismlar haqida olimlar turlicha fikrlar bayon qilishgan. Masalan, o'zbek tilida Omonqilich, Qilicharlon ismlari bor va olimlardan biri Xautsma *Qilicharlon* ismi tarkibidagi *Qilich* so'zini qadimda xunlar orasida tarqalgan "qilich kul'ti" bilan bog'lagan va *qilich* hamda *arlon* so'zlarini ota-ona totemiga ishora qiladi, deb taxmin qilgan. P.M.Melioranskiy esa bu fikrga qarshi chiqqan, chunki u qilich ham, arlon ham ota totemi bo'lgan deb hisoblaydi.

Turkiy tillarning antroponimlar tizimi o'ziga xos derivatsiya tizimiga ega bo'lib, ma'lum bir nuqtalarda o'xshashlik namoyon etsa ham, bir-biridan tubdan farq qiladi. Buning asosiy sababi antroponimlar tizimiga tashqi ta'sirlar natijasida ba'zi elementlarning kirib kelganidir. Turkiy tillar lug'at boyligining salmoqli qismini antroponimlar tashkil qiladi. Ularda tuzilishi jihatdan sodda ismlar keng tarqalgan, ammo qo'shma antroponimlar ham salmoqli. Qiyoslangan tillardagi qo'shma antroponim xosil qiluvchi birliklarning faol qismi turkiy so'zlar bilan cheklanib qolmaydi, balki arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar ham asosiy birliklarni tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013
2. Avezova A.K. Turkologiyada kishi ismlariga oid tadqiqotlar tavsifi. – Qo'qon: Qo'qon davlat pedagogika instituti, 2024.
3. Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. – Toshkent, 1963.

Malika RUSTAMOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

O'ZBEK VA ITALYAN TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari o'zbek va italyan tillari misolida o'rganiladi. Frazeologizmlarning shakllanishi, semantik tuzilishi va qo'llanilishidagi o'ziga xos jihatlar taqqosiy tahlil asosida yoritiladi. O'zbek va italyan tillaridagi frazeologik birliklarning milliy va madaniy xususiyatlari, ularning semantik o'zgarishlari hamda tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada har ikkala til frazeologizmlarining lingvistik tasnifi, grammatik va stilistik xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarni lingvistik hamda tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, lingvistik xususiyatlar, qiyosiy tahlil, o'zbek tili, italyan tili, semantika va stilistika, madaniy va ijtimoiy omillar.

Annotation. This article examines the linguistic characteristics of phraseological units using the examples of Uzbek and Italian languages. The formation, semantic structure, and distinctive features of phraseological expressions in their usage are analyzed through comparative study. The research explores the national and cultural characteristics of phraseological units in Uzbek and Italian, their semantic transformations, and the challenges encountered in the translation process. Additionally, the article discusses the linguistic classification of phraseological expressions in both languages, along with their grammatical and stylistic properties. The findings contribute to a deeper understanding of phraseological units from both linguistic and translation studies perspectives.

Keywords: phraseological units, linguistic characteristics, comparative analysis, Uzbek language, Italian language, semantics and stylistics, cultural and social factors.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвистические особенности фразеологических единиц на примере узбекского и итальянского языков. Анализируются формирование, семантическая структура и особенности употребления фразеологизмов на основе сравнительного исследования. В исследовании изучаются национальные и культурные особенности фразеологических единиц в узбекском и итальянском языках, их семантические изменения, а также трудности, возникающие в процессе перевода. Кроме того, в статье рассматривается лингвистическая классификация фразеологизмов в обоих языках, а также их грамматические и стилистические характеристики. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию фразеологических единиц с точки зрения лингвистики и переводоведения.

Ключевые слова: фразеологические единицы, лингвистические особенности, сравнительный анализ, узбекский язык, итальянский язык, семантика и стилистика, культурные и социальные факторы.

Til – inson tafakkurining eng muhim mahsuli bo'lib, nafaqat aloqa vositasi, balki millatning madaniyati, tarixi, urf-odatlar va an'analari aks etgan murakkab tizimdir. Har bir xalqning tili uning tarixiy taraqqiyoti va dunyoqarashining ifodasi hisoblanadi. Tilning boyligi va milliy xususiyatlarini mujassam etishda frazeologik birliklarning ahamiyati beqiyosdir. Frazeologizmlar muayyan xalqning hayot tarzi, diniy e'tiqodi, mehnat faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va hatto hazil-mutoyibalarining in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham qimmatlidir.

Frazeologiya tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, barqaror iboralar, metaforik ma'noga ega so'z birikmalarining tuzilishi, semantikasi va funksional xususiyatlarini o'rganadi. O'zbek va italyan tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish orqali ushbu ikki tilning semantik va stilistik jihatlari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Tilshunoslikda frazeologizmlarga xalq tafakkurining mahsuli sifatida qaralib, ularning shakllanishida tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi. Frazeologik birliklarning o'rganilishi uzoq tarixga egaligi bois bu borada turli nazariyalar ilgari suriladi. Bu

mavzudagi tadqiqotlarning aksariyati frazeologizmlarning kelib chiqishi, semantik tuzilishi, uslubiy va grammatik xususiyatlariga qaratilgan. Masalan, G.Obruyeva o'z tadqiqotida frazeologiyaning dolzarb masalalarini yoritib, o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning shakllanishi va ijtimoiy-madaniy hayotdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Uning fikricha, frazeologizmlar til tizimining ajralmas qismi bo'lib, tildagi obrazlilik va ekspressivlikni ta'minlaydi [1]. Y.Nurmammedov frazeologik birliklarning semantik va funksional xususiyatlariga e'tibor qaratib, ular metaforik tabiati, barqarorligi va ekspressiv ifodaliligi bilan lug'at birliklaridan ajralib turishini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar tarixiy asosga ega bo'lib, zamonaviy til muhitida ham turli o'zgarishlarga uchraydi [2]. Frazeologiyaning grammatik va strukturaviy xususiyatlari bo'yicha A.Mamatov keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. Olim o'zbek tilidagi frazeologizmlarning sintaktik tuzilishi va ularning grammatik qonuniyatlarini o'rganib, ular tarkibiy jihatdan barqaror bo'lishi, lekin tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot va diniy ta'limotlar frazeologizmlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi [3, 5].



Frazeologik birliklarga oid italyan tilidagi tadqiqotlar ham ushbu til birligining lingvistik xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. C.Lapucci "Dizionario dei modi di dire della lingua italiana" kitobida italyan frazeologik iboralarining kelib chiqishi, semantikasi va uslubiy o'ziga xosliklarini keng yoritgan [3]. Ushbu lug'at italyan tilidagi frazeologizmlarning tarixiy rivojlanishi va zamonaviy til tizimidagi o'rnini tahlil qilishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Turrini boshchiligidagi maulliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan "Capire l'antifona. Dizionario dei modi di dire con esempi d'autore" kitobida esa italyan frazeologizmlari adabiy misollar orqali tahlil qilinadi, ularning semantik va madaniy xususiyatlari batafsil bayon etiladi [4]. Ushbu tadqiqotlar italyan tilidagi frazeologik birliklarning

lingvistik tahlili uchun hanuzgacha nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlarini o'zbek va italyan tillari misolida qiyosiy tahlil qilish natijasida ularning semantik, grammatik va stilistik jihatlari bo'yicha bir qancha umumiylik va farqlar aniqlangan. Frazeologizmlar ma'no jihatdan ko'pincha metaforik asosga ega bo'lib, xalqning tarixiy tajribasi va madaniyati bilan uzviy bog'liqdir. O'zbek tilida ham diniy, tarixiy va etnografik asosga ega bo'lgan frazeologizmlar keng tarqalgan. Masalan, Tili shirin iborasi yaxshi gapirish qobiliyatini anglatadi va italyan tilidagi *Avere la lingua di miele* (so'zma-so'z tarjima: asal tilga ega bo'lish) iborasiga o'xshashdir. Bunday o'xshashlik ikki til ham umumiy mantiqiy va obrazlilik asoslariga ega ekanini ko'rsatadi.

<i>Semantik turkumlar</i>	<i>O'zbek tilida misollar</i>	<i>Italyan tilida misollar</i>
Metaforik frazeologizmlar	ko'ngli tog'dek bo'lish	avere il cuore di leone
Metonimik frazeologizmlar	qo'l berib kelishmoq	dare la mano
Ijtimoiy frazeologizmlar	boshini baloga qo'yimoq	cacciarsi nei guai
Milliy-madaniy frazeologizmlar	aytish joiz emas	non si dice

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, har ikkala tilda frazeologik birliklarning ma'lum bir semantik tasnifi bor va ular turli madaniy, lingvistik asoslarga ega.

Frazeologik birliklarning **grammatik** tuzilishi har ikkala til uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida fe'lli frazeologizmlar ko'proq uchrasa, italyan tilida esa ot (so'z turkumi) bilan bog'liq frazeologizmlar keng tarqalgan. Masalan, o'zbek tilidagi *ko'z ochib yumguncha* (juda tez) iborasi italyan tilida *in un batter d'occhio* (ko'z qiri bilan qarash) tarzida ifodalanadi. Bu esa har ikkala tilning grammatik tuzilishi va frazeologizmlar hosil qilish uslubidagi farqlarni aks ettiradi.

A.Mamatov frazeologizmlarning grammatik jihatlari o'rganar ekan, ularning barqarorlik darajasi turlicha bo'lishini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, o'zbek tilidagi frazeologizmlar sintaktik jihatdan nisbatan mustahkam bo'lib, murakkab gap tarkibida o'z o'rnini saqlab qoladi [5]. Italyan tilida esa frazeologizmlar kontekstga ko'ra grammatik o'zgarishlarga uchrashi mumkin.

Frazeologik birliklarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda ko'plab muammolar yuzaga keladi. Bu holat frazeologizmlarning madaniy va lingvistik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Masalan, o'zbek tilidagi *qo'li ochiq odam* iborasi bevosita tarjima qilinganda *mani aperte* shaklida bo'ladi, ammo italyan tilida ushbu iboraning mos ekvivalenti *essere generoso* (saxovatli bo'lish) shaklida ifodalanadi. Shuning uchun tarjima jarayonida frazeologik birliklarning kontekstual va madaniy jihatlari hisobga olish muhimdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikkala til frazeologizmlarining semantik va grammatik tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbek tilida frazeologizmlar ko'pincha xalq og'zaki ijodi, diniy ta'limotlar va tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lsa, italyan tilida ular asosan adabiyot, san'at va ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashgan. Bu tillardagi ba'zi frazeologik birliklar semantik jihatdan o'xshash bo'lsa-da, grammatik va stilistik jihatdan farqlanishi aniqlandi. Shuningdek, ularning tarkibiy tuzilishi har ikkala tilda ham o'zgaruvchanlik va barqarorlik omillariga bog'liqligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Obruyeva G.X. Frazeologiyaning dolzarb masalalari. – Samarqand: SamDCHTI, 2023.
2. Nurmuhammedov Y. Frazeologiyaning dolzarb masalalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDCHTI, 2022.
3. Lapucci C. Dizionario dei modi di dire della lingua italiana. – Milano: Garzanti, 1990.
4. Turrini G, Alberti C, Santullo ML, Zanchi G. Capire l'antifona. Dizionario dei modi di dire con esempi d'autore. – Bologna: Zanichelli, 2002.
5. Mamatov A.E. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. – Toshkent: O'TA, 2001, №3.

Jamoliddin TEMIROV,

Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi

MAXMUR IJODIDA ISHQIY MAVZU TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mumtoz nazmiy an'analarni davom ettirishga harakat qilgan Qo'qon adabiy muhitining vakillaridan biri Maxmur adabiy merosining mavzu ko'lami, ishqiy mavzuni yoritish mahorati mustaqil yondashuv asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: mumtoz nazmiy an'analari, satirik ruh, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ishqiy mavzu, norozilik, shikoyat motivi.

Annotation. The article examines the scale of the literary heritage of Makhmur, one of the representatives of the Kokand literary environment, who tried to continue the classical poetic traditions, and analyzes the poet's skill in covering romantic themes, based on an independent approach.

Keywords: classical poetic traditions, satirical pathos, socio-political processes, romantic theme, protest, motive of complaint.

Аннотация. В статье рассматривается масштаб литературного наследия Махмура, одного из представителей кокандской литературной среды, пытавшегося продолжить классические поэтические традиции, анализируется мастерство поэта в освещении романтических тем, основанное на самостоятельном подходе.

Ключевые слова: классические поэтические традиции, сатирический пафос, общественно-политические процессы, романтическая тема, протест, мотив жалобы.

Maxmur she'riyatining mavzu qamrovi asosan satirik ruhdagi she'rlarga qaratilgan bo'lsa-da, merosini bu jihatdan quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- 1) ishqiy;
- 2) ijtimoiy;
- 3) diniy-ma'rifiy.

Shoirning ishqiy mavzudagi she'rlari ko'p emas, diniy-ma'rifiy ruhdagi she'rlari esa asli ijtimoiy mavzuga dahldor. Aslida uning lirik she'rlari juda kam topilgan. Fazliy Namangoniyning "Majmuat ush-shuaro" tazkirasida Maxmurning beshta g'azali bor [1: 266]. Ulardan ikkitasi o'zbek, uchasi tojik tilida yozilgan bo'lib, 76 misradan iborat.

Ular taqlid qilib yozilgan she'rlar bo'lib, Maxmur ijodiga xos – o'z zamonidan zorlanish va musibatli hayotga norozilik bildirish ohanglari sezilib turadi. Masalan:

*"Chun xo'ram g'am bahri ro'ze bo mani zahroba no'sh,
Har sahar az xoni qismat zahri mor omad burun"* [2: 266].

Tarjimasi: *Doimo g'am yutishim sababli men zahar ichuchi uchun nonushtaga, har sahar qismat dasturxonidan ilon zahari chiqib keladi.*

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Maxmur va Fazliy o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatilmagan. Shu vajdan Fazliy tazkirasida uchun Maxmurning ma'no va shakl jihatdan o'z maromiga yetmagan she'rlarni tanlab olgan degan qarashlar mavjud: "Majmuat ush-shuaro"da uchraydigan she'rlar Maxmur lirikasi uchun xarakterli emasdir. Bu g'azallar Fazliy tomonidan atayin tanlab olingan bo'lib, ular yuzaki, goho mazmun va shakl jihatidan shablonlashgan she'rlardir" [3: 30].

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida 2296-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozmada Hofizning mashhur "Agar on turki sherozi ba dast orad dili moro" deb boshlanuvchi g'azaliga Maxmurning yozgan

muxammasini shoir lirikasi uchun xarakterli misol deb hisoblash, fikrimizcha, to'g'riroq bo'lar edi.

Hofiz chin insoniy muhabbatning kuychisi edi. Uning go'zal lirik g'azallari inson qalbining eng chuqur joylarigacha yetib boradi va qalb torining eng nozik pardalariga ta'sir etadi. Maxmurning Hofiz g'azaliga muxammas yozgani esa uning jasurligi, o'z badiiy mahoratiga ishongani, shuningdek, buyuk shoirning yuksak g'oyalari uni ilhomlantirganini ko'rsatadi.

Maxmurning muxammasi Hofiz g'azali kabi jonliligini, samimiyligi, nozikligi bilan diqqatni jalb qiladi. Shoir bu she'rida yurakdagi eng samimiy va kishini hayajonga soluvchi tuyg'ularni ifodalaydi:

*"Biyo, ey no'shi dorui labi la'lat mudovaro,
Ba jonbaxshi dehad ta'limi anfosu masihoro,
Ba farqi bandagi sozam gulah shahboli anqoro,
Agar on turki sherozi ba dast orad dili moro,
Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo"* [4: 93].

Tarjimasi:

*Ey, la'l labining no'shi bemorlar uchun davo bo'lgan (go'zal) kel,
(U no'sh) jon bag'ishlashda masihoning nafasiga ta'lim beradi,
Uz qul boshimga Anqoning parlaridan gulah kiyaman,
Agar u sherozli turk ko'nglimizni olsa,
Hindicha xoliga Samarqand va Buxoroni bag'ishlayman.*

Muxammasda norozilik va og'ir qismatidan shikoyat motivlari uchraydi, ammo shoir qayg'uiga berilib ketmaydi. Hofizning baland ko'tarinki ruhining ta'siri ostida u insonlarni g'am-u anduhdan qutilishga, hayotning barcha lazzatlaridan bahramand bo'lishga chaqiradi:

*"G'animat don dami imro'z, bo bazmi tarab kun ro'
Hadis az mutribu, mayguvu, roz az dahr kamtar jo'
Chu kas nakshud, nakshoyad ba hikmat in muammoro"* [4: 94].



Tarjimasi:

*Bu kunning (har bir) damini g'animat bil, yuzingni
shodlik bazmiga burgin.
Cholg'uchidan, may tutuchidan (so'zla), dunyoda
sirlarni kamroq qidirgin,
Chunki bu muammoni hikmat bilan hechkim yecha
olmagan va yecholmaydi.*

So'nggi satrlarda Maxmur Hofizning she'rlarini maqtaydi, misralarning o'z o'rnida ishlatilgani va bir-biriga mohirona bog'langani to'g'risida so'zlab, quyidagi misralari uchun unga samimiy minnatdorchilik bildiradi:

*"Suxan guftiyu, dur sufti, biyoyu, xush bihon Hofiz,
Ki bir nazmi tu afshonad falak ihdi surayyoro" [4: 94].*

Tarjimasi:

*So'z so'yladingu, dur to'plading, kel xushovoz bilan o'qi ey Hofiz,
Sening she'rlaring ustiga falak yulduzlar to'ksin.*

Maxmurning o'z muxammasida yaratgan lirik qahramoni Hofiz lirik qahramoni kabi jonli obrazdir; u muhabbat, sadoqat va samimiylik bilan to'la: u sevadi va hijron azoblariga chidaydi, shodlanadi va g'am chekadi.

Umuman olganda esa Maxmur she'riyatida ijtimoiy mavzu yetakchi o'rinni egallaydi. Shoir yashagan davr muhiti aynan shunday ruhdagi she'rlar yozilishi uchun sabab bo'lgan. Qo'qondagi turli ijtimoiy muammolar shoir she'rlarining bosh mavzusi bo'lgan. Uning bu davrdagi ijodi haqida Aziz Qayumov yozadi: "Maxmur she'rlarida mehnatkashlar va hunarmandlarning og'ir hayoti o'z ifodasini topgan. Bu jihatdan uning "aylading" radifli she'ri (munojot) diqqatga sazovordir. Shoir unda munojotlardagi kabi tangri nomiga maqtoqlar aytish o'rniga, shikoyat va nolish motivlarini kuylaydi".

Maxmur yuqorida ta'kidlangan mavzularni yoritar ekan, shoirning asl niyati davr voqeligidagi ijtimoiy muammolarni yoritish bo'lganligini anglash mumkin. Shoir bu yo'lda bir oz oshirib yuborgan nuqtalar bo'lgan bo'lsa ham, ijodkor o'quvchiga haqqoniy holatni ifodalash uchun shunday uslubni tanlagan bo'lishi ham ehtimoli yo'q emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmasi, № 2371.
2. O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmasi, № 2371, 266-bet
3. Qayumov A. Maxmur. – Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi, 1956.
4. O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmasi, № 2296, 93 va 94-betlar.
5. Temirov J.E. Maxmur ijodida adabiy ta'sir masalasi // Tamaddun nuri, 2024.

Dilorom XAMIDOVA,

Samarqand davlat universiteti tayanch doktranti

LUQMON BO'RIXON ROMANLARIDA BADIY TILNING IFODALANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozuvchi Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" va "Imom Moturudiy" romanlarining til xususiyatlari biografik hamda madaniy-tarixiy metodlar asosida tahlil qilingan. Yozuvchi zamonaviy hamda tarixiy mavzulardagi asarlarida muallif va personajlar nutqini yaratishda badiiy tilning barcha xususiyatlaridan unumli foydalangani misollar vositasida isbotlangan.

Kalit so'zlar: muallif nutqi, personaj nutqi, badiiy til, sheva, frazeologizm, kinoya.

Annotation. This article analyzes the linguistic features of the novels of writer Lukman Borihan "People in the Heat" and "Imam Maturudi" based on biographical and cultural-historical methods. It is proved by examples that the writer effectively used all the features of artistic language when creating the speech of the author and characters in his works on modern and historical topics.

Keywords: author's speech, character's speech, artistic language, dialect, phraseology, sarcasm.

Аннотация. В данной статье на основе биографического и культурно-исторического методов анализируются языковые особенности романов писателя Лукмана Бурихана "Люди в жаре" и "Имам Матуруди". На примерах доказывається, что писатель эффективно использовал все особенности художественного языка при создании речи автора и персонажей в своих произведениях на современную и историческую тематику.

Ключевые слова: авторская речь, речь персонажа, художественный язык, диалект, фразеология, сарказм.

Til – aloqa, munosabatning asosiy vositasidir. Badiiy til yordamida har bir yozuvchi-shoir hayotning badiiy tasvirini, obrazlarni yaratadi, kitobxon bilan o'zaro muloqot o'rnatadi. Badiiy so'z ijodkorning asosiy qurolidir. Undan qay darajada foydalana olish har bir adibning individual qobiliyatiga bog'liq. Adib Luqmon Bo'rixon o'z asarlarida badiiy tildan mohirona foydalanadi. Uning ijod namunalarida milliylik va zamonaviylik nafasi o'ziga xos uyg'unlik kasb etadi. Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanida Qashqadaryo vohasi koloriti, o'sha hududdagi insonlarga xos so'z va iboralar qo'llangani yaqqol namoyon bo'lsa, "Imom Moturudiy" asarida esa tarixiy so'zlar va nomlar ishlatilishi yetakchilik qiladi.

Yozuvchi hayot manzaralari va xarakterlarni badiiy til vositasida tasvirlar ekan, nafaqat adabiy tildan, balki jonli xalq tilidan foydalanadi. Bunday yo'l tutish orqali u faqatgina tildan foydalana qolmaydi, balki o'sha tilning rivojiga o'z hissasini qo'shadi. "Adibning yozuvchilik nigohi qanchalik o'tkir bo'lmasin, tafakkur quvvati qancha baquvvat bo'lmasin, inson tabiatining sir-u asroridan qancha boxabar bo'lmasin, qalami o'tmas, uslubi to'mtoq, tili g'aliz bo'lsa, uning ezgu niyatlari qog'ozda qolib ketadi. Yozuvchi hayot haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy-ma'naviy muammolari haqidagi hukm va xulosalarni kitobxoniga til orqali yetkazadi, ...so'z sehri bilan kitobxoniga ta'sir ko'rsatib, uning fikriy dunyosi, ruhiy olamini harakatga keltiradi" [1: 164].

Qolaversa, badiiy tilni ana shu davr yoki umuman til taraqqiyoti tarkibidan ajratib bo'lmaydi. Zero, "yozuvchi hayotiy voqea-hodisalarni tasvirlab, obraz yaratar ekan, u so'zlashuv tili boyliklaridan, jonli tildagi sheva va kasb-hunarga oid til birliklaridan ham, adabiy til normalaridan ham keng foydalanadi" [2: 62]. Badiiy asar insonga zavq, hayajon, tuyg'u, armon, iztirob, baxt, umuman olganda,

fikr beradi. Aynan shu fikrni yetkazishda u bevosita til elementlaridan foydalanadi. Shuningdek, xarakter badiiy asarda hayotni in'ikos ettirishning shakli bo'lib maydonga chiqar ekan, til orqali tasvir etiladi. "Til badiiy adabiyot asarida shakl emas, balki shakl yaratishning universal vositasi bo'lib maydonga chiqadi" [3: 197].

Darhaqiqat, badiiy asar tili asarning badiiy mukammalligi va qiymatini baholab, uning o'qishlilik darajasini ko'rsatadi. Tildan qay darajada mohirona foydalana olish bu muallifning mahorati va didiga bog'liq. "Yozuvchi adabiy asar tili ustida tinimsiz mehnat qiladi. Bir asarining tili ikkinchisidan farqlanib turadi. Demak, yozuvchining til mahorati asardan asarga o'sib, boyib boradi" [4: 165]. Badiiy til umumxalq tili bazasida shakllanadi va qisman adabiy til me'yorlariga yaqinlashadi. Shu bilan birga, badiiy til adabiy til me'yorlaridan o'zni bilan chekinadi (masalan, shevaga xos unsurlarning ishlatilishi). "Badiiy til o'zida milliy adabiyotimizda uzoq davrlardan beri shakllanib kelgan an'analarning davomchisi sanaladi va shu bois ham unda uning o'zigagina xos bo'lgan unsurlar (an'anaviy sifatlashlar, ramz va majozlar, o'xshatishlar va hokazo) majmui ham mavjuddir" [5: 128].

Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanida muallif nutqi umuman ishtirok etmaydi. Roman to'laonli I shaxs tilidan – asarning bosh qahramoni Samadning hikoyasi asosida bayon etiladi. Asarning asosiy voqealari 5-sinf o'quvchisi Samad Do'lanovning bolalarcha fikrlashlari bilan boshlangan bo'lsa, yigit yoshiga yetgan, o'z dunyoqarashiga ega yigitning hikoyasi asosida voqealar rivoji o'z cho'qqisiga erishadi. Muallif Samadni asosiy hikoyachi sifatida asardagi mas'uliyatni yuklagan ekan, personajlarning xatti-harakati, portreti va xarakter xususiyatlarini, peyzaj tasvirlarini ifodalashida



adabiy til me'yorlaridan foydalangan. Samadning boshqa personajlar bilan suhbatida, monolog va dialoglarda shevaga xos so'zlar ishlatilgan. Shuningdek, asardagi ayrim personajlarning nutqida ular mansub bo'lgan hududga mos sheva unsurlari uchraydi. Shuni ta'kidlash lozimki, romanda Qashqadaryo koloriti yetakchilik qiladi. Buning yaqqol isbotini Safarmurod chavandoz, Maysara yanga, Tog'ay tog'a, Xosiyat xola, Qalqonov muallim, Ulash agronom kabilarning nutqida kuzatish mumkin. Bu esa badiiy asar tili xususiyatlaridan bo'lmish serqatlamlilikni oshirgan. Ayniqsa, Safarmurod chavandozning nutqida o'sha joyga xos bo'lgan so'zlarni ko'plab uchratish mumkin:

“Bizning Tolli ovulimiz, – *karillab* jo'naydi Safarmurod aka qarshi hujumga o'tarkan. – Bir paytlar bi-ir *ko'kayini ko'tarib qolgandi*-da. Asl *jigitimiz* shahri azimda o'qiyapti, deb yosh-u qari ko'ringanga maqtanib yurardi. Biz chavandozlar *ardona* qolgandik, chalasavod, yovvoyi deb it ham, bit ham bir cho'qillab o'tardi [6: 20]. Bu borada adabiyotshunos olim Q.Yo'ldoshev quyidagicha fikr bildirgan: “Luqmon romanda shevadagi so'zlardan o'rinli foydalangan. Adabiy tilimiz ayrim mintaqalarda qadimdan ishlatilib kelingan “yashovrab”, “serri”, “zarilman”, “hovar”, “qo'shxona”, “tizinglab”, “qashshang”, “so'narib”, “ko'lik”, “bodichilik”, “kaypang”, “gurri”, “gapchinox”, “qashqatayoq”, “o'r” kabi so'zlar bilan boyidi. Ular personajlarning ayni holatdagi ruhiyatini aniq ifoda etishga xizmat qilgan” [6: 335]. Personajlarning nutqi orqali ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi va dunyoqarashini anglash mumkin. Jumladan, adib ayollarning nutqini shakllantirishda ularning o'ziga xos ishlatadigan so'z va jumllaridan foydalangan. Masalan, Xosiyat xolaning nutqini ko'rib chiqsak, “ – *Qurib ketsin*, – dedi u onam bilan uzoq ahvol so'rashgach. – Negadir yuragim siqilib ketdi. Bir *hamsoyaginamni gapga to'yg'azay*, deb oldingizga chiqib kelaberdim” [6: 138].

Romanda dialoglar yetakchilik qilib, ular asar qahramonlarining xarakter qirralarini teran ochib berish bilan birga, roman sujetidagi izchillikni ta'minlaydi. Dialoglarda frazeologizmlar, shevaga xos so'zlar va o'zbek tilining leksik boyligi keng qo'llanilgan.

Roman tilining o'sha davrda yaratilgan boshqa asarlardan farqi shundaki, unda kinoyaviy tasvir ustunlik qiladi. Yozuvchi asarning hech bir o'rnida o'zining ijobiy yoki salbiy qarashlarini ifodalamaydi, balki personajlarning xatti-harakati va nutqlarini kinoyaviy tarzda tasvirlaydi. Masalan, 41-sovxozi direktori Chinor Moyliyevning yutuqlarini ko'ra olmagan kishilar uning ustidan turli ishlar qilishi quyidagicha ifodalangan:

“Bu cho'loq chatoq chiqdi, – deya o'zaro shivirlashibdi qop-qora kulga aylangan bu “mazlumlar to'dasi”. – Buning bir sehrgarligi bor-ov... Davay, Fanlar akademiyasiga xat yozamiz, bizda ruhlar ila so'zlashuvchi bir jodugar bor deymiz, olib borib bi-ir tekshiringlar deymiz, tekshirib-tekshirib o'sha yoqlarda noyob nusxa sifatida olib qolsalaring ham mayli, deb yozamiz. Ilm yo'lida sadqai bir odam, deb yozamiz...”

Yozdilar! E, vohki, Fanlar akademiyasining manzilini topisholmagandek, afsus-nadomatlar ila sirlil maktubni markazdagi tekshiruv organlaridan biriga jo'natdilar” [6:14]. Asarning ushbu tomoni xususida fikr bildirgan adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, “Roman boshdan-oyoq kinoyaga yo'g'rilgan, ifodada piching yetakchilik qiladi” [6: 330]. Hatto asarning ayrim qahramonlarining nomlanishida ham ustalik bilan kinoyadan foydalanganligini kuzatish mumkin. Masalan, oqsoq va nimjon direktorning ismi Chinor bo'lsa, na shoirlikni va na agronomlikni eplolmaydigan odamni Ulash agronom-shoir deb atashadi, garchi oti bo'lmasada, Safarmurod akani chavandoz deyishadi.

Yozuvchi tabiat manzaralari, peyzaj tasvirida takror, o'xshatish va sifatlash kabi badiiy tasvir vositalaridan o'rinli foydalangan: “To'lishgan kelinchakning tip-tiniq chehrasiday tip-tiniq osmon boshim uzra engashib yuzlarimdan o'pib-o'pib olayotgandek, mayin, iliq nafasidek shabada quloqlarimga sirlil-sirlil shivirlayotgandek tuyularkan, xuddi qanot bog'lagan kabi havolanib-havolanib olg'a intilar edim” [6: 262]. Demak, tabiat hodisalarini insonlarning yurish-turishi va qiliqlari bilan muqoyasa qilinishi adibning peyzajning mohir ustasi ekanligini anglatadi.

Yozuvchining “Imom Moturudiy” romani esa buyuk allomaning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, asar to'la holda III shaxs tilidan bayon qilingan. Unda muallif nutqi yetakchilik qiladi. Luqmon Bo'rixon mazkur tarixiy romanida tarixiy voqelik va tarixiy shaxs obrazini yaratishda badiiy tilning funksiyasini teran anglagan holda, ularning turfa xil olamini yaratadi, uzoq o'tmish ko'z oldimizda jonlanadi. Natijada obrazlarning xarakter qirralari davrga, muhitga, ijtimoiy qatlamga hamohang tarzda shakllanib boradi. “Imom Moturudiy” romanida ham badiiy tilning mukammallik xususiyati namoyon bo'ladi. Bu jarayonda yozuvchi estetik qiymat kasb etadigan tasvir usullarini tanlaydi, asardagi har bir obrazning o'z nuqtayi nazari va qarashlari asosida personajlar nutqi shakllanib boradi. Asar tarixiy roman janrida bo'lganligi uchun muallif asar voqealari bo'lib o'tgan davr, ya'ni IX-X asrlar tiliga moslashgan, ayniqsa, personajlar nutqida eskirgan so'zlardan foydalangan:

“ – Kamina alloma Ash'ariyning suhbatida bo'lg'on, – maqtanib qoldi barvasta, do'ng peshona talaba, – ul zot mo'taziliylarni rosa fosh etganin eshitg'on. Afsus, o'shal mudarris kaminag'a yo'liqmadi, bil'aks, o'zini angraytib qo'yardim” [7: 11].

Roman matnida Samarqand, Parvon, Qal'ayi Qasr, Madrasayi Surx, Juzjoniya, Madrasayi Peshvoz, Ko'hak, Moturud, Movarounnahr kabi joy nomlari, Ash'ariy, Abu Mansur Moturudiy, Nasr ibn Ahmad Somoniy, Xolid Xalaj, Muqtadir singari tarixiy shaxslar nomlari bilan birgalikda, yildirim, qo'rq'o'm, dorul harb, mavlono, hazrat, xalifayi zamon kabi so'zlar hamda o'sha davrda mavjud bo'lgan Mo'tazila, Jabariya, Murjia, Xorijiyalar kabi diniy oqimlarning nomlari qo'llanilishi muallifning badiiy mahoratidan

dalolatdir. Bu esa badiiy asarda tasvirlanayotgan saroy va madrasalar muhiti, odamlari, hukmdorlar-u hokimlar, ustoz-u shogirdlarning psixologiyasi davr tili va milliy koloriti orqali asosli yoritilganligining natijasidir.

Adib ilk o'rta asrlarda qo'llanilgan turkiy tildagi so'zlardan tushunarli so'zlarni tanlaydi, eski so'zga xos birikmalarini ham ancha soddalashtiradi. Natijada asar tili qurilishidan o'sha davr ruhi sezilib turadi, ham bugungi til qonuniyatlariga zid unsurlardan holi ko'rinadi. Abu Mansur Moturudiy yashagan davrda turkiy til bilan bir qatorda fors tili va arab tillari keng darajada qo'llanilgan. Shu sababdan adib davr taqozosidan kelib chiqqan holda forsiy to'rtliklar va naqlarni, Qur'oni karimdan oyatlarni ularning tarjimalari bilan birga keltiradi. Yozuvchi o'zining maqsadini quyidagi to'rtlikni keltirish orqali ifodalagan deb aytish mumkin:

Az zakovati arab,

Az ma'rifati fors

Va az siyosati turk

Islom oliy qadr shud [7: 12]. (Ma'nosi: Arabning zakovati, forsning ma'rifati, turkning siyosati sababidan Islom oliy bo'ldi).

Luqmon Bo'rixon "Imom Moturudiy" romanida ham kinoyaviy tasvir usulidan foydalangan. Abu Mansur Moturudiy obrazi orqali "kosa tagida nim kosa" usulida so'zlovchi, ayrim insonlarning qilmishini to'g'ridan to'g'ri tanqid qilishni emas, balki piching va kinoyadan foydalanishni ma'qul ko'ruvchi insonni payqash mumkin. Masalan, Qal'ayi qasrdan Moturudiyi yo'qlab kelgan,

ammo uni tanimasdan nazar pisand qilmagan uch otliq bilan bo'lgan suhbatidan uning naqadar so'zdan mohirona foydalanshini ko'rish mumkin:

– Biz Qal'ayi qasr mulozimlarimiz, nahotki, payqamading?

– Ha, payqadim, – bosh irg'adi cho'pon, – pishqiriqlardan payqadim.

– Pishqiriqlardan?!

– Ha, xo'b boqilgan jonivorlar Qal'ayi qasrda bo'lgay, alar o'zgacha pishqirgay.

Amaldor aytilgan gap ma'nosini anglab-anglamay otining yoliga, terlagan sag'riniga tezgina ko'z yugurtirib oldi. Tanigan bo'lsang, nega ehtimom izhor etmaysan, demoqchi edi u aslida" [7: 23]. Asar qahramonining nutqida kinoyaning qo'llanilishi yozuvchining badiiy tildan foydalanishdagi o'ziga xos uslubini namoyon etadi. Bu esa asarning badiiy pafosini oshiradi.

Badiiy asar tilini tadqiq qilish asarning mohiyatini to'la anglashga xizmat qiladi. Luqmon Bo'rixon har ikkala romanida o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilgan. "Jaziramadagi odamlar" romanida milliylik bilan zamonaviylik hamohang bo'lsa, "Imom Moturudiy" asarida tarixiy mavzuga mas'uliyat bilan yondashgan holda, tarixiy leksikadan unumli foydalangan. Mazkur romanning tili tarixiy so'zlar va jumlar bilan boyitilgan bo'lsa ham, yozuvchi kitobxonlarga tushunarli bo'lishi uchun adabiy til me'yorlariga ham amal qilgan. Xullas, yozuvchi har bir asarining matniga mas'uliyat bilan qaragan va bu keng tadqiq qilinish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
2. Zunnunov A., Xotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Sulston I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, O'zbekiston, 2001.
5. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019.
6. Luqmon Bo'rixon. Jaziramadagi odamlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2005.
7. Luqmon Bo'rixon. Imom Moturudiy. – Toshkent: Yosh kuch. 2023.



Anaxon BOTIROVA,

Urganch davlat universiteti filologiya va san'at fakulteti 2-bosqich talabasi

BADIIY OBRAZ YARATISH MAHORATI (Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” romani misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada iste'dodli yozuvchi Pirimqul Qodirovning obraz yaratish mahorati, adib ijodidagi uslub serqirraligi “Uch ildiz” romani misolida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: obraz, asar, ifoda uslubi, psixologik teranlik, konflikt, personaj.

Annotation. In this article, the talent of the talented writer Pirimkul Kadyrov's skill of image creation, style of literary creativity is revealed on the example of the novel “Three Roots”.

Keywords: image, work, style of expression, psychological depth, conflict, character.

Аннотация. В данной статье на примере романа “Три корня” раскрывается талант писателя Пиримкула Кадырова, его мастерство при создании образа, стиль его литературного творчества.

Ключевые слова: образ, произведение, стиль выражения, психологическая глубина, конфликт, персонаж.

Badiylik – so‘z san’atining umrboqiyligini belgilaydigan, unga bebaho qiymat baxsh etadigan asosiy mezon. Uni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri badiiy obrazlardir. Adabiy asardagi obrazlar tizimi adabiyotshunoslik fanining markaziy masalalaridandir. Negaki “obraz” deganda hayotning aynan nusxasi emas, balki unga taqlidan yaratilgan, san’atkor tomonidan qayta ishlangan, go‘zal tashbehlar-u takrorlanmas tasvirlar bilan boyitilgan yangi hayot tushuniladi. “Unda hech bir tasodifiy va ortiqcha narsa yo‘q. Hamma qismlar butunga bo‘ysungan, hammasi bitta maqsadga yo‘naltirilgan, hammasi birlikda bitta go‘zallik, yaxlitlik, individuallikni maydonga keltiradi” [1: 101].

O‘zbek adabiyotida Pirimqul Qodirovni chin ma’noda realist yozuvchi desak, adashmagan bo‘lamiz. Har bir iste’dod egasi shaxsiy tajribasi, ko‘rgan-kechirganlari, kundalik hayotida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni mujassamlashtirgan holda badiiy obraz yaratadi. Adibning hayot yo‘li chekka bir qishloqda, tabiat bag‘rida cho‘ponlik qilish bilan boshlangani sababli ko‘plab asarlariga mehnatda toblangan oddiy insonlarning hayotini asosiy mavzu qilib olgan. Shunday asarlardan biri “Uch ildiz”dir. Undagi bosh qahramonlar – Mahkam va Ochil ham bolaligidan mehnatda suyagi qotgan yigitlar. Roman 1958-yilda yozilgan bo‘lib, yangi avlod o‘zbek ziyolilarining shakllanish jarayoniga bag‘ishlangan.

Har bir qahramon shaxsiyatiga xos xususiyatlarni jonli tasvirlash muallifdan yuksak mahorat talab etadi. Bu borada P.Qodirovning o‘zi shunday deydi: “Hayot va ijod yo‘llaridan yurib borganingiz sari ko‘nglingizda yangi ijodiy dardlar va go‘yalar tug‘iladi, siz shu go‘yani yaxshi mujassamlashtirib beradigan adabiy qahramon izlaysiz. Qahramonni muayyan bir odam qiyofasida tasavvur etish uchun uning hayot yo‘lini, taqdirini aniqlay boshlaysiz. Hayotda odamlar o‘zlariga mos istiqbolni, yaxshi kasb-

korni, o‘z orni va o‘z yo‘lini qanday uzoq izlanishlar natijasida qidirib topsalar, siz ham qahramoningizga munosib kasb-kor, xarakter va taqdir topguncha shunday uzoq izlanasiz” [2: 317].

“Uch ildiz”da turli xil illat va fazilatlar – manmanlik bilan kamtarlik, qalloblik bilan halollik, nopoklik bilan poklik, befarqlik va faollik bir-biriga zid ravishda tasvirlangan. Ushbu konfliktlar orqali hayot mohiyati ochib berilgan, yaxshini yomondan, oqni qoradan ajratish kerakligi uqtirilgan. Konflikt Akbarov, Toshev, Samadov, Mahmudov kabi pok shaxslar va Hakimov, Eshonboyev, Mannonov kabi vijdonsiz kimsalar o‘rtasidagi keskin kurash asosiga qurilgan. Asarda barcha zamonda bo‘lgani kabi oddiy, kamsuqum, halol kishilarga hurmat tuyg‘usi yuksak ifoda etiladi. Toshev, Akbarov, Mahkam, Ochil fidoyi kabi kamtar insonlar yuqori marralarni zabt etib, ziyoli olim, rahbar xodim bo‘lib yetishsalar-da, eng avvalo, insoniylikni, oddiy mehnat kishisiga xos bo‘lgan xislatlarini saqlab qolishgan. Buni Akbarov tilidan talabalarga qarata aytilgan, romanning pafosi va sarlavhasini aks ettiruvchi quyidagi falsafiy fikrlar ham asoslaydi: “Studentlikda otadigan ildizlaringizdan birinchisi, albatta, bilim. Chunki sizlar bu yerda, avvalo, bilim deb yuribsizlar. Lekin bilimli kishining yana bir zo‘r ildizi bo‘lishi kerak. Bilasizlar, butun iste’dodini xalq uchun sarflagan ulug‘ odamlar o‘zlarini grajdanin deb ataganlar. Studentlikda voyaga yetadigan yana bir ildiz mana shu ma’nodagi grajdanlik bo‘lishi kerak. Shu ildizlarning biri o‘qishda o‘ssa, biri jamiyat uchun qilingan ishda o‘sadi. Ildizlar bir daraxtga kelib birlashganday, bular ham hayotlaringizda birlashib, bir-biriga kirishib ketadi. Shu ildizlaringiz qanchalik chuqur bo‘lsa, shunchalik shox yoya olasizlar, qanchalik mustahkam bo‘lsa, yer yuzida shunchalik mahkam qad ko‘tarib tura olasizlar” [3: 394].

“Uch ildiz” asarida Abdulla Qodiriy ifoda uslubiga xos badiiy nafosat, shuningdek, xassos yozuvchimiz Abdulla Qahhor asarlariga xos loʻndalik, ixchamlik, ruhiy tahlil ham namoyon boʻladi. Bu esa yozuvchining ustozlar anʼanasini mahorat bilan oʻzlashtirganini tasdiqlaydi. Asardagi salbiy qahramonlarni psixologik jihatdan koʻrsata olish sanʼati adib ijodida “Sarob” romanini mutolaa qilish ortidan paydo boʻlgan. Ikki yosh juftlik – Mahkam va Gavhar, Ochil va Zamira oʻrtasidagi oʻtli sevgi rishtalari esa oʻzbek romanchiligining gultoji hisoblanmish “Oʻtkan kunlar” taʼsirida romanga kirib kelgan. Bu toʻgʻrida P.Qodirovning hayot va ijod yoʻli haqida yozilgan maqolalardan birida shunday deyilgan: “Pirimqul Qodirov “Uch ildiz” ustida qizgʻin ish olib borayotgan kezlarda, 1956-yili “Oʻtkan kunlar” romani bilan tanishadi. Bu tanishuv unga juda katta quvonch baxsh etadi. Yozuvchi oʻsha quvonchli daqiqalarni eslab yozadi: “Menga shu vaqtgacha yetishmay yurgan badiiy nafosatning bir turini (oʻsayotgan yosh tanaga zarur bir “vitaminni”) Abdulla Qodiriy romanlaridan topganday suyundim. Bu yangicha nafosat ham dilimga payvand boʻlib, yozayotgan narsamga oliyjanob taʼsir koʻrsatgani oʻzimga keyin sezildi... Davrimizning ijobiy qahramonlaridagi joziba meni koʻproq oʻziga tortardi. Bu, ayniqsa, yoshlar, birinchi galda, Mahkam bilan Gavhar,

ular orasidagi samimiy, begʻubor, hayotbaxsh sevgi muloqotlari ifodasida yaqqol koʻrinadi” [4: 428].

Adabiyotshunoslik ilmidan maʼlumki, obraz ikki xil usulda yaratiladi:

1. Jamlash yoʻli bilan obraz yaratish. Yozuvchi hayotda koʻrgan, bilgan kishilarining xarakterli xislatlarini maʼlum bir obraz zimmasiga yuklaydi. “Uch ildiz” asaridagi shunday obrazlar: Mahkam, Ochil, Hakimov, Mannonov.

2. Prototip asosida obraz yaratish. Prototip (yun. “protos” – ilk, dastlabki; “tupos” – namuna, nishona) – badiiy obraz uchun asos, nuqta boʻladi. Bunda muallif real hayotda yashab oʻtgan yoki yashayotgan tarixiy yoki zamondosh shaxsga tayanib obraz yaratadi. “Uch ildiz”dagi ilmiy domlalar – Toshev va Akbarov prototip asosida yaratilgan personajlar hisoblanadi. Yozuvchi Toshev timsolidagi isteʼdodli zamondoshi Oybek siymosini, Akbarov obrazi orqali esa ustoz Abdulla Qahhor taqdirini aks ettirgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Pirimqul Qodirovning hayotda koʻrgan-kechirganlari, zamondoshlarining boshidan oʻtgan achchiq qismat unga “Uch ildiz”dek bebaho ijod mahsulini yaratish imkonini berdi. Muallif oʻz personajlari orqali kitobxonlarga davr qiyinchiliklarini eslatish va bugungi kunning qadriga yetish kerakligini uqtirayotgani shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belinskiy V. Adabiy orzular. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1977.
2. Normatov U. Yetuklik. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1982.
3. Qodirov P. Uch ildiz. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1979.
4. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B. va boshqalar. XX asr oʻzbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1999.



Nuriya ABDULLAYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
sharq filologiyasi fakulteti xitoy filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z QO'LLANILISHIDA FONOVARIATIVLIK: FUNKSIONAL, SEMANTIK VA STILISTIK JIHLTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xitoy va o'zbek tillarida so'z qo'llanilishining fonovariativlik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fonovariativlikning funksional, semantik va stilistik xususiyatlari ko'rib chiqilib, har ikki til o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar yoritiladi. Tarjima jarayonida fonovariativlikning ahamiyati, shuningdek, til o'rganish jarayoniga ta'siri muhokama qilinadi. Maqolada taqdim etilgan tahlillar xitoy va o'zbek tillari o'rtasida lingvistik farqlarni tushinishda foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: fonovariativlik, funksional xususiyatlar, semantik tafovutlar, stilistik xususiyatlar, tarjima, til o'rganish, xitoy tili, o'zbek tili.

Annotation. This article analyzes aspects of phonovariability in the use of words in chinese and uzbek languages. The study examines the functional, semantic, and stylistic characteristics of phonovariability, as well as identifies differences and similarities between the two languages. The importance of phonovariability in the translation process and its impact on language learning are discussed. The analysis presented in the article may be useful for understanding linguistic differences between chinese and uzbek languages.

Keywords: phonovariability, functional characteristics, semantic differences, stylistic features, translation, language learning, chinese language, uzbek language.

Аннотация. В данной статье анализируются аспекты фоновариативности в употреблении слов в китайском и узбекском языках. В исследовании рассматриваются функциональные, семантические и стилистические характеристики фоновариативности, а также выявляются различия и сходства между двумя языками. Обсуждается значение фоновариативности в процессе перевода, а также её влияние на изучение языков. Представленный в статье анализ может быть полезен для понимания лингвистических различий между китайским и узбекским языками.

Ключевые слова: фоновариативность, функциональные характеристики, семантические различия, стилистические особенности, перевод, изучение языков, китайский язык, узбекский язык.

Til har bir xalqning madaniyati, dunyoqarashi va ijtimoiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. So'zlarning qo'llanilishida fonovariativlik fenomeni ayniqsa ko'p tilli jamiyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fonovariativlik tushunchasi. Fonovariativlik tilshunoslikda so'zlarning turli til yoki dialektlarda har xil fonetik, morfologik yoki semantik xususiyatlarga ega bo'lishini anglatadi. Bu hodisa ikki yoki undan ortiq tillar o'zaro ta'sir qilganda yoki tarjima jarayonida kuzatiladi. Xitoy va o'zbek tillarida fonovariativlik turli darajalarda namoyon bo'ladi [1: 7–8].

Xitoy va o'zbek tillarida fonovariativlikning funksional jihatlari.

Xitoy va o'zbek tillari genetik jihatdan turlicha bo'lsa-da, amaliy muloqot va tarjima jarayonlarida funksional fonovariativlik kuzatiladi. Masalan, xitoy tilida ixtisoslashgan terminlar, rasmiy va norasmiy nutq uslublari, shuningdek, kontekstga qarab o'zgarishi mumkin bo'lgan so'zlar mavjud. O'zbek tilida esa bu holat muloqot sharoitiga bog'liq bo'lgan shakllarda aks etadi. Bundan tashqari, har ikki tilning kommunikativ funksiyasi ham so'zlarning o'zgaruvchanligiga ta'sir qiladi [2: 10].

Semantik jihatlar. Fonovariativlikning semantik aspekti so'zlarning ma'nosining o'zgarishiga bog'liq. Xitoy tilida bir so'z bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin, bu esa tarjimada muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. O'zbek tilida esa sinonimlarning ko'pligi natijasida turli kontekstlarda ma'no tafovutlari paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, so'zlarning metaforik ma'noda qo'llanishi ham fonovariativlikning muhim jihatlardan biridir. Xitoy tilida iyerogliflarning ko'p qirrali ma'nolari ham bu jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [3: 22].

Stilistik jihatlar. Xitoy va o'zbek tillaridagi stilistik fonovariativlik so'z tanlash va uslubiy uyg'unlik bilan bog'liq. Masalan, xitoy tilida rasmiy nutqda ma'lum terminlar ishlatilsa, norasmiy suhbatlarda esa boshqa muqobillar qo'llanadi. O'zbek tilida ham bu holat kuzatiladi, lekin fonetik va leksik o'zgarishlar tufayli yanada murakkabroq ko'rinish olishi mumkin. Shuningdek, turli so'z va iboralarning poeziya, ilmiy matnlar va kundalik nutqdagi o'ziga xos qo'llanilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har ikki tilda kontekstga bog'liq holda uslubiy darajalar farqlanadi [4: 17].



Tarjima jarayonida fonovariativlikning roli. Fonovariativlik tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarjimonlarning madaniy va lingvistik tafovutlarni hisobga olishi talab etiladi. Xitoy va o'zbek tillari o'rtasida tarjima qilganda so'zlarning stilistik, semantik va pragmatik jihatlarini inobatga olish lozim. Aks holda, tarjima natijasida noto'g'ri yoki noaniq ifoda paydo bo'lishi mumkin. Xususan, madaniy konnotatsiyalarni inobatga olmagan holda amalga oshirilgan tarjimalar xatolarga olib kelishi mumkin.

Fonovariativlikning til o'rganish jarayoniga ta'siri. Fonovariativlik til o'rganish jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Har ikki tilning leksik va fonetik o'ziga xosliklarini bilish o'quvchilarga tabiiy muloqot qilish imkonini beradi. Xitoy va o'zbek tillari o'rtasida leksik

jihatdan to'g'ri ekvivalentlarni topish va ularni to'g'ri ishlatish bu jarayonda asosiy vazifa hisoblanadi [5: 23].

Xitoy va o'zbek tillarida fonovariativlikning funksional, semantik va stilistik jihatlarini tahlil qilish natijasida bu hodisa turli tillarda turlicha namoyon bo'lishi aniqlanadi. Ikkala tilning o'ziga xos fonovariativ xususiyatlarini tushunish tarjima va til o'rganish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ushbu mavzuni yanada kengroq o'rganish tilshunoslik va tarjima nazariyasiga katta foyda keltirishi mumkin. Bundan tashqari, kelgusida xitoy va o'zbek tillari fonovariativlik jihatidan solishtirilganda yanada kengroq korpus va real muloqot misollaridan foydalanish lozim bo'ladi. Shuningdek, til o'rganish metodikalarini fonovariativlikka asoslangan holda takomillashtirish ham istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Li W. Chinese Linguistics: A Functional Approach. – Beijing: Beijing University Press, 2017.
2. Xolmatova D. Tarjima jarayonida semantik tafovutlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
3. Zhang Y. Stylistic Variations in Mandarin Chinese. – Shanghai: Shanghai Linguistics Press, 2016.
4. Norman J. Chinese: A Linguistic Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
5. Zhao M. Language Contact and Phonetic Variation in Multilingual Societies. – Hong Kong: Hong Kong University Press, 2021.



Muqaddam TOSHMATOVA,
Marg'ilon shahridagi 11-umumta'lim maktabining
o'zbek tili fani o'qituvchisi

FITRAT – XALQ POETIK IJODI JANRLARI TADQIQOTCHISI

Annotatsiya. Fitrat nafaqat ijodkor, balki haqiqiy folklor bilimdonidir. Uning barcha ilmiy izlanishlarini yuksak baholash mumkin. Maqola Fitrat ijodining yangi qirralarini kashf etish yo'lidagi kichik bir tadqiqotdir.

Kalit so'zlar: ertak, ommaviy janr, "Devonu lug'otit-turk" asari, diffuziya hodisasi, cho'pchak, fantastik hodisalar, ekvivalent.

Annotation. Fitrat was not only a creator, but also a true connoisseur of folklore. All his scientific research deserves high praise. The article is a small study aimed at revealing new aspects of Fitrat's work.

Keywords: fairy tale, folk genre, the work "Divanu lugat at-turk", diffusion phenomenon, brush, fantastic phenomena, equivalent.

Аннотация. Фитрат был не только творцом, но и настоящим знатоком фольклора. Все его научные исследования заслуживают высокой оценки. Статья представляет собой небольшое исследование, направленное на раскрытие новых аспектов творчества Фитрата.

Ключевые слова: сказка, народный жанр, произведение "Дивану лугат ат-турк", явление диффузии, кисть, фантастические явления, эквивалент.

Ertaklar dunyodagi boshqa xalqlar og'zaki ijodida keng tarqalganidek, o'zbeklarda ham eng ommaviy janrlardan biri sifatida turli viloyatlarimizda yashaydigan yurtdoshlarimiz [1] tomonidan sevib aytilib kelingan. Ularning juda qadim zamonlardan yaratilganini "ertak" atamasining Mahmud Koshg'ariy tomonidan 1074-yilda yozilgan "Devonu lug'otit-turk" asarida "yetuk" tarzda qo'llanganidan bilsa bo'ladi: "Yetuk – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so'z qo'llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan". Bu janrning qadimiyligini qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa bir qator turkiy xalqlar oilasiga kiruvchi millatlar og'zaki ijodida ham ertak deb atalishi, isbotlashi mumkin. Shuningdek, miflar, afsona, rivoyatlar haqida fikr yuritganimizda, diffuzion jarayonning keyingi bosqichi ertak ekanligini eslatib o'tganmiz. Demak, agar xalqimiz og'zaki ijodini qadimgi qadriyatlar sifatida [2] e'zozlasak, bu xazinaning noyob durdonasi sifatida hech ikkilanmay ertaklarni qayd etish mumkin ekan. Ertak terminini O'zbekistondagi hamma viloyatlar aholisi juda yaxshi bilsa-da, bu janrga oid asarlar turlicha hududlarda turlicha atalgan. Xususan, toshkentliklar "cho'pchak", farg'onaliklar "matal", xorazmliklar "varsaqi", o'zbek va tojik tilida so'zlashuvchi vatandoshlarimiz "ushuk" tarzida atashgan. Bulardan tashqari jonli so'zlashuvda ba'zan afsona, o'tirik, tatal atamalar ham uchraydi. Hatto hazrat Alisher Navoiy ham g'azallaridan birida "cho'pchak" so'zini qo'llaganlar:

*Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim bo'lg'ay,
Qoshinda qissai Yusuf bir uyqu kelturur cho'pchak.*

(Baytdagi "cho'pchak" "Navodiru-sh-shabob"ning 1959-yilgi nashrida "cho'rchak" shaklida yozilgan. Shuning uchun Alisher Navoiy zamonida "cho'rchak" yoki "cho'pchak" atamasi bor edi deb xulosa qilish mumkin bo'ladi). Ayni paytda baytdagi "uyqu" so'ziga e'tibor bering. Ma'lum bo'ladiki, oqshom payti bolalarni uxlatishda ertakning

sehrli ta'sir kuchidan bugungi kunda foydalanar ekanmiz, bu an'ana ham bejiz paydo bo'lmaganini qayd etamiz [3].

Haqiqatan ham, dostonlarda biz bu mazmundagi boshlanma – zachinlarni uchratmaymiz. Shu bois odatga ko'ra dostonlardagi voqealar hayotda bo'lgan deb qabul qilinadi. Ertakda esa tamom boshqa holat hukm suradi. Chunki bu janr boshlanmasidagi "bor-yo'q", "och-to'q" so'zlarining o'zi hikoya qilinayotgan voqeaga nisbatan shubha uyg'otadi. Ammo masalaning qiziq tomoni shundaki, voqea boshlanmasdan atayin shubha uyg'otishga bo'lgan harakat tinglovchiga deyarli ta'sir qilmaydi. Biz ertaklardagi uydirmalarga to'la ishonamiz, asar qahramonlarining taqdiriga befarq qaray olmaymiz, sevikli malika yoki cho'pon muvaffaqiyat qozonsa, bu g'alaba o'zimiznikidek quvonaveramiz. Xalq ertaklari mazmunida ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy hayotning hamma masalalari o'z ifodasini topadi, desak xato bo'lmaydi. Xalq tabiatan hamisha adolatni yoqlaydi, himoya qiladi. Ertaklar yaratilish jihatdan miflarga asoslangan, mavzuning tanlanishi, obrazlar tizimidagi yo'nalishlar, hayot muammolarini aks ettirishda adolat mezoniga bo'ysunadi. Qalloblik, vijdonsizlik, xiyonat, yolg'onchilik, ma'naviy nopoklik kabi illatlar doimiy ravishda qoralanadi. Mardlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, iymonlilik, poklik fazilatlarini hurmat bilan tilga olinadi. Voqeaning tuguni ham hamisha ana shu fazilatlarini ulug'lash bilan yechimini topadi. Mohir xalq farzandlari tomonidan o'ylab topilgan fantastik hodisalar, uydirma lavhalar, sehrli narsa-buyumlar, jodular, g'ayritabiyy hodisalar esa tom ma'noda yovuzlikning qoralanishi, ezgulikning maqtalishida poetik xomashyo sifatida foydalaniladi [4].

Fitrat o'zbek xalq og'zaki ijodidagi epik janrlarning eng salmoqlilari – ertaklar va dostonlar haqida ham to'xtalib, ularning janriy tabiati xususidagi mulohazalarini bayon etib o'tgan.

Ertak janri necha ming yillik tarixga ega. Xalq og'zaki ijodining bu janri Fitrat qarashlarida ham "ertak" deb

yuritilgan. Folklorshunos olimlarning e'tirofi bo'yicha, ertak eng qadimiy janrlardan biridir. U o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlarini, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va olijanob insoniy fazilatlar haqidagi orzu-o'ylar xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi. Qadimda odamlar oddiy voqealarni bir-biroviga bayon qilib berganidan ertak namunalari paydo bo'la borgan. Har xil ilohiy detallarga ishonish ertaklarga fantastik ruh bag'ishlagan. O'tmishda ertak aytishning o'z mavsumi bo'lgan. Aytuvchilik qobilyatiga ega kishilar, ya'ni yoshi ulug' insonlar ertak hikoya qilib berganlar.

Ertak umumfolklor hodisasi sifatida eng qadimiy epik janrlardan bo'lib, Mahmud Qoshg'ariy o'z "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy xalqlarda uning "yetuk" atamasi bilan yuritilganini qayd etadi. Unga ko'ra, etuk "biror voqeani og'zaki bayon qilish"ni anglatadi. Biroq jonli so'zlashuvda O'zbekistonning turli joylarida, chunonchi, Namangan viloyatining Janubiy qismida "ertangi" deb yuritiladigan bu hodisa – ertangi bo'lib o'tgan, qadim zamonlardan qilinajak hikoya ma'nosini anglatasa, Samarqand, Farg'ona va Surxondaryoda bu hodisa – matal, Xorazmda – varsaqi, Buxoroda – ushuk, Toshkentda – cho'pchak yana boshqa bir maskanlarda hikoya, hikoyat, og'zaki hikoya, o'trik yoki o'tirik, afsona deb yuritilsa-da, folklorshunoslikda ertak ilmiy istilohi qabul qilingan va muhim muomalada bo'lib, ruslardagi "skazka" istilohiga teng ekvivalentga [5] aylangan. Zero, Alisher Navoiy asarlarining qadimgi lug'ati sanalovchi "Abushqa"da ham ertak istilohi uchraydiki, bu istiloh uzoq o'tmishda bo'lganini ham ta'kidlaydi. Ertaklarning tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega [6].

Fitratning ertak haqidagi qarashlariga to'xtalsak, u bu xususda quyidagilarni bayon etadi: "El adabiyotidagi hikoyalarga ertak deyiladi. Ertak el shoirlarining xayollari yordami bilan tuzuladi. Bulardan biri Abubakr Devoyev imzosi bilan nashr etilgan "Erksiz folchi" ertagidir. O'lkamizning eng zararli qurtlaridan bo'lgan folchi-duoxonlarga juda chiroylik etib kulgani uchun muhumdur. Bu chiroylik ertakning qisqacha mazmuni mana shundaydir, – deb ta'kidlaydi. Shundan so'ng, Fitrat ushbu ertakning mazmuni bilan tanishtiradi: "Bir cholning xotini hammomga yuvinishga boradi. Bir vaqt podshohning folchisining xotini hammomga keladi. Kampirni yarim

yuvingan holda chiqaradilar. Kampir cholga qarab: "Nega sen podshohning folchisi emassan" – deb eri bilan urishadi. Chol folchilik asboblarini olib, bozorga boradi. Podshohning amaldorlari uzoq bir viloyatning solug'ini yig'ib xachirlariga yuklab kelayotganda, yo'lda bir xachir oltunni yo'qotib, podshohga xabar beradilar. Podshoh haligi cholni chaqiradi, bir xachir oltunni topib berishini so'raydi. Umrda hech folchilik qilmagan chol nima desin! Xachirning yo'qolgan joyini taxmin aytadi, taxmini esa to'g'ri chiqadi. Yana bir kun podshohning xazinasini o'margan odmi topib beradi. Shundan so'ng, u folchilar boshlig'i bo'ladi. Chol yolg'on fol ochishini bilishlaridan qo'rqib, bir fikrga keladi. O'zini devonadek tutib, hammomdan yalang'och holatda chiqqancha podshoh oldiga boradi. Podshohning taxtidan tortib tushirib yuboradi va o'sha asnoda taxt ayvonchasi qulaydi. Mug'ombir chol ming bahonalar bilan qutulib qoladi. Shunday qilib axmoq xon cholni bir umr saroyda olib qoladi.

Fitrat ertak tabiatini shu tarzda tushuntirar ekan, fikrini xalq ertagidan misol keltirish bilan dalillashga urinadi. Ertaklar insonlar axloq, odob, tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi sabab, Fitrat unga alohida e'tibor qaratgan.

Fitrat dostonlar haqida ham o'z qarashlarini bayon etgan. U boshqa folklor janrlari qatorida dostonni ham chetda qoldirmagan. Faqat u: "Doston asosan ertakdir. Biroq o'zining qahramonlarining bo'lushi, uzun ham kengligi, sof tizim yoki tizim-sochim aralashligi, baxshilar tomonidan cholg'i bilan aytilishi bilan ertaklardan ayriladi" deb yozadi [7].

Ko'rinaydiki, Fitrat doston va ertaklarning tabiatan yaqinligini bildirmoqchi bo'lgan. Ayni paytda ularning boshqa-boshqa janr ekanligini ham unutmagan. Darhaqiqat, Fitrat ta'kidlaganidek, "doston yolg'on voqealarga aralashgan qahramonlarning qilgan ishlarini tasvir qiladir. Tartib etkuchilari, aytib berguchilari "baxshi" atalgan el shoirlaridirlar. Doston nuqul tizim bo'lgani kabi tizim-sochim aralash ham bo'ladi" [8: 77]. Demak, Fitrat o'z kuzatishlari asosida dostonlarning ertaklarga qaraganda epik ko'lamdorligini, hajmi katta bo'lishini, asosan, baxshilar tomonidan soz vositasida ijro etilishini ilgagan. Ayni paytda yana uning she'riy va nasriy qismlardan tuzilishini bilgan. Shular asosida u doston va ertak janrlarini farqlab ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Adabiyot nazariyasi. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1979.
3. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1967.
4. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – Toshkent: Akademiya, 2000.
5. Asqarov S. Qodiriy ijodida folklorning ba'zi masalalari // O'zbek tili va adabiyoti, №1, 1973.
6. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. Ilmiy-tadqiqiy maqolalar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.
7. Boltaboyev H. Qadimgi turkiy manbalar Fitrat talqinida. So'zboshi // Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
8. Yo'ldoshev N. Abdurauf Fitratning "Rahbari najot" ("Qutqaruv yo'li") asaridan muxtasar fasllar. Uslubiy qo'llanma. – Buxoro, 1996.



Rafiqjon ZARIPOV,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari doktori

KOMMUNIKATIV AKT MODELLARI

Annotatsiya. Maqolada kommunikativ aktning ishtirokchilari va elementlari borasida so'z borib, jahon tilshunosligida kommunikatsiya yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga e'tibor qilinadi. Sohaning yetakchi olimlari, kommunikatsiya tadqiqotlarini o'tkazgan tadqiqotchilar va kommunikatsiya modellari komponentlarining o'ziga xos jihatlari yuzasidan munosabat bildirgan mutaxassislardan Lassvell, Klod Shennon, M.Teodor, Marshall MakLuen, Jeykobson kabilarning qarashlariga murojaat qilinib, muallif munosabati ifodalangan. Kommunikatsiya komponentlari sifatida manba, kodlovchi, xabar, kanal, dekoder va qabul qiluvchilar ko'rsatilib, ularning ahamiyati tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: model, modellashtirish, muloqotni modellashtirish, turli fanlarda muloqotni modellashtirish, funksional model, aloqaning nohizizli modellari, muloqotning dialogik xususiyati.

Annotation. The article discusses the participants and elements of the communicative act, and draws attention to research on communication in world linguistics. The views of leading scientists in the field, researchers who conducted communication studies, and experts who expressed their views on the specific aspects of the components of communication models, such as Lasswell, Claude Shannon, M. Theodore, Marshall McLuhan, Jacobson, etc., are referred to, and the author's attitude is expressed. The components of communication are the source, encoder, message, channel, decoder, and receiver, and their importance is described.

Keywords: model, modeling, modeling of communication, modeling of communication in various disciplines, functional model, nonlinear models of communication, dialogic nature of communication.

Аннотация. В статье рассматриваются участники и элементы коммуникативного акта, а также обращается внимание на исследования коммуникации в мировой лингвистике. Подход автора выражен посредством ссылки на мнения ведущих ученых в данной области, исследователей, проводивших коммуникативные исследования, и экспертов, высказавших свое мнение по отдельным аспектам компонентов коммуникативных моделей, таких как Лассуэлл, Клод Шеннон, М. Теодор, Маршалл Маклюэн и Якобсон. Компонентами коммуникации являются источник, кодер, сообщение, канал, декодер и приемник, описывается их важность.

Ключевые слова: модель, моделирование, моделирование коммуникации, моделирование коммуникации в различных дисциплинах, функциональная модель, нелинейные модели коммуникации, диалогический характер коммуникации.

Muloqot lisoniy belgilar asosida shaxslar nutqida voqelanadi va ularning o'zaro fikr almashishlari natijasida amalga oshadi. Kommunikatsiya jarayonini qator olimlar tadqiq etgan va o'zlarining muloqot modellarini taklif etishgan. Xususan, amerikalik psixiatr Yurgen Ruesch arxitektura, antropologiya, psixologiya, siyosat va boshqa ko'plab sohalarda muloqot qilishning 40 xil yondashuvlarini aniqladi. Muloqot vositasi bu – til. Til bu odamlar (shaxslar, shaxs va jamiyat) o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri [1].

XX asrda muloqot muammosiga qiziqishlar ortdi va kommunikatsiya jarayoni turli tomondan tadqiq etila boshlandi. Shu bilan bir qatorda muloqot jarayonini har jihatdan tadqiq etuvchi psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalolingvistika kabi yo'nalishlar XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi.

Aloqa va axborot vositalarining rivojlanishi ommaviy kommunikatsiya fenomenining paydo bo'lishiga olib keldi. Ishlab chiqarish faoliyatining shaxs bilan bog'liqligi ortgani menejment sohasida aloqa masalalarini tartibga solishni taqozo qildi. Ko'plab soha mutaxassislari kommunikatsiya muammolariga duch keldi. Demak,

hozirgi vaqtda aloqa jarayonlarini o'rganish insoniyat uchun eng dolzarb, global vazifalardan biridir. Yuqorida qayd etilganidek, kommunikativ jarayonga ko'plab ta'riflar berilgan. Olimlar ushbu hodisani yaxshiroq tushunish uchun modellashtirish usullarini taklif etdi va ulardan foydalanishni boshladi: aloqa modeli aloqa jarayonining tarkibiy elementlari va funksional xususiyatlarini diagramma shaklida aks ettiradi. Albatta, modelning mazmuni ushbu modelni ishlab chiqqan olimning konsepsiyasiga, u paydo bo'lgan fan sohasining ehtiyojlari va hokazolarga bog'liq. Shuni unutmasligimiz kerakki, modellar kashf etilmagan, balki ixtiro qilingan va ishlab chiqilgan. Tadqiqotchiga voqelik haqidagi fikrlarini va bu voqelik bilan harakatlarini muvofiqlashtirishi uchun model kerak. Aloqa modellarini mexanik yoki chiziqli va mexanik bo'lmaganlarga ajratish mumkin.

Kommunikativ aktning ishtirokchilari va elementlarini Lassvell quyidagicha ko'rsatadi: kommunikator, xabar, kanal, qabul qiluvchi, oqibatlar. Bundan tashqari, u ishtirokchilar rollarining tavsiya etilgan taqsimotiga muvofiq aloqa tadqiqotlarining yo'nalishlarini belgilaydi: boshqaruv tadqiqotlari, aloqaning mazmuni bo'yicha

tadqiqotlar, kommunikativ muhitni o'rganish, auditoriyani o'rganish, kommunikativ ta'sir bo'yicha tadqiqotlar [3].

Uzoq vaqt davomida tilshunoslik matematika va kibernetikadan ko'chib o'tgan, amerikalik matematik Klod Shennon tomonidan taklif qilingan aloqa modelidan foydalangan [2]. Taklif etilgan model o'tgan asrning 40-yillari oxirida shakllangan bo'lib, u axborot almashinuvi bilan bog'liq ko'plab fanlarning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Hozirgi kunga kelib esa, u muayyan darajada cheklandi. Aniqrog'i cheklangan emas, balki kommunikatsiya imkoniyatlarining oshishi, qamrovining kengayishi yangicha yondashuvlarni talab qilgani tufayli ushbu modelning xossalari cheklanganlik ko'rinishini kasb etdi.

Model beshta elementni o'z ichiga oladi: ma'lumot manbai, uzatuvchi, uzatish kanali, qabul qiluvchi va chiziqli ketma-ketlikda joylashgan yakuniy maqsad (chiziqli model) [2]. Keyinchalik model boshqa aloqa turlari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot yo'nalishlari ehtiyojlarini to'la qamrab olishi uchun qayta ko'rib chiqildi. Qayta ko'rib chiqilgan model oltita komponentni o'z ichiga oladi: manba, kodlovchi, xabar, kanal, dekoder va qabul qiluvchi. Bu atamalar boshqa aloqa tizimlarida ham ishlatilgan va turli funksiyasi bir-biriga yaqin bo'lgan ma'nolarni ifodalagan [3].

Bulardan tashqari, Shennon shovqin (entropiya) va ortiqchalik (negentropiya) tushunchalarini kiritdi. Aloqa nazariyasidagi entropiya (shovqin) xabarni buzadigan, uning yaxlitligini va qabul qiluvchi tomonidan idrok etish imkoniyatini pasaytiradigan tashqi omillar bilan bog'liq tushuncha hisoblanadi. Negentropiya to'liq bo'lmagan yoki buzilgan xabar qabul qiluvchi tomonidan, buzilishlar va yetishmayotgan ma'lumotlarga qaramay xabarni tanib olish qobiliyati tufayli qabul qilingan holatlar bilan bog'liq tushuncha [2].

Ortiqchalik tushunchasi, kommunikativ qobiliyatsizlikning oldini olish uchun xabar elementlarini takrorlash, ya'ni entropiyaga qarshi vosita ko'pincha inson tillari misolida aniq namoyon bo'ladi. Barcha tillarda olib borilayotgan kommunikatsiya, yaratilayotgan matnlarda ularda ishtirok etuvchi birliklarning deyarli yarmi ortiqcha bo'lishi mumkinligi olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Ko'p hollarda siz matnda berilgan so'zlarning yarmini o'chirib tashlasangiz ham yoki shaxs nutqidagi so'zlarning muayyan qismini tushurib qoldirsangiz ham ularni tushunishingiz mumkin. Albatta, ruxsat etilgan shovqin chegarasi mavjud, undan tashqarida tushunish imkoniyati keskin kamayadi. Xususan, shovqinli sharoitda

notanish kod yordamida xabarni tushunish qiyin. Chet tilini o'rganish uchun nafaqat auditoriya sharoitida, balki turli xil ovozlarda va hatto boshqa urg'u bilan talaffuz qilinadigan ko'cha yoki ishlab chiqarish shovqini hamrohligida nutqni tinglash foydalidir. Shennon modelining statik tabiati teskari aloqa konsepsiyasi bilan to'ldirildi. Ushbu konsepsiya modeli muloqot jarayonida insonlarning o'zaro ta'sir imkoniyatini yoritishga yordam berdi. Uning kiritilishi kibernetika g'oyalarning kirib kelishi bilan, xususan, ushbu fanning "otasi" Norbert Vinerning (1894–1964) xuddi shu nomdagi asari bilan bog'liq edi [3].

Psixolog Teodor M. muloqotning yanada moslashuvchan modelini ishlab chiqdi. Bu kommunikativ akt ishtirokchilarining o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Bir qator tadqiqotchilar xabarlarni uzatish kanaliga ko'proq e'tibor qaratdilar, masalan, mashhur kanadalik aloqa nazariyotchisi, ommaviy kommunikatsiya sohasidagi ishlar muallifi Marshall MakLuen. Uning ta'kidlashicha, uzatish kanali asosan xabarning o'zini belgilaydi [3].

Jeykobsonning fikricha, muloqot yoki nutq hodisasi modelida, murojaat qiluvchi va qabul qiluvchi ishtirok etadi, birinchisidan ikkinchisiga xabar yuboriladi, u kod yordamida yoziladi. Jeykobson modeli o'zining turli xil variantlarida, tilshunoslikda umumiy tilning funksiyalarini tahlil qilish, uning alohida birliklarini yoritish, nutq va matn yaratishda ham qo'llaniladi. Praga maktabi tilshunosligi ruhida bu model teleologik (yunoncha "maqsad" so'zidan), ya'ni tilning maqsadini, vazifasini ko'rsatadi. Zamonaviy sotsiologiyada, aloqa nazariyasi va aloqa sotsiologiyasi ham aloqa jarayonlarini tavsiflash uchun Jeykobson modelidan foydalangan.

So'nggi paytlarda fanda dialogizm falsafasi g'oyalari keng tarqalmoqda (u rus olimi, adabiyotshunosi va tilshunosi M.M.Baxtin bilan bog'liq). Muloqot jarayonini anglash uchun Baxtinning ikkita asosiy g'oyasiga e'tibor qaratish lozim: birinchidan, har qanday gapning zaruriy xususiyati uning murojaati, murojaat jihatidir, ya'ni tinglovchisiz so'zlovchi, adresantsiz murojaat qiluvchi bo'lmaydi; ikkinchidan, har qanday bayonot faqat kontekstda, ma'lum bir vaqtda va ma'lum bir joyda ma'noga ega bo'ladi (xronotop g'oyasi: yunoncha "vaqt" va "joy" so'zlaridan) [5]. Shunga o'xshash g'oyalarni taniqli fransuz semiologi Rolan Bart bildirgan. Bartning fikricha, so'z hech qanday ma'noga ega emas, so'z faqat ma'lum bir matnda uni qabul qiladigan ma'noning imkoniyatidir [6]. Bundan tashqari, matnning har bir qayta o'qilishi yangi ma'no yaratadi, o'quvchi go'yo o'z matnini yana yozadi.



Baxtin g'oyalari so'nggi yigirma yil ichida jahon tilshunosligi, adabiyotshunosligi, aloqa nazariyasi va falsafasida juda keng tarqaldi. U fransuz tadqiqotchisi Julia Kristeva (1935-yilda tug'ilgan; faoliyat sohalari: semiotika, adabiyot, feminizm), va Bart g'oyalarini rivojlantirib, intertekstuallik konsepsiyasini taklif qildi.

Xaynts fon Foerster "Ikkinchi tartibli kibernetika" iborasini yaratdi. Asosan texnik fan sifatidagi kibernetikadan farqli o'laroq, ikkinchi tartibli kibernetika, birinchi navbatda, o'z nigohini o'ziga, o'zining yaratilish jarayoniga, ya'ni insonga, uning qanday fikrlashiga qaratadi.

Von Forster muloqotning dialogik xususiyatini ta'kidlab, "Tangoga ikki shaxs kerak, kommunikatsiyaga ham ikki kishi kerak" iborasini keltiradi. Von Foersterning qarashlari chililik tadqiqotchi Humberto Maturanaga ta'sir qildi. Asli biolog Maturana, o'z navbatida, o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlarning konsensual o'zaro ta'siri haqidagi g'oyasi bilan XX asr oxiridagi fanlarning aksariyatiga ta'sir ko'rsatdi va ta'sir qilishda davom etmoqda (Maturana

bu tizimlarni "avtopoetik" deb ataydi, ya'ni "o'z-o'zini yaratish") [4].

Maturana lingvistik faoliyatni raqs bilan taqqoslaydi. Bu "iyerarxiya", "boshqaruv" va "raqobat" bilan emas, balki harakatlarning o'zaro moslashuvi, hamkorligi bilan tavsiflanadi [4].

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, muloqot lisoniy belgilar asosida shaxslar nutqida voqelanadi va ularning o'zaro fikr almashishlari natijasida amalga oshadi. Kommunikatsiya jarayonini qator olimlar tadqiq etgan va o'zlarining muloqot modellarini taklif qilishgan.

Kommunikatsiya ishtirokchilarining rollariga ko'ra, aloqa tadqiqotlarining yo'nalishlari quyidagilar: boshqaruv tadqiqotlari, aloqaning mazmuni bo'yicha tadqiqotlar, kommunikativ muhitni o'rganish, auditoriyani o'rganish, kommunikativ ta'sir bo'yicha tadqiqotlar.

Kommunikatsiya komponentlari sifatida manba, kodlovchi, xabar, kanal, dekoder va qabul qiluvchilarni ko'rsatish mumkin. Bu kommunikatsiyaning boshqa modellarida ham turli ko'rinishda aks etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zaripov R. Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – B. 10.
2. Shannon C. The Mathematical Theory of Communication // The Bell System Technical Journal. 1948. Vol. XXVII. №3.
3. Кашкин В.Б. Основы теории коммуникации. – М., 2007, электронная версия. <http://kachkine.narod.ru/CommTheory/Contents/Contents.htm>.
4. Матурана У. Биология познания // Язык и интеллект. – М.: Прогресс, 1995.
5. Волошинов В.Н. Марксизм и философия языка: Основные проблемы социологического метода в науке о языке. – М.: Лабиринт, 1993.
6. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс; Универс, 1994.

Agabek ATAYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti xorijiy filologiya fakulteti talabasi

AQLIY POTENSIAL VA UNUTILGAN QOBILIYATLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada dars ishlash samaradorligi va uning biologik ritmlar bilan qanday bog'liq ekanini tahlil qilinadi, o'quvchilarning o'rganish jarayoniga ertalabki va kechki soatlarning qanday ta'sir qilishi tushuntirilib, biologik jarayonlardagi eng samarali vaqtlar keltiriladi. Matnda miya qanday tuzilgani, uning energiya sarfi, fikrlash, xotira va his-tuyg'ularni boshqarishdagi roliga ham to'xtalib o'tilgan. XX asrning o'rtalarida miya haqidagi ilmiy tasavvurlar qanday o'zgargani, Roger Sperry kabi olimlarning miyaning o'ng va chap yarim sharlari o'rtasidagi farqlarni aniqlashdagi kashfiyotlari yoritilgan. Maqola miya va uning ishlash tizimiga qiziqadiganlar uchun muhim ilmiy manba bo'la oladi.

Kalit so'zlar: dars ishlash, biologik ritmlar, o'rganish samaradorligi, kortizol, qayta takrorlash, inson, miya, neyronlar va ularning o'zaro aloqalari, fikrlash jarayoni, xotira, his-tuyg'ularni boshqarish, miya tuzilishi, miyaning o'ng va chap yarim sharlari.

Annotation. This article examines the effectiveness of classroom activities in relation to biological rhythms, explaining how morning and evening hours influence students' learning processes and identifying the most optimal periods for cognitive performance. The text delves into the structure of the brain, its energy consumption, and its role in managing thinking, memory, and emotions. It also explores how scientific understanding of the brain evolved in the mid-20th century, highlighting discoveries by Roger Sperry regarding the differences between the brain's left and right hemispheres. This article serves as a valuable scientific resource for those interested in brain function and cognitive processes.

Keywords: studying efficiency, biological rhythms, learning effectiveness, cortisol, repetition, human brain, neurons and their connections, thinking process, memory, emotion regulation, brain structure, right and left hemispheres of the brain.

Аннотация. В статье анализируется эффективность работы в классе и ее связь с биологическими ритмами, объясняется, как утренние и вечерние часы влияют на обучение учащихся, а также представлены наиболее эффективные периоды времени для биологических процессов. В статье также обсуждается структура мозга, его роль в расходе энергии, мышлении, памяти и регуляции эмоций. В работе рассматривается о том, как изменились научные представления о мозге в середине XX века, а также об открытиях таких ученых, как Роджер Сперри, в выявлении различий между правым и левым полушариями мозга. Статья может стать важным научным источником для тех, кто интересуется мозгом и его функционированием.

Ключевые слова: работа в классе, биологические ритмы, эффективность обучения, кортизол, повторение, человек, мозг, нейроны и их взаимодействие, мыслительный процесс, память, эмоциональная регуляция, структура мозга, правое и левое полушария мозга.

Miya inson organizmidagi eng asosiy va murakkab organlardan biri hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida uning ishlash mexanizmlari va tuzilishi haqida cheklangan bilimlarga ega edik. Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan keyin miya ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada natija ko'rsatdi. Ayniqsa Rojer Sperry miyaning o'ng va chap yarim sharlari orasidagi funksional farqlarni o'rganishi ushbu organning faoliyatini chuqurroq tushunishga imkon yaratdi. Bugungi kunda bu boradagi bilimlar dunyoqarashimizni kengaytirmoqda.

Dars ishlash samaradorligini oshirish uchun bir nechta omillarni hisobga olish zarur. Bu omillardan biri o'qish tartibini o'quvchilarning biologik ritmlari bilan mos ravishda yaratishdir. Biologik ritmlar organizm va miya faoliyatining tabiiy sikllarini tashkil etadi, bu esa o'rgatish va o'rganishga ta'sir qiladi. Ertalabki soatlar, kortizol gormoni va boshqa biologik omillar o'quvchilarning eng samarali vaqtlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biologik ritmlar asosida samarali dars ishlashning quyidagi usullari tahlil qilinadi:

1. Tonggi soatlar va ularning o'rganishga ta'siri. Fiziologlar kortizol gormoni eng yuqori darajaga chiqadigan vaqt ertalabki soat 8:00 dan 11:00 gacha

bo'lgan davr ekanini aniqladilar. Bu davrda miya yangi ma'lumotlarni tez qabul qilishi va qisqa muddatli xotiraga joylashtirishi mumkin. Shu sababli tonggi soatlar dars ishlash uchun eng samarali vaqt hisoblanadi [1: 45]. Ertalab o'qilgan ma'lumotlar 4–6 soat ichida qayta ko'rib chiqilishi va takrorlanishi zarur. Shunda qabul qilingan ma'lumotlar uzoq muddatli xotiraga o'tadi va o'rganish yanada samarali bo'ladi.

2. O'rtacha soatlar va uyquning orni. O'rtacha soatlar (12:00–14:00) organizmning eng past faollik davri hisoblanadi. Bu vaqtda tanada tabiiy uyqu ehtiyoji yuzaga keladi. Kichik bir uyqu (20–30 daqiqqa) yoki dam olish organizmning qayta tiklanishiga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar qisqa vaqtli uyqudan so'ng, yangi bilimlarni yanada samarali o'zlashtiradilar va o'qishga qaytishlari osonlashadi [2: 67].

3. Kechki soatlar: jismoniy faollik va o'qishga ta'siri. Kechki soatlar (17:00–19:00) vujudning eng yuqori jismoniy faollik darajasiga erishadigan vaqt bo'lib, bu paytda sport va jismoniy mashqlarni bajarish foydali hisoblanadi. Bu nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilaydi, balki uyqu sifatini ham oshiradi. Kechki soat 19:00 dan 22:00 gacha bo'lgan davr esa o'qish va intellektual



faoliyatlar uchun eng yaxshi vaqt hisoblanadi. Bu vaqt davomida o'quvchilar o'qishdan charchamagan bo'lishi kerak, shunda aqliy faollik yuqori bo'ladi [3: 80].

etilayotganida, ushbu jarayonda o'quvchilarning amaliy ishtiroki kuchayganida, muhimi, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida yaqqol sezilmoqda. Barchimizga ma'lumki, yaqin-yaqinlargacha ona tili ta'limida har bir grammatik mavzuning ta'rif-tavsifi o'quvchilarga so'zma-so'z yozdirilar, ta'kidlanar va yodlatilar edi. Mazkur ta'rif-tavsiflarning dalili sifatida misollar havola etilar, ularni o'zlashtirish talab qilinadi edi. O'quvchilarning bilimi, mavzuni qay darajada o'zlashtirgan-o'zlashtirmagani o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan "qat'iy" qoida-yu ta'riflar va havola qilingan misollarning bexato, yoddan aytib berishiga qarab baholanar edi. Afsuski, o'quvchini tayyoriga ayyor qilib "tarbiya"lagan, mustaqil fikr yuritishi uchun imkonni chegaralab qo'ygan bu tarzda bilim berish usuli hali-hanuz ta'lim muassasalarida qo'llanilmoqda. Fikrimizning dalili sifatida xizmat taqozosi bilan bir maktabda "Ona tili" darsida kuzatgan holatni ta'kidlamoqchimiz. Darsning uy vazifasini so'rash qismida avvalgi mashg'ulotda o'qituvchi taqdim etgan grammatik qoida va uning tasdig'i bo'lgan misol 7 o'quvchi tomonidan bir xil, o'zgarishsiz qaytarilgan. 7 o'quvchining bir xil misolni qayta-qayta takrorlaganidan xijolat bo'lgan o'qituvchi: "Hech bo'lmaganda gapdagi ish-harakat bajaruvchisining nomini o'zgartirsang bo'lmaydimi?" – deya tanbeh berdi.

Darhaqiqat, yuqoridagi kabi o'tilgan dars jarayoni xolis tahlil qilinadigan bo'lsa, bu yo'sindagi mashg'ulotlar birinchi navbatda, o'quvchini tayyor "iste'mol"chi qilib qo'yadi, mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish kabi bugungi ta'limning eng muhim sifatlaridan uzoqlashtiradi. Yillar davomida qo'llanilgan ta'lim berishning bu "tayyor" qolipi o'qituvchidagi tashabbuskorlik, faollikni ham susayishiga sabab bo'lgan. Maktab ta'limidagi bu singari nuqsonlar asorati oliy o'quv yurtlarida alohida e'tibor qaratilayotgan



talabalarining mustaqil ishlarini samarali tashkil etilishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Chunki talabalikka qabul qilingan o'quvchilar mustaqil ish va uning mohiyati haqida ilk tasavvurga ham ega emas. Hech bo'lmaganda, **mustaqil ish** atamasidagi **mustaqil** so'zining mohiyati nima ekanini ham tushunishmaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, hozirgi oliy ta'limda o'qiyotgan talabalarining aksariyatida mustaqil ishlash ko'nikmasi maktabdoyoq shakllantirilmagani uchun ularda mustaqil ish nima, uning bajarilish sabablari, maqsadlari, shakllari haqida aniq tushunchalar yo'q. Ko'p hollarda ular bajargan va taqdim etgan "mustaqil" ishlarni ijodiy yondashish, fikrlash hosilasi deb bo'lmaydi, balki turli ilmiy manbalardan, aniqrog'i, internetdan olingan "ko'chirma"lar deb baholasak, o'rinli bo'ladi. Vaholanki, talaba mustaqil ta'limsiz, uni bajarmasdan turib yetuk mutaxassis bo'lishi mumkin emas. Ilg'or xorijiy tajribalarning mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida asta-sekinlik bilan joriy etilayotganidan xabardormiz. Bu jarayonda ham asosiy e'tibor talabaning mustaqil ta'lim olishi masalasiga qaratilmoqda. Har narsaning ibtidosi bo'lganidek, biz ham mustaqil ta'lim olish ko'nikmasi maktabda shakllantirilishi kerak degan fikrdamiz. "Mustaqil ta'lim bir qator davlatlarda maktab davridayoq joriy etilgan bo'lib, bu o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu ko'nikma va malakalar o'quvchilarga ta'lim jarayonining keyingi bosqichlarida, ayniqsa ilmiy faoliyatida asqatadi" [1]. Agar maktab o'quvchisida mustaqil o'qish, o'rganish ko'nikmasi hosil qilinsa, bu talabalik davrida rivojlanadi, boyib boradi. Demak, mustaqil ta'lim olishning tamal toshi maktabda qo'yilsa, o'quvchi o'zi bajargan mustaqil ishi natijasidan quvonadi, ruhan oziq oladi, har bir erishilgan kichik yutuq o'quvchini kelgusida mustaqil fikr yuritishga safarbar etadi. Qolaversa, mustaqil bajarilgan ish maktab va oliy ta'lim tizimini o'zaro bog'lashda o'ziga xos ko'priq vazifasini bajaradi.

Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talaba avvalo mustaqil ishning mohiyati, bajarilish shakllari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bu tasavvurni, shubhasiz, mustaqil ish topshirig'ini bergan ustozni uyg'otadi. Odatda, mustaqil ish talabaning auditoriyada bajargan ishlarini mustahkamlash xususiyati bilan bilimni oshirishga qaratiladi. Ana shu uzviylik talabada ma'lum mavzu bo'yicha mukammal bilimni shakllantirishga xizmat qiladi. "Mustaqil ish shakllari talaba o'rganayotgan fanlarning o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda tanlanadi" [2] deyilgan "Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha "Yo'riqnoma" da. Hozirda ko'p fanlardan bir xildagi mustaqil ish shakli, masalan, **referat** berilishi talabada mustaqil ishni bajarishga bo'lgan ishtiyoqni so'ndiradi, unda "ko'chirma"chilikka moyillikni "tarbiya"laydi. Topshiriq bir xil, biroq uning bajarilish shakli turlicha bo'lishi o'qituvchiga talabalarining ilmiy salohiyati, qiziqishlari bilan tanishish imkonini beradi. Masalan, "Ona tili" fanidan mustaqil ish shakllari qanday ko'rinishlarda bo'lgani ma'qul? Shubhasiz, auditoriyada

o'qituvchi ishtirokida, rahbarligida bajarilishi kerak bo'lgan yumushlar ko'p bo'lgani sababli mavzuning to'liq bayoniga vaqt yetmay qolishi mumkin. O'z-o'zidan, bu yumushlar hajmi qo'shimcha vaqt ajratishni, mustahkamlashni taqozo etadi. Faraz qilaylik, "Fe'l" mavzusini o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi yetarli emas. Bu hol o'qituvchining mavzu ichidagi ba'zi ma'lumotlarni birlashtirishiga, ba'zan tashlab ketishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, bugungi ona tili ta'limi ma'lumotlarni to'liq taqdim etilishni nazarda tutmaydi. Shunga amal qilgan tajribali o'qituvchi talabalarga qisqacha yo'nalish berish orqali mavzuning bir qismini mustaqil ish ko'rinishida bajartirishga to'la haqli. Bu fikr ilmiy adabiyotlarda ko'p marta ta'kidlangan "Mustaqil ish o'qituvchi ishtirokisiz, biroq uning maslahatlari bilan bajariladi" [1] degan xulosaning amaliy tasdig'idir. Fikrimizcha, "Ona tili" fanidan mustaqil ish shakllari ko'proq talabalarining o'zlashtirishida muammoli vaziyatlarga, munozaralarga sabab bo'ladigan mavzularning yechimiga bag'ishlangani ma'qul. Buning boisi shuki, talaba o'zining mustaqil izlanishi natijasida hosil bo'lgan bilimni uzoq vaqt xotirasida saqlash imkoniga ega bo'ladi, shunga tayangan holda unda mazkur mavzu yuzasidan o'z fikrini qat'iy himoya qilish ko'nikmasi shakllanadi. Biz ko'p yillik o'qituvchilik faoliyatimizda "Ona tili" fanidan talabalarining lingvistik tahlil jarayonida ko'plab xatolarga yo'l qo'yayotganiga guvoh bo'ldik. Tilshunoslikda lingvistik tahlilning bir qancha turlari bo'lib, ular tahlil mohiyatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Birgina morfologik tahlilni olsak, u so'z turkumlari bo'yicha tahlilni to'liq qamrab oladi. Har bir so'z turkumi o'ziga xos morfologik belgilarga ega. Shu jihati bilan bir-biridan ajralib turadigan morfologik tahlil ko'rinishlarini hosil qiladi. Morfologik tahlilni chuqur bilish aniq bir mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlarni mustaqil egallash imkonini beradi. So'zimiz avvalida ta'kidlaganimizdek, talabaning mustaqil amaliy ishi natijasida nazariy tushunchalari, bilimlari shakllanadi. Bu hol amaliyotdan nazariyaga tamoyilining talabalariga to'liq mos tushadi. O'qituvchi so'z turkumlarining har birini alohida o'tib bo'lganidan so'ng, biror turkumga tegishli so'zlar ko'p ishtirok etgan matnlarni tanlab, talabalarga uni morfologik tahlil qilish topshirig'ini beradi. Matndan bir jumlani tanlab, o'rganilayotgan so'z turkumining morfologik tahlil qilish qolipini namuna sifatida havola etadi. Matndagi mazkur turkumga tegishli so'zlarning morfologik tahlili talabalarga mustaqil ish sifatida topshiriladi. Amaliy mashg'ulot darslarida har bir talabaning yozgan mustaqil ishi alohida ko'rib chiqiladi, yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi. Bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan bu ishlarning puxta-pishiq bajarilishi talabaning mustaqil ishidagi o'ziga xoslikni ifodalaydi. O'qituvchi morfologik tahlil jarayonini kengaytirishga harakat qilib, talabaga matnda ishtirok etgan barcha so'z turkumlariga tegishli so'zlarni tahlil qilish topshirig'ini beradi. Ijrosini nazorat qiladi, eng mukammal bajarilgan mustaqil ishlarni ilmiy maqola sifatida nashr etishga tavsiya qiladi.

Barchamizga ma'lumki, "Adabiyot" darslari hayotdan ta'lim olishni o'rgatadigan fan hisoblanadi. "Adabiyot"

darsliklaridan o'rin olgan badiiy matnlarning maxsus tanlanishi, didaktik xarakterga egaligi ijtimoiy ahamiyatga molik masala. Bunday matnlarning mavzusi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, maqsadi kitobxonni chuqur mushohadaga undaydi, o'zida ezgu sifatlarni kamol toptiradi. Shu sababdan bo'lsa kerak, xalqimizda ijtimoiy fanlar ichida adabiyot faniga hamma davrlarda alohida e'tibor shakllangan. Adabiyot hayotdan saboq beradi, chunki uning o'zi hayotdan saboq oladi. Demoqchimizki, talabalarga bu fandan beriladigan mustaqil ta'lim topshiriqlari o'zlari yashayotgan ijtimoiy muhit, xalqimiz hayoti bilan chambarchas bog'lansa, nur ustiga nur. Talabani bu fandan auditoriyada oladigan bilimlari hayot bilan uzviy bog'lansa, haqiqatiga mos kelsa, tajribalar orqali sinovdan o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Nazarimizda, bu fandan talabalarning bajaradigan mustaqil ta'lim mavzular ko'lami nihoyatda keng. Bular talabani tafakkurini charxlaydi, unda mustaqil fikr bildirish ko'nikmasini shakllantiradi. O'qituvchi talabalarga quyidagi mustaqil ish shakllarini havola qiladi: "Nashr etilgan yangi roman (qissa, hikoya) yuzasidan mulohazalar yozish", "Teleko'rsatuv haqida mulohazalar yozish", "Iqror" va "Taqdirlar"da namoyish etilgan hayotiy voqealarga munosabat bildirish" kabi.

Tan olishimiz kerakki, bular yangi mavzular, bunday mavzular talabalarga hech qachon mustaqil ish mavzulari qilib berilmagan. Shulardan biri "Nashr etilgan yangi roman (qissa, hikoya) yuzasidan mulohazalar yozish" bo'lib, uning mohiyati quyidagicha: dastlab o'qituvchi asar matnini o'qish topshirig'ini talabalarga beradi. Talabalar matnini to'liq o'qib chiqqandan so'ng, ularga asar bo'yicha fikr-mulohazalarini yozma bayon qilish vazifasini yuklaydi. Ma'lum muddatga berilgan bu topshiriqning ijrosi qat'iy nazorat qilinadi, u talabalar tomonidan mustaqil ishni topshirish kunida yig'ib olinadi, himoyasi o'tkaziladi. O'qituvchining o'zi ham tanishib chiqqan bu asar matni yuzasidan eng yaxshi xulosasi, mulohazalarining o'ziga xosligi bilan ajralib turgan talabani mustaqil ishini ilmiy maqola sifatida nashrga tavsiya qiladi. Bunday xarakterdagi mustaqil ish o'zining mohiyatan yangiligi, fikrlar xilma-xilligi, voqelikka talabani o'zgacha munosabatini ifodalashi bilan farqlanadi. Dastlabki amaliy ishda talaba xatolarga, bir tomonlama, yuzaki va asoslanmagan munosabat bildirishi tabiiy hol. Muhimi talabani mustaqil fikrlashga o'rgata olish, xatò bo'lsa ham unda fikrlash ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi. Fikrimizcha, bunday amaliy ishlar talabalarni "ko'chirma"chilikdan imkon qadar uzoqlashtirishi bilan ham ahamiyatlidir.

"Teleko'rsatuv asosida mulohaza yozish" nomli mustaqil ish shakli ham talabani mavzuga o'zgacha yondashganini ifodalashi bilan e'tiborlidir. Bu shakl talabani kuzatuvchanlikka o'rgatadi. O'qituvchi tavsiyasi bilan talaba O'zbekiston televideniyesida namoyish qilinayotgan, ko'plab ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqqani bilan tomoshabinlar nazariga tushgan "Munosabat", "Uyga qaytib..." va boshqa ko'rsatuvlardagi mavzular yuzasidan mustaqil ish tayyorlashi mumkin. Mustaqil ishida talaba ko'rsatuvda bildirilgan kimningdir fikriga qo'shilishi, uni inkor qilishi asnosida o'z mulohazalarini yozma bayon qiladi. Dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan esse)da yozma bayon qilish shaklidan foydalanish mumkin. Fikrimizcha, to'g'ridan-to'g'ri mulohazasini bayon qila olmaydigan talabalarda o'zgalarning fikrlari asosida o'z munosabatlarini ifodalash ko'nikmasini shakllantirish muhim, mustaqil ish shakllarining xilma-xilligi esa talabaga tanlash imkonini beradi. Xullas, hozirgi oliy ta'limda keng qo'llanilayotgan kredit-modul tizimiga ko'ra "Talaba mustaqil ravishda referat, tezis, ma'ruza matnlari tayyorlash, ilmiy va o'quv materiallariga taqriz yozish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi" [3].

"Iqror" va "Taqdirlar"da namoyish etilgan hayotiy voqealarga munosabat bildirish" mustaqil ish shakli ham talabani hayotga teran nazar tashlashga o'rgatishi bilan birga, teleko'rsatuvlardagi tasvirlangan hayotiy voqealar bo'yicha mustaqil fikr bildirish, mulohazalarini ayta olish, yozma bayon qila bilish kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Ulardagi so'z tanlash va qo'llay olish, fikr bildirish mahorati sayqallashadi. O'zbekiston televideniyesining ikki kanalida yakshanbadan tashqari haftaning har kuni namoyish etilayotgan "Iqror" va "Taqdirlar" turkum ko'rsatuvlarida bir hayotiy voqea tafsiloti asosida suratga olingan telenovella bilan tanishish imkoni talabada bor. "Adabiyot" fanining hayotdan saboq berishini hisobga olganda, bunday didaktik mazmunga ega bo'lgan telenovellalar asosida mustaqil ish yozish bir jihatdan talabani hayotni chuqurroq o'rganishiga, tahlil qilishiga ko'maklashsa, boshqa jihatdan zamonaviy ta'limda ilgari surilayotgan fan bilan hayot o'rtasidagi aloqadorlikni, integratsiyani kuchaytirish ishiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, talabalarning mustaqil ish shakllari va ularning mazmun-mohiyati auditoriyada olgan bilimlarini mustahkamlashi bilan birga, ularni mustaqil hayotga va mustaqil fikr egasi bo'lishga tayyorlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirova R. Mustaqil ta'limni tashkil qilish metodlari. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor, Volume 2. March 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnomasi. 2022-yil 30-may.
3. Липатова Л.Н. Самостоятельная работа студентов: цель, задачи, принципы и формы // Мир науки и образование, 2015, №2.



Shahnoza RUSTAMOVA,
Senior Teacher SamSIFL;

Munisa MUKHAMATKULOVA,
Brooklyn Amity School

Educational Director for early childhood and childhood department

STUDENT-CENTERED LANGUAGE LEARNING: ENHANCING OUTCOMES WITH A SELF-ASSESSMENT FRAMEWORK

Annotation. Self-assessment has gained attention as a crucial tool in promoting student-centered learning, particularly in foreign language education. This article explores the role of self-assessment in enhancing language skills, focusing on its application in speaking and writing tasks. We discuss the benefits of self-assessment, such as fostering learner autonomy, encouraging reflection, and promoting motivation. Various strategies for implementing self-assessment in the classroom are presented, including rubric-based evaluations, peer reviews, self-assessment journals, and reflective essays. By integrating these techniques, educators can empower students to take control of their learning and develop critical lifelong skills.

Keywords: self-assessment, language learning, student-centered learning, modern approaches, active learning methods, skill development, language competence, reflection.

Annotatsiya. O'z-o'zini baholash talabalarga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishda muhim vosita sifatida e'tiborni tortdi, ayniqsa xorijiy til ta'limida. Ushbu maqolada til ko'nikmalarini oshirishda o'z-o'zini baholashning roli o'rganiladi, uning og'zaki va yozma nutqda qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Biz o'z-o'zini baholashning afzalliklarini muhokama qilamiz, masalan, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, fikrlashni va motivatsiyani rag'batlantirish. Sinfda o'z-o'zini baholashni amalga oshirishning turli strategiyalari, jumladan, rubrikalar asosidagi baholashlar, tengdoshlarning sharhlari, o'z-o'zini baholash jurnallari va aks ettiruvchi insholar taqdim etiladi. Ushbu usullarni birlashtirib, o'qituvchilar talabalarga o'z ta'limini nazorat qilish va hayotiy muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon berishi mumkin.

Kalit so'zlar: o'z-o'zini baholash, til o'rganish, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, zamonaviy yondashuvlar, faol yangi o'qitish usullari, malaka oshirish, til kompetensiyasi, aks ettirish.

Аннотация. Самооценка привлекает внимание как важнейший инструмент в продвижении обучения, ориентированного на студента, особенно в образовании на иностранном языке. В этой статье рассматривается роль самооценки в улучшении языковых навыков, уделяется особое внимание ее применению в устной и письменной речи. Обсуждаются преимущества самооценки, такие как поощрение самостоятельности учащихся, поощрение рефлексии и стимулирование мотивации. Представлены различные стратегии внедрения самооценки в классе, включая оценки на основе рубрик, рецензии коллег, журналы самооценки и рефлексивные эссе. Интегрируя эти методы, преподаватели могут дать возможность студентам контролировать свое обучение и развивать критические навыки на протяжении всей жизни.

Ключевые слова: самооценка, языковое обучение, ориентированное на студента обучение, современные подходы, активные методы обучения, развитие навыков, языковая компетенция, рефлексия.

In recent years, self-assessment has gained recognition as an effective classroom strategy, empowering students to take ownership of their learning process. This article examines the significance of self-assessment in foreign language education, with a particular focus on enhancing key skills like speaking and writing. By integrating self-assessment methods, educators can promote student autonomy, critical thinking, and self-regulation, encouraging learners to engage in more reflective and independent learning practices.

The Concept of Self-Assessment. Self-assessment enables students to reflect on and evaluate their learning progress and outcomes, offering valuable insights into their strengths and areas needing improvement. In language learning, this approach is especially beneficial as it fosters linguistic awareness and helps learners track their development over time [1].

The Importance of Self-Assessment. Encouraging Learner Independence: Self-assessment empowers

students to take charge of their learning by identifying their needs and setting personal objectives.

Enhancing Reflective Practices: Evaluating their own performance helps students assess the effectiveness of their strategies and make adjustments to improve their learning approaches.

Self-Assessment is Essential



Boosting Motivation. Recognizing the results of self-evaluation inspires students to take greater responsibility for their educational progress, fostering a sense of ownership and drive [2].

Approaches to Incorporating Self-Assessment in the Classroom. Rubric-Guided Self-Evaluation: Providing students with detailed rubrics that specify expectations for speaking and writing activities helps structure the self-assessment process. Before and after completing a task, students can assess their performance against criteria such as fluency, accuracy, and vocabulary usage. This practice encourages regular self-reflection and deepens their understanding of essential linguistic components [12].

Peer Review Sessions, which are beneficial in pairing students to review each other's work, following guided rubrics or criteria. After the peer review, students reflect on their partner's feedback and adjust their self-assessments accordingly. This method integrates collaborative learning with self-assessment and encourages critical evaluation [2].

Self-Assessment Journals, which encourage students to maintain a journal where they regularly assess their language learning progress. They can reflect on specific challenges encountered during classroom tasks and record strategies they used to overcome them. This long-term self-assessment helps students track their development over time [4].

1. Speaking Activities. Activity: Recorded Monologue or Discussion

Task: Students prepare and record a short monologue (2–3 minutes) or participate in a discussion on a given topic (e.g., “The advantages and disadvantages of online learning”).

Self-Assessment: Provide students with a rubric focusing on fluency, pronunciation, coherence, and vocabulary usage. After listening to their recording, students rate themselves and identify areas for improvement.

Activity: Peer Interviews

Task: In pairs, students conduct interviews on a specific topic (e.g., “Your dream job”).

Self-Assessment: After the interview, students complete a self-assessment checklist (e.g., Did I ask clear questions? Was my response structured and relevant?)

2. Writing Activities. Activity: Essay or Blog Post with Reflection

Task: Students write an essay or blog post on a topic (e.g., “The impact of technology on society”).

Self-Assessment: After writing, they use a rubric to evaluate organization, grammar, vocabulary, and task completion. Encourage them to note one strength and one area to improve.

Activity: Peer Editing with Self-Reflection

Task: Students swap written assignments and provide peer feedback based on a checklist.

Self-Assessment: Students review the peer feedback and compare it with their self-assessment, reflecting on any differences.

3. Listening Activities. Activity: Summarizing a Listening Task

Task: Play an IELTS listening practice task or podcast. Students write a summary or answer comprehension questions.

Self-Assessment: After checking their answers, students evaluate their ability to identify main ideas, details, and vocabulary. Use a self-assessment checklist (e.g., “Did I catch the key points?”).

4. Reading Activities. Activity: Paraphrasing Key Ideas

Task: Students read an article and paraphrase the main ideas.

Self-Assessment: Students assess the accuracy and clarity of their paraphrases using a provided rubric or checklist.

Activity: Annotated Readings

Task: Students highlight or annotate key phrases, unknown words, and ideas they find interesting in a reading passage.

Self-Assessment: Students review their annotations to evaluate their understanding and identify any areas needing clarification.

5. Vocabulary Activities. Activity: Personal Vocabulary Logs

Task: Students maintain a log of new vocabulary, including definitions, example sentences, and contexts.

Self-Assessment: At the end of each week, students review their log and rate their ability to use each word in context.

6. Integrated Skills Activities. Activity: Project Work (e.g., Brochure or Presentation)

Task: Students create a travel brochure or deliver a presentation on a topic like “Cultural Festivals Around the World”.

Self-Assessment: Students use a detailed rubric to evaluate their planning, content, language accuracy, and delivery.

Activity: Role-Playing with Reflection

Task: Students role-play real-world scenarios (e.g., ordering at a restaurant, job interviews).

Self-Assessment: After the role-play, they reflect on their performance, noting their strengths and areas for improvement in communication and vocabulary.

7. Journaling and Goal-Setting. Activity: Self-Assessment Journals

Task: At the end of each class, students write a short journal entry reflecting on what they learned, challenges they faced, and areas to improve.

Self-Assessment: Students review their entries weekly to track progress and set specific goals.

Video Reflection and Audio Recordings is one of the most commonly used among students who can record their speaking tasks and listen to or watch the recordings

to self-assess their performance. This strategy is especially effective for language learners, as it helps them identify specific areas for improvement such as pronunciation, grammar, and coherence [3].

Using authentic materials in the classroom, such as real-world videos from YouTube, offers several significant benefits in language learning. They expose students to natural language as it is used in real contexts, helping them develop listening and comprehension skills that are more reflective of real-life communication. Authentic materials also enhance cultural awareness, as they often contain references and behaviors that deepen students' understanding of the target language's culture. These materials tend to be more engaging and motivating, as they connect with students' interests and real-world experiences, fostering active participation. Moreover, they promote the integration of multiple language skills, such as listening, speaking, and critical thinking, encouraging students to evaluate the content critically.

Through authentic materials, students not only improve their language proficiency but also reflect on how the material relates to their personal experiences, making learning more meaningful and relevant. Using authentic materials in the classroom, such as real-world videos like the one I shared from YouTube, offers several significant benefits in language learning. Here is one that I used to do video reflection: <https://www.youtube.com/watch?v=kidwSFte8-E>.

Video and Audio Recording Activity. The task is designed for students to record themselves speaking on a given topic and then evaluate their own performance based on specific criteria.

Sample Speaking Task: Record a 3-minute video or audio presentation on the topic: "The Impact of Social Media on Communication". After recording, use the following self-assessment form to evaluate your performance.

Self-Assessment Form for Video/Audio Speaking Task			
1. Content and Organization:			
1.1. Did I introduce the topic clearly and provide a brief overview of my main points?	Yes	Somewhat	No
1.2. Were my ideas well-organized and easy to follow throughout the presentation?			
1.3. Did I use supporting examples or arguments to back up my main points?			
2. Fluency and Coherence:			
2.1. Was my speech fluent, with minimal hesitation or pauses?			
2.2. Did I use linking words (e.g., "Firstly", "In conclusion", "Additionally") to connect my ideas smoothly?			
3. Pronunciation and Intonation:			
3.1. Was my pronunciation clear, and could my audience understand me easily?			
3.2. Did I use natural intonation to emphasize important points?			
4. Grammar and Vocabulary:			
4.1. Did I use a variety of grammar structures correctly (e.g., tenses, conditionals, modals)?			
4.2. Did I use topic-related vocabulary accurately?			
4.3. Did I avoid common mistakes (e.g., subject-verb agreement, prepositions)?			
5. Confidence and Body Language (for video):			
5.1. Did I appear confident and engaged with my audience?			



5.2. Did I use appropriate gestures or facial expressions to convey my message (for video recordings)?			
Reflective Questions:			
What aspect of my presentation was I most satisfied with (e.g., fluency, vocabulary use, organization)?	Your response:		
What part of my performance needs improvement (e.g., pronunciation, grammar, content)?	Your response:		
If I could redo this task, what would I focus on improving?	Your response:		

Integrating self-assessment into foreign language education enhances students' linguistic abilities while cultivating essential skills like self-regulation, independence, and reflective thinking. By utilizing

methods such as rubric-based assessments, peer feedback, and self-assessment journals, teachers can foster a dynamic, learner-focused environment that encourages ongoing development and promotes lifelong learning.

References

1. Panadero E. Jesus Alonso-Tapia Self-assessment: Theoretical and Practical Connotations. When it Happens. How is it acquired, and what to do to develop it in our students? *Journal of Research in Educational Psychology*, 2013.
2. Panadero E., Gavin T. Brown, Jan-Willem Strijbos. *The Future of Student Self-Assessment: A Review of Known Unknowns and Potential Directions*, 2015.
3. Tailab M. Use of Self-Assessment of Video Recording to Raise Students' Awareness of Development of Their Oral Presentation Skills, 2019. SSRN Electronic Journal DOI: 10.2139/ssrn.349917.
4. Andrade H. Self-Assessment Through Rubrics. – *Educational leadership: journal of the Department of Supervision and Curriculum Development*, 2007, N.E.A 65(4).
5. Rustamova Sh. Crucial Specific Features of Self-Assessment and Self-Regulation in English Language Teaching Classes – *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2023.


Ozodjon URALOV,
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
 xorijiy tillar fakulteti xorijiy tillar kafedrası dotsenti*

TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati, ushbu kompetensiyalarning asosiy komponentlari va ta'lim muassasalarining roli tahlil qilinadi. Adabiyotlar sharhi metodologiyasidan foydalanib, madaniyatlararo ta'lim dasturlari, xalqaro almashinuv imkoniyatlari va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish ahamiyati ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari talabalarni global dunyoga tayyorlashda va ularning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo kompetensiya, madaniy xilma-xillik, globalizatsiya, ta'lim, xalqaro almashinuv, pedagogika.

Annotation. This article explores the necessity of developing intercultural competencies in students, analyzes the key components of these competencies, and discusses the role of educational institutions in this process. Using a literature review methodology, the study highlights the importance of intercultural education programs, international exchange opportunities, and the importance of developing intercultural competence. The findings suggest that educational institutions play a pivotal role in preparing students for a globalized world and developing their intercultural competence.

Keywords: intercultural competence, cultural diversity, globalization, education, international exchange, pedagogy.

Аннотация. В данной статье анализируются необходимость развития межкультурной компетенции у студентов, основные компоненты этой компетенции и роль образовательных учреждений в этом процессе. Используя методологию толкования литературы подчеркивается важность программ межкультурного образования, возможностей международного обмена и значимости развития межкультурной компетенции. Результаты исследования показывают, что образовательные учреждения играют ключевую роль в подготовке студентов к глобализированному миру и развитию их межкультурных компетенций.

Ключевые слова: межкультурная компетентность, культурное разнообразие, глобализация, образование, международный обмен, педагогика.

Zamonaviy dunyoda globalizatsiya, migratsiya va texnologiyalar rivojlanishi natijasida turli madaniyat vakillari o'rtasidagi aloqalar tobora kengaymoqda. Bu sharoitda talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarni egallashi ularning shaxsiy, akademik va professional hayotida muvaffaqiyatga erishish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi [6: 25]. Madaniyatlararo kompetensiya – turli madaniy guruh vakillari bilan samarali va hurmatli munosabatlar o'rnatish, madaniy farqlarni anglash va ularga moslashish qobiliyatidir [10: 20]. Ushbu maqolada talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati, usullari va ta'lim muassasalarining bu jarayondagi roli muhokama qilinadi.

Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. G.Hofstede milliy madaniyatlardagi farqlar va ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rgangan B.Bennett [1: 36] madaniyatlararo sezgirlik modelini taklif qilib, insonlarning turli madaniyatlarni qabul qilish bosqichlarini aniqlagan [6: 21]. E.Hall esa past va yuqori kontekstli madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tushuntirgan [5]. Tadqiqotda J.Deardorff [3] tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kompetensiya modeli asos sifatida qabul qilindi. Shuningdek, S.Moran [8], A.Fantini [4], Y.Y.Kim [7], Trompenaars F., Hampden-Turner [9: 44] va H.Byram

[2] tadqiqotlaridan ham talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishda muhim manbalar sifatida foydalanildi. Deardorff madaniyatlararo kompetensiyani quyidagicha ta'riflaydi: "Bu turli madaniy kontekstlarda samarali va to'g'ri muloqot qila olish qobiliyati" [3]. U "Piramida modeli"ni ishlab chiqib, madaniyatlararo kompetensiyani bilim, qobiliyat va munosabatlardan iborat jarayon sifatida ta'riflaydi [3: 72]. A.Fantini madaniyatlararo kompetensiyani madaniy moslashuv, boshqa madaniyatlarni qabul qilish va madaniy o'zaro ta'sir orqali rivojlantiriladigan qobiliyat deb hisoblaydi. U shaxsning moslashuvchanligi va ochiqligini asosiy qobiliyat sifatida ta'kidlaydi [2: 28].

Maqolada madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, shuningdek, turli mamlakatlarda amalga oshirilgan ta'lim dasturlari va tadqiqot natijalari asosida umumlashtirilgan yondashuvlar ko'rib chiqildi. Adabiyotlar tahlili orqali madaniyatlararo kompetensiyalarning asosiy komponentlari, ularni rivojlantirishning pedagogik usullari va ta'lim muassasalarining roli aniqlandi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo kompetensiya tushunchasi turlicha ta'lqin e'tib kelinmoqda. Ushbu tushunchani tadqiq qilishga bo'lgan qiziqish doirasida u ko'p qirrali tushunchaga aylanganini ko'rish mumkin. Shunday bo'lsa-

da, quydagilarni madaniyatlararo kompetensiyaning asosiy komponentlari sifatida etirof etilganini ko'rish mumkin:

- *Madaniy anglashuvchanlik*: boshqa madaniyatlarni tushunish va ularga nisbatan ochiq fikrlash.
- *Aloqa qobiliyati*: turli madaniyatlarning vakillari bilan samarali muloqot qilish.
- *Madaniy farqlarga moslashuvchanlik*: yangi madaniy sharoitlarga tez va samarali moslashish.
- *Empatiya*: boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish [2: 48, 7: 63, 8: 23, 5: 19].

Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi sabablarga ko'ra dolzarb hisoblanadi:

- *Shaxsiy rivojlanish*. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish insonning dunyoqarashini kengaytirish va turli madaniy an'analar, qadriyatlar va turmush tarzlarini tushunishga yordam beradi. Talaba turli madaniyatlar bilan tanishar ekan, o'z dunyoqarashini kengaytiradi va boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qilishni o'rganadi. Bu esa, o'z navbatida, madaniy tolerans va moslashuvchanlikni shakllantiradi [1: 5]. Shaxsiy rivojlanishning muhim jihatlaridan biri empatiya va madaniy sezgirlikdir [1: 6, 3: 9]. Turli madaniy guruhlar bilan muloqot qilish orqali talaba boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishni va ularga nisbatan hurmat bilan yondashishni o'rganadi. Bundan tashqari, turli xil madaniy muhitlarda o'zini tutish va moslashish ko'nikmalari rivojlanib boradi.

- *Akademik muvaffaqiyat*. Hozirgi kunda ko'plab ta'lim muassasalari xalqaro hamkorlik loyihalarida, akademik almashinuv dasturlarida va turli xil ilmiy konferensiyalarda faol ishtirok etmoqda. Ushbu jarayonlarda madaniyatlararo kompetensiya muhim rol o'ynaydi. Turli mamlakatlardan kelgan talabalar bilan birga ta'lim olish va ilmiy loyihalarda ishlash uchun madaniy tafovutlarni tushunish va ularga moslasha olish zarur. Xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etish imkoniyatlarini to'laqonli qo'llay olish uchun talabalar global muhitda muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Masalan, chet elda o'qish yoki xalqaro tadqiqot loyihalarida ishtirok etish jarayonida ular turli madaniy qadriyatlar va ta'lim yondashuvlari bilan to'qnashadilar [4: 82, 6: 37]. Madaniyatlararo kompetensiyaga ega bo'lgan talabalar bunday muhitga oson moslashib, akademik yutuqlarga erishishlari mumkin.

- *Kasbiy rivojlanish*. Bugungi kunda ish beruvchilar nafaqat mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarga, balki xalqaro ish muhitida samarali ishlash qobiliyatiga ham katta e'tibor qaratmoqdalar [11: 75]. Xalqaro tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar va ko'p madaniyatli

jamoalar bilan ishlash jarayonida madaniy tafovutlarni tushunish va ularga moslasha olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'p madaniyatli ish muhitida ishlash nafaqat kasbiy bilimlarni, balki madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham talab qiladi. Masalan, xalqaro kompaniyalarda ish olib borayotgan mutaxassislar mijozlar, hamkasblar yoki ishbitarmon sheriklar bilan samarali muloqot qilish uchun ularning madaniy qadriyatlarini tushunishlari kerak. Shu sababli, talabalik davrida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish kelajakda kasbiy muvaffaqiyatga erishish uchun muhim poydevor yaratadi.

- *Ijtimoiy muhitga moslashish*. Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish jamiyatda o'z o'rnini topish va turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini shakllantiradi. Hozirgi kunda ko'p millatli jamiyatlarda yashash va ishlash keng tarqalgan bo'lib, madaniy sezgirlik va bag'rikenglik kabi fazilatlar ijtimoiy moslashuv jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi [3: 84, 8: 42]. Tabiatida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirgan talabalar o'zlarini turli madaniyat vakillari orasida erkin his qiladilar, stereotiplarga asoslangan noto'g'ri tushunchalardan xoli bo'ladilar va turli ijtimoiy muhitlarga tez moslashadilar. Bu nafaqat akademik va kasbiy rivojlanish uchun, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullari quyidagilardan iborat:

- *Madaniyatlararo ta'lim dasturlari*: talabalarga turli madaniyatlarni o'rganish va ular bilan aloqada bo'lish imkoniyatini beruvchi dasturlar.

- *Xalqaro almashinuv dasturlari*: talabalarni chet el universitetlarida o'qish yoki amaliyot o'tashga jalb qilish.

- *Interfaol usullar*: madaniyatlararo mavzularga bag'ishlangan seminar, trening va loyihalar.

- *Madaniyatlararo muloqotni rag'batlantiruvchi o'yinlar va vazifalar* [1: 12, 5: 28, 6: 33].

Ta'lim muassasalari talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- *Madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'lim dasturlarining ajralmas qismi sifatida qo'llash*. Shuningdek, o'quv jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish. Bu nafaqat madaniyatlararo bilimlarni o'zlashtirishga, balki ularni real hayotda qo'llashga ham yordam beradi.

- *Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali talabalarga turli madaniyatlarni o'rganish imkoniyatini yaratish*. Bunday tashabbuslar talabalarni real hayotdagi madaniyatlararo muloqotga tayyorlashga yordam beradi. Turli millat vakillari bilan ishlash orqali ular o'z madaniy sezgirligini oshirish, yangi tajriba orttirish va turli dunyoqarashlarni tushunish imkoniga ega bo'ladilar.



– O'qituvchilarning madaniyatlararo kompetensiyalarni o'rgatish bo'yicha malakasini oshirish. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchilarning roli juda katta. Ularning o'zlari ham turli madaniyatlar bilan tanish bo'lishi va bu borada bilim va ko'nikmalarni egallashi lozim.

Madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli madaniyatlarni tushunish va ular bilan hamkorlik qilish qobiliyati global bozorda talabgir ko'nikmalardan biridir [2:92, 3:52, 10:16]. Biroq bu jarayon faqat ta'lim muassasalarining faol ishtiroki va zamonaviy pedagogik usullarni qo'llashi orqali samarali natija berishi mumkin. O'quv maskanlari madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va

o'qituvchilarni ushbu sohadagi malakasini oshirish orqali talabalarni global dunyoga tayyorlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Bu kompetensiya turli madaniyatlar vakillari bilan samarali muloqot qilish, global muhitga moslashish, shaxsiy hamda kasbiy jihatdan rivojlanishga xizmat qiladi.

Xulosa shuki, talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon yoshlarni global dunyoga tayyorlaydi, ularning madaniy anglashuvchanligini oshiradi va ularga turli madaniyat vakillari bilan samarali hamkorlik qilish imkoniyatini beradi. Bu borada ta'lim muassasalari ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish orqali talabalarni qo'llab-quvvatlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bennett M.J. Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity. In R.M.Paige (Ed.), Education for the Intercultural Experience, 1993.
2. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters, 1997.
3. Deardorff D.K. The Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization at Institutions of Higher Education in the United States. Journal of Studies in International Education, 2006.
4. Fantini, A.E. Assessing Intercultural Competence: Issues and Tools, 2009.
5. Hall E.T. Beyond Culture. Anchor Books, 1976.
6. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations. Sage Publications, 2001.
7. Kim Y.Y. Becoming Intercultural: An Integrative Theory of Communication and Cross-Cultural Adaptation, 2001.
8. Moran S. Teaching Culture: Perspectives in Practice. Heinle & Heinle, 2001.
9. Trompenaars F., Hampden T.C. Riding the Waves of Culture: Understanding Diversity in Global Business, 2012.
10. UNESCO. Intercultural Competences: Conceptual and Operational Framework, 2013.
11. Uralov O.Sh. Reforms in improving the quality of higher education in the Republic of Uzbekistan. Managementul educațional: realizări și perspective de dezvoltare, 2024.